

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
ANJUMANI  
MA'RUZALAR TO'PLAMI**

**2022**

**FAN VA TEXNIKA  
TARAQQIYOTIDA INTELLEKTUAL  
YOSHLARNING O'RNI**



**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA  
UNIVERSITETI**

21.4.2022

### Fan va texnika taraqqiyotida intellektual yoshlarning o'rnii. // Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalar to'plami. -Toshkent, ToshDTU, 2022 y.

Anjuman iqtidorli yoshlarning intellektual salohiyatini baholash, yosh tadqiqotchilar olib borayotgan ilmiy izlanishlari natijalarini tahlil qilish hamda texnik loyihalar va innovatsion ishlanmalar natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq qilish, yoshlarni ilmiy-tadqiqot ishlarida yanada faolroq ishtirok etishlari uchun rag'batlantirish, mustaqil ijodiy fikrlaydigan yetuk ilmiy xodim sifatida shakllanishlariga shart-sharoitlar yaratish, komil inson va barkamol avlodni tarbiyalash maqsadida tashkil qilingan.

Ushbu to'plamga anjumanda ishtirok etgan iqtidorli yoshlarning Fundamental fanlar; Elektronika, fizikaviy elektronika va avtomatika; Energiya tejamkor texnologiyalar va qayta tiklanuvchan energiya manbalari; Mexanika, mashinasozlik, muxandislik va kimyoviy texnologiyalar, sanoat ekologiyasi; Geologiya-qidiruv, konchilik ishi va metallurgiya; Yoqilg'i energetikasi, neft va gaz sohalarida olib borayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari bo'yicha ma'ruzalari kiritilgan.

Anjuman materiallari talabalar, magistrantlar, yosh olimlar hamda fan, ta'lim va ishlab chiqarish sohasidagi mutaxassislariga xam foydali manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

**Tahrir xay'ati:** prof. TurabdjanoV S.M., prof. Nematov Sh.Q., prof. Umurzakov R.A., dots. Atamuratov M.U., dots. Mirzaev Q.Q., dots. Boboev G'.G', PhD. Egamberdiev E.A.

**Taqrizchilar:** prof. Zaripov O.O., prof. Toshev J.B., prof. Maxmudov N.N., dots. Narziyev Sh.M., PhD. Xaydarov I.N.

**Mas'ul muharrirlar:** Abduraxmanov A.A., Maxkamov A.R.

### Роль интеллектуальной молодежи в развитии науки и техники. // Сборник докладов республиканской научно - практической конференции. - Ташкент, ТашГТУ, 2022 г.

Конференция организована в целях оценки интеллектуального потенциала одарённой молодежи, анализа результатов проводимых научных поисков молодых исследователей, внедрения в производство результатов технических проектов и инновационных разработок, поощрения молодёжи для более активного участия в научно-исследовательских работах, создания условий для формирования самостоятельных, творчески мыслящих, высококвалифицированных научных сотрудников, а также воспитания гармонично развитого поколения.

В сборник включены материалы докладов участников конференции на пленарных, секционных и конкурсных заседаниях одаренной молодежи, подготовленные по результатам научных исследований по направлениям: Фундаментальные науки; Электроника, физическая электроника и автоматизация; Энергоэффективные технологии и возобновляемые источники энергии; Механика, Машиностроение, Машиностроение и Химическая технология, Промышленная экология; Геология-разведка, добыча полезных ископаемых и металлургия; Энергетические, нефтяные и газовые месторождения.

Материалы конференции предназначены для студентов, магистрантов, молодых ученых, а также могут служить в качестве полезных источников для специалистов сферы науки, образования и производства.

**Редакционная коллегия:** проф. Турабджанов С.М., проф. Нематов Ш.Қ., проф. Умурзаков Р.А., доц. Атамуратов М.У., доц. Мирзаев Қ.Қ., доц. Бобоев F.F., PhD. Эгамбердиев Э.А.

**Рецензенты:** проф. Зарипов O.O., проф. Тошев Ж.Б., проф. Махмудов Н.Н., доц. Нарзиyев Ш.М., PhD. Хайдаров И.Н.

**Ответственный редактор:** Абдурахманов А.А., Махкамов А.Р.

© Toshkent davlat texnika universiteti, 2022

**F**UNDAMENTAL FANLAR**ДУНЁДА ТУРМОҚ УЧУН ДУНЁВИЙ ФАН ВА ИЛМ КЕРАК****АТАМУРАТОВ МУРАТ УТЕПБЕРГЕНОВИЧ***И.Каримов номидаги ТДТУ проректори  
Сиёсий фанлари бўйича фалсафа доктори  
(PhD), доцент atamuratov78@rambler.ru*

Фан-техника тараққиёти – бу жуда мураккаб ва кўп қиррали жараён. У ижтимоий ва шахсий ҳаётнинг ҳар томонлама ўз ичига олади. Шу сабабли ҳам фан-техника тараққиёти ҳаракатдаги жараён ҳисобланади. Техника тараққиётининг асосини фан, илмий билимлар ташкил этади. Фан – бу инсон фаолиятининг маълум соҳаси, ижтимоий фикрлаш ва билишнинг шаклларида биридир. У шундай соҳаки, воқеа-ҳодисалар ҳақидаги билимлар яратилади ва улар назарий нуқтаи назардан бир йўлга солинади.

Илм-фан ва технологияларнинг жадал ривожланиши, глобал дунёда рақобатнинг ортиши шароитида ҳар бир давлат ва жамиятнинг бу жараёнда рақобатбардошлиги ёшларнинг интеллектуал ривожини ҳамда уларнинг истеъдоди ва қобилиятларини тўлиқ амалга оширишга эътибор беришга боғлиқ бўлади. Шунинг учун бу масала ҳар доим давлатларнинг узоқ муддатли ривожланишини таъминлашга қаратилган барча стратегияларда акс эттирилган.

Мамлакатнинг келажаги аввало ёшларнинг юксак савиядаги билими, комил тарбияси ва интеллектуал тараққиёти билан бевосита боғлиқ. Зеро, юксак тараққиёт сари йўл – фақатгина янги замонавий билимлар, инновациялар ва инсон капиталига асосланган рақамли иқтисодиётни шакллантириш орқалигина ўтади. Бу эса, ёшларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, улар учун қулай шарт-шароит ва имкониятлар яратиш борасида кенг қўламли ишларни тақозо этади. Кейинги йилларда юртимизда ҳам бу йўналишда салмоқли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Бугун ҳар биримиз, ҳар куни, ҳар соатда ёш авлоднинг дарду ташвиши, қайғуси билан яшамоғимиз ва бу борада Давлат раҳбаридан ибрат олмоғимиз даркор. Зеро, Президентимиз ташаббуси билан юртимизда сўнгги 6 йилда 82 та янги олий таълим муассасаси ташкил этилиб, уларнинг сони 159 тага етказилди. Қабул квотаси 3 баробар оширилди. Битирувчи ёшларни олий таълим билан қамраб олиш даражаси 2016 йилги 9 фоиздан 28 фоизга етказилди. Яқин келгусида ушбу кўрсаткични 50-60 фоизга етказиш мўлжалланмоқда.

Бугун олий таълим сифатини яхшилаш, хорижий тажрибаларни юртимизда оммалаштириш, таълимга инновацияларни кенг тадбиқ этилмоқда. Шу маънода университетимизда Ўзбекистон-Япония ёшлар инновация маркази ташкил этилган. Бундан кўзланган мақсад - республика ёш олимлари ва талабалари жаҳон амалиёти ва халқаро андозаларга мувофиқ илмий тадқиқотлар олиб боришлари, замонавий, илғор усул ва технологияларини эгаллашлари учун қулай шарт-шароитлар яратиш. Шунингдек, иқтисодиётимизнинг базавий тармоқлари учун Япония илмий ва таълим муассасаларининг олимлари ҳамда етакчи мутахассислари иштирокида юқори малакали мутахассисларни сифатли тайёрлаш. Мазкур марказни очиш учун Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан Япония Ҳукумати ўртасида Меморандум имзоланган эди. Япония томонидан Цукуба, Нагоя, Кейо университетлари, Тойохаши Технология университети ва Токио технология институти марказнинг ҳамкорлари ҳисобланади.

Глобаллашув натижасида ёшлар ижтимоий ва иқтисодий ўзгаришларнинг энг олди жабҳаларида бўлиб, интеграциялашув жараёнида айнан улар миллат даражаси ва турмуш шароитининг асосий кўрсаткичи сифатида қаралиши керак. Зеро, давлат сиёсатининг бошқа кўплаб йўналишларидан фарқли Ёшлар сиёсати ёш авлодни замонавий жамиятга интеграциялашга қаратилган. Жамиятнинг энг фаол қатлами сифатида эътироф этилувчи ёш авлодга эртанги тараққиётни таъминловчи катта куч, давлатнинг стратегик ресурси, деб қаралмоқда. Натижада, юксак билимли, ғайрат-шижоатли, замонавий фикрлайдиган, мустақил, катъий позицияга эга ёшлар ҳал қилувчи кучга айланмоқда.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, ёшларни Ўзбекистоннинг энг катта ва салоҳиятли ишчи кучига айлантиришимиз керак. Бунинг учун ёшларнинг интеллектуал, жисмонан, маънан ривожига инвестициялар киритиб, уларни Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг янги босқичига олиб чиқадиган авлод қилиб тарбиялашимиз зарур .

UDK 51-74

## KOMPLEKS SONLARNING ELEKTROTEXNIKA MASALALARINI YECHISHGA TATBIQLARI

**Yusupov A.I.** (TDTU “Oliy matematika” kafedrası professori v.v.b)  
**Atabayev D.D.** (TDTU “Elektr energetika” fakulteti 69-21 guruh talabasi)

Ushbu ishda hozirgi globallasuv, fan, texnika va texnologiyalarni tezkor rivojlanishi davrida aniq va tezkor yechimlarga ega bo'lish uchun matematik apparatni qo'llashning ahamiyati hamda matematikaning kompleks sonlar nazariyasini elektrotexnika fani masalalarini yechishga tatbiqlariga doir aniq misollar ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** kompleks son, elektrotexnika, elektr toki, aktiv quvvat, reaktiv quvvat.

Fanda, texnikada shunday masalalar uchraydiki, ularni haqiqiy sonlar sohasidan chiqib boshqa sonlar maydonida bajarishga to'g'ri keladi. Haqiqiy sonlar maydoniga nisbatan yanada kengroq imkoniyatga ega bulgan kompleks sonlar maydoni mavjud. Ko'plab fanlarni rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan kompleks sonlar haqida qisqacha ma'lumotlarni keltirib utamiz.

$z = a + bi$  ko'rinishdagi ifoda kompleks son deb ataladi. Bu yerda  $a$  va  $b$  lar haqiqiy sonlar.  $a$  –  $z$  kompleks sonning haqiqiy qismi, ya'ni  $a = \operatorname{Re}z$ ,  $bi$  esa mavhum qismi, ya'ni  $bi = \operatorname{Im}z$ .  $z = a + bi$  - kompleks sonning algebraik shakli,  $z = r(\cos \varphi + i \sin \varphi)$  - kompleks sonning trigonometrik shaklidir. Bu yerda  $r = \sqrt{a^2 + b^2}$  - kompleks sonning moduli,  $\varphi = \operatorname{arctg} \frac{b}{a}$  kompleks sonning argumenti deyiladi.  $z = re^{i\varphi}$  - kompleks sonning ko'rsatkichli shakli.  $e^{i\varphi} = \cos \varphi + i \sin \varphi$  - Eylar formulasi deb ataladi. Kompleks sonlar ustida quyidagi asosiy amallar bajariladi: kompleks sonlarni qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish, darajaga ko'tarish va ildiz chiqarish. Kompleks sonlar maydonida kompleks o'zgaruvchining funksiyasi ham aniqlangan. Kompleks sonlar va kompleks o'zgaruvchining funksiyalari nazariyasi muhandislik, texnika va turli fan sohalarida keng tatbiqlarga ega. Biz kompleks sonlarni muhandislik va texnika yo'nalishlarida o'qitiladigan “Elektrotexnika” fani masalalarini yechishda tadbiqlari haqida fikrlar yuritamiz. Masalan, oddiy va murakkab zanjirlardagi o'zgaruvchan va o'zgaruvchan elektr toklarini hisoblash masalalarida kompleks sonlar nazariyasining qo'llanilishi hisoblashlarni ancha soddalashtiradi, qisqartiradi va yengillashtiradi. Elektrotexnika qonunlari, formulalari va hisoblash usullarini aniq bo'lishi va fizik jarayonlarga juda yaqin bo'lishi imkoniyatlarini beradi. Bu yerda vektorlarni, turli tenglamalarni kompleks sonlar orqali ifodalash lozim.

Endi kompleks sonlarni elektrotexnikaga doir masalalarni yechishga tatbiqlari bo'yicha misollar qaraymiz.

**1-masala:** Elektr toki  $I = 3 - 4i$  kompleks ko'rinishda berilgan. Tokning tenglamasi yozilsin.

**Yechish:** Tok tenglamasini yozish uchun tokning amplitudasi va boshlang'ich fazaviy burchagini aniqlash zarur. Tokning boshlang'ich fazaviy burchagi kompleks sonning argumentiga teng, ya'ni  $\varphi = \arctg \frac{b}{a}$ ; Tokning ta'sir etuvchi qiymati-effektiv qiymati kompleks sonning moduliga teng  $I_{ef} = |z| = r = \sqrt{a^2 + b^2}$ .

Demak,

$$I_{ef} = \sqrt{a^2 + b^2} = \sqrt{3^2 + (-4)^2} = \sqrt{25} = 5 \text{ Amper};$$

$$\varphi = \arctg \frac{b}{a} = \arctg \frac{(-4)}{3} = -53^\circ;$$

Tokning effektiv qiymati berilganda uning amplitudaviy qiymatini hisoblash uchun  $I_0 = \sqrt{2}I_{ef}$  formula mavjud.

$$I_0 = \sqrt{2}I_{ef} \approx 1,414 \cdot 5 = 7,07 \text{ Amper}$$

U holda,  $I = I_0 \sin(\omega t + \varphi)$  dan  $I = 7,07 \sin(\omega t - 53^\circ)$  Amper.

Hosil bo'lgan  $I = 7,07 \sin(\omega t - 53^\circ)$  tenglama  $I = 3 - 4i$  kompleks ko'rinishda berilgan tokning tenglamasidir.

Elektrotexnikada aktiv va reaktiv quvvatlarni hisoblashda ham kompleks sonlardan foydalanish qulay.  $\bar{S} = P + iQ$  kompleks sonning haqiqiy qismi  $P$  - aktiv quvvat, mavhum qismi  $Q$  - reaktiv quvvatdir.

**2-masala:** Kompleks kuchlanish  $U = 43,5 + i55,6$  va tok  $I = 10,4 + i9,35$  lar berilgan. Aktiv quvvat  $P$  va reaktiv quvvat  $Q$  aniqlansin.

**Yechish:** Dastlab kompleks ko'rinishda berilgan kuchlanish va tokni ko'rsatkichli shaklda tasvirlaymiz. Buning uchun kuchlanish va tokning modul va argumentini aniqlashimiz kerak. Kompleks sonning ko'rsatkichli shakli  $z = |z|e^{i\varphi}$  bo'lib, bunda,  $|z| = \sqrt{a^2 + b^2}$ ,  $\varphi = \arctg \frac{b}{a}$ .

$$|U| = \sqrt{(43,5)^2 + (55,6)^2} = \sqrt{1892,25 + 3091,36} = \sqrt{4983,61} \approx 70,6 \text{ Volt};$$

$$\psi_1 = \arctg \frac{55,6}{43,5} = \arctg(1,278) \approx 52^\circ;$$

$$\dot{U} = 70,6e^{i52^\circ};$$

$$|I| = \sqrt{10,4^2 + 9,35^2} = \sqrt{108,16 + 87,42} = \sqrt{195,58} \approx 14 \text{ Amper};$$

$$\psi_2 = \arctg \frac{9,35}{10,4} = \arctg(0,899) \approx 42^\circ;$$

$$\dot{I} = 14e^{i42^\circ} \text{ bunga qo'shma kompleks tokni olamiz } \bar{I} = 14e^{-i42^\circ}$$

$\bar{S} = \dot{U} \cdot \bar{I}$  formulaga asosan

$$\bar{S} = \dot{U} \cdot \bar{I} = 70,6e^{i52^\circ} \cdot 14e^{-i42^\circ} = 70,7 \cdot 14 \cdot e^{i(52^\circ - 42^\circ)} = 990e^{i10^\circ} =$$

$$= 990(\cos 10^\circ + i \sin 10^\circ) = 990(0,984 + i0,173) = 975 + i171;$$

$$\bar{S} = 975 + i171 \text{ Vatt};$$

Demak, aktiv quvvat  $P = 975 \text{ Vatt}$ , reaktiv quvvat  $Q = 171 \text{ Vatt}$ .

Demak, Kompleks sonlar nazariyasini elektrotexnika masalalariga qo'llash orqali hisoblashlarning oson va qisqa bo'lishiga erishiladi, aktiv va reaktiv quvvatlarni birgina ifoda bilan ifodalash mumkin bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. А.И.Маркушевич, Л.А.Маркушевич – Введение в теорию аналитических функций. Москва. 1977

2. E.Xolmurodov, A.I.Yusupov, T.A.Aliqulov – OLIY MATEMATIKA II qism. Toshkent. 2018
3. S.F.Amirov, M.S.Yoqubov, NG'.Jabborov – NAZARIY ELEKTROTEXNIKA. Toshkent. 2016
4. Мацкевич И.Ю. – Высшая математика приложения в физике и электронике. Минск. 2008

УДК 677.027.43/.016.45

**MOLECULAR MODEL OF CARBOXYMETHYL CHITOSAN APIS MELLIFERA AND CHARGE OF AN ATOM**

**G.A. Ikhtiyarova M.E. Xaydarova**

*Prof. of Tashkent state technical university after named Islam Karimov  
Student of Tashkent state technical university after named Islam Karimov*

In recent years, in our republic, special attention has been paid to the biological activity of chitosan derivatives and to finding ways to obtain biodegradable polymers using local raw materials to increase the competitiveness of finished products, especially water-soluble chitosan carboxymethyl esters. CMCP is obtained by carboxymethylation of hydroxyl and amine groups of chitosan. Various derivatives can be obtained depending on the reaction temperature used (Fig. 1). According to the experimental data on the carboxymethylation of chitosan, the following possible reaction mechanism has been proposed:





Fig.1. Synthesis mechanism of O-carboxymethylchitosan

At room temperature, O-substitution is preferred, while at higher temperatures, N-substitution is an effective route. Taking into account the reaction conditions and reagents, various derivatives can be produced, i.e. O-, N-, N, O- or N, N-dicarboxymethyl chitosan.

We conducted a study using chitosan synthesized from dead bees *Apis Mellifera* and based on it obtained O-carboxymethyl chitosan and studied the molecular structure (Fig. 2), as well as the charge of the atom using quantum chemical methods.



As can be seen from Fig. 2, on the basis of computer simulation, the spatial and electronic structure of O-carboxymethylchitosan was studied and their atomic charges were calculated by semi-empirical methods. In the table below the calculated data on the energy values of the highest occupied ELUMOs, the lowest free ELUMOs of molecular orbitals, the heats of formation, and the energy characteristics calculated by the AM1, CNDO, and MNDO methods for the O-CMChS Na structure are presented.

Table.

**Energies of higher occupied EUMOs, lower vacant ELUMOs of molecular orbitals, heats of formation and energy characteristics calculated by various methods for the O-CMChS Na structure.**

Structure	Method	E HOMO (eV)	E NSMO (eV)	Total energy (kcal/mol)	Electronic energy (kcal/mol)	The energy production (kcal/mol)
O-carboxymethyl chitosan	AM1	-1878.8	310657.4	-79862.71	-390520.11	18.23
	CNDO	-5923.6	333190.7	-123250.64	-456441.35	-4026.60
	MNDO	-1915.7	276969.2	-80130.69	-357090.92	-18.65

As can be seen from the table, the use of three semi-empirical methods gives approximately the same EUMO values for structures whose numerical data can be compared with the quantum chemical reactivity index.

In connection with the foregoing, for the first time, in-depth studies were carried out on the carboxymethylation of chitosan isolated on the basis of local raw materials (from dead bees). Obtaining *Apis Mellifera* O-carboxymethylchitosan is of undoubted interest as an import-substituting, water-soluble, non-toxic drug, since it is stable during storage and is widely used in medicine, agriculture, perfumery, industry, etc.

The work was carried out within the framework of the research plan for applied projects F3 2019081633 of the Tashkent State Technical University on the topic: "Synthesis of chitin and chitosan from the local dead bees *Apis Mellifera* and obtaining biodegradable polymer films on their basis" (2020-2022).

#### Literature

1. Г.Л. Иващенко и др. **Механическая активация как способ получения водорастворимых форм** хитина и хитозана в твердой фазе. Химия в интересах устойчивого развития 10 (2020). С. 69-76.

2. Ихтиярова Г.А., Курбанова Ф.Н. Получение экологически чистого биополимера карбоксиметилхитозана из пчеленного подмора *APIS MELLIFERA* // Международной научно-технической on-line конференции на тему "Проблемы и перспективы инновационной техники и технологий в сфере охраны окружающей среды" 18 сентябрь 2020 г.С.294-296.

3. Л.А. Нудьга, Е.А.Плиско, С.Н.Данилов, Получение хитозана и изучение его фракционного состава, Журнал общей химии, 1971, т.41, 2555-2558.
4. Л.А. Нудьга, Е.А.Плиско, С.Н.Данилов, О-Алкилирование хитозана, Журнал общей химии, 1973, т.43, 2752-2756.
5. Камская В.Е. Хитозан: структура, свойства и использование // Научное обозрение. Биологические науки. – 2016. – № 6.– С.36-42.
6. Anitha A., Maya S., Deepa N.et al. "Efficient water soluble O-carboxymethyl chitosan nanocarrier for the delivery of curcumin to cancer cells," Carbohydrate Polymers, vol. 83, no. 2, 2011. P.452–461.
7. M. J. Laudenslager, J. D. Schiffman, and C. L. Schauer Carboxymethyl chitosan as a matrix material for platinum, gold, and silver nanoparticles // Biomacromolecules, vol. 9, no. 10, pp. 2682–2685, 2008. International Journal of Carbohydrate Chemistry 11
8. N. T. An, D. T. Thien, N. T. Dong, and P. L. Dung, Watersoluble N-carboxymethylchitosan derivatives: preparation, characteristics and its application //Carbohydrate Polymers, vol. 75, no. 3, pp. 489–497, 2009.
9. Laudenslager M. J., Schiffman J. D., Schauer C. L. Carboxymethyl chitosan as a matrix material for platinum, gold, and silver nanoparticles // Biomacromolecules, vol. 9. no. 10, 2008. P.2682–2685.
10. An N.T., Thien D.T., Dong N.T., Dung P.L. Watersoluble N-carboxymethylchitosan derivatives: preparation, characteristics and its application //Carbohydrate Polymers, vol. 75, no. 3, 2009. P.489–497.
11. Sattarova D.M. Preparation of Carboxymethyl chitosan nanofibers by electrospinning method // International Journal of Materials and Science, USA. 2019, 9(2).
12. Милушева Р.Ю., Рашидова С.Ш. Хитин, хитозан Bomбух моғи и наносистемы на их основе. Ташкент: ФАН, 2016.
13. Ихтиярова Г.А.,Маматова Ш.Б., Курбанова Ф.Н. // Получение и характеристика хитина и хитозана из подмора пчелы Apismellifera. Журнал Универсум. 2018.

## **TEXNIKA FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDOGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

**Ibragimov Sherzod Shavkatovich** - Toshkent davlat texnika universiteti Quymakorlik texnologiyalari kafedrasii 2-bosqich magistranti

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni ro'yobga chiqarishning 2-bosqichi ta'lim mazmuniga yangi pedagogik texnologiyalarni keng qamrovda olib kirish vazifasini qo'ymoqda. Bu esa barcha pedagoglar zimmasiga mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi. Respublikamiz olimlari ilmiy asoslangan hamda O'zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar.

Pedagogikaga bag'ishlangan adabiyotlarda «Pedagogik texnologiya», «Yangi pedagogik texnologiya», «Ilg'or pedagogik texnologiya» kabi tushunchalar keng qo'llanmoqda va turlicha izohlanmoqda. Bular orasida YuNESKO tomonidan berilgan quyidagi ta'rif e'tiborga loyiqdir: «Pedagogik texnologiya bu – butun o'qitish va bilimlarni samaradorlashtirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o'zaro aloqasini hisobga olib yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir».

Texnologiya so'zi yunoncha bo'lib, texne – mahorat, san'at; logos –ta'limot ma'nolarini bildiradi. Bu so'z sanoatda yoki qishloq xo'jaligida tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish



jarayonida qo'llanadigan usul va metodlar yig'indisini bildiradi. Ta'lim jarayoniga nisbatan esa bu tushuncha o'qish va o'qitishning o'zaro uzviyligini, aloqadorlik bosqichlarini ajratish, ta'lim-tarbiya jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun bajariladigan ishlarni muvofiqlashtirish, ularning ketma-ketligi va bosqichma-bosqichligini ta'minlash, rejalashtirilgan barcha ishlar va amallarni talab darajasida bajarishni anglatadi.

Boshqacha aytganda, ta'lim texnologiyasi tushunchasi ta'lim berish san'ati, ta'lim berish mahorati ma'nolarini ifodalaydi. Yangi pedagogik texnologiya deyilganda ta'lim berish san'atini ishga solib, uni samarali tashkil etish, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish tushuniladi. Pedagogik texnologiya atamasi ta'lim jarayoniga yangicha, o'ziga xos belgi va xususiyatlarga ega bo'lgan tizimli yondashuvga asoslanadi. Bu talim jarayoniga innovasion yondashuv demakdir.

Yangi ta'limni tashkil etishda jahon pedagogikasi amaliyotida qo'llaniladigan ilg'or metod va usullar, texnika vositalari, o'qitishning shakllarini ta'lim jarayoniga har bir o'quvchi shaxsi, ruxiy o'ziga xosligi, intellektual imkoniyatlari, milliy va ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olgan holda olib kirish demakdir. Yangi pedagogik texnologiya o'quvchiga ta'lim jarayonining sub'ekti, ya'ni faol ishtirokchisi, o'qituvchiga esa shu jarayonning tashkilotchisi, boshqaruvchisi sifatida qarashni taqozo etadi. Darsda o'quvchi faol ishlovchi shaxs bo'lib, u butun mashg'ulot jarayonida egallagan bilimlarini xotirada tiklaydi, uni qisman yangi sharoitlarda qo'llaydi, aqliy faoliyat usullarini bajarib, ma'lumdan noma'lumga qarab boradi.

Yangi pedagogik texnologiyaning mohiyati o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatish, bilim olishga qiziqish va ehtiyoj uyg'otish, unga kashf etish lazzatini his ettirish demakdir. Pedagogik texnologiya ta'limda o'quvchilarni qiziqitirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishish, o'quvchilarning o'z fikrini bayon etishga imkoniyat yaratishdir. Pedagogik texnologiya jarayonida dars o'tishda eng asosiy talab o'quvchining hayotiy tajribasi, avval o'zlashtirgan bilimlari va qiziqishlari asosida bilim berishni ko'zda tutadi.

Texnika fanlarini o'qitishda quyidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashimiz mumkin:

**1. Modulli ta'lim texnologiyasi.** Bu o'quvchilarda darslik, ilmiy-ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi. Modulli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos jihati o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlashiga imkon beradigan modulli dastur tuzishdir.

**2. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi.** Uning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini va faqat birgalikda bajarish emas, balki o'quvchilarni hamkorlikda o'qishga o'rgatish, ular o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam va fikr almashinuvini vujudga keltirish.

**3. Muammoli ta'lim texnologiyasi.** Muammoli vaziyat yaratish, savollar qo'yish, masalalar va topshiriqlarni taklif qilish, muammoli vaziyatni echishga qaratilgan muhokamani uyushtirish va xulosalarning to'g'riligini tasdiqlashdir.

**4. Interfaol metod texnologiyasi.** O'quvchilarning ijodkorligiga tayanish, darsda erkin bahs-munozara sharoitini tug'dirish. Buning uchun sinf kichik guruhlarga bo'linadi va dars davomida shu guruhlar bilan ishlanadi.

**5. Didaktik o'yinlar texnologiyasi.** Dars jarayonida turli didaktik o'yinlarni qo'llash va ular orqali darsda jonlanish, faol harakat va qiziqish uyg'otish.

**6. Sinov darslari.** O'quvchilarning ma'lum bilim va ko'nikmalarini sinash maqsadida o'tkaziladigan darslar bo'lib, ular test topshiriqlari yoki nazorat varaqlari orqali o'tkaziladi.

Xulosa qilib aytganda, yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirish davr talabidir. Bu ish esa o'qituvchiga bog'liq. O'qituvchi ijodkor bo'lishi, yangi pedagogik texnologiyalarning xilma-xil shakllarini, usullarini yaratib borishi, ularni ta'lim jarayonida qo'llab borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA TUSHUNCHASI Buxoro davlat universiteti elektron kutubxonasi
2. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT H.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2009.

### BIRINCHI AJOYIB LIMITNING TADBIQI

**Esanov Erkin** - Toshkent davlat texnika universiteti katta o'qituvchisi  
**Ergashev Javohir** - Toshkent davlat texnika universiteti 1-kurs talabasi

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida oliy matematika fanini o'rganishda talabalarning oliy nazariy bilimlarini amaliyotga tadbiiq etish, texnikaga oid masalalarni yechish orqali ularning abstrakt va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, teoremlarni isbotlashni eng ma'qul yo'lini izlab topish va ularni joriy etishda birinchi ajoyib limitdan foydalanish muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqola geometriyaga oid ayrim teoremlarni isbotlari birinchi ajoyib limit tadbiiqidan foydalanib o'rganishga qaratiladi:

**Teorema.** Doiraning yuzi uni chegaralovchi aylana uzunligi bilan radiusi ko'paytmasini yarmiga teng ([1]).

**Isboti.** Bizga ma'lumki, bu teorema geometriya fanidan doiraga ichki va tashqi chizilgan muntazam n-burchak orqali isbotlanadi.

Biz quyida yuqorida keltirilgan tusuncha va oliy matematika faniga oid birinchi ajoyib limit orqali bu teoremlarni analitik isbotini keltiramiz.

Yetarlicha katta n larda yuqoridagi ko'pburchaklar perimetrlari aylana uzunliklaridan kam farq qiladi. Shuning uchun doiraning yuzi sifatida ko'pburchaklar yuzlarining limiti qabul qilinadi.

Birinchi ajoyib limit formulasi:  $\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{\sin x}{x} = 1$  ([3]). (Bu formulada burchak, radian o'lchovida hisoblanadi).

Agar  $n \rightarrow \infty$  da  $f(n) \rightarrow 0$  bo'lsa, xususiy holda

$$\lim_{f(x) \rightarrow 0} \frac{\sin f(x)}{f(x)} = 1 \quad (1)$$

tenglikka ega bo'lamiz. Radiusi R bo'lgan aylana ichiga n tomonli  $A_1A_2A_3 \dots A_n$  - ko'pburchak chizaylik (1-rasm). U holda birinchi rasmga ko'ra  $OA_1A_2$  uchburchakda

$$OA_1=OA_2=R \text{ bo'lib, } \alpha = \frac{360^\circ}{n}$$

bo'ladi. Bu uchburchakning yuzi


$$S = \frac{1}{2} OA_1 \cdot OA_2 \sin \alpha = \frac{1}{2} R^2 \sin \frac{360^\circ}{n} = \frac{1}{2} R^2 \sin \frac{2\pi}{n}$$

ga teng. Ko'pburchakning yuzini  $S_n$  deb belgilasak, u holda  $S_n = n \cdot S$  yoki

$$S_n = \frac{n}{2} R^2 \sin \frac{2\pi}{n}$$

bo'ladi.  $n \rightarrow \infty$  ko'pburchakning yuzi unga tashqi chizilgan doirani yuziga intiladi, yani (1) tenglikka binoan

$$S = \lim_{n \rightarrow \infty} S_n = \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{n}{2} R^2 \sin \frac{2\pi}{n} = \frac{R^2}{2} \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{\sin \frac{2\pi}{n}}{\frac{2\pi}{n}} \cdot 2\pi = \pi R^2$$




Endi radiusi  $R$  bo'lgan aylana ichiga  $n$  tomonli  $B_1B_2B_3\dots B_n$  – ko'pburchak chizaylik. Bunda

$$\alpha = \angle B_1OB_2 = \angle B_2OB_3 = \dots = \angle B_{n-1}OB_n = \angle B_nOB_1 = \frac{2\pi}{n} \text{ ga teng.}$$

Aylana radiusini  $R$ , ko'pburchakni  $B_1B_2$  tomonini  $a$  deb olsak  $B_1OB_2$  uchburchakning yuzi

$$S_{\nabla B_1OB_2} = \frac{1}{2} aR \tag{2}$$

bo'ladi (2-rasm).



$B_1C_1O$  to'g'ri burchakli uchburchakda

$$\operatorname{tg} \frac{\alpha}{2} = \frac{B_1C_1}{OC_1} = \frac{a}{2R}$$

bo'lib, bunda

$$a = 2R \operatorname{tg} \frac{\alpha}{2} \tag{3}$$

(3) va (2) dan

$$S_{\nabla B_1OB_2} = \frac{1}{2} 2R^2 \operatorname{tg} \frac{\alpha}{2} = R^2 \operatorname{tg} \frac{\alpha}{2} = R^2 \pi$$

deb

tenglikka ega bo'lamiz. Tashqi chizilgan ko'pburchak yuzini  $S_n$ , belgilasak, u holda

2-rasm

$$S_n = nR^2 \operatorname{tg} \frac{\pi}{n}$$

bo'ladi. Agar  $n \rightarrow \infty$  sa, bu ko'pburchakning yuzi unga ichki chizilgan doiraning yuziga intiladi, ya'ni

$$S = \lim_{n \rightarrow \infty} S_n = \lim_{n \rightarrow \infty} nR^2 \frac{\pi}{n} = R^2 \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{\operatorname{tg} \frac{\pi}{n}}{\frac{\pi}{n}} \cdot \pi = \pi R^2$$


$$S = \pi R^2$$

bo'ladi.

Quyida birinchi ajoyib limitdan foydalanib, silindir va konusning hajmlari formulalarini keltirib chiqarish mumkunligini ko'rsatamiz.

**Teorema.** Doiraviy konusning hajmi asosining yuzi bilan balandligini ko'paytmasining uchdan biriga teng. ([1])

**Isboti.** Teorema isbotlash uchun qonusning asosidagi doirani  $n$  ta teng bo'lakga bo'lamiz. U holda doiraning yuzini chegaralovchi aylana ham  $n$  ta teng bo'lakka bo'linadi (3-rasm).



3-

piramidaning hajmidan iborat.

$$V' = \frac{1}{3} S_{\nabla OA_1A_2} \cdot h = \frac{1}{3} \cdot \frac{OA_1 \cdot OA_2}{2} \sin \frac{2\pi}{n} \cdot h = \frac{R^2 \cdot h}{6} \sin \frac{2\pi}{n}$$


Bundan  $V_n = n \cdot V' = n \cdot \frac{R^2}{6} \sin \frac{2\pi}{n} \cdot h$  kelib chiqadi.

$$V_k = \lim_{n \rightarrow \infty} V_n = \lim_{n \rightarrow \infty} n \frac{R^2}{6} \sin \frac{2\pi}{n} \cdot h = \frac{R^2 h}{6} \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{\sin \frac{2\pi}{n}}{\frac{2\pi}{n}} \cdot 2\pi = \frac{R^2}{6} \cdot h \cdot 2\pi = \frac{1}{3} \pi R^2 h,$$

Ya'ni izlangan konusning hajmi  $V_k = \frac{1}{3}\pi R^2 h$  dan iborat.

**Teorema.** Doiraviy silindrning hajmi asosining yuzi bilan balandligi ko'paytmasiga teng ([1]).

**Isboti.** Teoremani isbotlash uchun silindrning asoslaridagi doiralarni  $n$  ta teng bo'laklarga bo'lamiz (4-rasm).



4-rasm

U holda doiralarning yuzalari chegaralovchi aylanalar ham  $n$  ta teng bo'laklarga bo'linadi. Bo'linish nuqtalarini o'zaro mos nuqtalar bilan tutashtirsak, silindr ichki chizilgan muntazam  $n$ -burchakli prizmagga ega bo'lamiz.

Bu prizmaning hajmi  $V_n = n \cdot V'$  bo'lib, bunda  $V'$ ,  $S_{OA_1A_2}$ - uchburchakli prizmaning hajmidan iborat.

$$V' = S_{\triangle OA_1A_2} \cdot h = \frac{OA_1 \cdot OA_2}{2} \sin \frac{2\pi}{n} \cdot h = \frac{R^2 \cdot h}{6} \sin \frac{2\pi}{n}.$$

Bundan

$$V_n = n \cdot V' = n \cdot \frac{R^2}{6} \sin \frac{2\pi}{n} \cdot h$$

kelib chiqadi. U holda,

$$\begin{aligned} V_k = \lim_{n \rightarrow \infty} V_n &= \lim_{n \rightarrow \infty} n \frac{R^2}{6} \sin \frac{2\pi}{n} \cdot h \\ &= \frac{R^2 h}{6} \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{\sin \frac{2\pi}{n}}{\frac{2\pi}{n}} \cdot 2\pi = \frac{R^2}{6} \cdot h \cdot 2\pi = \pi R^2 h, \end{aligned}$$

$$V_n = \pi R^2 h.$$

Bizga ma'lumki, biz birinchi ajoyib limit tushunchasidan foydalanib doiraning yuzi, konus va silindrlarning hajmlari formulalarini osongina keltirib chiqarishimiz mumkin.

#### Adabiyot

1. Dodajonov N.D., Jo'rayeva M.SH. Geometriya. I qism.-T.: O'qituvchi. 1996.
2. Toshpo'latov B.T. Oliy matematika – T.:Talqin. 2006.
3. Fixtengol's G.M. Matematik analiz asoslari. 1-tom. –T.: O'qituvchi. 1970.

### BEREZIN QUANTIZATION OF CARTAN-SIEGEL DOMAINS

Associate professor of the Department of Higher Mathematics **Rakhmonov U.S.**  
Faculty of Mechanical Engineering 93-21-group student **Kudratillaev S.**

Symmetric Bounded Domains of  $C^n$  are key spaces for all these approaches and are particular symmetric spaces of noncompact type. Elie Cartan [1] has proved that there are only 6 types:

- 1) 2 exceptional types (E6 et E7)
- 2) 4 Classical Symmetric bounded Domains (extension of Poincare Unit disk).

Z: Complex Rectangular Matrix,  $ZZ^+ < I$  ( $+$ : Transposed-conjugate).

Type I:  $\Omega_{p,q}^I$  complex matrices with p lines and q rows

Type II:  $\Omega_p^{II}$  complex symmetric matrices of order p

Type III:  $\Omega_p^{III}$  complex skew symmetric matrices of order p

Type IV:  $\Omega_n^{IV}$  complex matrices with n rows and l line:  $|ZZ^+| < 1, 1 + |ZZ^+|^2 - 2ZZ^+ > 0$ .

Kernel function for all these domains were established by Lookeng Hua [2]:

$$K(Z, W^*) = \frac{1}{\mu(\Omega)} \det(I - ZW^+)^{-v} \text{ for } \begin{cases} \text{Type I: } \Omega_{p,q}^I, v = p + q; \\ \text{Type II: } \Omega_p^{II}, v = p + 1; \\ \text{Type III: } \Omega_p^{III}, v = p - 1. \end{cases}$$

$K(Z, W^*) = \frac{1}{\mu(\Omega)} (1 + ZZ^t W^* W^+ - 2ZW^*)^{-v}$  for Type IV:  $\Omega_n^{IV}$ ,  $v=n$  where  $\mu(\Omega)$  is Euclidean volume of the domain.

For the case ( $p=q=n=1$ ), all these domains are reduced to the classical Poincare unit disk:

$$\Omega_{1,1}^I = \Omega_1^{II} = \Omega_1^{III} = \Omega_1^{IV} = \left\{ z \in \frac{C}{ZZ^*} < 1 \right\}, K(z, w^*) = \frac{1}{(1 - zw^*)^2}.$$

Groups of analytic automorphisms of these domains are locally isomorphic to the group of matrices which preserve following forms [3, 4]:

$$\begin{aligned} \text{Type I: } \Omega_{p,q}^I, AHA^* = H, H &= \begin{pmatrix} I_p & 0 \\ 0 & -I_p \end{pmatrix}, \det A = 1, \\ \text{Type II: } \Omega_p^{II}, AHA^* = H, AKA^t = K, H &= \begin{pmatrix} I_p & 0 \\ 0 & -I_p \end{pmatrix}, K = \begin{pmatrix} 0 & I_p \\ -I_p & 0 \end{pmatrix}, \\ \text{Type III: } \Omega_p^{III}, AHA^* = H, ALA^t = L, H &= \begin{pmatrix} I_p & 0 \\ 0 & -I_p \end{pmatrix}, L = \begin{pmatrix} 0 & I_p \\ I_p & 0 \end{pmatrix}, \\ \text{Type IV: } \Omega_n^{IV}, AHA^* = H, AHA^t = H, H &= \begin{pmatrix} -I_2 & 0 \\ 0 & I_n \end{pmatrix}. \end{aligned}$$

All classical domains are circular and considered in the general framework of Elie Cartan Theory, where the origin is a distinguished point for the potential:

$$\Phi(Z, Z^*) = \log \left[ \frac{K(Z, Z^*)}{K(0,0)} \right] = \log \det(I - ZZ^+)^{-v}.$$

F.A. Berezin has introduced on these Cartan-Siegel domains the concept of quantization based on construction of Hilbert spaces of analytical functions [5-7]:

$$\begin{aligned} \langle f, g \rangle &= c(h) \int f(Z) g(Z) \left[ \frac{K(Z, Z^*)}{K(0,0)} \right]^{-\frac{1}{h}} d\mu(Z, Z^*), \\ C(h)^{-1} &\int \left[ \frac{K(Z, Z^*)}{K(0,0)} \right]^{-\frac{1}{h}} d\mu(Z, Z^*). \end{aligned}$$

$$K(gZ, gZ^*) j(g, z) j(g, Z)^* = K(Z, Z^*) \text{ with } j(g, Z) = \frac{\partial gZ}{\partial Z}.$$

One example is given in dimension 1 for Poincare unit disk  $D = \left\{ z \in \frac{C}{|z|} < 1 \right\} = SU(1,1)/S^1$  with volume element  $1/2i \cdot (1 - |z|^2)^{-2} dz \wedge dz^*$ :  $g \in SU(1,1)$  with  $g = \begin{bmatrix} a & b \\ b^* & a^* \end{bmatrix}$  where  $|a|^2 - |b|^2 = 1$  with Kahler potential  $F(z) = -\log(1 - |z|^2)$

$$\begin{aligned} \Rightarrow F(gz) &= 2\text{Re} \log(b^*z + a^*) + F(z) \\ \Rightarrow ds^2 &= \frac{\partial^2 F(gz)}{\partial z \partial z^*} = \frac{\partial^2 F(z)}{\partial z \partial z^*} \end{aligned}$$

It results from the last equation that the Kahlerian metric invariant under the action  $g \in G$  (automorphisms of unit disk). The transform of the base point  $z=0$  of the disc by  $g \in G$  is given by  $g(0) = b(a^*)^{-1}$ . It defines a lifting that allows to associate to all paths in disk a lift in  $G$ . In the same way, we can define a geometric lift of potential  $K$  in  $G$ :  $g(0) = b(a^*)^{-1}$

$$\Rightarrow F(g(0)) = -\log(|b(a^*)^{-1}|^2)_{|a|^2 + |b|^2 = 1} = \log(1 + |b|^2),$$

$$g^{-1} = \begin{pmatrix} a^* & -b \\ -b^* & a \end{pmatrix} \Rightarrow F(g^{-1}) = F(g).$$

**REFERENCES**

1. Cartan E. Sur les domaines bornes homogenes de l'espace de  $n$  variables complexes // *Abh. Math. Sem. Univ. Hamburg*, **11** (1935), pp. 116-162.
2. Hua L.K. Harmonic analysis of functions of several complex variables, in classical domains, Moscow, IL, 1963.

3. Siegel C.L. Automorphic functions of several complex variables, Moscow, Inostrannaya Literatura, 1954.
4. Pjateckii-Sapiro I.I. Geometry of classical domains and the theory of automorphic functions, Moscow, Fizmatgiz, 1961.
5. Khudayberganov G., Khidirov B.B., Rakhmonov U.S. Automorphisms of matrix balls, *Acta NUUZ*, 2010. no. 3. pp. 205-210.
6. Khudayberganov G., Rakhmonov U.S., Matyakubov Z.Q. Integral formulas for some matrix domains, *Contemporary Mathematics, AMS*, Volume 662(2016), pp. 89-95.
7. Khudayberganov G., Rakhmonov U.S. The Bergman and Cauchy-Szeg'o kernels for matrix ball of the second type, *Journal of Siberian Federal University. Mathematics & Physics*, 7:3(2014).

### XOSMAS MATRITSALARNING LU YOYILMASI YORDAMIDA CHIZIQLI TENGLAMALAR SISTEMALARINI YECHISH USULLARI

**Primqulov S.** - Toshkent davlat texnika universiteti talabasi

**Shamsiyev D.** - Fizika matematika fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat texnika universiteti «Oliy matematika» kafedrasini mudiri.

Fizik eksperimentlarni o'tkazish jarayonlari, iqtisodiy masalalarni yechish kabi masalalar ko'pincha tenglamalar sistemalarini yechishga keltiriladi. Bu masalalarda chiziqli tenglamalar sistemasini ozod hadlar vektorining turli qiymatlarida yechish talab etiladi. Shuning uchun bu kabi sistemalarni yechishning umumlashirilgan usulini qo'llash lozim bo'ladi. Biz chiziqli tenglamalar sistemasini matritsani LU yoyilmaga ajratish yordamida yechish usulini qaraymiz. Bu Gauss usulining ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.

LU yoyilma, bu berilgan A matritsani ikkita matritsalar ko'paytmasi shaklida ifodalashdan iboratdir. Bu yerda L asosiy diagonali birlardan iborat pastki uchburchakli, U esa yuqori uchburchakli matritsalaridir:

$$L = \begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 \\ l_{2,1} & 1 & 0 \\ l_{3,1} & l_{3,2} & 1 \end{pmatrix} \text{ va } U = \begin{pmatrix} u_{1,1} & u_{1,2} & u_{1,3} \\ 0 & u_{2,2} & u_{2,3} \\ 0 & 0 & u_{3,3} \end{pmatrix}$$

Bizga

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{pmatrix}$$

matritsa berilgan bo'lsin. Yuqoridagi uchburchakli matritsalarining elementlarini hosil qilish formulalari quyidagichadir, birinchi qadamda U matritsaning birinchi satr, L matritsaning birinchi ustun elementlarini hosil qillamiz:

$$u_{1j} = a_{1j}, \quad j = 1, 2, 3$$

$$l_{j1} = \frac{a_{j1}}{u_{11}}, \quad j = 1, 2, 3$$

i = 2 uchun

$$u_{2j} = a_{2j} - l_{21}u_{1j}, \quad j = 1, 2, 3$$

$$l_{j2} = \frac{1}{u_{22}}(a_{j2} - l_{j1}u_{12}), \quad j = 2, 3$$

i = 3 uchun

$$u_{3j} = a_{3j} - l_{31}u_{1j} - l_{32}u_{2j}, \quad j = 1, 2, 3$$

$$l_{33} = \frac{a_{33}}{u_{33}}$$

Xosmas matritsalarining bu yoyilmasin uchun

$$\det A = \det L \cdot \det U = \det U$$

Tenglik o`rinli, chunki  $\det L = 1$ . Bu yerda matritsa xosmas bo`lishidan tashqari, uning asosiy diagonalidagi elementlar ham noldan farqli bo`lishi talab etiladi.

Biz quyida matritsaning  $LU$  yoyilmasini hosil qilishni algoritmini misolda qarab chiqamiz. Quyidagi matritsa berilgan bo`lsin.

$$A = \begin{pmatrix} 10 & -7 & 0 \\ -3 & 2 & 6 \\ 5 & -1 & 5 \end{pmatrix}$$

Birinchi qadamda  $L$  va  $U$  matritsalarini quyidagicha olamiz:

$$L = \begin{pmatrix} l_{1,1} & 0 & 0 \\ l_{2,1} & l_{2,2} & 0 \\ l_{3,1} & l_{3,2} & l_{3,3} \end{pmatrix} \quad U = A = \begin{pmatrix} 10 & -7 & 0 \\ -3 & 2 & 6 \\ 5 & -1 & 5 \end{pmatrix}$$

Yuqorida keltirilgan algoritim bo`yicha matritsalar elementlarini ketma-ket hisoblaymiz.  $U$  holda har bir qadamdan so`ng hosil bo`lgan natijalar quyidagicha:

$$1) \quad L = \begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 \\ -0.3 & l_{2,2} & 0 \\ 0.5 & l_{3,2} & l_{3,3} \end{pmatrix} \quad \text{va} \quad U = \begin{pmatrix} 10 & -7 & 0 \\ 0 & -0.1 & 6 \\ 0 & 2.5 & 5 \end{pmatrix}$$

$$2) \quad L = \begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 \\ -0.3 & 1 & 0 \\ 0.5 & -25 & l_{3,3} \end{pmatrix} \quad \text{va} \quad U = \begin{pmatrix} 10 & -7 & 0 \\ 0 & -0.1 & 6 \\ 0 & 0 & 155 \end{pmatrix}$$

$$3) \quad L = \begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 \\ -0.3 & 1 & 0 \\ 0.5 & -25 & 1 \end{pmatrix} \quad \text{va} \quad U = \begin{pmatrix} 10 & -7 & 0 \\ 0 & -0.1 & 6 \\ 0 & 0 & 155 \end{pmatrix}$$

Tekshirib ko`rish mumkunki,  $A = LU$ .

Chiziqli tenglamalar sistemasini  $Ax = b$  kabi matritsa ko`rinishida yozib olamiz. Bu chiziqli tenglamalar sistemasini uning asosiy matritsasi  $A$  ni yuqoridagi kabi ikkita uchburchakli matritsalar ko`paytmasi ko`rinishida yoyish yordamida yechish masalasini qaraymiz. Aytaylik matritsa  $LU$  ko`rinishida yoyilgan bo`lsin,

$$A = LU$$

Demak,

$$LUx = b$$

Bu yerda  $Ux = y$  deb belgilab olamiz.  $U$  holda, berilgan tenglama ikkita

$$Ux = y$$

va

$$Ly = b$$

tenglamalarga ajraladi.

Oxirgi tenglamada  $L$  uchburchakli matritsa va  $b$  ma`lum vektor bo`lganligi uchun, undan ketma-ket ravishda  $y$  vektorining elementlarini topamiz. Topilganlarini  $Ux = y$  ga qo`yib  $x$  noma`lumni topamiz.

#### Adabiyotlar

1. Вержбицкий В. М. Основы численных методов. М.: Высшая школа, 2009. 840 с.
2. Левитин А. В. Алгоритмы. Введение в разработку и анализ. М.: Вильямс, 2006. 576 с.

CARTAN-SIEGEL HOMOGENEOUS DOMAINS: SIEGEL DISK

Associate professor of the Department of Higher Mathematics **Rakhmonov U.S.**  
 Faculty of Mechanical Engineering 93-21-group student **Mirsobitov M.**

*Siegel Disk has been introduced by Carl Ludwig Siegel through Symplectic Group  $Sp_{2n}\mathbb{R}$  that is one possible generalization of the group  $SL_2\mathbb{R} = Sp_2\mathbb{R}$  (group of invertible matrices with determinant 1) to higher dimensions. This generalization goes further; since they act on a symmetric homogeneous space, the Siegel upper half plane, and this action has quite a few similarities with the action of  $SL_2\mathbb{R}$  on the Poincaré's hyperbolic plane [1].*

Let  $F$  be either the real or the complex field, the Symplectic Group is the group of all matrices  $M \in GL_{2n}F$  satisfying:

$$Sp(n, F) \equiv \{M \in GL(2n, F) / M^T J M = J\}, \quad J = \begin{pmatrix} 0 & I_n \\ -I_n & 0 \end{pmatrix} \in SL(2n, R) \quad (1)$$

$$\text{or } M = \begin{pmatrix} A & B \\ C & D \end{pmatrix} \in Sp(n, F) \Leftrightarrow A^T C \text{ and } B^T D \text{ symmetric} \quad (2)$$

and  $A^T D - C^T B = I_n$ .

The Siegel upper half plane is the set of all complex symmetric  $n \times n$  matrices with positive definite imaginary part (fig. 1):

$$SH_n = \{Z = X + iY \in \text{Sym}(n, C) / \text{Im}(Z) = Y > 0\} \quad (3)$$




Figure 1. Geometry of Siegel Upper Half-Plane

The action of the Symplectic Group on the Siegel upper half plane is transitive. The group  $PSp(n, R) \equiv Sp(n, R) / \{\pm I_{2n}\}$  is group of  $SH_n$  biholomorphisms via generalized Möbius transformations:

$$M = \begin{pmatrix} A & B \\ C & D \end{pmatrix} \Rightarrow M(Z) = (AZ + B)(CZ + D)^{-1} \quad (4)$$

$PSp(n, R)$  acts as a sub-group of isometries. Siegel has proved that Symplectic transformations are isometries for the Siegel metric in  $SH_n$ . It can be defined on  $SH_n$  using the distance element at the point  $Z = X + iY$ , as defined by:

$$ds^2_{Siegel} = \text{Tr}(Y^{-1}(dZ)Y^{-1}(dZ^+)) \text{ with } Z = X + iY \quad (5)$$

with associated volume form :  $\Omega = \text{Tr}(Y^{-1}dZ \wedge Y^{-1}dZ^+)$ .

C.L. Siegel has proved [2] that distance in Siegel Upper-Half Plane is given by:

$$d^2_{Siegel}(Z_1, Z_2) = \left( \sum_{k=1}^n \log^2 \left( \frac{1 + \sqrt{r_k}}{1 - \sqrt{r_k}} \right) \right) \text{ with } Z_1, Z_2 \in SH_n \quad (6)$$



and  $r_k$  eigenvalues of the cross-ratio:

$$R(Z_1, Z_2) = (Z_1 - Z_2)(Z_1 - Z_2^+)^{-1}(Z_1 - Z_2^+)(Z_1^+ - Z_2)^{-1}. \quad (7)$$

This is deduced from the 2<sup>nd</sup> derivative of  $Z \rightarrow R(Z_1, Z)$  in  $Z_1 = Z$  given by:

$$D^2R = 2dZ(Z - Z^+)^{-1}dZ^+(Z^+ - Z)^{-1} = (1/2)dZY^{-1}dZ^+Y^{-1} \quad (8)$$

$$\text{and } ds^2 = \text{Tr}(Y^{-1}dZY^{-1}dZ^+) = 2\text{Tr}(D^2R) \quad (9)$$

In parallel, in China in 1945, Hua Lookeng[3] has given the equations of geodesic in Siegel upper-half plane:

$$\frac{d^2Z}{ds^2} + i \frac{dZ}{ds} Y^{-1} \frac{dZ}{ds} = 0 \quad (10)$$

Using generalized Cayley transform  $W = (Z - iI_n)(Z + iI_n)^{-1}$  Siegel Upper-half Plane  $SH_n$  is transformed in unit Siegel disk  $SD_n = W/WW^+ < I_n$  where the metric in Siegel Disk is given by (see [4-7]):

$$ds^2 = \text{Tr}[(I_n - WW^+)^{-1}dW(I_n - W^+W)^{-1}dW^+] \quad (11)$$

### REFERENCES

1. Siegel C.L. Automorphic functions of several complex variables, Moscow, Inostrannaya Literatura, 1954.
2. Pjateckii-Sapiro I.I. Geometry of classical domains and the theory of automorphic functions, Moscow, Fizmatgiz, 1961.
3. Hua L.K. Harmonic analysis of functions of several complex variables, in classical domains, Moscow, IL, 1963.
4. Khudayberganov G., Khidirov B.B., Rakhmonov U.S. Automorphisms of matrix balls, Acta NUUZ, 2010. no. 3. pp. 205-210.
5. Khudayberganov G., Rakhmonov U.S., Matyakubov Z.Q. Integral formulas for some matrix domains, Contemporary Mathematics, AMS, Volume 662(2016), pp. 89-95.
6. Khudayberganov G., Rakhmonov U.S. The Bergman and Cauchy-Szeg'o kernels for matrix ball of the second type, Journal of Siberian Federal University. Mathematics & Physics, 7:3(2014).
7. Khudayberganov G., Abdullayev J. Sh. The boundary Morera theorem for domain  $\tau + (n - 1)$ , Ufimsk. Mat. Zh., 13:3 (2021), pp. 196-210.

UDK 51-74

### PI( $\pi$ ) SONI HAQIDA

**Yusupov A.I.** (TDTU "Oliy matematika" kafedrası professori v.v.b)  
**Raxmonqulov A.B.** (TDTU "Elektr energetika" fakulteti 69-21 guruh talabasi)

Ilm-fanga keng qo'llaniladigan ( $\pi$ ) soniga aylana uzunligini uning diametriga nisbatiga teng sonidir, deb tarif beriladi. Yani,  $\pi = \frac{l}{d}$ . l- aylana uzunligi d- aylana diametri. ( $\pi$ ) sonini cheksiz o'nli kasr shaklida  $\pi = 3,1415926,...$ , yoki qisqartirib  $\pi = 3,14$  ko'rinishda yozamiz. Bu sonni hozirgi  $\pi$  bilan belgilashni birinchi bo'lib inliz matematigi Ulyam Jons 1706-yil "Matematika yutuqlarining sharxi "(Sunopsis Palmoviorum Mathesios) nomli asarida kiritgan. Grekcha- $\pi\epsilon\rho\iota\phi\epsilon\rho\epsilon\iota\alpha$  (aylana pereferiya manolarini anglatuvchi) so'zining bosh harfidan olingan.  $\pi$  sonining tarixi Qadimgi Misrdan boshlanadi va eramizdan oldingi VII-V asrlarda  $\pi$  sonini  $(16/9)^2$  o'nli kasrda taxminan 3,16 ga teng deb qoldirilgan bo'lsa, ba'zi manbalarda  $\sqrt{10}$  ga teng deb qoldirilganligi o'nli kasrda 3,162,,ga teng deb qoldirilgan.

Qadimgi greklarda geometriyaga aylananing uzunligi uning diametriga proporsiyaligi doiraning yuzi aylanasini uzunligi va radiusiga kvadrati ko'paytmasiga tengligini Arximed tomonidan qat'iy isbotlandi. Arximed  $\pi$  sonini  $22/7$  bilan  $3 \cdot 1/7$  orasida deb qaytlagan. U bazan  $\pi$  sonini  $22/7$  kurinishda yozgan. Shu sababli bo'lsa kichik  $22/7$  Arximed soni deb ham yuritiladi. Ayrim manbalarda  $\pi$  sonini matematik hisoblash usulini Arximed ko'rsatganligi haqida malumotlarda bor. Hisoblashda Arximed aylana ichki va tashqi chizilgan muntazam ko'bburchaklardan foydalangan Masalan muntazam olti burchaklar uchun  $3 < \pi < 2\sqrt{3} \approx 3,4641$  hosil bo'lgan. Muntazam 6 burchakli uchun  $3 + 10/71 < \pi < 3 + 1/7$  ni hosil qilgan. Qadimgi xitoyliklarni asarlarida ham  $\pi$  sonini turli baxolashlari uchrashi olimlar tomonidan keltirilgan. V asrda xitoylik Izu Chunchji tomonidan  $\pi$  sonining qiymati  $355/113$  kabi aniqlangan Hindistonda esa Aryabxata hamda Bxaskaralar  $\pi$  ning qiymatini  $3,1416$  aniqlikda hisoblashgan. XV asrning birinchi yarmiga kelib  $\pi$  sonning aniq qiymatini hisoblashga Markaziy Osiyo olimlari yaxlid natijalarga erishdi. Samarqandda matematik va astranom Faysiddin Jamshid Ibn Maqsud al Koshiy eng yaxshi natijani olgan. U 1424 yilda yozgan "Aylana to'g'risida" asarida  $\pi$  sonining taqribiy qiymatini bergandan keyin 17 raqamgacha hisoblagach keying tadqiqotlar bilan taqqoslaganda 16 tasi tug'ri. Al Koshiyni bu aniqlikdagi hisobi astronomiya fanining revalutsiyasiga juda katta hissa qushgan.

Al Koshiydan ikki asr keyin Golichid oshmi Ludorf Van Cheylin (XVII asr boshida)  $\pi$  sonining 32 ta o'nli kasr xonasini topgan.  $\pi$  sonining qiymatini hisoblash borasida Ludorf Van Cheylin uzining 10 yil umrini ketkazadi va Arximed usuli bilan  $\pi$  sonining verguldan keyingi 20 tagacha raqamini hisoblagach aniqrog'i o'nli kasr xonasini topgan.

U o'zining qilgan ishlarini 1526-yilda nashr qilingan. "Aylana haqida" nomli asarida e'lon qiladi. Uning vafotidan keyin qo'lyozmalarida ya'ni qo'shimcha 15ta o'nli kasr xonasigacha hisoblagani aniqlangan. Shunday qilib Ludolf Pi sonini 32 ta o'nli kasr xonasini hisoblab topgan. Ludolfni vasiyatiga asosan uning qabr toshiga Pi sonining u tomonidan aniqlangan qiymati yozilgan. Uning sharafiga Pi soni ba'zan "Ludolf soni" deb ham yuritiladi. I. Nyuton pi sonini verguldan keying 16 ta o'nli kasrni xonasini topgan. 1706 yil ingliz matematigi Jon Mechen pi sonining taqribiy qiymatini hisoblashning  $\pi = \sqrt{2} + \sqrt{3}$  formulasini topgan va bu formula yordamida verguldan keying 100 ta aniq belgigacha xisoblangan. Hozirgi vaqtda EHM larni qo'llash natijasida  $\pi$  sonining qiymatini verguldan keyingi milliondan oshiq o'nli kasr xonasigacha hisoblashgan.

$\pi$  soni taqriban  $\pi = 3,141592653589793238462643, \dots$  ga teng. Ayrim mamlakatlarda (Amerika, Avstralya, Qrim yarim orollari) har yili 14-mart "Pi soni kuni" norasmiy bayram sifatida nishonlanadi. (oy/kun)(3,14).

Yevropada 22-iyul sanasi "Taqribiy son pi kuni" deb yuritiladi Bu  $\frac{22}{7}$  (7 oyni 22 kuni)  $\frac{22}{7} = 3\frac{1}{7}$  bu kasr taqriban  $\pi$  sonining qiymatiga teng. 14-mart kuni soat 1:59.26 da matematika qiziquvchi insonlar doira stol atrofida o'tirishib  $\pi$  harfi bilan bog'liq turli masalalarni, boshqotirmalarni ishlashadi. Pi soniga bag'ishlangan sherlar o'qishadi.  $\pi$  sonini raqamlarini eslab qolish maqsadida u haqida sherlar yozishgan. Hattoki  $\pi$  soniga Buyuk Britaniyada ramziy haykal ham urnatilgan.

Birinchi marta 1767-yil Iogan Laibert tomonidan  $\pi$  sonini irratsionalligi va 1882-yil Ferdinand Lindiman tomonidan transendentligi isbotlangan.  $\pi$  soni ishtirok etgan ko'plab formulalar mavjud.

$$\frac{\pi}{2} = \frac{\sqrt{2}}{2} * \frac{\sqrt{2+\sqrt{2}}}{2} * \frac{\sqrt{2+\sqrt{2+\sqrt{2}}}}{2} * \dots$$

Veyt formulasi  $\frac{2}{1} * \frac{2}{3} * \frac{4}{3} * \frac{4}{5} * \frac{6}{5} * \frac{6}{7} * \frac{8}{7} * \frac{8}{9} * \dots = \frac{\pi}{2}$  Vamis formulasi

$$\frac{1}{1} - \frac{1}{3} + \frac{1}{5} - \frac{1}{7} + \frac{1}{9} + \dots = \frac{\pi}{4}$$

Leybnis qatori  $\int_{-\infty}^{+\infty} \frac{\sin x}{x} dx = \pi$  Sinue integrali  $\int_{-\infty}^{+\infty} e^{-x^2} dx = \sqrt{\pi}$

Puasson yoki Tausse integrali  $\int_0^{+\infty} \frac{dx}{(x-1)\sqrt{x}} = \pi$ ;  $\int_{-\infty}^{+\infty} \frac{dx}{x^2+1} = \pi$

Shunday qilib  $\pi$  soni anchagina boy tarixga ega. Ilm-fanning rivojlanishida axamyati katta.  $\pi$  soning aylana, shar, sfera kabilar bilan bog'liq hisob kitob ishlarida  $\pi$  sonidan unumli foydalanadi. Matematika, fizika, mexanika, astronomiya, aviatsiya, kosmokavtika va boshqa turli muhandislik fanlarida davriy va tebranma harakatida sistemalarida egri chiziqlarni o'rganishdava shunga uxshash masalalarni yechishda  $\pi$  soni keng qo'llaniladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O.B. Mantirov, Y.K. Solnsiv, Y.I. Sorkin, N.G. Fedin - Matematika terminlari izohli lug'ati. Toshkent -1972 y
2. Yosh matematik qomusiy lug'ati. Toshkent-1992 y
3. Ликов А.В. Вездесущее число Пи. Москва-2007.
4. Шумихин С. Число Пи. История длиной в 4000 лет. Москва-2011.

### ODDIY DIFFERENSIAL TENGLAMALARNING TATBIQI

**Primqulov Samandar Alisher o'g'li** - *“Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish” kafedra talabasi Toshkent davlat texnika universiteti*

**Axralov Hamidullaxon Ziyatovich** - *“Oliy matematika” kafedra assistenti Toshkent davlat texnika universiteti.*

Bu maqolada matematikaning oddiy differensial tenglamalar bo'limiga keltirib yechiladigan masalalar qaralgan. Masalalarning yechimlari to'g'ridan to'g'ri topishni imkoni mavjud emas, uning uchun masalada berilgan ma'lumotlar bo'yicha, masalaning matematik tenglamasi ya'ni matematik modeli quriladi. Bu model tenglamasi oddiy differensial tenglamalarga keltiriladi. Tuzilgan differensial tenglama yechilib javobni hosil qilish mumkin bo'ladi.

**Masala:** (Moddaning parchalanishi) A modda P va Q moddalarga parchalanadi. Ularning har birining hosil bo'lish tezligi A moddaning parchalanmagan miqdoriga proporsional. P va Q moddalarning miqdorlari x va y ni t vatga bog'liq ravishda o'zgarish qonunlarini toping. Bunda parchalanish jarayoni boshlangandan 1 soatdan keyin x va y mos ravishda  $a/8$  va  $3a/8$  ga tengligi ma'lum, bu yerda a kattalik A moddaning dastlabki miqdori.

**Yechish:** Vaqtning t momentida A moddaning miqdori  $a - x - y$  ga teng, binobarin, ushbu birinchi tartibli differensial tenglamalar sistemasiga egamiz:

$$\begin{cases} \frac{dx}{dt} = k_1(a - x - y), \\ \frac{dy}{dt} = k_2(a - x - y). \end{cases}$$

Ikkinchi tenglamaning ikkala qismini birinchi tenglamaning mos qismlariga bo'lamiz; u holda  $\frac{dy}{dt} = \frac{k_2}{k_1}$ , bu yerdan  $y = k_2 x/k_1 + C$ . So'ngra  $t = 0$  da  $x = y = 0$  bo'lgani uchun  $C = 0$ , va shuning uchun  $y = k_2 x/k_1$ .

Birinchi tenglamada y ni  $k_2 x/k_1$  bilan almashtirib,

$$\frac{dx}{dt} + (k_1 + k_2) x = k_1 a$$

ni topamiz. Birinchi tartibli bu chiziqli tenglamaning umumiy yechimi

$$x = \frac{k_1 a}{k_1 + k_2} + C_1 e^{-(k_1 + k_2)t}$$

Boshlang'ich shartlardan ( $t=0$  da  $x=0$ ) foydalanib,  $C_1 = \frac{-k_1 a}{k_1 + k_2}$  ni topamiz, demak,

$$x = \frac{k_1 a}{k_1 + k_2} (1 - e^{-(k_1 + k_2)t}).$$

x ning bu ifodasini  $y = k_2 x/k_1$  tenglikka qo'yib, quyidagilarni hosil qilamiz:

$$y = \frac{k_2 a}{k_1 + k_2} (1 - e^{-(k_1 + k_2)t}).$$

Vaqtini  $t=1$  da  $x=a/8$  va  $y=3a/8$  ekanligini bilgan holda  $k_1$  va  $k_2$  koeffitsiyentlarni aniqlash uchun quyidagi tenglamalar sistemasini tuzamiz:

$$\begin{cases} \frac{k_1}{k_1 + k_2} (1 - e^{-(k_1 + k_2)}) = \frac{1}{8}, \\ \frac{k_2}{k_1 + k_2} (1 - e^{-(k_1 + k_2)}) = \frac{3}{8}. \end{cases}$$

Ikkala tenglamaning mos qismlarini qo'shib,  $1 - e^{-(k_1 + k_2)} = \frac{1}{2}$  ni topamiz, bu yerdan

$$e^{-(k_1 + k_2)} = 2^{-1} \text{ va } k_1 + k_2 = \ln 2$$

Ikkinchi tenglamaning ikkala qismini birinchi tenglamaning mos qismlariga bo'lib,  $k_2 = 3k_1$  ni topamiz. Shunday qilib,  $k_1 = \frac{1}{4} \ln 2$ ,  $k_2 = \frac{3}{4} \ln 2$  va izlanayotgan yechim quyidagi ko'rinishda yoziladi:

$$\begin{cases} x = \frac{a}{4} (1 - 2^{-t}) \\ y = \frac{3a}{4} (1 - 2^{-t}) \end{cases}$$

**Masala:**  $x^2 + y^2 + 2ay = 0$  ( $a$ -ixtiyoriy parametr) aylanalar oilasining ortogonal trayektoriyalarini toping.

**Yechish:** Aylanalar oilasining differensial tenglamasini tuzamiz, buning uchun berilgan tenglamalarning ikkala qismini  $x$  bo'yicha differensiallaymiz va  $a$  ni bunday yo'l bilan topilgan tenglamadan va berilgan tenglamada yo'qotamiz. Quyidagiga ega bo'lamiz:

$$2x + 2yy' + 2ay' = 0$$

Bu yerga aylanalar oilasidan topilgan  $2a = -(x^2 + y^2)/y$  ifodani qo'yamiz :

$$2x + 2yy' - \frac{(x^2 + y^2)y'}{y} = 0.$$

Yoki o'zgartirishlardan so'ng:

$$y' = \frac{2xy}{x^2 - y^2}$$

Ortogonal trayektoriyalar oilasining differensial tenglamasini bu tenglamada  $y'$  ni  $-\frac{1}{y'}$  ga almashtirish orqali hosil qilamiz:

$$\frac{1}{y'} = \frac{2xy}{y^2 - x^2}$$

Bir jinsli tenglama. Uning umumiy yechimini bir jinsli tenglamalarni integrallashning umumiy qoidasidan foydalanib topish mumkin, biroq osonroq yo'li ham bor. Tenglamani differensiallarda qayta yozib olamiz:

$$2xy dy - y^2 dx + x^2 dx = 0.$$

Bu tenglamaning ikkala tomonini  $x^2$  ga bo'lamiz:

$$\frac{2xy dy - y^2 dx}{x^2} + dx = 0$$

yoki

$$d\left(\frac{y^2}{x}\right) + dx = 0$$

Bu to'liq differensiallardagi tenglamadir. Uni integrallab,

$$\frac{y^2}{x} + x = 2C \quad \text{yoki} \quad x^2 + y^2 - 2Cx = 0$$

Javobni hosil qilamiz.

### Adabiyotlar

1. Salohiddinov M.S., Nasriddinov G'.N. Oddiy differensial tenglamalar. T: 1994.
2. Филиппов А.Ф., Сборник задач по дифференциальным уравнениям. Ижевск: НИЦ "Регулярная и хаотическая динамика". 2000.
3. Самойленко А.М., Кривошея С.А., Перестюк Н.А., Дифференциальные уравнение.

УДК 691.215.5.661.5

## DOLOMITDAN AJRATIB OLINGAN MAGNIY GIDROKSIDNING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI

Ixtiyarova G.A.<sup>1</sup>, Tursunov Sh.M.<sup>2</sup>, Soliyev S.O.<sup>3</sup>

Toshkent davlat texnika universiteti, "Umumiy kimyo" kafedrasini mudiri, "Umumiy kimyo" tayanch doktaranti, EAMM 138-21 guruh talabasi

O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarining real ehtiyojlaridan kelib chiqib yurtimizda tatbiq etilayotgan resurs tejash va import o'rnini bosadigan mahsulotlar yaratish asosida xususiyatlari oldindan belgilangan mutlaqo yangi va ishlab chiqarish talablariga javob beradigan yangi moddalar ustida tadqiqotlar olib bormoqdamiz.

Sulfat kislotada parchalangan dolomitdan olingan magniy gidroksidining fizik-kimyoviy xossalari ushbu tadqiqot natijalarida keltirilgan. Brusit dunyoda magniy oksid (magneziya), magniy metallini, kompleksli flyuslar olish uchun, hamda shisha, sement ishlab chiqarishda bog'lovchi modda sifatida va farmatsevtikada keng qo'llaniladi [1].

Magniy gidroksidning sinov namunasida CaO, MgO, Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub>, Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>, SO<sub>4</sub><sup>2-</sup>, H<sub>2</sub>O, CO<sub>2</sub>, Cl<sup>-</sup>, yonishdagi yo'qotish ko'rsatkichlari aniqlandi. Tahlil natijalari 1-jadvalda ko'rsatilgan. Taqqoslash uchun biz 1-jadvalda keltirilgan RF tomonidan ishlab chiqilgan Agromag brusitining tarkibi va Dexqonobod dolomit konidan olingan dolomitdan ajratib olingan magniy gidroksidning normasi ko'rsatilgan[2].

Bundan tashqari, magniy o'z ichiga olgan xomashyo namunalari tekshirilgan magniy gidroksidi ammiakli selitra ishlab chiqarish qoidalarining nitrat tuzlari va erkin HNO<sub>3</sub> konsentratsiyasiga mos keladigan nitrat kislotasi ekstraktini tayyorlash jarayonida sinovdan o'tkazildi. Shu bilan birga, sinov natijalarini solishtirish qulayligi uchun magniy o'z ichiga olgan xomashyoni yuklash, xomashyoning to'liq parchalanishi uchun zarur bo'lgan kichik ortiqcha miqdorni hisobga olgan holda bir xil miqdordagi nitrat kislotasi uchun hisoblab chiqilgan[3]. Tajribalarda nitrat kislotasi eritmasiga xomashyo dozalashning bir xil davomiyligi (15 minut) belgilangan.

Biz laboratoriya sharoitidatekshirish va taqqoslash uchun olingan dolomitdan ajratib olgan magniy gidroksid oq kukunga ega.

Magniy gidroksidining 46,0% nitrat kislotasi bilan parchalanishi (chang dozasi 15 minut), massaning maksimal harorati 70 °C ga yetdi, brusitning parchalanishi paytida (ishlab chiqaruvchi OOO Vyazma-Brusit, RF), shunga o'xshash sharoitlarda 74 °C. Kuchli ko'piklanish kuzatilmadi.

TDTU da laboratoriya sharoitida ajratib olingan magniy gidroksidining nitrat kislotasi ekstrakti tarkibi: MgO va CaO ning MgO bo'yicha yig'indisi 150,7 g/l; HNO<sub>3</sub> 44,8 g/l; Cl<sup>-</sup> yo'q; SO<sub>4</sub><sup>2-</sup> 0,41%; Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub> yig'indisi+ Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> 0,23% shu jumladan Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub> 0,017%.

Brusit ekstraktining tarkibi: MgO va CaO ning MgO bo'yicha yig'indisi 140,8 g/l; HNO<sub>3</sub> 31,6 g/l; Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub> 0,27 g/l. (ishlab chiqaruvchi OOO Vyazma-Brusit, Rossiya Federatsiyasi).

Maydalangan brusit MgO (100-130) g/dm<sup>3</sup>, HNO<sub>3</sub> (25-50) g/dm<sup>3</sup> asosidagi qo'shimcha; Fe (1,2-1,6) g/dm<sup>3</sup> (TU1517-001-59074732-05 bo'yicha maydalangan brusit).

TDTUda laboratoriya sharoitida olingan brusit ham magniy gidroksidi bilan o'tkazilgan tajribalarda yog'li va smolali moddalar topilmadi[4].

Namunada 16 soat cho'kkandan keyin erimaydigan cho'kmaning makkasi:

- magniy gidroksidi laboratoriya sharoitida olinganda - 3,2436 g.
- bursit bilan (ishlab chiqaruvchi MChJ "Vyazma-Brusit", RF) - 2,58 g

Hosil bo'lgan cho'kma nitrat kislota eritmalaridan ko'k lentali qog'oz filtri orqali filtrlash orqali ajratildi.

Olib borilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, Toshkent davlat texnika universiteti tomonidan taqdim etilgan magniy gidroksid namunasi tarkibida 1,39% sulfatlar bor. Sulfatlar ammiakli selitrani ishlab chiqarish uchun nomaqbuldir, chunki eritmaning bug'lanishi paytida bug'lashtirgichlarda hosil bo'lgan erimaydigan cho'kmalar evaporatorlarning yomon issiqlik almashinuvi tufayli yopilishiga olib kelishi mumkin[5].

"Navoiyazot" AJ ning 23-sexida magniyli qo'shimchali ammiakli selitra ishlab chiqarish uchun sulfatlar bo'lmagan maydalangan brusit ishlatiladi.

**Toshkent davlat texnika universiteti magniy gidroksid namunalarining sinov natijalari**

Sinov natijalari 1-jadvalda ko'rsatilgan. Taqqoslash uchun jadvalda TU 1517-001-59074732-05 bo'yicha maydalangan brusit me'yorlari va "Agromag" markasidagi brusit tahlili natijalari ham ko'rsatilgan.

Jadval 2

Ko'rsatkichlar nomi	TU 1517-001-59074732-05 ga muvofiq maydalangan brusit uchun normalar (1-5 aylanishlar bilan)	Tahlil natijalari	
		Magniy gidroksid TDTU	Brusite "Agromag"
Tashqi ko'rinish	-	Ko'rinadigan aralashmalarsiz oq kukun	Ko'rinadigan aralashmalarsiz oq kukun
Massa ulushini yo'qotish kalsinlanganda, % shu jumladan	-	29,56	30,40
-CO <sub>2</sub>	-	4,19	2,10
-gigroskopik H <sub>2</sub> O	0,5 dan ortiq emas	4,19	0,26
Massa ulushi,%			
-SiO <sub>2</sub>	-	0,66	4,83
- temir oksidi miqdori (Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub> ) va alyuminiy (Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub> ), % shu jumladan	-	1,18	1,29
Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	0,5 dan ortiq emas	0,13	0,21
-CaO	0,4danortiqemas	1,25	2,51
-MgO	60,0 dan ortiq	68,51	60,06
-SO <sub>4</sub> <sup>2-</sup>	-	1,39	yo'q
-Cl <sup>-</sup>	-	0,008	0,01
Zarracha kattaligi bo'lgan fraksiyalarning massa	Elakdagi qoldiq, maksimal		

ulushi: 0,2 mm dan katta, % 0,16 dan 0,2 mm gacha, % 0,063 dan 0,16 mm gacha, % 0,063 mm dan kam,%	fraksiyadagio`lcham, 18% dan ko'p emas	52,81 29,9 17,28 0,01	-
Nitrat kislota bilan parchalanish harorati, °C	-	70°C	70°C

Magnezিয়া xom ashyosining nitrat kislota ekstraktini tayyorlashga yaroqliligini o'rganish natijalari

Jadval 2

Xomashyo ko`rsatkichlari		Xomashyo yomi	
		Magniy gidroksid (TDTU), MgO 82%	Brusit ("Vyazma-Brusit" MChJ, RF) MgO 60,0%
Yuklash	Xomashyo, g	16,7	17,30
	HNO <sub>3</sub> , 46% ml	62,0	48,0
	GOV, ml	20,0	24,0
Dozalash davomiyligi, min		15	15
Parchalanishdagi maksimal harorat, °C		70	74,0
Eritmaning ko`piklanishidagi hajim oshish koeffisienti		1,0	1,3
Vaqt birligida eritmaning tiniqlashish	6 soat davomida	Tiniq	Tiniq
	16 soat davomida	Tiniq	Tiniq
	72 soat davomida	Tiniq	Tiniq
Eritma taxlili, g/l	MgO+CaO miqdori MgO hisobida	150,7	44,8
	Erkin HNO <sub>3</sub>	140,8	31,6

### Adabiyotlar

1. Черных Т.Н., Орлов А.А., Крамар Л.Я., Трофимов Б.Я., Перминов А.А. Снижение температуры получения магнезиального вяжущего из бруситов. Инженерно-строительный журнал, №3, 2013. с.29-35.
2. Ixtiyarova G.A., Tursunov Sh.M., Maxalliy xomashyodan magniy gidroksid olishning kompleks texnologiyasini ishlab chiqish, Kompozitsion materiallar ilmiy-texnikaviy va amaliy jurnali ISSN 2091-5527 № 3/2021, 151-bet
3. <https://brucite.plus/> ООО «Вязьма-Брусит», Руководитель: Носенко Владимир Игоревич

4. Ikhtiyarova G.A., Qodirov O.Sh. Tursunov Sh.M., Creation of the technology of the extraction of brucite and alabastry from local raw materials Scientific and technical journal of NamIET, Vol 6 – Issue (1) 2021. 163-166pp.
5. Орлов А.А. Магнезиальное вяжущее низкотемпературного обжига из бруситовых пород и материалы на его основе: Автореф. дисс. канд. технических наук. Челябинск: Изд-во ЮУрГУ, 2012. 23 с.

## ANIQ INTEGRALNING IQTISODIYOTGA TATBIQLARI

**Axtamov Alisherbek Ulug'bek o'g'li** - TDTU, *Muhandislik texnologiyalar fakulteti 143-21 guruh talabasi.*

**Fayziyev Aziz Qudratillayevich** - TDTU, *Oliy matematika kafedrası assistenti*

Ma'lumki, **mehnat unumdorligi** ish kuni mobaynida o'zgaruvchi miqdordir. Mehnat unumdorligi  $y = f(x)$  funksiya bilan ifodalansin, bunda  $x$  ish kunining boshlanishidan hisoblangan vaqt oralig'i,  $f(x)$  esa vaqtning shu onidagi (momentidagi) **mehnat unumdorligini** bildiradi. Mehnat unumdorligining ish kunining 4-soatidagi hajmini hisoblash masalasi qo'yilgan bo'lsin.

Vaqtning (3,4) oralig'ini eng kattasining uzunligi  $\Delta x$  bo'lgan oraliqlarga bo'lamiz va  $f(x)$  funksiya bu kichik oraliqlarda o'zgarmas desak ishlab chiqarish mehnat unumdorligini  $f(x) \Delta x$  ko'paytmaga teng bo'ladi. Shunday qilib, ish kunining 4-soatidagi ishlab chiqarish mehnat unumdorligi

$$\lim_{\Delta x \rightarrow 0} \sum_3^4 f(x) \Delta x = \int_3^4 f(x) dx$$

tenglik bilan ifodalanadi.

2) Mahsulotlar omboriga vaqt birligida keltiriladigan **mahsulot miqdorini**  $f(x)$  va mahsulot omborga kelib tushushidan boshlangan vaqt birligi  $x$  bo'lsa,  $x$  dan  $x + \Delta x$  vaqt oralig'idagi omborga  $f(x) \Delta x$  birlik mahsulot keladi. Demak, omborga mahsulot uzluksiz kelib tursa, undagi **tovarning zahirasi**

$$\int_0^x f(x) dx$$

bilan ifodalanadi.

3) Mashinasozlik sanoati biror xildagi stanoklarni ishlab chiqaradi va yillik ishlab chiqarishi o'zgarmas  $a$  ga teng bo'lib,  $x$  shu stanoklar ishlab chiqarilgan yillar bo'lsin.

Vaqtning  $t$  onidagi (momentidagi) stanoklar soni (ular ishdan chiqmagan deb olinadi).

$$\int_0^t a dx = [ax]_0^t = at$$

bo'ladi. Agar **mahsulot ishlab chiqarish hajmi** arifmetik progressiya bo'yicha o'suvchi ya'ni

$$f(x) = a_0 + a_1 x$$

bo'lsa, stanoklar soni



$$\int_0^t (a_0 + a_1 x) dx = \left[ a_0 x + \frac{a_1 x^2}{2} \right]_0^t = a_0 t + \frac{a_1 t^2}{2}$$

tashkil etadi.

4) Yillik daromad  $t$  vaqtning funksiyasi  $D = f(x)$  bo'lsin. Prosent (foiz) me'yori ulushi  $i$  bo'lib, foizlar ustiga qo'shib uzluksiz hisoblanadi. Daromadning  $t$  yilga hisoblangan diskontli hajmini toping. Diskont deb oxiri jami mablag' bilan boshlang'ich mablag' orasidagi farqqa aytiladi.

Bu miqdorni hisoblash uchun, vaqt oralig'i  $t$  ni  $n$  ta teng bo'laklarga ajratamiz. Vaqtning juda ham kichik  $\Delta t$  oralig'ida daromadni o'zgarish deb  $f(t) \Delta t$  ga teng qilib olish mumkin. Uzluksiz ustiga qo'shib hisoblangan foizlarda diskontli daromad quyidagicha hisoblanadi:

$$\frac{f(t)\Delta t}{e^{it}} = f(t)\Delta t e^{-it}.$$

$(0, t)$  vaqt oralig'idagi diskontli daromad miqdori

$$\lim_{\Delta t \rightarrow 0} \sum_0^t f(t) e^{-it} \Delta t = \int_0^t f(t) e^{-it} dt$$

bo'ladi.

Xususiyl holda, yillik daromad o'zgarish bo'lsa, ya'ni  $f(x) = a$  bo'lsa, diskontli daromad

$$d = \int_0^t a e^{-it} dt = a \int_0^t f e^{-it} dt = a \left[ -\frac{1}{i} e^{-it} \right]_0^t = \frac{a}{i} (1 - e^{-it})$$

bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Садуллаев А., Мансуров Х.Т., Худойбергенов Г., Ворисов А., Фуломов Р. «Математик анализ курсидан мисол ва масалалар тўплами». 1 ва 2-томлар, Т: «Ўзбекистон», 1993, 1996.
2. Г.Н.Берман. Сборник задач по курсу математического анализа. Москва, «Наука», 1985.
3. Данко. П.Е., Попов. А.Г., Кожевникова. Т.Я. Высшая математика в упражнениях и задачах. 1-2 часть., - М :1996.
4. Хуррамов Sh.R. Oliy Matematika misol va masalalar nazaorat topshiriqlari 1 va 2 tomlar, T: "Fan va texnologiya" 2015
5. Soatov Yu.U. Oliy matematika 3-jild. Toshkent "O'qituvchi", 1992.

#### BA'ZI BIR TENGLAMALAR SISTEMASINI YECHISH USULLARI

**Sobirov A.S** - TDTU Elektronika va avtomatika fakulteti 158-21 guruh talabasi  
**Xolbekov J.A** - TDTU "Oliy matematika" kafedrasida o'qituvchisi

Ushbu ishda tenglamalar sistemasiga doir misollar yechib ko'rsatilgan. Tenglamalar sistemasini yechishda o'rniga qo'yish usuli, belgilash kiritib yechishning o'rnini muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Tenglamalar sistemasini, Kramer usuli, Gauss usuli, matritsa usuli

Tenglamalar sistemasini matematikaning asosiy mavzularidan biri hisoblanadi. Maktab darsligida ham keltirilgan va o'quvchilar tenglamalar sistemasini yechish usullari yordamida berilgan misollarni yechishadi, fan olimpiadalarida beriladigan yozma ishlarda ham kamida bittasida murakkab tenglamalar sistemasini yechish talab etiladi. Tenglamalar sistemasini har xil usulda yechish o'quvchini bilim va ko'nikmasini oshiradi. Shu sababdan ba'zi bir tenglamalar sistemasini yechish usullarini keltirib o'tamiz. Keyinchalik oliy matematika kurslarida tenglamalar sistemasini Kramer usuli, Gauss usuli, matritsa usulida yechib ko'rsatiladi.

1. Quyidagi tenglamalar sistemasini qanoatlantiruvchi barcha  $x$  va  $y$  larning yig'indisini

$$\text{toping. } \begin{cases} \sqrt{2x + y + 1} - \sqrt{x + y} = 1 \\ 3x + 2y = 4 \end{cases}$$

$$\text{Tenglamalar sistemasini yechish uchun: } \begin{cases} \sqrt{2x + y + 1} - \sqrt{x + y} = 1 \\ x + y + 2x + y + 1 = 5 \end{cases}$$

$$\text{ko'rinishda yozib olamiz. } \begin{cases} \sqrt{2x + y + 1} = u \\ \sqrt{x + y} = v \end{cases} \quad \text{deb belgilash kiritib}$$

$$\begin{cases} u - v = 1 \\ u^2 + v^2 = 5 \end{cases} \quad \text{sistemasini hosil qilamiz.}$$

Ushbu sistemadagi birinchi tenglamasini kvadratga oshiramiz va ikkinchi tenglamadan birinchi tenglamani ayiramiz.

$$\begin{cases} u^2 - 2uv + v^2 = 1 \\ u^2 + v^2 = 5 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} 2uv = 4 \\ uv = 2 \end{cases} \quad \text{hosil qilamiz.}$$

$$\begin{cases} u - v = 1 \\ u \cdot v = 2 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} u = 2 \\ v = 1 \end{cases}$$

bu yerda  $u = -1; v = -2$  ni olmadik chunki manfiy sonlar. Bundan kelib chiqadiki,  $x + y = 1$  ekan.

$$2. \text{ Tenglamalar sistemasini yeching. } \begin{cases} 2x^2 - 3xy + 3y^2 = 80 \\ x^2 + xy - 2y^2 = -56 \end{cases}$$

Tenglamalar sistemasini yechish uchun birinchi tenglamani hadma -had ikkinchi tenglamaga bo'lamiz.

$$\frac{2y^2 - 3xy + 3y^2}{x^2 + xy - y^2} = \frac{80}{-56}$$

$$\frac{2 \cdot 3 \left(\frac{y}{x}\right) + 3 \left(\frac{y}{x}\right)^2}{1 + \frac{y}{x} - 2 \left(\frac{y}{x}\right)^2} = \frac{-10}{7} \Rightarrow \frac{y}{x} = t \text{ belgilash kiritib olamiz va quyidagi tenglamani}$$

hosil qilamiz.  $7(2 - 3t + 3t^2) = -10(1 + t - 2t^2)$  soddalashtirsak

$t^2 - 11t + 24 = 0$  kvadrat tenglama hosil bo'ladi. Kvadrat tenglamani yechimi

$t_1 = 3, t_2 = 8$  ekanligini topamiz.

1)  $\frac{y}{x} = 3$  bundan  $y = 3x$  ko'rinishda yozib, berilgan tenglamani birinчисiga qo'ysak

$$x_{1,2} = \pm 2$$

$$y_{1,2} = \pm 6$$

bo'ladi.

2)  $\frac{y}{x} = 8$  bundan  $y = 8x$  ko'rinishda yozib, berilgan tenglamaning birinчисiga qo'ysak

$$x_{3,4} = \pm \frac{2\sqrt{2}}{\sqrt{17}}$$

bo'ladi.

$$y_{3,4} = \pm \frac{16\sqrt{2}}{\sqrt{17}}$$

Umumiy javob:  $(2; 6); (-2; -6); \left(\frac{2\sqrt{2}}{\sqrt{17}}; \frac{16\sqrt{2}}{\sqrt{17}}\right); \left(\frac{-2\sqrt{2}}{\sqrt{17}}; \frac{-16\sqrt{2}}{\sqrt{17}}\right)$

3. Tenglamalar sistemasini yeching.

$$\begin{cases} 2x + y + z = 6 \\ 3x + 2y + z = 7 \\ (x-1)^3 + (y+2)^3 + (z-3)^3 = 7 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} 2x + y + z = 6 \\ (2x + y + z) + x + y = 7 \\ (x-1)^3 + (y+2)^3 + (z-3)^3 = 7 \end{cases}$$

$$\begin{cases} 2x + y + z = 6 \\ (2x + y + z) + x + y = 7 \\ (x-1)^3 + (y+2)^3 + (z-3)^3 = 7 \end{cases} \Rightarrow$$

$$\begin{cases} 2(1-y) + y + z = 6 \\ x = 1 - y \\ (1-y-1)^3 + (y+2)^3 + (z-3)^3 = 7 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} y = z - 4 \\ x = 1 - y \\ -y^3 + (y+2)^3 + (z-3)^3 = 7 \end{cases}$$

$$\begin{cases} y = z - 4 \\ x = 1 - y \\ (4 - z)^3 + (z - 4 + 2)^3 + (z - 3)^3 = 7 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} y = z - 4 \\ x = 1 - y \\ z^3 - 3z^2 - 9z + 22 = 0 \end{cases}$$

$z^3 - 3z^2 - 9z + 22 = 0$  tenglamani quyidagicha yozamiz:

$$z^3 - 8 - 3z^2 + 12 - 9z + 18 = 0 \Rightarrow (z^3 - 8) - 3(z^2 - 4) - 9(z - 2) = 0 \Rightarrow$$

$$\Rightarrow (z - 2)(z^2 + 2z + 4) - 3(z - 2)(z + 2) - 9(z - 2) = 0 \Rightarrow$$

$$(z - 2)(z^2 - z - 11) = 0$$

$$z_1 = 2, z_2 = \frac{1 - 3\sqrt{5}}{2}, z_3 = \frac{1 + 3\sqrt{5}}{2}$$

$$y_1 = -2, y_2 = -\frac{7 + 3\sqrt{5}}{2}, y_3 = -\frac{7 - 3\sqrt{5}}{2}$$

$$x_1 = 3, x_2 = \frac{9 + 3\sqrt{5}}{2}, x_3 = \frac{9 - 3\sqrt{5}}{2}$$

$$\text{Javob: } (3, -2, 2); \left( \frac{9 + 3\sqrt{5}}{2}, \frac{-7 + 3\sqrt{5}}{2}, \frac{1 - 3\sqrt{5}}{2} \right); \left( \frac{9 - 3\sqrt{5}}{2}, \frac{-7 - 3\sqrt{5}}{2}, \frac{1 + 3\sqrt{5}}{2} \right)$$

Mustaqil yechish uchun misollar:

$$1) \begin{cases} x^3 + x^3 y^3 + y^3 = 17 \\ x + xy + y = 5 \end{cases}$$

$$2) \begin{cases} x^2 + y^2 - x - y = 102 \\ xy + x + y = 69 \end{cases}$$

$$3) \begin{cases} x^4 + 6x^2 y^2 + y^4 = 136 \\ x^3 y + xy^3 = 30 \end{cases}$$

$$4) \begin{cases} x^3 + y^3 = 2 \\ 2xy^2 - x^2 y = 1 \end{cases}$$

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimov Sh.O va boshqalar . Algebra . Toshkent-2004.
2. FMI jurnali . 2012-2013.

### BYUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT VA MOLIYAVIY NAZORAT XIZMATI FAOLIYATINI TASHKIL QILISHNING AHAMIYATI VA ZARURLIGI

Abdullayev Asadulla Abdulla o'g'li – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistratura talabasi

Iqtisodiyotning jadal rivojlanishi uchun iqtisodiy bilimlarni, iqtisodiy jarayonlarni muntazam kuzatib yangiliklarni tahlil qilib borish, va albatta, ilmiy yangiliklarni hayotga tatbiq

etish zarur. Mamlakatimizda mavjud iqtisodiy tizimni rivojlangan mamlakatlar natijalari bilan solishtirish, ular tajribasini sinab ko'rish va amalda qo'llash natijasida bir qancha yutuqlarga erishish mumkin.

Iqtisodiyotning rivojlanishida iqtisodiy resurslarni to'g'ri rejalashtirish orqali taqsimlash, reja asosida samarali ishlatilishini nazorat qilish hamda risklarni maqbul darajada pasaytirish asosiy rol o'ynaydi. To'g'ri rejalashtirish va reja asosida samarali ishlatilishi bir nechta omillarga bog'liq bo'lib, ularni doimiy monitoring qilish ichki nazorat tizimini to'g'ri tashkil qilinishi bilan xarakterlanadi. Bu tizimning nazorati esa ichki audit xizmatiga yuklatiladi.

Ichki audit xizmati byudjet tashkilotlarida uning faoliyat turiga qarab o'z vazifalarini belgilaydi. Byudjet tashkilotlarini oliy ta'lim muassasalari misolida olib qaraydigan bo'lsak, oliy o'quv yurtlari o'z daromad va xarajatlar smetalari asosida ma'lum miqdorda byudjetdan moliyalashtiriladi. Bundan tashqari, to'lov-kontrakt mablag'lari, rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari, innovatsion ishlanmalar va grant loyihalari mablag'lari asosida ham ma'lum miqdorda moliyalashtiriladi.

Byudjet tashkiloti va byudjet mablag'lari oluvchilarning O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti hisobidan xarajatlari byudjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida va ularning xarajatlar smetalari ko'rsatilgan maqsadlarda amalga oshiriladi<sup>1</sup>.

Shuningdek, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari – qonunchilikda ko'rsatib o'tilgan byudjetdan tashqari manbalar hisobidan tashkilotlar ixtiyoriga kelib tushadigan mablag'lardir. Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha alohida daromadlar va xarajatlar smetalari tuziladi hamda moliya yili davomida amalga oshiriladi.

Demak, byudjet tashkilotlarini byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lari hisobini yuritilishi, rejalashtirilishi, sarflanishi yuzasidan joriy nazorat qilinishi lozimdir.

Byudjet tashkilotlarida byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar sarfini nazorat qilish, byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lardan oqilona foydalanishni ta'minlash bevosita hisob ishlarini tashkil qilish va yuritish orqali amalga oshiriladi. Byudjet tizimida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar byudjet tashkilotlarining daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi hisobi uslubiyotini yanada takomillashtirishni talab etadi<sup>2</sup>.

Byudjet tashkilotlarining hisob yuritish shakli, bir nechta xarajatlar smetalari asosida topshiriladigan hisobotlari, moliyalashtirish manbalari ko'p tarmoqliligidan kelib chiqib, byudjet tashkilotlarida ichki audit xizmatini tashkil etishning ahamiyati yanada yuqoriligini ko'rishimiz mumkin.

Byudjet tashkilotlarida ichki auditning ushbu masalalarini tartibga solish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017-yil 21-avgustda PQ-3231-sonli "Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorning asosiy maqsadi byudjet muassasalarida byudjet jarayonining shaffofligini yanada oshirish va uning ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, byudjetdan moliyalashtirish, hisob va hisobot mexanizmini takomillashtirish, vazirlik va idoralarning bo'ysunuvidagi muassasalarda byudjet intizomini mustahkamlash borasidagi mas'uliyatini oshirish, shuningdek zamonaviy axborot texnologiyalari va xalqaro e'tirof etilgan moliyaviy nazorat standartlarini joriy qilish yo'li bilan byudjet qonunchiligini buzish holatlarining oldini olish va profilaktikasiga qaratilgan davlat moliyaviy nazoratining rolini tubdan qayta ko'rib chiqishdir. Ushbu qarorga muvofiq markazlashtirilgan

<sup>1</sup> "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro'yxatga olingan).

<sup>2</sup> Shaymardanova D. "Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalari, ular bo'yicha smetalarni tuzish va ijrosi hisobining xususiyatlari" Xalqaro moliya va hisob ilmiy elektron jurnali. №2, 2017y.

moliya-buxgalteriya xizmatlari hamda ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari tashkil etildi. Tashkil etilgan xizmatlarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilab qo'yildi:

1. Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlarining – markazlashtirilgan tartibda quyi muassasalarining xarajatlar smetasi tuzilishi va ijro etilishini, ish haqining hisoblanishi va to'lanishini, tovar, ish va xizmatlarning xarid qilinishini, byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobining yuritilishini ta'minlash, shuningdek, ularning faoliyati profili bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan tushadigan monitoringni yuritish;

2. Respublika darajasidagi hamda hududiy ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlarining- byudjet mablag'larining noqonuniy sarflanishi va talon-taroj qilinishi holatlarini quyidagi yo'llar bilan profilaktikasini ta'minlash va ularning oldini olish;

bo'ysunuvidagi muassasalarda xarajatlar smetasini rejalashtirish va uning ijrosi, byudjet hisobining yuritilishi, tender(tanlov) savdolarining o'tkazilishi va shartnomalar tuzilishi ustidan monitoring qilish;

bo'ysunuvidagi muassasalar va markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari rahbarlariga byudjet hisobi va hisoboti tizimini takomillashtirish, asossiz debitor va kreditor qarzdorlikka yo'l qo'ymaslik, byudjet intizomini mustahkamlash, byudjet mablag'laridan foydalanish, shu jumladan tovarlar, ish va xizmatlarni xarid qilish samaradorligini oshirish, shuningdek, markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xodimlari tarkibini mustahkamlash masalalari bo'yicha tavsiyalar tayyorlash;

qonunni buzish holatlarini, ularni sodir etishga imkoniyat yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish<sup>3</sup>.

Mazkur vazifalar byudjet muassasalarini nazorat qilishning yangi usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Yangi usullarni ishlab chiqish natijasida esa, ichki audit xizmatining ma'lum qoidalari va vazifalari byudjet tashkilotlarida birmuncha murakkablashadi va qo'shimcha vazifalar oladi.

Murakkablashgan qo'shimcha vazifalar byudjet tashkilotlarida ichki auditning ahamiyatini belgilab beradi. Bundan tashqari qo'shimcha vazifalar ichki audit xizmati faoliyatini takomillashtirish uchun xizmat qiladi. Bu vazifalar, albatta, uning zaruriyatidan kelib chiqib belgilanadi. Buning uchun ichki audit xizmati faoliyatini chuqur o'rganish va bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlar bilan yaqindan tanishish lozim.

Rossiyalik iqtisodchi olim N.I.Danilenkoning fikriga ko'ra, ichki audit daromadlar olib keladigan faoliyatdan olingan mablag'lardan foydalangan holda byudjetni hisobga olish va smeta ijrosi to'g'risidagi hisobotning ishonchliligini tasdiqlash hisoblanadi<sup>4</sup>.

Byudjet tashkilotlarining ichki audit xizmati tashkilot faoliyatini nazorat qilish bilan bir qatorda, uning ish faoliyatini qonun doirasida olib borish, daromad va xarajatlar smetalarini tuzish, tashkilot faoliyatini samaradorligini oshirish maqsadida o'z maslahat va tavsiyalarini berish bilan ham shug'ullanadi. Shu sababdan, ichki auditga ta'rif berayotganimizda uning professional xizmatlarini ham alohida ta'kidlab o'tishni joiz topdik. Chunki, byudjet tashkilotlarining nazorati davlat moliyaviy nazorat xizmati tomonidan ham olib boriladi. Ichki audit xizmatining asosiy jihati esa, davlat moliyaviy nazoratidan farqli ravishda byudjet tashkiloti uchun maslahatchi sifatida namoyon bo'lishidir.

Ichki audit xizmati bu tashkilotning faoliyatidagi nomutanosibliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish va kerakli maslahat, tavsiyalarni berib borish va doimiy monitoring o'tkazish bilan xarakterlanadi. Davlat moliyaviy nazorati - byudjet to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlar buzilishlarini aniqlash maqsadida moliyaviy nazorat obyektlarining buxgalteriya, moliya,

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017yil 21-avgustdagi "Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3231- son Qarori.

<sup>4</sup> Danilenko N.I. Statya: **Metodika provedeniya vneshnego audita byudjetnogo uchrejdeniya "Buxgalterskiy uchet v byudjetnyx i nekommercheskix organizatsiyax"**, №4, 2010.

statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarni o‘rganish, tahlil qilish hamda taqqoslash bilan shug‘ullanadi. Ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati hamda davlat moliyaviy nazorati bir-biridan bir qancha farqli jihatlar bilan farqlanadi.

1-jadval

**Davlat moliyaviy nazorati hamda ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlarining farqli jihatlar<sup>5</sup>**

T/N	Farqlari	Davlat moliyaviy nazorati	Ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari
1	Nazorat davriga ko‘ra	yakunlangan davr uchun nazorat o‘tkazadi	joriy davr uchun monitoring olib boradi
2	Smeta xarajatlarini nazorati bo‘yicha	byudjet tashkilotlarining smeta xarajatlarini to‘g‘ri sarflanganligi yuzasidan nazorat olib boradi	byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasining to‘g‘ri tuzilishi yuzasidan tavsiyalar beradi, xarajatlar smetasini tuzishga yordam beradi va uning maqsadli ishlatilishi yuzasidan nazorat olib boradi
3	Ichki nazoratni o‘rganish yuzasidan	ichki nazorat tizimining to‘g‘ri ishlashini belgilangan yo‘riqnomalar asosida tekshiradi	ichki nazorat tizimining samarali tashkil qilinishiga yordam beradi, doimiy nazorat qiladi
4	Hisobot va xulosa yuzasidan	byudjet tashkilotlarida yuzaga kelgan xato-kamchiliklar va qonunbuzarliklarni aniqlab dalolatnoma tuzadi hamda tashkilot rahbarini ogohlantiradi	byudjet tashkilotlarida qonunlar doirasida ish olib borish bilan bir qatorda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni oldini olishda va kamchiliklarni bartaraf etish uchun o‘z maslahat va tavsiyalarini beradi, xatolarni tuzatishda yordam beradi
5	Risklar yuzasidan	byudjet tashkilotlari faoliyatidagi yuzaga kelgan risklarni aniqlaydi va baholaydi	risklarni baholab, ularni yuzaga kelish sabablarini o‘rganib, pasaytirish yo‘llarini aniqlaydi

Shu o‘rinda bir qancha vazifalari, nazorat davomiyligi, usullari bo‘yicha farqlarni sanab o‘tishimiz mumkin, bu farqlarni sanab o‘tishimizdan asosiy maqsad ichki audit xizmati byudjet tashkilotlari uchun naqadar zarur va ahamiyatli ekanligini ko‘rsatishdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.08.2021 yildagi PF-6300-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni (yangi tahriri) 2000 y. 26 may. //Soliqlar va bojxona xabarlar, 2000 yil 13 iyun.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi 2018 yil 19 sentyabr PQ-3946-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi ”Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko‘rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to‘g‘risida”gi PQ–615-sonli Qarori;
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 iyuldagi ”Auditorlik tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish yuzasidan qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–907-sonli Qarori.

<sup>5</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA QIMMATBAHO QOG'OZLAR BOZORINING  
MOLIYA BOZORIDAGI O'RNII

**Eshboyeva Shahnoza Rustam qizi** - *TDTU Bakalavriant 2-bosqich talabasi*  
**Yakubova Maxtuma Asatullaevna** - *TDTU, "Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti"*  
*KafedrasI katta o'qtuvchisi*


Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohatlar mamlakatda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat qurishga qaratilgan bo'lib, ularning asosiy asosiy mahsullaridan biri tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan milliy moliya va qimmatli qog'ozlar bozori hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishda mavjud muammolarni oldini olish, mamlakatimizda fond bozorini mamlakat iqtisodiyotining hayotiy elementi sifatida shakllantirish va uni samaradorligini oshirish asosida xalqaro printsiplariga mos keluvchi tizimini yaratishni taqozo qiladi. So'nggi yillarda O'zbekistonda fond bozorini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va qator boshqa me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Bu qonun hujjatlarining amaliyotga keng tatbiq etilishi respublika iqtisodiyotiga investitsiya oqimini oshirishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda 2021-yilda jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10,9 foizga o'sdi va AQSH dollari hisobida 14 milliard 600 million dollarni tashkil etdi. Bunda jami kapital qo'yilmalarning 21,2 foizdan ortig'i yoki 3 milliard dollardan ziyodini xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi. Ularning to'rtidan uch qismi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir.

Milliy moliya va qimmatli qog'ozlar bozorining iqtisodiyotdagi ahamiyatini oshirish muammosi iqtisodiyotni modernizatsiyalash, barqaror industrial va iqtisodiy o'sishni ta'minlash, inflyatsiyani pasaytirish maqsadida investitsiyalarni jalb qilish zarurligidan kelib chiqadi. Ushbu muammoni samarali yechimi moliya va qimmatli qog'ozlar bozorining raqobatbardoshligi va xavfsizligi, barqarorligi va likvidligi, investorlar uchun jalbdorligi va risksizligi darajasini ta'minlash bilan uzviy bog'liq. Bunda turli tashqi va fundamental ichki omillar ta'sirini hisobga olish muhim hisoblanadi.

Moliya bozori iqtisodiyotda markaziy o'rinni egallaydi chunki iqtisodiyotning barcha subyektlari moliya bozori bilan uzviy bog'liqdir. Moliya bozori» atamasi juda keng tushunchadir. U haqiqatan ham keng ma'noli va murakkab iqtisodiy toifani tashkil qiladi hamda muayyan moliya muassasalari orqali o'zaro ta'sirda bo'ladigan mulk egalari bilan sarmoya va qarz oluvchilari o'rtasidagi munosabatni tasvirlaydi. Hozirgi zamon iqtisodiyoti uchun moliya bozori o'ziga xos "asab markazi" hisoblanadi. Uning rivojlanish darajasiga qarab mamlakat iqtisodiyotining "ahvoli" haqida fikr yuritsa bo'ladi, chunki moliya bozoriga ta'sir ko'rsatib, jamiyatning iqtisodiy faolligini boshqarish mumkin. O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorining paydo bo'lishi davlat korxonalarini xususiyashtirish va aksiyadorlik korxonalariga aylantirish jarayonlari bilan bog'liq. Bu bozor boshqa barcha bozorlardan eng avvalo unda aylanadigan tovar - qimmatli qog'ozlar bilan ajralib turadi. O'z navbatida, ularning aylanishi bu bozor ishtirokchilarining alohida tarkibi, uning faoliyat ko'rsatish tartibi uni tartibga solish qoidalari va hokazolarni belgilaydi.

Qimmatli qog'ozlar bozori-bozor iqtisodiyotining eng muxim tarkibiy qismlaridan biri. U moliya bozorining bir qismi bo'lish bilan birga jamg'armalarni to'playdigan va keyinchalik iqtisodiyotga investitsiyalash hamda uning ishlab chiqarish quvvatini takomillashtirish uchun ularni moliya aktivlariga aylantiradigan kanal vazifasini o'taydi. Qimmatli qog'ozlar bozori bank krediti tizimini to'ldiradi va u bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Tijorat banklari, odatda, kreditni 1 yildan ko'p muddatga bermaydi, qimmatli qog'ozlar bozori esa ishlab chiqaruvchilarga ancha ko'p muddatdagi pul mablag'larini amalda istalgan muddatga hamda bank kreditiga nisbatan foydaliroq shartlarda jalb qilishga imkon beradi.





Qimmatli qog'ozlar bozorining moliya bozoridagi o'rnini shundan iboratki, qimmatli qog'ozlar bozori o'zining muddat hamda shakllariga qarab moliya bozorini tashkil etuvchi qisqa muddatli hamda uzoq muddatli xizmatlarni bajaradi. Qimmatli qog'ozlar bozori moliya bozorini tashkil etuvchilarga xizmat qiladi hamda u moliya bozori ichida harakatda bo'ladi, yana u moliya bozorining sekyuritizatsiyalashtirilgan «ikkilamchi analog» ko'rinishidir. U ham moliya bozori singari iqtisodiy holatni aks ettiradi. Qimmatli qog'ozlar bozorida faqatgina qimmatli qog'ozlar aylanadi. Shu xususiyati bilan boshqa bozorlardan farq qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, qimmatli qog'ozlar moliyaviy resurslar harakatining faqatgina bir qismining tashkil etadi. Qimmatli qog'ozlardan tashqari moliya bozorida banklar hamda banklararo ssudalar hamda kreditlar subsidiyalar subvensiya, korxonalararo kreditlar, sug'urta va boshqalar asosiy o'rniga egadir.

Xalqaro statusga ega bo'lgan har qanday zamonaviy moliya bozori hamda qimmatli qog'ozlar bozorining iqtisodiyotdagi roli quyidagilardan iborat:

1. "Barometr" rolini bajaradi, ya'ni u iqtisodiy ahvolni o'lchab beradi. Umuman olganda undagi ko'rsatkichlar orqali iqtisodiy ahvoli aniq ko'rish mumkin, masalan davlat tomonidan o'tkaziladigan iqtisodiy siyosatning samaradorligi hamda sifat ko'rsatkichi ko'rsatiladi, firma hamda tashkilotlar faoliyatning ijobiy yoki salbiy oqibatlari ravshan ko'rinadi.

2. "Kammutator" rolini o'ynaydi. Bu iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonining harakatini ko'rsatib beradi, ya'ni u avtomatik ravishda byudjet soliq hamda pul-kredit siyosati instrumentlari tomonidan boshqariladigan bozor konyukturasi ta'siri ostida harakatga keladi.

3. "Sintezator" vazifasini bajaradi. Bu degani iqtisodiyotda qimmatli qog'ozlarni, ularning yangi turlarini, texnologiyalarini hamda ular ustidan bajariladigan operatsiyalarni sxemalashtirish. QQB ning yangi ishtirokchilarning hamda mexanizmlarini funktsiyalashtirishdir.

4. "Sekyurizator" rolini bajaradi. Buning ma'nosi shuki moliya bozori kundan kunga qimmatli qog'ozlar bilan to'ldirilib borilmoqda hamda ko'pchilik vaqtda qimmatli qog'ozlar moliyaviy munosabatlar jarayonida pul o'rnini bosmoqda.

Umuman olganda moliya bozorida qimmatli qog'ozlarning ko'payish jarayonidir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, hozirgi kunda qimmatli qog'ozlar eng moslashuvchan moliyaviy instrumentlardan biri bo'lib hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar fuqaro huquqlarining obyekt sifatida tovar-pul munosabatlarini rivojlantirish va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga yaqindan yordam beradi. Hozirgi kunga kelib esa iqtisodiyotni raqamli iqtisodiyotga o'tkizish va qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish, qimmatli qog'ozlarning turlarini qayta tiklash va yangi turlarini yaratishni talab qiladi. Jahon iqtisodiyotining muhim ajralmas qismi hisoblangan qimmatli qog'ozlar bozorini chuqur

o'rganish, ularni tashkil qilish va bu bozorlarda kapital jalb qilishni samarali yo'lga qo'yish yakunda mamlakat iqtisodiyotining jadal sur'atlarda o'sishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Qimmatli qog'ozlar turlarining rivojlanish tarixi" Usmonova X, Toshkent – 2006
2. "Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar" Shoxa'zamiy Sh.Sh Toshkent – 2012
3. "Qimmatli qog'ozlar bozori" Butikov.I

Axborot resurs manbalari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.google.uz
3. www.lex.uz

УДК 37.022.519

### СФЕРАНИНГ ХОССАСИДАН ФОЙДАЛАНИШ АЙЛАНИШ СИРТЛАРИНИНГ КЕСИШИШ ЧИЗИҚЛАРИНИ АНИҚЛАШ

МашФак талабаси **С.Х.Бахтиёрова**, ТошДТУ.  
илмий раҳбар доцент **А.Т.Азимов**, ТошДТУ.

*Мақолада айланиш сиртларни кесишиш чизигини аниқлашда сфера хоссасининг моҳияти келтирилган. Цилиндр ва конус сиртларига ўқдош булган сфера сиртининг кесишиш чизигини аниқлаш кўрсатилган.*

Техника таълим йўналиши бакалаврларини тайёрлашда умуммуҳандислик фанларидан бири бўлган «Чизма геометрия ва муҳандислик графикаси» ўқув фанининг ахамияти беқиёс. Техника тараққиёти ишлаб чиқаришда янги машина механизмларни ва самараси юқори бўлган технологияларни яратишни тақозо этади.

Ўз навбатида машина–механизмлар таркибига кирувчи деталлар геометрик жисмларнинг йиғиндисидан иборатдир. Геометрик жисмлар ўзаро кесишиб ўтиш чизикларини хосил қилади. Ўтиш чизикларни геометрик сиртларда кесишиш чизиклари дейилади.

Умумий вазиятдаги икки сиртнинг кесишиши фазовий чизикни хосил қилади.

Сиртларнинг кесишиш чизигини аниқлаш учун унда ётувчи бир нечта нуқталарни топиш керак бўлади. Бунинг учун воситачилардан фойдаланилади.

Воситачилар икки хил бўлади:

1. Ёрдамчи проекцияловчи текисликлар.
2. Ёрдамчи сфера (шарлар).

Бу воситачилардан қайси бирини қўллаш берилган сиртнинг турларига ва уларнинг ўзаро вазиятига боғлиқ.

Сиртларни ўзаро кесилишини аниқлашда асосан ёрдамчи проекцияловчи текисликлардан ва ёрдамчи сфералардан фойдаланилади. Ёрдамчи сфералар усули айланиш сиртлари умумий симметрия текислигига эга бўлганда, кесишувчи сиртларнинг ўқлари ўзаро кесишадиган ва бир проекциялар текислигига параллел жойлашган холлардагина қўлланилади. Фойдаланиладиган сфералар асосан концентрик ёки эксцентрик холларда бўлиши мумкин.

Бу усул айланиш сиртлари умумий симметрия текислигига эга бўлганда, кесишувчи сиртларнинг ўқлари ўзаро кесишадиган ва бир проекциялар текислигига параллел жойлашган холлардагина қўлланилади.

Сфера усули икки хил булади:


1. **Концентрик**, яъни ёрдамчи шарлар бир марказдан ўтказилади.

2. **Эксцентрик**, яъни ёрдамчи шарлар маркази бир тўғри чизикда ётувчи бир нечта нуқталардан иборатдир.


Концентрик сфералар усули. Бунда ёрдамчи сфералар ҳамма вақт бир марказдан ўтказилади. Сфера маркази айланиш сиртларининг ўқлар кесишган жойда ётади. Сиртлар битта симметрия текислигига эга бўлиши лозим. Айланиш сиртларининг ечиш мисолида таянч нуқталар сиртларнинг қиёфалари кесишган жойда бўлади. Кесишув чизиғининг энг чекка ёки қуйи нуқтаси катта диаметрли айланиш сиртига уринма қилиб ўтказилган сфера ёрдамида топилади. Оралиқ нуқталар минимал сферадан каттароқ қилиб ўтказилади ва катта сфералар таянч нуқталардан четга чиқиши мумкин эмас.

Концентрик усулнинг мохияти шундан иборатки, ёрдамчи сфера ҳар иккала айланиш сиртларининг ўқлари кесишган нуқтадан ўтказилади.

Сиртларнинг ўзаро кесишишининг хусусий холи ёрдамчи сфераларни қўллашга асос бўла олади. Ўқдош, яъни умумий ўқга эга бўлган айланиш сиртлари ўзаро кесишганда уларнинг кесишиш чизиғи ўққа перпендикуляр бўлган айлана бўлади. Ўқдош бўлган сфера ва цилиндр 1- чизмада, сфера ва конус 2- чизмада келтирилган.




1- чизма



2- чизма

Юқоридаги мисоллардан кўриниб турибдики, ўқдош сфера айланиш сиртларини айлана бўйича кесиб ўтиш хоссасига эга экан. Ўқдош бўлган айланиш сиртларининг ўзаро кесишиш хусусиятлари, икки айланиш сиртларнинг кесишиш чизиғи проекцияларини аниқлашда берилган сиртларга ўқдош бўлган ёрдамчи сфералардан фойдаланиш имконини беради. Бунда ёрдамчи минимал сфера кичик диаметрга эга бўлган айланиш сиртини айлана бўйича кесиб, иккинчи айланага уриниб ўтади. Айланалар кесишиб, икки сиртга умумий бўлган кесишиш чизиғига тегишли нуқталарни аниқлашга имкон беради.

Айланиш сиртларини кесишиш чизиғини аниқлаш мисолида икки цилиндрни келтириш мумкин. 3-чизма



3-чизма

Икки цилиндрик сиртларни кесишиши энергетика, нефт-газ саноатида кенг қўлланилади, яъни ҳар хил диаметрга эга бўлган трубалар орқали суюқлик ёки иссиқлик тақсимланади.

Адабиётлар

1. Азимов Т.Д. Чизма геометриядан маърузалар матни. – Т.: 2005
2. Якубова М.М., Мирзараимова В.Т., Алимова Д.К., Азимов А.Т. Сиртлар ва уларнинг ўзаро кесишиши. Чизма геометриядан шахсий уй вазифаларни бажариш юзасидан услубий қўлланма. Тошкент давлат техника университети –Т.: 2014 йил, 75 бет.
3. Азимов А.Т., Сабирава Д.У., Мирзараимова В.Т. Чизма геометрия ва компьютер графикаси. Ўқув услубий мажмуа. Тошкент давлат техника университети. –Т.: 2021 йил, 185 бет

УДК 677.027.43/.016.45

**ТЕХНОЛОГИЯ КРАШЕНИЯ СМЕСОВЫХ ТКАНЕЙ ПО ПОЛУНЕПРЕРЫВНОМУ СПОСОБУ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ХИТОЗАНА**

**Г.А.Ихтиярова, Д.У.Кучкорова, Х.Абдусатторов**

*Ташкентский государственный технический университет*


*Зав кафедрой «Общая химия» ТГТУ Стажер исследователь кафедры «Общая химия»*

*ТГТУ Студент 136-21 БТ группы ТГТУ*

В последние несколько десятилетий в мире наблюдается интерес исследователей на возобновляемые природные биополимеры такие как хитин и хитозан, обладающим рядом ценных свойств: биоразлагаемость, бактериацидность, способностью пленкообразования, загущающими свойствами. Особенно актуально использование в этом направлении гидрофильных набухающих биополимеров, обладающих не только формообразующей способностью, но и спектром функциональных свойств и высокой биосовместимостью к которым относятся хитозан.

В настоящее время за рубежом используется широкий спектр дорогостоящих биополимеров на основе полисахаридов и их производных [1-2]. Отраднo, что хитозан также активно применяется в текстильной промышленности для крашения, печатания и аппретирования различных тканей [3-4].

Возможность получения эффективных многофункциональных хитозановых и карбоксиметилкрахмальных биоразлагаемых пленок на базе местных сырьевых ресурсов, и исследование их свойств является актуальной проблемой в нашей республике. Социально-экономическое развитие Республики Узбекистан обуславливает необходимость разработки новых технологий, ориентированных на расширение ассортимента биополимеров на основе аминопалисахаридов полученного из пчелиного подмора (рис.1)



а)



б)


Рис.1 а) Структурная формулы хитина и хитозана б) пчелиный подмор *Apis Mellifera*

Цель работы – получение хитозана из пчелиного подмора *Apis Mellifera* и определение его физико-химических свойств с использованием в текстильной промышленности для крашения шелковых тканей.

Хитозан из пчелиного подмора обладает физико-химическими свойствами, характерными для хитозана из куколок тутового шелкопряда [5-6] и их можно использовать для крашения шелковых тканей активными красителями [7].


Предположительно, с активными красителями хитозан может химически взаимодействовать по следующим схемам:

а)




В первом реакции (а) происходит образование химической связи между аминогруппой хитозана и углеродом активного центра красителя «C-NH-C», во второе реакции (б) – образование химической связи гидроксильной группой хитозана и углеродом активного центра красителя «C-O-C»


б)



Крашение хлопко-шелковых тканей были проведены с использованием активных и кислотных красителей. Для получения ровных, ярких, устойчивых окрасок необходимо подобрать красители и оптимальные условия, в которых обе волокнистые составляющие в одинаковой мере зафиксировали краситель. Использование в качестве интенсификатора хитозана, содержащих положительный заряд  $NH_3^+$ , устраняет эти недостатки.



**Рис.2. Технология крашения хлопко-шелковых тканей с использованием хитозана по периодическому способу**



## ОЗИҚ-ОВҚАТ ТАРКИБИДАГИ ЗАРАРЛИ МОДДАЛАР ВА УЛАРНИНГ ИНСОН САЛОМАТЛИГИГА ТАЪСИРИ

**Тўрақулова Дилноза Эгамбердиевна** - Тошкент давлат техника университети  
Биотехнология кафедраси талабаси

**Мирходжаева Дилобар Давронбековна** - Тошкент давлат техника университети  
Муҳандислик технологиялари факультети декан ўринбосари, т.ф.ф.д., доцент

“Бугун истеъмол қилинган нарса инсоннинг эртанги саломатлигини белгилаб беради” – ушбу жумлалар соғлом турмуш тарзи ҳақида битилган дунёга машҳур китобларнинг муаллифи Поль Брэгг томонидан айтилган.

Аксарият кишилар овқатланиш ҳақидаги аллақачон эскириб бўлган маълумотларга таяниб, ўз саломатликларини сақлашга уринадилар. Калория, оқсиллар, углеводлар, крахмал ва ёғларга алоқадор бўлган ўша маълумотларнинг асосий қисми асоссиздир. Яхши сихат ва қай ёшда бўлмасин, яхши ташқи кўринишни сақлаб қолишни истаган оқил инсонлар энди овқатланиш ҳақида янги ва замонавий билимларни эгаллашлари мумкин. Озиқ-овқат организмни энергия ва иссиқлик билан таъминлайди. У шу билан бирга ўсиш



ва янгилашиш учун керакли моддаларни ҳам етказиб беради. Фойдали овқатланиш саломатликни сақлаб туриш учун зарурий бўлган барча элементларни ўзида мужассам қилиши керак [1].

Зеро, ҳар бир инсоннинг соғлом бўлиши ва узоқ умр кечириши унинг соғлом турмуш тарзига нечоғли риоя этишига боғлиқ.

Асосий юқумли бўлмаган касалликларга юрак-қон томир касалликлари, қандли диабет, саратон ва сурункали нафас олиш касалликлари киради. Мазкур касалликларнинг асосий хавф омиллари – бу носоғлом овқатланиш, овқатланиш тартиби ва меъёрларига риоя этмаслик, паст даражадаги жисмоний фаоллик, тамаки ва алкогольли маҳсулотларни истеъмол қилиш ҳисобланади.

Бу хавф омилларини келтириб чиқарувчи асосий салбий омиллар паст жисмоний фаоллик негизида кундалик овқатланишда ҳайвон ёғлари ва гидрогенлашган носоғлом ёғлар (трансёғлар)нинг истеъмоли, мева ва сабзавотлар ўрнига юқори энергетик қувватга эга таркибида ёғ, туз, қанд миқдори кўп бўлган озиқ-овқат моддалари билан алмаштирилиши ҳисобланади.

Трансёғлар – махсус усуллар асосида ишлов берилган таркиби ўзгартирилган тўйинмаган ёғ кислоталари ҳисобланади.

Бугунги глобаллашув даврида бу ёғлар озиқ-овқат саноатига кенг кириб келди. Ёғларнинг узоқ вақт сақланиши ва ўз шаклини йўқотмаслиги учун кимёвий усулда қайта ишлов бериш орқали тайёрланган ушбу ёғ биринчи навбатда маргарин шаклида барча кондитер маҳсулотлари – торт, пирог, пирожное, музқаймоқ, кофе учун сут порошоги, турли ширинликлар – печенье, вафли тайёрлашда, шунингдек ярим фабрикалар - сомса ва пишириклар учун музлатилган хамир, музлатилган пицца тайёрлашда ишлатилади. Шунингдек, улар фаст-фудлар тайёрлашда, айникса чипс, фри, қовурилган товуқ гўштлари ва денгиз маҳсулотларидан таомлар тайёрлашда ҳам кенг ишлатилади.

Энг асосийси таркибида ёғ миқдори кўп бўлган ҳар қандай маҳсулотларни суиистеъмол қилиш организм учун хавфли эканлигини унутмаслигимиз керак. Трансёғлар эса:

**биринчидан**, организмда ёмон ҳислатли холестерин (ЛПНП) кўпайишига ва бу орқали семизликка мойилликка олиб келади;

**иккинчидан**, ёмон ҳислатли холестерин қон-томир деворларига ёпишиб, уларнинг ўтказувчанлиги бузилади, натижада барча организмнинг қон билан таъминланиши бузилади;

**учинчидан**, қон томирлар деворидаги бяхкалар узиши натижасида инфаркт, инсульт, ўпка тромбоемболияси каби, эрта ўлимга сабаб бўладиган ҳолатларни юзага келтиради;

**тўртинчидан**, ортиқча вазн ва семизлик, модда алмашинуви бузилиши натижасида қандли диабет касаллиги ривожланишига пойдевор бўлади;

**бешинчидан**, турли хавфли ўсма касалликларини келтириб чиқарувчи омиллардан бири ҳисобланади.

Маълумотларга кўра, катталар ва ёшлар организмга қўшиладиган қанд-шакарнинг келиб тушиши жами энергиянинг 10 фоизидан ортмаслиги лозимлигини ва қўшиладиган қанд-шакар миқдорини жами энергиянинг 5 фоизигача даражада чеклаш саломатлик учун қўшимча ижобий таъсир қилишини кўрсатади. Қўшиладиган қанд-шакар қонга тез сўрилади ва хужайраларга тез етказиб берилади, бу эса глюкоза даражаси тез кўтарилишига олиб келиши мумкин.

Нотўғри овқатланиш, яъни овқатланиш рақонида таркибида ёғ, туз, шакар миқдори кўп бўлган маҳсулотларни тез-тез ва кўп миқдорда истеъмол қилиш, кучли газланган ширин яхна ичимликларни истеъмол қилиш ҳам моддалар алмашинуви

бузилишига ва унинг натижасида ортиқча вазн ва семизлик ҳолати юзага келишига сабаб бўлиши мумкин [2].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 18 декабрда. “Юқумли бўлмаган касалликларнинг профилактикасини, соғлом турмуш тарзини қўллаб-қувватлаш ва аҳолининг жисмоний фаоллиги даражасини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори имзоланди.

Қарорда давлат ташкилотлари олдига юқумли бўлмаган касалликлар профилактикаси, аҳолининг соғлом турмуш тарзини шакллантириш ва жисмоний фаоллигини ошириш вазифаси қўйилди [3].

Қўшиладиган қанд-шакарларни истеъмол қилиш тишлар кариеси (тишларнинг емирилиши) хавфини орттиради. Таркиби қўшиладиган қанд-шакарга бой бўлган озиқ-овқат маҳсулотлари ва ичимликлар ортиқча вазн ва семизликка олиб келиши мумкин.

Организмга ёғ, қанд ва шакар келиб тушишини қўйидагича камайтириш мумкин:

1. Овқат билан истеъмол қилинаётган ёғ миқдорини назорат қилиш. Овқат тайёрлашда ҳайвон ёғларининг ўрнига кўпроқ ўсимлик ёғларини ишлатиш;

2. Ёғли гўшт ва гўшт маҳсулотларини ёғсиз гўшт ҳамда дуккакли ўсимликлар, балиқ, товуқ маҳсулотлари билан алмаштириш;

3. Ёғ миқдори кам бўлган сут ва таркибида ёғ ва туз миқдори кам бўлган қатик, сузма, творог ва пишлоқ каби сут маҳсулотларини истеъмол қилиш;

4. Таркибида қанд миқдори кам бўлган озиқ-овқат маҳсулотларини танланг ва ширинлик ҳамда ширин ичимликлар истеъмолини чегаралаш орқали қанд миқдорини камайтириш;

5. Тузни камроқ истеъмол қилиш. Тузнинг умумий миқдори кунига бир чойқошиқ - 5 граммдан ошмаслиги лозим. Фақат йодланган ош тузини истеъмол қилиш мақсадга мувофиқдир;

6. Қўшиладиган қанд-шакарга бой бўлган озиқ-овқат маҳсулотлари ва ичимликларни (яъни, ширинлик қўшилган ичимликлар, ширин яхна маҳсулот ва конфетлар) чеклаш орқали;

7. Тамадди қилиб олиш учун ширин маҳсулотлар ўрнига мева ва хом сабзавотларни истеъмол қилиш.

Меъёردа жами энергиянинг 10%дан кам миқдори қўшиладиган қанд-шакар ҳисобига тўлдирилиши лозим. Саломатлик учун қўшимча ижобий таъсирга эга бўлиши учун жами энергиянинг 5 фоизидан кам миқдори қўшиладиган қанд-шакар ҳисобига тўлдирилса мақсадга мувофиқ бўлади.

### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Брегг П. Тўғри овқатланиш. – Т: “Adabiyot uchqunlari”, 2014 йил, 336 бет.
2. <https://adolat.uz/news/togri-ovqatlanish-uzoq-umr-garovidir>.
3. [https://www.norma.uz/qonunchilikda\\_yangi/tarkibida\\_eglar\\_tuz\\_va\\_qand\\_miqdori\\_yuqori\\_bulgan\\_mahsulotlar\\_aylanmasi\\_cheklanadi](https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/tarkibida_eglar_tuz_va_qand_miqdori_yuqori_bulgan_mahsulotlar_aylanmasi_cheklanadi).

## МАТЕМАТИК СОФИЗМГА ДОИР МИСОЛЛАР

**Юсупов Т. Н.** ЧДПИ Математика ва информатика факультети талабаси  
**Қуромбоев Х.** Чирчиқ давлат педагогика институти ўқитувчиси

Софизм сўзи юнонча *sophisma* сўзидан олинган бўлиб ҳийла деган маънони англатади. Истилоҳда эса хатоси моҳирлик билан яширинган нотўғри тасдиқни исботлаш, мантикий чалғитишни билдиради. Софизмга оид масалаларни дастлаб, милoddан аввалги

V асрда Қадимги Юнонистоннинг Элея шаҳрида яшаган математик Зенон тузган. Милоддан олдинги IV-V асрларда мантиқ санъатини жуда яхши эгаллаган бир гуруҳ юнон файласуфлари софистлар деб аталган.

Зенон масалалари чексизлик, ҳаракат, коинот тушунчалари билан боғлиқ бўлиб, улар математика ва физика фанларининг ривожига катта аҳамиятга эга бўлди. Зенон масалалари софизм (апория, парадокс) номи билан олимлар ва файласуфлар орасида машҳур бўлди.

Айрим софизмлар улуғ аждодларимиз Фаробий асарларида, Беруний билан Ибн Синонинг ёзишмаларида муҳокама қилинган. Биз қуйида энг софизмга мисол келтириб уни тушунтиришга ҳаракат қилмоқчимиз.


**Масала.** Тўғри бурчак ўтмас бурчакка тенглигини кўрсатувчи қуйидаги исботнинг хатоси топилсин.

Бирор АВ кесма олиб учларидан иккита ўзаро тенг АС ва ВD кесмаларни бирини тик иккинчисини қия қилиб қўямиз (1-, 2-, 3-шакллар). Айтайлик кесмалар, АВ тўғри чизикдан юқорида ётадиган ва DBA тўғри бурчак ва САВ ўтмас бурчак бўладиган қилиб қўйилган бўлсин. Бу бурчаклар тенглигини исботлаймиз.

**Исботи.** Берилган С ва D нуқталарни бирлаштириб, ABDC тўртбурчакни ҳосил қиламиз, бу тўртбурчакда АС томон ВD томонга, АВ томон CD томонга параллел эмас.

Энди, АВ ва CD кесмалар ўртасидан перпендикуляр тўғри чизиклар ўтказамиз. Кесмалар параллел бўлмаганлиги учун уларга перпендикуляр бўлган тўғри чизиклар ҳам параллел эмас ва устма-уст ҳам тушмайди. Айтайлик улар N нуқтада кесишсин. Исботни учта ҳолга ажратиб кўриб чиқамиз.

**1-ҳол.** Айтайлик N нуқта ABCD тўртбурчак ичида ётган бўлсин(1-шакл). N нуқтани тўртбурчакнинг ҳамма учлари билан бирлаштира-миз. Кесманинг ўрта перпендикул-яри хоссасига кўра N нуқта, АВ кесманинг учларидан ва шунинг-дек, CD кесманинг учларидан тенг масофада жойлашган бўлади, яъни  $|AN|=|BN|$  ва  $|CN|=|DN|$ .



3-шакл

Масала шартига кўра  $|AC|=|BD|$ .


Шу сабабли, NAC ва NBD учбурчаклар учта томонларига кўра ўзаро тенг (учбурчаклар тенглигининг учинчи аломати). Демак,  $\angle NAC = \angle NBD$ .

Шунингдек, ANB тенг ёнли учбурчаклигидан

$\angle NAB = \angle NBA$  бўлади. Булардан  $\angle CAN + \angle NAB = \angle CAB$ ,  $\angle DBN + \angle NBA = \angle DBA$  тенгликларни ёзамиз.

Ҳосил қилинган муносабатлардан  $\angle CAB = \angle DBA$  эканлиги келиб чиқади.

**2-ҳол.** Айтайлик N нуқта АВ кесмада ётсин. Бу ҳолда N нуқта АВ кесманинг ўртаси бўлади(4-шакл). Биринчи ҳолдаги каби, учбурчаклар тенглигининг учинчи аломатига кўра  $\triangle NAC = \triangle NBD$ . Бундан  $\angle CAB = \angle DBA$  келиб чиқади.




4-шакл


**3-ҳол.** Айтайлик N нуқта АВ тўғри чизикдан пастда жойлашган бўлсин(3-шакл). Яна, худди юқоридагидек учбурчаклар тенглигининг учинчи аломатига кўра  $\triangle NAC = \triangle NBD$  ва  $\angle CAN = \angle DBN$  бўлади.

Энди, ANB тенг ёнли учбурчакдан  $\angle ABN = \angle NBA$  бўлиши равшан. Демак,  $\angle CAN - \angle NAB = \angle DBN - \angle ABN$  ёки  $\angle CAB = \angle DBA$  келиб чиқади.

Юқоридаги исботларнинг ўринлилиги кўриниб турибди. Барча ҳоллар тўла кўриб чиқилди. Хато қаерда? Масала исботи фақатгина N нуқта жойлашишига боғлиқ эмас. Мана шу 3-ҳолни яхшилаб таҳлил қилайлик.




2-шакл



5-шакл

3-шакл

ABD tўgri burchak va ABN ўtkir burchak yiǵindisi xar doim DBN ўtmac burchakni beraadi(3-shakl), ammo CAB ўtmac burchakni NAB ўtkir burchak bilan kўshganda u yana ўtmac burchak bўladi eki eiyik burchakdan kat-ta burchak bўlib qolishi mumkin. Bu esa, yuqoridagi ka-bi muhoazalar yuritiшни tamomila ўzgarтириб yubora-di.



Шундай қилиб, 3-холни яна иккига ажратиб кўришга тўgри келади. Берилган CAB ўtmac burchak va CAN учburchak:

а) AC тўgри чизикка нисбатан бир томонда жойлашган(3-shakl).

б) AC тўgри чизикнинг икки томонида жойлашган(6-shakl).

а) холда CAB burchak CAN burchakning бирор қисми бўлиши кўриб чиқилди ва  $\angle CAB = \angle DBA$  тенгликка келдик.

б) холда бундай хулосага кела олмаймиз: DBA тўgри burchak аввалгидек иккита burchak айирмаси каби ифодаланади, яъни  $\angle DBA = \angle DBN - \angle ABN$ .

Аmmo, CAB ўtmac burchak, DBN burchak bilan кўшилганда  $360^\circ$  га тенг, яъни  $\angle CAN + \angle DBN = 360^\circ$  (4-shakl) бўлади.

Ўрта перпендикулярлар кесишган N нуқта xar doim, 4-shakldagidek жойлашган бўлишини кўрсатамиз.

Шакл бўлаклари жойлашганлиги яхшироқ кўриниши учун 4-shaklda кўшимча ясашни амалга оширамыз.

A нуқтадан AB тўgри чизикка перпендикуляр ўтказамиз ва унда BD га тенг бўлган AE кесмани ажратамыз. E нуқтани D, N ва C нуқталар билан туташтирамыз. У холда ABDE тўgри тўртburchak ҳосил бўлади. AB кесманинг симметрия ўқи билан ED кесманинг симметрия ўқи бир хил бўлиб,  $NE = ND$  бўлади. Бундан эса,  $NE = NC$  келиб чиқади. Демак, A ва N нуқталарнинг xar бири CE кесманинг учларидан баробар узокликда жойлашган. Бундан AN тўgри чизик бу кесманинг симметрия ўқи эканлиги келиб чиқади.

$\triangle DBN$  ни AB кесманинг симметрия ўқига нисбатан алмаштирсак, у  $\triangle EAN$  га ўтади. Аммо,  $\triangle CAN$  ни N нуқта атрофида  $\angle BNA$  га бурсак  $\triangle DBN$  ҳосил бўлади.

Демак, тўgри burchak ўtmac burchakка тенглигини кўрсатувчи қуйидаги исботнинг хатоси шундаки, 1-, 2-, 3-shakllardagi ҳолатлар ҳеч қачон рўй бермайди. Фақат 4-shakl масала шартига мос келади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Исхаков И.Ш. Математика олимпиадаларига тайёрланиш кўлланмаси. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1975 й.
2. Сборник задач студенческих олимпиад по высшей математике, МИНСК, 2012.

УДК 531.314.2

**СИСТЕМА ДИНАМИКАСИ МАСАЛАЛАРИИ ЕЧИШНИНГ БАЪЗИ УСУЛЛАРИ**

ГваКИФ талабаси **Вохидов А.А.** ТДТУ  
Илмий раҳбар доц. **Хабибуллаева Х.Н.** ТДТУ

Мақолани eзишдан асосий мақсад аналитик механикани тўлиқ ўрганувчиларни система динамикасининг масалаларини ечишда Нильсен тенгламаларини кўллашни

кўрсатишдан иборат. Системанинг эркинлик даражаси икки ва ундан ортиқ бўлганда Нильсен тенгламаларининг математик операциялар сони Лагранжнинг иккинчи тур тенгламаларининг математик операциялар сонидан кам бўлади. Агарда голономли системанинг эркинлик даражасини  $k$  десак, Лагранжнинг иккинчи тур тенгламалари ёрдамида операциялар сони  $3k$  бўлади. Нильсен тенгламаларидан фойдалансак, математик операциялар сони  $2k+1$  бўлади. Лагранжнинг иккинчи тур тенгламаларидан Нильсен тенгламаларини келтириб чиқарамиз:

$$\frac{d}{dt} \left( \frac{\partial T}{\partial \dot{q}_1} \right) - \frac{\partial T}{\partial q_1} = Q_1; \quad \frac{d}{dt} \left( \frac{\partial T}{\partial \dot{q}_2} \right) - \frac{\partial T}{\partial q_2} = Q_2; \dots; \frac{d}{dt} \left( \frac{\partial T}{\partial \dot{q}_k} \right) - \frac{\partial T}{\partial q_k} = Q_k. \quad (1)$$

Кинетик энергиядан вақт бўйича ҳосила оламиз:

$$\dot{T} = \frac{\partial T}{\partial q_1} \dot{q}_1 + \frac{\partial T}{\partial q_2} \dot{q}_2 + \dots + \frac{\partial T}{\partial q_k} \dot{q}_k + \frac{\partial T}{\partial \dot{q}_1} \ddot{q}_1 + \frac{\partial T}{\partial \dot{q}_2} \ddot{q}_2 + \dots + \frac{\partial T}{\partial \dot{q}_k} \ddot{q}_k. \quad (2)$$

(2) тенгламадан ихтиёрий умумлашган тезлик бўйича ҳосила оламиз, масалан  $\dot{q}_1$  бўйича:

$$\frac{\partial \dot{T}}{\partial \dot{q}_1} = \frac{\partial T}{\partial q_1} + \frac{\partial^2 T}{\partial \dot{q}_1 \cdot \partial q_1} \dot{q}_1 + \frac{\partial^2 T}{\partial \dot{q}_1 \cdot \partial q_2} \dot{q}_2 + \dots + \frac{\partial^2 T}{\partial \dot{q}_1 \cdot \partial q_k} \dot{q}_k + \frac{\partial^2 T}{\partial \dot{q}_1^2} \ddot{q}_1 + \frac{\partial^2 T}{\partial \dot{q}_1 \cdot \partial \dot{q}_2} \ddot{q}_2 + \dots + \frac{\partial^2 T}{\partial \dot{q}_1 \cdot \partial \dot{q}_k} \ddot{q}_k \quad (3)$$

(1) тенгламадаги Лагранж тенгламасининг биринчи ҳадидаги  $\frac{d}{dt} \left( \frac{\partial T}{\partial \dot{q}_1} \right)$  ифодани

кўриниши-ни ўзгартирамиз. Яъни:

$$\frac{d}{dt} \left( \frac{\partial T}{\partial \dot{q}_1} \right) = \frac{\partial^2 T}{\partial \dot{q}_1 \cdot \partial q_1} \dot{q}_1 + \frac{\partial^2 T}{\partial \dot{q}_1 \cdot \partial q_2} \dot{q}_2 + \dots + \frac{\partial^2 T}{\partial \dot{q}_1 \cdot \partial q_k} \dot{q}_k + \frac{\partial^2 T}{\partial \dot{q}_1^2} \ddot{q}_1 + \frac{\partial^2 T}{\partial \dot{q}_1 \cdot \partial \dot{q}_2} \ddot{q}_2 + \dots + \frac{\partial^2 T}{\partial \dot{q}_1 \cdot \partial \dot{q}_k} \ddot{q}_k \quad (4)$$

(3) ва (4) тенгламалардан қуйидаги ифода келиб чиқади:

$$\frac{\partial \dot{T}}{\partial \dot{q}_1} = \frac{\partial T}{\partial q_1} + \frac{d}{dt} \left( \frac{\partial T}{\partial \dot{q}_1} \right), \quad \text{бундан} \quad \frac{d}{dt} \left( \frac{\partial T}{\partial \dot{q}_1} \right) = \frac{\partial \dot{T}}{\partial \dot{q}_1} - \frac{\partial T}{\partial q_1} \quad (5)$$

(5) тенгламани (1) тенгламанинг биринчи ифодасига олиб бориб қўйсак, қуйидаги ҳосил бўлади:  $\frac{\partial \dot{T}}{\partial \dot{q}_1} - 2 \frac{\partial T}{\partial q_1} = Q_1$ . Шу усул билан (1) тенгламанинг қолганларида ўзгартишлар

киритсак:  $\frac{\partial \dot{T}}{\partial \dot{q}_1} - 2 \frac{\partial T}{\partial q_1} = Q_1; \quad \frac{\partial \dot{T}}{\partial \dot{q}_2} - 2 \frac{\partial T}{\partial q_2} = Q_2; \dots; \quad \frac{\partial \dot{T}}{\partial \dot{q}_k} - 2 \frac{\partial T}{\partial q_k} = Q_k \quad (6)$

Қисқа кўринишда Нильсен тенгламалари қуйидагича ёзилади:

$$\frac{\partial \dot{T}}{\partial \dot{q}_j} - 2 \frac{\partial T}{\partial q_j} = Q_j \quad j = 1, 2, 3, \dots, k$$

Нильсен тенгламаларини қўллашга қуйидаги масалани кўриб чиқамиз (Расм 1).

Кўзгалмас А ва В блоклардан ўтказилган тасма кўзгалувчи С блокни ушлаб туради. Тасманинг блокдан ташқаридаги қисми вертикал бўйлаб йўналган бўлиб, учларига  $P_1 = P/2$  ва  $P_2 = 3P/4$  юклар илинган. С блокка эса оғирлиги  $P$  бўлган тош осилган. Тасма, блокларнинг массаларини ва блоклардаги иш қаланишларни ҳисобга олмаган ҳолда, юкларнинг ва тошнинг тезланиши аниқлансин.

$$\delta s = \frac{\delta s_1 + \delta s_2}{2}; \quad v = \frac{v_1 + v_2}{2}; \quad a = \frac{a_1 + a_2}{2},$$

$$q_1 = s_1; \quad q_2 = s_2; \quad \delta q_1 = \delta s_1; \quad \delta q_2 = \delta s_2;$$

Ечиш:  $\dot{q}_1 = v_1; \quad \dot{q}_2 = v_2; \quad (7)$


$$\sum \delta A = P \frac{\delta s_1 + \delta s_2}{2} - \frac{P}{2} \delta s_1 - \frac{3}{4} P \delta s_2$$

(7) tenglamadan qavslarni ochib ichchamlaymiz, ya'ni:  
 $\sum \delta A = -P/4 \delta s_2$ . Bundan:  $Q_1 = 0$ ;  $Q_2 = -P/4$   
 Sistema uchun Nilyсен tenglamasi kuyidaagi kўrinishda ifodalanaadi:

$$\frac{\partial \dot{T}}{\partial \dot{q}_1} - 2 \frac{\partial T}{\partial q_1} = Q_1; \quad \frac{\partial \dot{T}}{\partial \dot{q}_2} - 2 \frac{\partial T}{\partial q_2} = Q_2 \quad (8)$$

Sistema kinetik energiyasini hisoblaymiz:

Расм 1.



$$T = \frac{P_1 v_1^2}{2g} + \frac{P_2 v_2^2}{2g} + \frac{P}{2g} \frac{v_1^2 + v_2^2 + 2v_1 v_2}{4} =$$

$$= \frac{P}{4g} v_1^2 + \frac{3P}{8g} v_2^2 + \frac{P}{8g} v_1^2 + \frac{P}{8g} v_2^2 + \frac{P}{4g} v_1 \cdot v_2;$$

Хосила оламиз:

$$\dot{T} = \frac{P}{2g} v_1 a_1 + \frac{3P}{4g} v_2 a_2 + \frac{P}{4g} v_1 a_1 + \frac{P}{4g} v_2 a_2 + \frac{P}{4g} v_2 a_1 + \frac{P}{4g} v_1 a_2;$$

Хусусий хосилаларни ҳисоблаймиз:

$$\frac{\partial \dot{T}}{\partial v_1} = \frac{P}{2g} a_1 + \frac{P}{4g} a_1 + \frac{P}{4g} a_2; \quad \frac{\partial T}{\partial s_1} = 0; \quad (9)$$

$$\frac{\partial \dot{T}}{\partial v_2} = \frac{3P}{4g} a_2 + \frac{P}{4g} a_2 + \frac{P}{4g} a_1; \quad \frac{\partial T}{\partial s_2} = 0 \quad (10)$$

(9) ва (10) тенгламаларни (8) тенламага олиб бориб қўйсақ, куйидаги келиб чиқади:

$$\frac{P}{2g} a_1 + \frac{P}{4g} a_1 + \frac{P}{4g} a_2 = 0; \quad 3a_1 + a_2 = 0; \quad a_2 = -3a_1;$$

$$\frac{3P}{4g} a_2 + \frac{P}{4g} a_2 + \frac{P}{4g} a_1 = -\frac{P}{4}; \quad 4a_2 + a_1 = -g; \quad -12a_1 + a_1 = -g; \quad 11a_1 = g;$$

$$a_1 = \frac{g}{11} \text{ м/с}^2; \quad a_2 = -\frac{3g}{11} \text{ м/с}^2; \quad a = -\frac{g}{11} \text{ м/с}^2.$$

Тенгламалар тўлиқ ечилиб , тезланишлар аниқланди. Масалани ечиш давомида кўрдикки Нильсен тенгламаларини тузишда математик операциялар сони Лагранжинг иккинчи тур тенгламаларини тузишдаги математик операциялар сонига нисбатан камроқ экан. Фойдаланилган адабиётлар

1. Яковенко Г.Н. Краткий курс теоретической механики. М., Бином, 2010 г.
2. Журавлев В.Ф. Основы теоретической механики. 2-е изд., М., Физматлит, 2008 г.

# ЛЕКТРОНИКА, ФИЗИКАВИЙ ЭЛЕКТРОНИКА ВА АВТОМАТИКА

## СОВРЕМЕННЫЕ РАСХОДОМЕРЫ И ОСНОВНЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К НИМ

**Ортиков Элбек Элмирза угли**

*Базовый докторант, Ташкентский государственный технический университет  
имена Ислама Каримова*

В настоящее время в связи с опережающим развитием науки и техники растут требования к средствам измерений. Основной целью является достижение достаточной эффективности производства средств измерений и их применения в технологических процессах. На основе этих требований также разрабатываются приборы учета расхода сырья, материалов и продукции.

Расходомеры используются для измерения расходов и количества газов и жидкостей. Они имеют большое значение в самых различных областях науки и техники. Расходомеры необходимы для проведения научных исследований, управления технологическими процессами почти во всех отраслях промышленности, контроля работы стационарных и транспортных энергетических установок, управления самолетами и космическими кораблями. Помимо этого, расходомеры необходимы для коммунального и сельского хозяйства.

Без расходомеров невозможно обеспечить оптимальный технологический режим важнейших технологических процессов в таких отраслях промышленности, как энергетическая, металлургическая, нефтяная, химическая, целлюлозно-бумажная, пищевая и множество. Без этих приборов нельзя также и автоматизировать соответствующие процессы, и получить у них максимальный КПД.

Кроме того, современные расходомеры способствуют повышению качества изготавливаемой продукции, устранению брака, экономии исходных материалов и автоматизации производства.

Расходомеры, применяемые для измерения расхода жидкостей и газов, подразделяются на следующие типы:

- переменного перепада давления;
- постоянного перепада давления;
- тахометрические;
- электромагнитные;
- ультразвуковые
- вихревые;
- вихреакустические;
- резонансные или кориолисовы.

Выше перечисленные методы используются для измерения величины расхода, но большинство процессов требуют не только измерения, но и регулирования расхода.

На рис. 1 изображена базовая система управления технологическим процессом, в которой используется расходомер и исполнительный механизм, управляющий потоком жидкости.

На самом нижнем уровне системы осуществляется контроль переменных параметров процесса, таких как температура, расход жидкости и концентрация газов. Эту функцию реализует модуль ввода, который обычно входит в состав программируемого логического контроллера (ПЛК). Полученные показания подвергаются локальной

обработке пропорционально-интегрально-дифференциальным (ПИД) регулятором. Используя эту информацию, ПЛК устанавливает уровни выходных сигналов, необходимые для стабилизации процесса. Значения переменных параметров процесса, диагностические и иные данные могут передаваться на эксплуатационный уровень, а команды, установочные и калибровочные данные — на самый нижний уровень, к датчикам и исполнительным механизмам.




Рис. 1. Базовая система измерения и управления расходом жидкости

### ТРЕБОВАНИЯ К РАСХОДОМЕРАМ И СЧЕТЧИКАМ

Основные требования к расходомерам и счетчикам следующие:

1. Высокая точность измерений.

Ранее погрешность в  $1,5 \div 2$  % считалась приемлемой, теперь нередко требуется иметь погрешность не более  $0,2 \div 0,5$  %. Такие счетчики выпускаются.

2. Высокая надежность.

Трубы Вентури, установленные на водопроводных линиях, исправно действуют более 30 лет. Но тахометрические расходомеры и счетчики с движущимся ротором имеют много меньший срок службы, хотя у ряда турбинных расходомеров установлен шестилетний межповерочный интервал.

3. Малая зависимость точности измерения от изменения плотности вещества.

Необходимы корректоры на изменение плотности или хотя бы на изменение температуры и давления. Это особенно необходимо при измерении расхода газа.

4. Быстродействие.

Градация постоянных времени от сотых долей секунды у турбинных расходомеров до десятков секунд у тепловых счетчиков.

5. Большой диапазон измерения ( $d_{max} / d_{min}$ ).

Диапазон у приборов с линейной характеристикой равен  $10 \div 100$  и более, с квадратичной –  $3 \div 10$ .

6. Измерение многофазных и многокомпонентных веществ (нефть, вода, газ – двухфазная, трёхкомпонентная) в экстремальных условиях.

В заключение следует отметить, что их надежность, скорость и точность важны при разработке и внедрении инструментов измерения расхода, а также их способность работать с регулирующими органами и исполнительными механизмами.

### Литературы

1. Информационно-измерительная техника и технологии: учеб. для вузов / В.И. Калашников, С.В. Нефедов, А.Б. Путилин [и др.]; под ред. Г.Г. Раннева. – М.: Высшая школа, 2002. – 454 с.
2. Клаассен К.Б. Основы измерений. Электронные методы и приборы в



измерительной технике / К.Б. Клаассен. – М.: Постмаркет, 2000. –352 с.

3. Ли Ке (Li Ke), Колм Слэттери (Colm Slattery). Точные измерения расхода жидкости в промышленных системах при помощи электромагнитных расходомеров / КОМПОНЕНТЫ И ТЕХНОЛОГИИ • № 4 -.2014. 30-38 с

УДК 631.317.39.084.2

## СУВ ХЎЖАЛИГИ ТАРМОҚЛАРИГА УЛЬТРАТОВУШЛИ САРФ ЎЛЧАГИЧЛАРИНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШНИНГ АҲАМИЯТИ

*А.У.Джалилов - PhD, доцент, “Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти” МТУ*

*И.К. Гайинов – ассистент, “Қорақолпоқ давлат университети”*

*Ж.Абдунабиев - магистрант, А.Саидов – магистрант, “Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти” МТУ*

Сув заҳираларининг йилдан йилга камайиб бориши улардан самарали фойдаланиш зарурлигини тақозо этмоқда. Шу мақсадда сув тақсимлаш тармоқларида замон талабига мос бўлган сув сарфини ўлчаш датчикларидан фойдаланиш борасида дунё олимлари илмий изланишлар олиб боришмоқда. Ушбу мақолада сув хўжалиги тизимларида замонавий чиқиш сигналлари рақамли, ўлчаш аниқлиги, ишончилиги ҳамда сезгирлиги юқори бўлган сув сарфини ўлчаш датчикларидан фойдаланиш масалалари кўзда тутилган.

Тавсия этилаётган Эталон - РМ ультратовушли сарф ўлчагининг (1-рasm) ишлаш принципи оқим йўналиши ва оқимга қарши йўналишда ультратовуш тебранишининг ўтиш вақти фарқини аниқ ўлчашга асосланган. Бундай ишлаш принципига асосланган ультратовушли сарф ўлчагичга Россияда асос солинган бўлиб, “вақт–импульсли ультратовушли сарф ўлчагич” лар дейилади. Вақт - импульсли туридаги ультратовушли сарф ўлчагич жаҳонда кенг тарқалган ва катта диаметрли қувурлардаги сув сарфини ўлчашда уларни бошқа сарф ўлчагичларга алмаштириб бўлмайди. Электрониканинг ривожланиши билан боғлиқ бўлган аналог ва рақамли сигналларга ишлов бериш усулларининг такомиллашганлиги бундай ультратовушли сарф ўлчагичларни сарфни ўлчашда ишончли восита бўлишини таъминлайди.



1-рasm. Эталон – РМ ультратовуш сарф ўлчагич.

Кўп каналли ультратовушли сарф ўлчагич (битта электрон блокда сарфнинг 4 та каналларигача) тежамли ва оддий тизимларни тузиш учун осон.

Эталон - РМ ультратовушли сарф ўлчагич Россияда ягона асбобларга ўрнатилган “сарф имитатори”га эга. Бу замонавий усул бўйича қисқа вақт ичида (5 дақиқа атрофида) қувурни бўлакмасдан автоматик текширувни ўтказиш имконияти мавжуд.

Бу ультратовушли сарф ўлчагич куйидаги афзалликларга эга:

- Ультратовушли сарф ўлчагич конструкциясида ейилишга мойил кўзгалувчан қисмларнинг йўқлиги;
- Бутун ишлаш муддати мобайнида


метрологик тавсифлари барқарор;

- Ўлчанаётган оқимга минимал таъсири ва ўлчаш натижасида босим

йўқолишининг бўлмаслиги;

- Ультратовушли сарф ўлчагичга хизмат кўрсатиш харажатларининг камлиги.
- Ультратовушли сарф ўлчагич ҳаракатланувчи механик қисмларга эга эмаслиги;
- Унинг ишончлилиги сезиларли ортганлиги ва катта диаметрли қувурларда ишлаш қобилияти юқорилиги.

Шу билан биргаликда у занглашга бардошли 12X18Н10Т (зангламайдиган пўлат) дан ясалган. Ультратовушли сарф ўлчагичнинг бирламчи ўзгартиргичлари модификациялари барча ишлатиш муддатида зангламасликни, уларнинг гардишсимон (фланец) шаклда тайёрланиши конструкциянинг оддийлигини ҳамда ишлатишда ва техник хизмат кўрсатишда қулайликни (кўшиб–ажратгичларни пайвандлашни талаб этмайди) таъминлайди (2-расм).



**2-расм.** Ультратовуш датчиги ўрнатилган сув қувури.

Эталон - РМ нинг муҳим афзаллиги ерга улаш операциясини ўтказиш зарурияти йўқлигидир.



3-расм. Эталон - РМ нинг қувурларга ўрнатилиши.

Эталон – РМ кўп каналли ультратовуш сарф датчиги (3-расм) ни қўллаш орқали бир каналли ультратовушли сарф ўлчагичлар камчилигини бартараф этиб ўзаро таъсирга йўл қўймаслик учун кабель ётқизишда уни 1 метр узокликда бўлишини таъминлаш зарур.

Юқори аниқлик (ультратовушли сигналининг ўтиш вақтини ўлчаш 0,01 нано секунд, ўлчашнинг тез амалга ошиши (секундига 100 та дан кўп сарфни ўлчаш) ва ўрнатилган математик, интеллектуал тўсиқ фильтри аниқликни ва ультратовуш сарф ўлчагичнинг чизикли ўлчашларини амалга оширади. Ультратовушли сарф ўлчагичнинг ишлаш принципи тўғри ва тескари йўналишда суюқлик сарфини

ўлчаш имконини беради (реверсив оқим). Ультратовушли сарф ўлчагичнинг афзаллик томонларидан яна бир жиҳати унинг сув сарфини ўлчаш

аниқлигига гидравлик зарбалар, вибрация, оқим ҳарорати ва босимнинг ўзгаришлари таъсир қилмайди.

Эталон-РМ ультратовушли сарф ўлчагич бошқа турдаги сарф ўлчагичларга нисбатан инкор этиб бўлмайдиган афзалликка эга. Ультратовушли сарф ўлчагичининг ишлаш қобилияти деярли суюқликнинг сифати ва ҳарорати (ёпишқоқлиги) га боғлиқ эмас.



4-расм. Ультратовуш сарф ўлчагичининг сигнални қабул қилгич ва узатгичи.



5-расм. Бир нечта каналга уланиш учун мўлжалланган ультратовуш сарф ўлчагич.

Ультратовушли сарф ўлчагичнинг қабул қилгичи ва узатгичи (4-расм) ўлчаш нуруни ҳосил қилади. Эталон - РМ ультратовушли сарф ўлчагичда сув сарфини ўлчаш бир нечта ўлчаш нурулари (товуш тўлқинлари) (4 тагача) орқали амалга оширилади.

Бундай конструкцияли датчикларда бир вақтнинг ўзида суюқлик оқимини бир нечта нукталарда ўлчаш амалга оширилади, бу оғирлик коэффициентини қўллаш билан суюқлик сарфини ҳисоблаш замонавий аниқлик усулини қўллаш имконини беради. Бундай конструктив ечим 2 баробар кўп нузли ультратовушли сарф ўлчагичнинг аниқлигини оширади, йиғишда тўғри чизиқли участка узунлигини 2 марта камайтиради ва ишончлилик 10 мартага ортади. Кўп каналли ультратовушли сарф ўлчагич (5-расм) нинг битта канали ишдан чиқса у ҳолда бошқа каналлари билан ўз вазифасини бажаради. Шу билан бирга бир неча марта сарфни ҳисобга олиш вақтидаги узилиш эҳтимоллигини камайтиради. Бундай хусусият фақатгина Эталон - РМ ультратовушли сарф ўлчаш датчигида мавжуд.

Эталон - РМ ультратовушли сарф ўлчагичининг функцияларидан яни бири қувур девори ўлчанаётган сигнал учун тўсиқ бўлмайди. Тўсиқлар генерацияси, энергия йўқолиши ва сигналларни хато кўрсатиши содир бўлмайди. Шунинг учун бундай датчикларнинг одатда ўлчаш аниқлиги юқори.

Ультратовушли сарф ўлчагични текшириш кам харажатли, имитацион услуб бўйича 4 йилда бир марта ўтказилади. Шунинг учун, юқори ишончлилик билан бир қаторда эксплуатацион сарф – харажатлар минимал, тўлиқ ўртacha хизмат қилиш муддати 12 йилни ташкил этади.

Сарф ўлчагичдан компьютерга кўрсаткичларни узатиш SSD режимида RS-485, RS-232 ва GSM интерфейси орқали масофадан бошқарилиб амалга оширилади.

Электрон блокдан керакли маълумотларни олиш учун бир неча қурилмалар ва усуллардан фойдаланиш мумкин.

- тезкор назорат учун, сарф ўлчагич сарфни назорат қилувчи (СНК) индикатор ва клавиатура билан таъминланган;

- персонал компьютерга (Notebook) электрон блокдаги архив ва ростланган ахборотларни кўчириб ўтказиш имкониятига эга;

- RS-232 ва RS-485 стандарт гальваник изоляцияланган рақамли интерфейслар орқали АБТ (автоматик бошқариш тизими) га маълумотларни узатиш мумкин.

АБТ ТП интеграцияси учун эталон – РМ ультратовушли сарф ўлчагич автоматика ва телеметрия тизимига кўшилиш учун турли чиқиш (токли ва частотали-импульсли) қисмларига эга.

1. Токли 4-20 мА (сарф), частота-импульсли (сарф ва ҳажм);



2. Сарф ўлчагич рақамли RS-232, RS-485 интерфейслар орқали GSM модем, компьютер ва мобил телефонларига симсиз улашиш имкониятига эга.



Ультратовушли сарф ўлчагичнинг электрон блокига иккита мустақил телеметрия

tizimini bir vaqtda kўshish mumkin.

Ультратовушли сарф ўлчагичга тўхтамасдан ишлаш соат ҳисоблагичи ва тармоққа кўшилиш вақтини ҳисоблагичи ўрнатилган.

Иш ҳажми вақти  $10^5$  соатдан юқори бўлган замонавий элементли база бир-биридан гальваник изоляцияланган ультратовушли сарф ўлчагичнинг алоҳида қисмлари ва узатма қувурларидан иборат.

**Хулоса:** Сув хўжалиги тармоқларида қўлланилаётган мавжуд сув сарфини ўлчаш датчиклари ҳозирги замон талабларига тўла жавоб бермайди. Юқорида батафсил кўриб чиқилган Эталон - РМ датчигининг асосий афзалликлари сувнинг сифатига боғлиқ эмаслиги (экстремал шароитларга мослиги), эксплуатация муддатининг узоклиги, ўз-ўзини доимий назорат қилиши ва ўлчашдаги аниқлиги, сезгирлиги ва ишончлилиги, ахборотни сақлаш ва уни ўз вақтида узатиш имкониятларига эга эканлиги ҳамда уни объектга ўрнатиш қулайлигидир.

Бундай ультратовушли сарф ўлчагич минтақамиз шарт-шароитига мос келади ва уни суғориш тармоқларида, яъни қувурларда сув сарфини ўлчашда қўлланилса юқори ўлчаш аниқлиги билан биргаликда катта иқтисодий самарага эришиш мумкин.

#### Фойдаланилган адабиётлар

1. ДЖ.Фрайден. Современные датчики. – Техносфера.: Москва.-2006. – 586 с.
2. Ханна Шаумбург. Датчики. Под ред. проф. Р. Хамдамова. – Ташкент, 2002. – 471 с.
3. Ernest O.Dobelin. Measurement Systems: Application and design. McGraw - Hill. Higher Education.- New York, 2004 – pp.1078.
4. Abubakirov A B, Tanatarov R J, Kurbaniyazov T U, and Kumatova Sh B 2021 Intellectual Grid Modulation and Monitoring Turkish Journal of Computer and Mathematics Education 12(2) 1054-8.
5. AB Abubakirov, RJ Tanatarov, TU Kurbaniyazov, Sh B Kumatova 2021 ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11// Application of automatic control and electricity measurement system in traction power supply system/ 180-186 pages.
6. AB Abubakirov, QM Najmatdinov, TU Kurbaniyazov, Sh B Kumatova 2021 ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11 //Sensor characteristics monitoring and control of single and three-phase currents in electric networks/ 2282-2287 pages
7. AB Abubakirov, IK Gayipov, AJ Sultanov, ShB Kumatova 2021 ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11 //Calculation of the payback period for the introduction of reactive power sources into power supply systems/ 822-826 pages
8. <http://ultrasonic-time.ru/price.html>.

#### STANDARTLARNI ISHLAB CHIQUISHDA EKOLOGIK JIHLTLARNI HISOBGA OLISH

Doktorant **Ametova B X**, ilmiy rahbar **Boboyev G'.G'** docent (PhD) (TDTU)

Standartlashtirishning asosiy maqsadi inson hayoti va sog'ligi, atrof-muhit uchun xavfsiz, resurslarni tejash masalalarida iste'molchilar va davlat manfaatlarini himoya qilishdan, mahsulatlarning o'zaro almashinuvchanligi va bir-biriga mos kelishini ta'minlashdan, aholining hamda xalq xo'jaligining ehtiyojlariga muvofiq holda mahsulot sifatini oshirish va raqobatbardoshligini oshirishdan iborat.

Standart — bu standartlashtirish ob'ektlariga qoida, tartib va me'yorlar majmuasini qo'yuvchi maxsus tashkilot tomonidan tasdiqlangan standartlashtirish bo'yicha me'yoriy-texnik

hujjat hisoblanib, bu hujjatlar fan va texnika, ilg'or tajriba yutuqlari asosida ishlab chiqiladi. Ular jamoat uchun ma'qul echimlarni nazarda tutishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining «Standartlashtirish to'g'risida»gi Qonuniga asosan O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish ishlarini o'tkazishning umumiy tashkiliy-texnik qoidalarini tartibga solib turuvchi standartlashtirish tizimi faoliyat ko'rsatadi. Shu qonunga asoslanib quyidagi tashkilotlar Respublika hududida standartlashtirish ishlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va ta'minlashni amalga oshiradilar:

Sohalar	Davlat boshqaruv organlari
Xalq xo'jaligi tarmoqlarida	O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi («O'zstandart» agentligi)
Qurilish, qurilish industriyasi sohasida, shu jumladan loyihalash va konstruksiyalashda	O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi
tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga solish hamda atrof muhitni ifloslanishdan va boshqa zararli ta'sirlardan muhofaza qilish sohasida	O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi
Tibbiyot uchun mo'ljallangan mahsulotlar, shu jumladan dori vositalari, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika sohasida, shuningdek O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan, shu jumladan import bo'yicha yetkazib berilayotgan mahsulotlarda inson uchun zararli moddalar mavjudligini aniqlash masalalarida	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi
Mudofaa qobiliyatini va safarbarlik tayyorgarligini ta'minlash, mudofaa ahamiyatiga molik mahsulotlar sohasida	O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi amalga oshiradi

Ushbu Qonunga muvofiq davlat boshqaruv organlari o'z vakolatlari doirasida standartlar va texnik shartlarni, ushbu Qonunni qo'llashga doir yo'riqnomalar va izohlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi, nashr etadi.

O'zbekiston Respublikasining manfaatlari himoya qilinishini va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobat qila olish imkonini ta'minlash uchun asosli hollarda standartlarda istiqbolga mo'ljallangan, an'anaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan ildamlashgan dastlabki talablar belgilab qo'yiladi. Iste'molchilarga realizatsiya qilinadigan mahsulotga doir standartlar mahsulotning atrof-muhit, aholi hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga xavfsizligini ta'minlash uchun standartlarda belgilangan boshqa talablar davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik faoliyati subyektlari rioya etish uchun majburiy hisoblanadi.

Standartlashtirishda mahsulotni yaratish, ishlab chiqarishga tayyorlash, tayyorlash, realizatsiya qilish (yetkazib berish, sotish), undan foydalanish (uni ishlatish), mahsulotni saqlash, tashish va chiqindini foydali suratda ishlatish bosqichlarida, standartlar majburiy talablarining aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish to'g'risida ko'rsatmalar berilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi va «O'zstandart» agentligining 2020-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasida xalqaro standartlar talablariga asoslangan mahsulotlarni ixtiyoriy ekologik markirovkalash tizimini joriy etish to'g'risidagi taklifi ma'qullangan. Bu kelishuvga

asoslanib quyidagilar belgilangan:

- mahsulotlarni ekologik markirovkalash belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tkazilgan ekologik markirovkalash organlari tomonidan amalga oshiriladi;
- ishlab chiqarish, foydalanish, iste'mol qilish, tashish, saqlash va utilizatsiya qilishda atrof-muhitga, aholi sog'lig'iga va biologik resurslarga eng kam zararli ta'sir ko'rsatadigan mahsulotlar ekologik markirovkalash obyekti hisoblanadi;
- ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarni ixtiyoriy ekologik markirovkalash to'g'risida sertifikat olingandan keyin o'z mahsulotlarini ixtiyoriy asosda ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalaydilar;
- mahsulotlarni ixtiyoriy ekologik markirovkalash to'g'risida sertifikat mavjud bo'lmagan taqdirda mahsulotning nomida, o'ramida, tovarga ilova qilinadigan hujjatlarda va mahsulotni reklama qilishda "eko" va "eko" so'zlaridan foydalanish taqiqlanadi;
- dori vositalari, veterinariya preparatlari, tibbiy buyumlar, tarkibida zaharli, mutagen, kanserogen, atrof-muhit uchun xavfli deb tasniflangan moddalar, preparatlar va aralashmalar mavjud bo'lgan tovarlar ixtiyoriy ekologik markirovkalanmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi mahsulotlarni ixtiyoriy ekologik markirovkalash sohasida ishlarni tashkil etish bo'yicha vakolatli organ etib belgilangan va quyidagi vazifal yuklatilgan:

1. ekspertiza o'tkazish va ishlab chiqiladigan ekologik standartlarni ularga ekologik mezonlarni kiritgan holda tasdiqlash;
2. ekologik markirovkalash organlari mutaxassislarini o'qitish va malakasini oshirish, shuningdek, ushbu sohada xorijiy mamlakatlar bilan tajriba almashish;
3. xalqaro standartlar talablariga muvofiq ekologik markirovkalash tizimini takomillashtirish.

Ekologik xavfsizlik mezonlarini ishlab chiqishda quyidagi ekologik jihatlar hisobga olinishi kerak:

1. mahsulotlarni ishlab chiqarish, iste'mol qilish, foydalanish, saqlash, tashish, utilizatsiya qilish va qayta ishlash chog'ida atrof-muhitga, xususan, iqlim o'zgarishiga, biologik xilma-xillikka, energiyani tejashga, tabiiy resurslarga ta'sir darajasi, shuningdek, mahsulotni utilizatsiya qilish jarayonida hosil bo'lgan chiqindilarning ta'siri darajasi;
2. xavfli moddalarni xavfsizrog'iga almashtirish va eng yangi texnologiyalarni qo'llash;
3. mahsulotlardan foydalanish (sotish) va undan qayta foydalanish muddatini uzaytirish natijasida uning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish;
4. mahsulotlar hayot siklining turli bosqichlarida iqtisodiy foyda olish bilan atrof-muhitga, shu jumladan, inson sog'lig'iga yuklama o'rtasidagi umumiy muvozanat;
5. ekologik markirovkalashning boshqa milliy, mintaqaviy va xalqaro dasturlari tomonidan belgilangan ekologik mezonlar.

Mahsulotlarning ekologik xavfsizlik mezonlari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

mahalliy, mintaqaviy va global ekologik omillarni, shuningdek, mavjud texnologiyalarni hisobga olgan holda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilanishi kerak;

mahsulotning atrof-muhitga va inson sog'lig'iga eng sezilarli ta'siri chegaralashi va mahsulotlarning muhim ekologik jihatlarini belgilashi lozim;

belgilangan talablarni baholash uchun zarur bo'lgan nazorat usullari bilan aniqlanishi kerak;

tekshiriladigan minimal ko'rsatkichlarga, chegara darajalariga ega bo'lishi lozim;

muddatlarni, sinash usullarini va texnik hujjatlarni belgilashda mahsulotning tegishli

toifasi bo'yicha normativ-huquqiy bazaga muvofiq bo'lishi kerak;

mahsulotlarning toifasi tegishli bo'lgan tegishli tarmoqning rivojlanishini va ekologik xavfsizlik mezonlarini hisobga olish zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 1992-yil 9-dekabr
2. "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 1996-yil 26-aprel
3. "Ekologik nazorat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 2013-yil 27-dekabr
4. "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 2013-yil 4-oktabr
5. "Standartlashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 1993-yil 28-dekabr

### SIFAT TUSHUNCHASI VA SIFATNI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI

**Djumaniyazova.N.A** (QQDU Fizika fakulteti "Elektr texnikasi va metrologiya" kafedrası stajor o'qituvchi)

**Gayipov S.B.** (QQDU "Elektr texnikasi va metrologiya" kafedrası 2a1 guruh talabasi)

Sifat ko'p asrlar davomida rivojlanib kelgan. Sifat umum ehtiyojlar va ishlab chiqarish imkoniyatlarining o'sib borishi va ularni qonoolantirish bo'yicha turli xil holatlarda rivojlangan. Sifat – bu mahsulot yoki xizmatlarga belgilangan talablarni yoki kutilayotgan ehtiyojlarni qondirish xususiyatini anglatadigan tavsiflari yig'indisidir. Malakali xodimlar va tegishli texnologiya yordamida erishiladigan aniqlik, hamda ishlab chiqarish va mehnatning samaradorligi iste'molchi talabining qondirilishiga va sifatga olib keladi. Sifatning aniq bir tushunchasi mavjud emas sababi vaqt o'tishi bilan insonlarda talablar ortib boravergan sifat tushunchasi eng avval Aristotel (eramizdan oldingi uchinchi asr) shunday degan ya'ni narsalarni o'zaro farqlanishi. "yaxshi-yomon" alomatlari bo'yicha solishtirish (nisbati) keyinchalik esa Xitoycha talqini bunda Sifatni belgilovchi ikki elementdan tarkib topgan - "tenglik" va "pul" (sifat=tenglik+pul) ieroglif, shunday ekan sifat "yuqori klassli", "qimmat" tushunchalari bilan bir-biriga o'xshash. Eng qimmat narsa eng sifatlisi degan, Ishikova esa sifat iste'molchini haqiqatdan qonoolantiradi bundan hulosaga kelishimiz mumkin bizga maqul kelgani biz uchun sifatli deganidir.

Xalqaro hamjamiyat mahsulot sifatiga texnikaviy talablarni me'yorlashtirishga yagona yondashishni ishlab chiqdi. Bu ishda asosiy rol va muhim ahamiyat sifatni davlat tomonidan tartiblashtirish shakli va uni ta'minlash usullari sifatida qonunchilikga qaratilgan.

Ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning zamonaviy rivojlanish bosqichida mahsulot sifati milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy muammolari miqdoriga qaratiladi. Dunyodagi sanoati rivojlangan barcha mamlakatlarda mahsulot sifatini oshirish va uni jahon bozorida raqobatbardoshligi muammolarini hal etish yo'llari faol ravishda qidirilmoqda.

AQSH mutaxassislari mahsulotlari sifatini doimiy oshirish yo'llarini qidirishga, tashkilotning barcha darajasida doimiy mobillashtirish va korporativ madaniyatni to'liq qayta ko'rib chiqib, boshqaruvni qayta qurishni yangi islohiyatini, uni o'zgartirish bo'yicha sifatni boshqarishni takomillashtirishga katta umid qilishar edi. Amerikalik mutaxassis A.Feygenbaum ta'kidlashicha "sifat – bu afsonaviy emas, ratsionalizatorlik taklif ham emas va shior ham emas, bu hayot tarzidir" deb fikr bildirgan. Milliy mahsulot sifatini oshirish masalalariga qonunchilik va ijrochi hukumat tomonidan ham mamakatning iqtisodiy rivojlanishiga yangi ko'rinishiga e'tibor qaratilgan. Sifatni oshirish uchun umummiy kompaniyalarning asosiy vazifalaridan biri bu - "Sifat – hammasidan ustun" shiorini amalga oshirishga harakat qilish hisoblangan.

Sifatni boshqarish sohasida amerika tajribasini tahlil qilib uning quyidagi xarakterli xususiyatlarini aytib o'tish mumkin:

- matematik statistik usullaridan foydalanish bilan tayyorlanadigan mahsulotlarning sifatini qat'iy nazorat qilinishi;
- sifat ko'rsatkichlari va ishlab chiqarish hajmi bo'yicha rejalashtirish jarayoniga e'tibor, rejalarni bajarish ustidan ma'muriy nazorat qilinishi;
- firmani umumiy boshqarishni takomillashtirish.

AQSHda qabul qilingan mahsulot sifatini doimiy oshirishga yo'naltirilgan choralar Yaponiya va AQSH o'rtasida sifat darajasida uzilishiga barham berilishini sekinlashtirmaganligini aytib o'tish mumkin.

Yaponiya tajribasi shuni ko'rsatadiki sifatni yaxshilash ishlari hech qachon tugamasligidan dalolat beradi. Sababi bir qancha farqli jihatlari qatorida, unda millatlararo g'oya va universal tavsifdagi nazariy qoidalar mavjudligi bilan farqlanadi. Xorijiy ilg'or firmalarda sifatni boshqarish tizimi yanada to'liq va to'g'ri amalga oshirish konsepsiyasini topdi va o'z vaqtida mohiyati bo'yicha universalligi va tizimni joriy qilish va rivojlantirish tavsiflari yaratildi. Sifatni boshqarishga yaponcha yondashishning farqli elementlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. barcha bo'linmalar bo'yicha mehnat natijalari va jarayonlarini doimiy takomillashtiriga mo'ljallanish;
2. mahsulot sifatiga emas, arayonlar sifati nazoratiga mo'ljallanish;
3. nuqsonlar kelib chiqish ehtimoliga imkon darajada yo'l qo'ymaslikka mo'ljallanish;
4. navbatdagi o'pretsiyadan oldingiga, yuqori qarab oqim tamoyili bo'yicha yuzaga keluvchi muammolarni sinchiklab tadqiqot qilish va tahlil qilish;
5. o'stirish tamoyili: "Sening iste'mochiing – ishlab chiqarishning keyingi operatsiyasini bajaruvchisi"
6. bevosita bajaruvchilar ustidan va mehnat natijalari sifati ustidan to'liq javobgarlikni mustahkamlash;
7. inson omillaridan faol foydalanish, ishchi va xodimlarni ijodiy potensialini rivojlantirish, ma'nan o'stirish: "Yaxshi odamga yomon ishlash uyat".

"Yapon mo'jizasi"ning asosiy konsepsiyasi – hoh u ishlab chiqarish, texnologiya, boshqaruv yoki xizmat ko'rsatish bo'lmasin, takomillashgan texnologiyasidir.

Yaponiya korxonalarida xodimlar uchun "beshta nol" nomini olgan sifatni ta'minlashga qatnashish dasturi ishlab chiqilgan. U qisqa qoida vazifalar ko'rinishida shakllangan bo'lib quyidagicha:

1. nuqsonlarni paydo bo'lishiga sharoit yaratma;
2. nuqsonli mahsulotni keyingi bosqichga berma;
3. oldingi bosqichdagi nuqsonli mahsulotni qabul qilma;
4. texnologik tartibni o'zgartirma;
5. xatolarni qaytarma.

Bu qoidalar har bir ishchiga etkazilgan va xususan ishlab chiqarish va ishlab chiqarish tayyorlash bosqichlari uchun batafsillashtirilgan. SHunday qilib YAponiyada sifatga asosiy munosabatlari quyidagicha ta'kidlash mumkin:

- boshqarish va texnologiya sohasida ilmiy ishlanmalarni keng joriy etish;
- barcha boshqarish operatsiyalar, ishlab chiqarish ustida nazorat va tahlilini yuqori darajada kompyuterlashtirish;
- o'zining firmasiga vatanparvarligini tarbiyalash, tizimli va hamma joyda xodimni o'qitish, ijodiy faoliyatini (sifat to'garagi) rag'batlantirish bo'yicha qabul qilingan tadbirlar uchun inson omilidan maksimal foydalanish

Agar Yaponiya va AQSHda ko'p yillar davomida sifatni oshirish dasturlari amalga oshirilgan bo'lsa, sifat masalalarining faol siyosati sifatni uzoq muddatli rejalashtirish amalga



oshirilgan, unda Evropada sifatni boshqarish keskin istesnolar sababli sifat nazorati mavjudligi bo'yicha orqada qolgan. Evropa bozoriga yetkazilayotgan mahsulot normal munosabat holati uchun mustaqil tashkilot tomonidan sertifikatlashtirilishi lozim. Mahsulotni sertifikatlashtirishdan tashqari mahsulot sifatini baholovchi va tekshiruvchi xodimlar hamda sinov laboratoriyalari akkreditatsiyadan o'tkaziladi. Ularning faoliyatini eng muhim jihati mahsulot ishlab chiqaruvchi va ta'minotchi o'rtasida bo'lgan tushunmovchiliklarni hal qilish va iste'molchilarning talablarini qondirish ustidan nazoratni amalga oshirilishidir.

Firmalar mahsulot sifatini oshirish sohasida yanad shiddatli siyosat o'tkazib, jarayonlar esa yanada qat'iy nazoratga duchor qilingan. Sifat evropa mamlakatlarida raqobatbadoshlikni ta'minlovchi omillardan bo'lib qoldi. Bunday strategiyani amalga oshirish uchun quyidagilar talab etilgan:

1. Yagona qonuniy talablar;
2. Yagona standartlar;

Firmaning bozorga muvofiqligiga ishonch hosil qilish uchun yagona tekshirish jarayonlar. Sinov va sertifikatlashtirish bo'yicha Evropa muvofiqlashtiruvchi kengashi va Sifat tizimini baholash va sertifikatlashtirish bo'yicha Evropa qumitasi tashkil etildi. Qumita tarkibiga Buyukbritaniya, SHveysariya, GFR, Avstriya, Daniya, SHvetsiya, Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya, Gollandiya, Belgiya, Finlandiya, Norvegiya, Irlandiya va Italiyaning sertifikatlashtirish idoralari kiradi. O'tkaziladigan ishlarning asosiy vazifasi kam xarajatlar bilan evropa yagona bozorida millionlab iste'molchilarning so'rovlarini to'liq qondirishdir.

Evropa bozori unga kirmoqchi bo'lgan boshqa mamlakatlarning firmalari oldiga jiddiy vaziflarni qo'yadi. Evropaning yirik firmalariga raqobatchilik kurashida tura olishi uchun mahsulot sifatining barqarorligini kafolatlash bilan aloqador bo'lgan mahsulot sifatini boshqarishning ilg'or shakllari va usullarini tanlash uchun kuchlarni birlashtiradi. Ular quyidagilar:

1. barqaror texnologiya;
2. qurilma va jihozlarning texnologik aniqligini qo'llab-quvvatlashning yaxshi tizimi;
3. mahsulotni sinash va nazoratining metrologik vositalari;
4. samarali kadrlar tayyorlash tizimi.

Rossiyada mahsulot sifatini yaxshilash uchun harakatlar sanoatlashtirishga o'tish davrida yuzaga kelgan. Vaqt o'tish davomida hattoki alohida va katta, tarqoq chora-tadbirlarni o'tkazish yo'li bilan mahsulot sifatini muvaffaqiyatli takomillashtirish erishish mumkin emasligi aniq edi. Faqat ilmiy asoslangan o'zaro aloqador texnikaviy, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy tadbirlarni tizimli va kompleks ravishda amalga oshirish bilan mahsulot sifatini muvaffaqiyatli va tez takomillashtirish mumkin.

Mahsulot sifatini ta'sir etuvchi omillarni umumlashgan uchta blokga bo'lish mumkin:

1. Ichki (firma ichida) holat: tartib; qurilmalar; texnologiya; metrologik ta'minot; sinov bazasi; texnikaviy nazorat; tashkiliy tuzilma; tizim.
2. Inson omillari: malaka; tajriba; kasbiy mahorat; dunyo qarashi; faolligi va qiziqishi; ilg'or tajriba almashinish.
3. Tashqi sharoitlar: bozor talabi; etkazib berilayotgan xom-ashyo, materiallar, butlovchi buyumlarning sifati; sheriklardan ta'minotning bir maromligi; sifatni huquqiy ta'minoti (nuqsonli mahsulotlar uchun yuridik javobgarlik); sifatni tasdiqlash va baholashning zaruriyati; davlatning qo'llab-quvvatlashi, investitsiyalar; nazorat va tekshirishni talabchanlik; mahsulot va ishlab chiqarish tarkibiga talablarni kelishilganligi; konstruktorlik ishlanmalar darajasi.

Mahsulot sifatini ta'sir etuvchi omillarni kengroq va batafsil sinflanishi quyidagicha

TEXNIKAVIY	TASHKILiy	IQTISODIY	IJTIMOiy
------------	-----------	-----------	----------

<ul style="list-style-type: none"> <li>• ishlab iqtisodiyotga mahsulot turi va uni seriyali ishlab chiqarish;</li> <li>• texnikaviy hujjatlarning holati;</li> <li>• texnologik qurilmalar, jihozlar va vositalarning sifati;</li> <li>• sinov qurilmalarining holati;</li> <li>• o'qchash va nazorat vositalarining sifati;</li> <li>• birlamchi materiallar, xomashyo va butlovchi buyumlarning sifati.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Materiallar, xomashyo va boshqalar bilan ta'minlash;</li> <li>• Qurilma, jihozlarning texnikaviy xizmat ko'rsatish;</li> <li>• Rejali va bir maromda ishlash;</li> <li>• Ta'notchilar bilan ishlarni tashkillashtirish;</li> <li>• Axborot ta'mini tashkillashtirish;</li> <li>• Mexnatni ilmiy tashkillashtirish, ishlab chiqarish madaniyati;</li> <li>• Ovqatlanish va dam olishni tashkillashtirish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Mehnatga haq to'lash shakli va maosh kattaligi;</li> <li>• Yuqori sifatli mahsulot va ishlar uchun rag'batlantirish;</li> <li>• Brak uchun chegirib qolish;</li> <li>• Mahsulot sifati, tan narxi va bahosining o'zaro munosabati;</li> <li>• Xo'jalik hisobini yuritish va tashkillashtirish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Tarbiyaviy ishlarning holati;</li> <li>• Kadrlarni tanlash, joylashtirish va almashtirish;</li> <li>• Malakani oshirish va o'qishlarni tashkillashtirish;</li> <li>• Ijtimoiy musobaqalarni tashkillashtirish va o'tkazish;</li> <li>• Jamoadagi o'zaro munosabat;</li> <li>• Yashash-xo'jalik sharoitlari;</li> <li>• Ish vaqtida dam olishni tashkillashtirish.</li> </ul>
--	--	--	---

Tizimning maqsadi – texnik hujjatlardan chetga chiqmasdan ishchilar mahsulot tayyorlash jarayonini ta'minlovchi ishlab chiqarish shart-sharoitlarini yaratish. Ishchilar mehnati sifatini miqdoriy baholash uchun qo'llaniladigan asosiy mezonlar mahsulot birinchi paydo bo'lishi bilan foizlarda partiya miqdoriga foizli nisbati sifatida texnik nazorat bo'limi TNB (otdel texnicheskogo kontrolya – OTK) tomonidan aniqlagan. Tayyorlangan mahsulotning umumiy miqdoriga birinchi paydo bo'lgan mahsulot bilan solishtirish qabul qilingan. Aniqlangan shkala bo'yicha ijrochilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish mahsulotni topshirish foiziga bog'liq bo'lgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Исматуллаев П.Р., Максудов А.Н., Абдуллаев А.Х., Ахмедов Б.М., Аъзамов А.А. Метрология стандартлаштириш ва сертификатлаштириш. “Узбекистон” Тошкент, 2001.
2. Исматуллаев П.Р., Ахмедов Б.М., Матякубова П.М., Хамрокулов Ф.Х., Тураев Ш.А. Сифат менежменти тизими ва уни сертификатлаштириш. Дарслик. Тошкент, Sano-standart, 2014. – 330 б.
3. Абдувалиев А.А. и др. Основы стандартизации, сертификации, метрологии и управления качеством продукции. Учебное пособие. - Ташкент: Издательство ТГТУ, 2002. - 287 с.
4. Ахмедов Б.М., Исматуллаев П.Р., Тураев Ш.А. Сертификатлаштириш ва сифатни бошқариш асослари: 5521600 - “Метрология, стандартлаштириш ва сертификатлаштириш” ва 5524300 - “Махсулот сифати менежменти (махсулот турлари буйича)” йуналишлари бакалаврият талабалари учун укув кулланма. УзР ОУМТВ; ТДТУ. - Тошкент, 2007. -233 б.

УДК 389(075.8)

## INTELLEKTUAL DATCHIKLAR VA SIMSIZ HART PROTOKOLINING ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARIDAGI IMKONIYATLARI

**Suvonov B.I.** Toshkent Davlat Texnika Universiteti “Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish” kafedrasida magistranti

**Abduqodirov A.A.** Texnika fanlari doktori, professor. Toshkent davlat texnika Universiteti “Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish” professori.


**Mirzayev Sh.N.** Toshkent Davlat Texnika Universiteti “Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish” kafedrasida magistranti

Dinamik o'zgaruvchan holatga ega bo'lgan murakkab texnologik jarayonlarni boshqarish uchun berilgan maxsuliy qoidalarni yuqori aniqlik va real vaqt tezligida ishlab chiqariladigan taqsimlangan sano'at kompyuter tizimlari kerak. Taqsimlangan sano'at kompyuter tizimlarni yaratishda asosiy e'tibor intellektual boshqaruv usullarini ishlab chiqish va qo'llash, taqsimlangan hisoblash va axborotni intellektual qayta ishlashga qaratiladi. Bugungi kunda ishlab chiqarishdagi boshqaruvda aniqlik va ma'lumotlar bazasini yaratishda intellektuallashtirishdan keng foydalanilmoqda. Boshqaruv tizimlarini intellektuallashtirish endi nafaqat sanoat kompyuterlari va kontrollerlari, balki bugungi kunda o'lchash asboblari (datchiklar) ni ham o'z ichiga olmoqda.

Darhaqiqat, texnologik ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash uchun o'lchash asboblariidan faqatgina o'lchanayotgan kattalik haqida ma'lumot olmasdan qo'shimcha murakkabroq ma'lumotlarni almashishni ham talab etadi. Zamonaviy elektronika qurilmalarining takomillashtirilishi datchiklarda o'rnatilgan mikroprotsessorning ixchamligini, aniqligini va yanada qo'shimcha imkoniyatlarni qo'shishga imkon beradi. Bu esa o'z navbatida birlamchi o'lchash asboblariining (datchiklarning) mikroprotsessorli va hotira elementli ega bo'lgan yangi avlodini shakllanishiga sabab bo'ldi.

Intellektual o'lchash asboblari - bu tashqi signallar bilan o'zgartirilishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish algoritmlari, va parametrlarini o'z ichiga olgan moslashuvchan datchiklar bo'lib, ularda metrologik o'zini o'zi boshqarish, o'rganish funksiyasini va berilgan ma'lumotlarni o'z hotirasida saqlash kabi imkoniyatlarni amalga oshiriladi. Ingliz tilidagi adabiyotlarda bu turdagi datchiklar smart sensor-"aqli sensor" deb ataladi. Bu atama 1980-yillarning o'rtalarida aniqlangan.

O'lchash asboblariining sun'iy intellekti mikroprotsessorli texnologiyalar tomonidan boshqariladi. Mikroprotsessor bu o'lchash asbobining miyasi bo'lib, u qo'rilma ishlayotgan sharoitlarni batafsil o'rganishni taminlaydi. Bunday o'lchash asbobi o'z-o'zini o'qitadigan mikroprotsessorli tizim bo'lib, u katta hajmdagi axborotlarni yuqori tezlikda qayta ishlay oladi. Aynan mikroprotsessorlar sharoiti bilan bugungi kunda ishlab chiqarishda shu kabi o'lchash asboblariini o'rnatish, sozlash va ishlatish ancha qo'lay va ishonchli. Ularda axborotni qayta ishlashdan foydalanish orqali yangi funktsionallikka ega bo'lgan qurilmalarga nisbatan qo'llaniladi.



1-rasm. Intellektual datchikning blok sxemasi.

Intellektual o'lchash asboblari sinfiga mansub qo'rilmalar tomonidan qanday funksional imkoniyatlar bilan taminlanganligini batafsil sanab o'tamiz:

1. **Asosiy va qo'shimcha xatoliklarni kompensatsiyalash.** Kompensatsiyalashni 3 turga bo'lishimiz mumkin:

- chiziqli bo'lmagan kompensatsiya;
- harorat ta'sirini kompensatsiyalash;
- birlamchi o'zgartgich degradatsiyasi sababli vaqt bo'yicha o'zgarishini kompensatsiyalash.

Bunday holda asosiy va qo'shimcha xatoliklarni bir necha marta kamaytirish mumkin. Intellektual datchiklar maksimal samaradorlikka erishish uchun o'zini- o'zi doimiy ravishda sozlab turadi.

2. **Ma'lumotlar ishonchliligini baholash.** Intellektual datchiklardan foydalanish faqatgina chiqish signali ustida ishlamasdan, doimiy ravishda diagnostika qilish, nosozliklarni kuzatish va o'lchovlarning ishonchliligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Diagnostikada o'lchanayotgan ob'ektning barqarorligini, datchikdagi sezgir elementning holati haqidagi ma'lumot, shuningdek birlamchi o'zgartgich ya'ni sensordan chiqayotgan juda zaif signallarni kuchaytirish (multipleksor), nosozlik yuzaga kelganda datchikning to'liq ishlamay qolish xavfi haqida ogohlantirishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, sim uzilishlari (*simsiz datchiklarda esa batareya haqidagi ma'lumot*), modullarning nosozliklarini avtomatik aniqlash va qisqa tutashuvlar paytida tarmoqdan avtomatik tarzda o'zib tashlash kabi funksional imkoniyatlari bilan ta'minlangan.

3. **Raqamli aloqa interfeysiga ma'lumotlarni uzatish imkoniyati.** Analog liniyalarini qisqartirish va ma'lumotlarni raqamli shaklda o'zlash imkonini beradi. Ushbu yondashuv kontrollerda datchikdan kelayotgan signalni analog-raqamli o'zgartgichlarga bo'lgan ehtiyojni yo'q qiladi. Intellektual datchiklarning yana bir qo'layliklaridan biri bu bir nechta datchiklarni bitta kabelga ulash va simli aloqa liniyalari sonini minimallashtirish va buning natijasida avtomatlashtirish tizimining ishonchliligiga erishish va texnik xizmat ko'rsatishni soddalashtirishdan iborat. Buni ustiga intellektual datchiklar raqamli ma'lumot uzatganligidan foydalanib bugungi kunda zamonaviy simsiz aloqa liniyalaridan biri Wireless HART (IEC 62591) protokolidan keng foydalanilmoqda.

4. **Aloqa imkoniyatlarining kengayishi.** Interfeysning kengayishi intellektual datchiklarning qullanilishida muhim jihat hisoblanadi. Raqamli interfeysning qullanilishi datchik va foydalanuvchi o'rtasidagi ikki tomonlama aloqani moslashuvchan boshqaruv uchun ta'minlaydi: datchikda o'rnatilgan xotira orqali qayta sozlashlar, kalibrovkalashlar, konfiguratsiyalar va joylashuvlarini aniqlash. Masofaviy konfiguratsiyalash obyekt ustidagi sozlashlar va rejimni tanlash kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Qayta konfiguratsiya qilish imkoniyati qurilmalarni birlashtirishga, bir nechta turli datchiklar bir xil modeldagi qurilma bilan almashtirilishiga olib keladi, bu ularni ishlab chiqarishda ham, texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarida ham afzallik beradi.

Zamonaviy intellektual datchiklardan biri bu Emerson kompaniyasida ishlab chiqilgan Rosemount 648 temperatura datchigi bo'lib, u Wireless (simsiz) HART protokollari aloqa imkoniyatini ta'minlaydi.



2-rasm. Rosemount 648 temperatura datchigining tashqi ko`rinishi.

Simsiz HART standarti 2007-yilda 37 ta kompaniya, jumladan, yirik asbob uskunalar va o`lchash asboblari ishlab chiqaruvchilardan tashkil topgan HART Communication Foundation tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu protokol 2.4 GHz – 2.5 GHz radio signal chastota diapazonida ma'lumot almashadi.

2010 yil aprel oyida Wireless (simsiz) HART standarti Xalqaro Elektrotexnika Komissiyasi (IEC) tomonidan IEC 62591 raqami ostida ushbu simsiz aloqalarni sanoat avtomatlashtirishida birinchi xalqaro standart sifatida bir ovozdan tasdiqladi.

Simsiz HART texnologiyasining asosiy afzalliklari:

1. Butun dunyo bo'ylab o'rnatilgan 32 milliondan ortiq HART qurilmalarida mavjud bo'lgan, ammo kirish imkoni bo'lmagan qo'shimcha diagnostika va o'lchov ma'lumotlariga kirishni ta'minlash.

2. Qo`rilmalar uchun kabel yo`llarini yotqizishning hojati yo`qligi sababli, ishlab chiqarish jarayonlarini ishga tushirish vaqtini qisqartirish, kabelga va uni yotqizishga ketadigan sarf-xarajatlarni oldini olish.



3-rasm. Mesh tarmog`iga asoslangan simsiz HART protokoli.

3. Simsiz HART protokoli asosida qurilgan simsiz yechimlar uchun asos sifatida o'z-o'zini tashkil etuvchi yulduz topologiyasiga asoslangan mesh tarmoq (*mesh network*) texnologiyalari olinadi. Ya'ni, tarmoqni tashkil etish parametrlari minimal tarzda foydalanuvchi ishtiroki bilan avtomatik ravishda sozlanadi.

4. Ma'lumot almashinish hajmi juda kichik (baytlarda) bo'lganligi sababli intellektual datchikda o`rnatilgan quvvatlovchi moslama (bataryka) uzoq yil xizmat qila oladi (3 yil). Bu esa barcha qo`rilmalarni zavoddagi har 3 yilda olib boriladigan kalibrovkalash jarayonida zaryadlash imkonini beradi. Zarur sharoitlarda esa qo`rilmaga kichik hajmdagi quyosh paneli o`rnatish imkoni ham mavjud.

5. Simsiz tarmoqlarning mavjudligi, bulutli (cloud technology) hisoblashning paydo bo'lishi va ma'lumotlarni o`zlashtirish va qabul qilish texnologiyalarining rivojlanishiga, ma'lumotlarni cloud texnologiyasida saqlashga va kerakli vaqtda foydalanishga imkon berdi.

6. Tarmoqqa yangi qurilma qo'shish uchun tarmoqqa kirish parolini kiritish kifoya.

7. Mesh (to`r) topologiyadan foydalanganligi sababli tarmoq tugunlari orasidagi masofalar bir necha kilometrga yetishi mumkin.

8. Simsiz ma'lumotlarni uzatuvchi datchiklar uchun yuqori tezlikda ishlaydigan samaradorlik, xatolarga chidamlilik, moslashuvchanlik va o'z-o'zini tashkil etish qobiliyati bugungi kunda ommalashayotgan (*Industry 4.0*) sanoatning 4-inqilobi (*Industry 4.0*) ning asosi hisoblanayotgan IioT ni (*Industrial Internet of Things*) qo`llashda muhim rol o'ynaydi.

Mesh topologiyasiga asoslangan tarmoq ishonchli, energiya tejankor va katta tarmoqli kengligiga ega. Yuqori ishonchlik ortiqcha ma'lumotlarni uzatish marshrutlarining mavjudligi bilan ta'minlanadi: sensorlardan biri o'chirilganda, ma'lumotlar zaxira yo'li bo'ylab chetlab o'tadi. Bir nechta muqobil marshrutlardan foydalanish tarmoq o'tkazuvchanligini oshiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. N.R. YUSUPBEKOV, R.A. ALIYEV, R.R. ALIYEV, A.N. YUSUPBEKOV Boshqarishning intellektual tizimlari va qaror qabul qilish. Toshkent-2015 yil.
2. Г. Г. Раннев - “ Интеллектуальные средства измерений ” Учебник Издательский центр Академия , 2011. – 272 с.
3. Гаскаров Д.В. Интеллектуальные информационные системы / Д.В. Гаскаров – М: Высш.шк., 2003. – 431 с.
4. Искусственный интеллект и интеллектуальные системы управления / И.М. Макаров, В.М. Лохин, С.В Манько, М.П. Раманов – М.: Наука, 2006. – 333 с.
5. Захаров В.Н. Современная информационная технология в системах управления / В.Н Захаров // Изв. РАН. Теория и системы управления. - 2000. - № 1. –С. 70 – 78.

#### **НЕКОТОРЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ОТКАЗОУСТОЙЧИВЫХ ЭЛЕМЕНТОВ И УЗЛОВ СИСТЕМ УПРАВЛЕНИЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИМИ ПРОЦЕССАМИ И ПРОИЗВОДСТВАМИ**

**Тоштемиров Р.Т.** *Тошкент давлат техника университети “Ишлаб чиқариш жараёнларини автоматлаштириш” кафедраси магистранти*  
**Тураев Х.С.** *Тошкент давлат техника университети “Ишлаб чиқариш жараёнларини автоматлаштириш” кафедраси докторанти*  
**Юсупбеков А.Н.** *техника фанлари доктори, профессор Тошкент давлат техника университети “Ишлаб чиқариш жараёнларини автоматлаштириш” кафедраси мудири*

Основой для повышения эксплуатационно-технических характеристик элементов и устройств распределенных информационно - управляющих систем являются достижения отечественной и зарубежной науки и техники в области технической диагностики и теории надежности. Среди большого количества публикаций теоретического и прикладного характера в рассматриваемой предметной области можно выделить работы Пархоменко П.П., Сагунова В.И., Ломакиной Л.С., Чипулиса В.П., Кона Е.Л., Тюрина С.Ф., Дианова В.Н., Половко А.М. и др. При этом сохраняют актуальность проблемы разработки и исследования новых диагностических моделей элементов и устройств РИУС для разных задач и этапов диагностирования, а также обоснование и выбор математического аппарата для их корректного и адекватного описания.

Проблемы разработки научных основ проектирования и внедрения отказоустойчивых элементов и устройств систем управления технологическими процессами и распределенными объектами рассматривались и решались в работах Olsson G., Piani D., Dietrich D., Loy D., Schweinzer H.-J. и др. Развитием данного направления является разработка методов повышения контролепригодности, реализация которых повышает эффективность процедур диагностирования и, как следствие, обеспечивает улучшение качественных и эксплуатационных характеристик элементов и устройств распределенных информационно - управляющих систем.

Одним из основных компонентов РИУС является подсистема сбора, передачи и распределения информации, элементы и устройства которой реализуют современные

информационные и телекоммуникационные технологии. В области проектирования и внедрения систем диагностирования (контроля технического состояния) элементов и устройств РИУС можно отметить монографии, статьи и доклады на научно-практических конференциях Костина А.А., Бакланова И.Г., Иванова А.Б., Гордиенко В.Н. и др. Однако среди большого количества публикаций и научных работ некоторые вопросы остались недостаточно проработанными. Так, речь идет о построении диагностических тестов с учетом специфики диагностических моделей объекта при решении разных задач диагностирования, а также разработке и практической реализации алгоритмов диагностирования неисправностей, заданных конкретной диагностической моделью (моделью дефектов).

При решении задач диагностики элементов и устройств сложных технических систем важной составляющей является выбор и применение адекватного математического аппарата и методов. В данном случае перспективно использовать научные результаты в области математических методов построения и исследования элементов систем управления, представленные в фундаментальных работах отечественных и зарубежных ученых: Васильева С.Н., Новикова Д.А., Zadeh L.A., Mamdani E.H.

В настоящее время активно развивается направление нейронных технологий и «неклассических» (нечетких) математических моделей и методов, что отражено в работах Callan R., Osowski S., Rutkowska D., Pilinsky M., Rutkowsky L., Haykin S., Комашинского В.И., Смирнова Д.А., Ясницкого Л.Н., Хижнякова Ю.Н. При этом практически отсутствуют публикации по тематике применения теории нечетких множеств и методов нечеткой логики, а также их сочетание с аппаратом и методами двоичной логики, в задачах дешифрации и принятия решений по результатам тестового диагностирования технических объектов.

Для повышения достоверности передачи как важного фактора обеспечения надежности функционирования современных информационно-управляющих систем были проведены исследования, опубликованы результаты и внедрены в современные технологические решения и научные достижения таких ученых, как Peterson W., Weldon E., Vlahut R., Hemming R., Финк Л.М. и др. При этом можно отметить, что новизной и оригинальностью обладает постановка и решение задачи применения математического аппарата нечетких множеств и методов нечеткой логики для описания моделей ошибок в каналах передачи управляющей и диагностической информации РИУС; алгоритмов принятия решения на уровне элементарных сигналов и сообщений.

Проблема создания автоматизированных систем управления технологическими процессами и производствами с комплексом заданных параметров может быть решена с использованием методов оптимизации сложных технических систем. Показатели надежности и эффективности относятся к числу главных характеристик АСУ. Особое значение приобретают показатели надежности для систем ответственного назначения, в которых допустимая вероятность сбоя крайне мала: атомные станции, космические системы и пр.

АСУ строятся по объектному принципу, когда структура системы выбирается подобной структуре объекта автоматизации, а каждая подсистема является локальной, т.е. все обратные связи замкнуты в пределах этой подсистемы [1]. Каждая локальная подсистема выполняет отдельную функцию, задаваемую логикой функционирования всей системы. Объектный принцип построения позволяет упростить проектирование многоуровневой системы и обеспечить ее структурную (архитектурную) надежность.

Современные автоматизированные системы управления имеют многоуровневую архитектуру с активным использованием интернет технологий в схемах управления. Можно отметить, что в высокоавтоматизированном многоименклатурном производстве

использование гибких технологий позволяет в короткие сроки и в автоматизированном режиме осваивать выпуск новой продукции. Промышленная сеть может быть подключена не только к одному компьютеру, но и к сети компьютеров (например, к локальной сети Ethernet или глобальной сети Internet). Такая архитектура автоматизированной системы удобна при коллективной работе с системой автоматизации или для связи технологического уровня АСУ с управленческими уровнями.

Анализ сложных систем управления позволяет выделить в них несколько однородных уровней иерархии. Гибкая технология [1] - высокоавтоматизированное многономенклатурное производство, позволяющее в короткие сроки и в автоматизированном режиме осваивать выпуск новой продукции. Наиболее полно гибкая и безлюдная технологии реализуются в гибких производственных системах и в гибких автоматизированных производствах.

### Литература.

1. Юсупбеков Н.Р., Алиев Р.А., Алиев Р.Р., Юсупбеков А.Н. Системы искусственного интеллекта и принятия решений, Изд-во "Миллий энциклопедияси", Ташкент, 2014-460 с.

## MASHINASOZLIKDA SIFATNI BOSHQARISH

**Ametov Q.X.** - Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizm va sport boshqarmasi Qo'ng'iroq tumani bo'limi turizm bo'yicha bosh mutaxassisi

Mashinasozlik majmuasi mahsulotlari ichki va tashqi bozorlarda iste'mol qilinadi, ularning har biri bir-biridan farq qiladi, shuning uchun ularning tarmoqlarini mashinasozlik mahsulotlarini yetkazib beruvchilar nuqtai nazaridan ko'rib chiqish tavsiya etiladi, keyin esa uni quyidagi guruhlar birlashtirish mumkin.

1) rivojlanishi yoqilg'i-energetika, qurilish-transport komplekslarining investitsiya faoliyati bilan belgilanadigan investitsiya muhandisligi (og'ir, energetika, transport, neft, qurilish va yo'l qurilishi) tarmoqlari guruhi;

2) qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchilarning ishlab chiqarish qobiliyatiga, shuningdek, qisman iste'molchi talabiga qarab, agrosanoat majmuasining qayta ishlash tarmoqlari uchun traktor va qishloq xo'jaligi mashinasozligi, mashinasozlik korxonalari guruhi va yengil sanoat korxonalari;

3) elektrotexnika, asbobsozlik, uskunasozlik - sanoatning boshqa barcha tarmoqlari, shu jumladan mashinasozlikning boshqa tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda rivojlanayotgan fanga asoslangan, komponentlar deb ataladigan tarmoqlar guruhi;

4) ishlab chiqarilishi yengil avtomobillar bo'yicha, shuningdek uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar bo'yicha yakuniy iste'molchilarga, yuk avtomobillari va avtobuslar bo'yicha esa korxonalar, firmalar va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari ehtiyojlariga yo'naltirilgan avtomobilsozlik sanoati.

Mashinasozlik kompleksi korxonalarining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillarga quyidagilar kiradi:

- eskirgan va eskirgan ishlab chiqarish fondlari;
- ishchi va investitsiya fondlarining yetishmasligi;
- tabiiy monopoliyalar mahsulotlari narxlarining o'sishini ortda qoldirish;
- korxonalarining aylanma mablag'larini sezilarli darajada kamaytiradigan soliqqa tortish darajasi;
- sanoat korxonalarida kadrlar etishmasligi.



Ushbu omillarning kombinatsiyasi muammolarning noxush doirasini keltirib chiqaradi: eskirgan mablag'lar - mahsulot sifati pastligi - past raqobatbardoshlik - sotishning past hajmi - moliyaviy resurslarning yetarli aylanmasi - uskunalarni yangilash uchun mablag'larning etishmasligi.

Bularning barchasi mashinasozlik sanoatida ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga, korxonalarining investitsiya va innovatsion faolligining pasayishiga va mahalliy mashinasozlik mahsulotlarining raqobatbardoshligiga olib keldi.

Bu ayovsiz doiraning uzilishi ichki va tashqi bozorda raqobatbardosh, sifatli mahsulotlarni ishlab chiqish va ishlab chiqarishda ko'rinadi.

Mashinasozlik mahsulotlari (mashinalar) turli xil texnologik jarayonlarni, shu jumladan boshqa turdagi mahsulotlarni yaratishni amalga oshirish vositasidir. Mashinalarni yaratishda ikkita vazifa qo'yiladi. Birinchi vazifa sifatli mashina yaratish va shu bilan u bilan ishlab chiqarilgan mahsulot yoki xizmatlarni olishda mehnatni tejashni ta'minlashdir. Ikkinchi vazifa - mashinaning o'zini yaratish va sifatini ta'minlash jarayonini amalga oshirish uchun turli xil resurslarning xarajatlarini kamaytirishdir.

Mashina qismlarining ishlash xususiyatlariga texnologik gen hodisasi sezilarli darajada ta'sir qilishi aniqlandi, bu ish qismining mexanik va fizik-kimyoviy xususiyatlari yoki individual ishlab chiqarish operatsiyalari paytida ishlov beriladigan qismda hosil bo'lgan xususiyatlar va xatolarni o'tkazishdan iborat. Mahsulotning texnologik geni mashina qismlarining ekspluatatsion xususiyatlarining yaxshilanishi va yomonlashishida o'zini namoyon qilishi mumkin. Ta'sirning tabiatini aniqlashtirish, agar qismlarning ekspluatatsion xususiyatlari va ishlov beriladigan qismlarni qayta ishlash usullari, ularni ishlab chiqarishning tanlangan usullari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik aniqlangan taqdirdagina mumkin.

Mashinasozlik mahsulotlarining ma'lum sifat ko'rsatkichlarini ta'minlash bo'yicha individual vazifalarni hal qilishda va sifati bo'yicha xorijiy analoglardan ustun bo'lgan mashinalarni yaratishda erishilgan katta yutuqlarga qaramay, mahalliy mashinasozlik mahsulotlarining katta qismi nafaqat tashqi, balki mahalliy ishlab chiqarishda ham raqobatbardoshdir. Shu munosabat bilan, mashinalar sifatini ta'minlash va yaxshilashning alohida muammolarini hal qilishdan sifat menejmentiga o'tish zarurligini tushunish paydo bo'ldi.

Loyihalashda ko'rib chiqilgan usullarning ko'lamini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, mashinani loyihalashning dastlabki bosqichlarida faqat Taguchi mustahkam dizayn usuli va sifat funksiyasini joylashtirish usuli qo'llaniladi. Biroq, mustahkam dizayn usuli eksperimentni rejalashtirish usullaridan foydalanishga asoslangan va optimal eksperimental namunalarni tanlash uchun mahsulotning turli xil modifikatsiyalarini ishlab chiqarish va sinovdan o'tkazishni talab qiladi. Shu munosabat bilan, bu usul katta xarajatlarni talab qiladi va uni murakkab muhandislik mahsulotlarini yaratishda qo'llash muammoli ko'rinadi. Bundan tashqari, mustahkam dizayn usuli mahsulot sifati ko'rsatkichlarini tanlash va asoslashni qo'llab-quvvatlamaydi.

Sifat funksiyasini joylashtirish usulining mazmuni va uning kamchiliklari tahlili 1.3-bo'limda keltirilgan. Nosozliklarni sabab-oqibat tahlili mahsulotning dastlabki dizaynini talab qiladi va shuning uchun bu usul mashina kontseptsiyasini ishlab chiqishda qo'llanilmaydi. Muammolarni tahlil qilish va hal qilish uchun ettita sifatli vositalar va guruh usullari faqat boshqa usullarning bir qismi sifatida mashinani loyihalashning dastlabki bosqichlarida qo'llanilishi mumkin.

Mahalliy mashinasozlik mahsulotlarining tashqi bozorda past raqobatbardoshligi ko'pincha faqat atrof-muhit sifati ko'rsatkichlarining past qiymatlari bilan belgilanadi.

Barqaror rivojlanish va ekologik yo'naltirilgan iqtisodiyotni yaratish yo'llaridan biri ISO 14000 seriyali standartlariga mos keladigan sifat menejmenti va atrof-muhitni boshqarishning integratsiyalashgan tizimlarini joriy etishdir.

GOST ISO 14000 standartlari tizimiga kiritilgan hujjatlarni uchta asosiy guruhga bo'lish mumkin:

- 1)atrof-muhitni boshqarish tizimlarini yaratish va ulardan foydalanish tamoyillari;
- 2)atrof-muhit monitoringi va baholash vositalari;
- 3)mahsulotga yo'naltirilgan standartlar.

Ushbu standartlardagi mahsulotlar mahsulotlarga ham, xizmatlarga ham tegishli.

Standart ushbu usul xom ashyoni sotib olishdan tortib to ishlab chiqarish, foydalanish va yo'q qilishgacha bo'lgan mahsulotning butun hayotiy tsikli davomida ekologik jihatlarni va mumkin bo'lgan ta'sirlarni baholashi mumkinligini e'lon qiladi. Atrof-muhitga ta'sirning asosiy toifalari - resurslardan foydalanish, inson salomatligi va atrof-muhitga ta'sir mahsulotlarning hayot aylanishining turli nuqtalarida ekologik jihatlarni yaxshilash;

o sanoat, davlat yoki nodavlat tashkilotlarda qarorlar qabul qilish (masalan, strategik rejalashtirish, ustuvorliklarni belgilash, mahsulot yoki jarayonni loyihalash va qayta loyihalashda);

o tegishli ekologik ko'rsatkichlarni, shu jumladan o'lchash usullarini tanlash;

o marketing (masalan, eko-yorliq tizimi yoki eko-mahsulot deklaratsiyasi bilan bog'liq da'voni topshirishda).

Hayotiy tsikl deganda mahsulot tizimining xom ashyo olish yoki tabiiy resurslarni o'zlashtirishdan to mahsulotlarni utilizatsiya qilishgacha bo'lgan ketma-ket yoki o'zaro bog'liq bosqichlari tushuniladi.

Barcha ISO 14000 standartlarida qabul qilingan yondashuvning muhim kamchiliklari shundaki, ular dizaynning dastlabki bosqichlarini qo'llab-quvvatlamaydi, ya'ni ular allaqachon mavjud tarmoqlar va ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun mo'ljallangan.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, ISO 14000 seriyali standartlarda ma'lumotlar usullaridan foydalanish yaratilayotgan mahsulot dizayni va uning hayot aylanish bosqichlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga imkon bermaydi. Bundan tashqari, kompaniya atrof-muhitni boshqarish tizimi mavjud bo'lmagan taqdirda ham sertifikatlanishi mumkin, ammo uni yaratish bo'yicha ish deklaratsiyasi mavjud bo'lsa.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mishin V.M. Sifat menejmenti: Darslik. - 2009. BIRLIK-DANA.
2. S. V. Chibirev. Sifat nazorati. Penza, 2010 yil.

## KORXONALARDA SIFAT MENEJMENTI TIZIMINING AHAMIYATI

магистр **Акрамов Н.Ф.**, илмий раҳбар **Бобоев Ғ.Ғ.** (ЖизПИ)  
техника фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Бугунги кунда истеъмол бозори турли хил маҳсулотлар билан тўйинган ва истеъмолчиларни танлашда фақат сифат каби мезон ҳал қилувчи рол ўйнайди. Шундай қилиб, юқори сифат ишлаб чиқарувчига барқарор фойда келтиради. Ҳар бир самарали ривожланаётган корхона бозорда рақобатбардошлигини оширишга ҳаракат қилади, лекин ҳар доим ҳам маҳсулот хавфсизлигини назорат қилмайди, бу эса кўпинча маҳсулот сифатига катта таъсир қилади. Кўпинча, ушбу турдаги маҳсулот истеъмолчи талабларига жавоб бермайди, аксинча унинг рақобатбардошлигини пасайтиради.

Бундай ҳолларда сифат тизимлари ва халқаро стандартларни амалга ошириш зарурати тўғрисида савол туғилади. Амалда, корхонада бундай тизимнинг мавжудлиги корхона самарадорлиги ва рақобатбардошлигини оширишнинг керакли натижаларига эришишга ёрдам бериши исботланган. Ҳозирги кунда юқори талабга эга бўлган

маҳсулотни ўрганиш ва синовдан ўтказиш ва бир хил даражага эришиш анча осонлашганлиги сабабли рақобатлашиш тобора қийинлашмоқда. Маҳсулотни бозорда ким биринчи бўлиб чиқариши муҳим эмас, истеъмолчига мақбул нарх-сифат нисбатини таклиф қилиш муҳимдир. Ишлаб чиқарувчи юқори натижаларга эришмоқчи бўлса, бундай сифат тизимининг мавжудлиги жуда муҳимдир, чунки рақобат корхона равангининг асосий рамзидир [1].

Фақат технологик янгиликлар меҳнат унумдорлигини оширишни таъминлаши мумкин. Корхонанинг имиджи маълум даражада ишончнинг ўсишига таъсир қилади, аммо ишлаб чиқарилган маҳсулотлар бозорини таҳлил қилишни ҳисобга олган ҳолда уни доимий равишда сақлаш талаб этилади. Бозорларнинг глобаллашуви меҳнат унумдорлиги ва харажатлардан кўра сотиш ҳажмининг ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлишига олиб келди. Маҳсулотларни экспорт қилишга эътибор Ўзбекистон иқтисодиётини янада ривожлантириш, бунинг учун янги ишлаб чиқариш корхоналарини янги технологиялар билан таъминлаш, биринчи навбатда, ички бозорда жорий этиш зарур.

Сифат менежменти тизимини жорий этиш жараёни бир қатор ишларни ўз ичига олади. Буларнинг барчаси корхона фаолиятининг турли жиҳатларига таъсир қилиши мумкин. Бундан ташқари, амалга ошириш жараёни сифат менежменти тизимининг қуйи тизимларига – логистика тизими, ишлаб чиқариш тизими, компаниянинг стратегик бошқарув тизими, ходимларни бошқариш тизими ва бошқаларга ҳам таъсир қилиши мумкин. Бундан хулоса қилишимиз мумкинки, сифат менежменти тизимини жорий этиш зарурати анча вақт ва кўп вақт талаб қиладиган вазифадир. Кўпгина ҳолларда сифат менежменти тизимини ишлаб чиқиш ва жорий этиш бир неча босқичда амалга оширилади:

1. Корхонадаги мавжуд вазиятни таҳлил қилиш, шунингдек ходимларни ўқитиш;
2. Зарур ҳужжатларни ишлаб чиқиш ва ходимларнинг иш жадвали ва иш шароитидаги ўзгаришлар;
3. Сифат менежменти тизимининг ички аудитига эҳтиёж [1,2].

Ушбу босқичларни бажариш мураккаб ва ҳажмли ишларни бажаришни ўз ичига олган кўп вақт талаб қиладиган жараёндир. Энг узоқ ва энг талабчан босқич - бу жадвални ўзгартириш ва корхона ходимлари учун зарур ҳужжатларни ишлаб чиқиш, шунинг учун ишларни бажариш зарурати жуда долзарбдир. Биринчи босқич ушбу тизимни амалга оширишда энг муҳим ҳисобланади. Сифат менежментини ишлаб чиқиш ва кейинчалик амалга ошириш муҳим ва зарур ишдир.

Ҳар куни сифат ва хавфсизликка қўйиладиган талаблар ортиб бормоқда, бу бизни халқаро стандартларга қатъий риоя қилишга мажбур қилмоқда. Натижада, Ўзбекистондаги корхоналарининг сифат менежменти тизимини жорий этиш зарурлигига қизиқиши ортиб бормоқда ва унинг самарадорлигига шубҳа йўқ. Айтиш пайтда сифат менежменти тизимини ишлаб чиқиш, жорий этиш ва янада такомиллаштириш учун жуда кўп сонли моделлари мавжуд. Шунини таъкидлаш керакки, вақт ўтиши билан битта модел бошқасини алмаштиради, чунки ушбу тизимни модернизация қилиш доимий равишда амалга оширилмоқда.

Корхона самарадорлигини оширишга бағишланган ташкилий лойиҳаларни амалга оширишга яқинлашганда менежерлар кўпинча алоҳида сифат менежменти тизими каби муаммога дуч келишади. Бундай тизим амалда унчалик самарали эмас ва корхона фаолиятини яхшилашга қодир эмас.

Мутахассисларнинг таъкидлашича, Ўзбекистон Республикасидаги корхоналарининг аксарият менежерлари корхоналарда сифат менежменти тизимини жорий этишга тўсқинлик қиладиган қуйидаги сабабларни аниқладилар:

- халқаро бозорларга кириш қийинлиги;

- mijozlar, хорижий корхоналарнинг юқори талаблари;
- тендерларда иштирок этиш;
- кўшимча инвестицияларни жалб қилиш, кредит олиш [1].

Сифат менежменти тизимини (СМТ) амалга оширишда маълум бир расмиётчилик мавжуд бўлиб, бу бундай тизимнинг зарурлигини нотўғри тушунишга олиб келади. Халқаро амалиёт шуни тасдиқладики, корхонанинг муваффақияти фақат уни мақсадга мувофиқ амалга ошириш орқали амалга оширилиши мумкин, бу эса керакли натижани беради. Шунинг учун ҳар бир менежер, барча ходимлар сифат менежменти тизимини жорий этиш зарурлигини тушунишлари керак.

Иккиламчи тартибга солувчи фаолият сифат менежменти тизимига ҳам киритилган, чунки унинг роли корхонада бошқарув тизимига қўйиладиган талабларни тақдим этиш ва уларнинг бажарилишини назорат қилишдир. Замоनावий бошқарув технологияларидан фойдаланиш ва қўллаш қобилияти корхонада сифат менежменти тизимини самарадорлигини оширишга ёрдам беради.

Бошқарув жараёнларини такомиллаштириш Ўзбекистон Республикаси ҳудудидаги корхоналар даромадларини оширишнинг калитидир. Бу жараён иккиламчи фаолият билан боғлиқ. Таъкидлаш жоизки, ҳар бир корхона замоनावий сифат менежменти тизимини амалга оширишга тайёр бўлиши мумкин эмас. Шунинг учун менежерлар томонидан ишончли йўқотишига олиб келадиган вазият бўлиши мумкин ва уни тиклаш учун кўп ҳаракат талаб этилади.

Сифат менежменти тизимининг ижобий таъсирини тавсифловчи ишлаб чиқаришдан ташқари ва ишлаб чиқариш эффектлари мавжуд. Ишлаб чиқаришдан ташқари таъсир: истеъмолчиларнинг корхонага бўлган ишончи, корхона имиджини яхшилаш, молия институтларининг ишончини ошириш, корхонанинг барча жараёнларида истеъмолчилар талабларини қонунчилик базаси ва тегишли стандартларга мувофиқ амалга ошириш. Ишлаб чиқариш самарадорлиги: ишлаб чиқариш ва ахборот тузилмалари ва ишлаб чиқариш жараёнларини ишончли ташкил этиш, корхона фаолиятини мувофиқлаштириш ва бошқариш учун ишлаб чиқариш механизмларини яратиш, нуқсонларни бартараф этиш ёки уларнинг олдини олиш учун харажатларни тежаш, сифат менежменти тизимининг ишлашини мунтазам таҳлил қилиш асосида жараёнларни оптималлаштириш, ишлаб чиқариш тизимини сақлаб қолиш.

### Адабиётлар

1. Мағкиева З.И. Разработка и внедрение системы менеджмента качества в соответствии со стандартом ИСО 9001-2015 // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2016. – Т. 2. – С. 376–380.
2. Сажин П.Б. Козлова И.В. Система менеджмента качества: преимущества внедрения и проблемы функционирования // Проблемы современной экономики. – 2009. - №1


## KINEMATIK QOVUSHQOQLIK KATTALIGINI O'LCHASH VA UNING DOLZARBLIGI

**Iskandarov Suhrobbek To'lqin o'g'li** – ToshDTU 1-kurs magistranti.  
**Masharipov Shodlik Masharipovich** – ToshDTU MTJTSSS kafedrasida dotsenti PhD.

*Sanoatning [bir qancha tarmoqlarida](#), masalan, sun'iy tolalar, sintetik smolalar, kauchik eritmaları, bo'yoqlar, surkov moylari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishda qovushqoqlik mahsulot tarkibi va sifatini aniqlovchi kattalik hisoblanadi. Suyuqlikning qovushqoqligi sanoatda muhim ahamiyatga ega, masalan, neftni tashish, qayta ishlash va ishlab*

chiqarish suyuqlik aralashmasining ichki ishqalanish qiymatlariga bog'liq. Qovushqoqlikni aniqlash neftni qayta ishlash sanoatida katta amaliy ahamiyatga ega. Ko'p fazali, tarqoq muhitlar bilan ishlashda ularning fizik xususiyatlarini, ayniqsa, ichki ishqalanishni bilish muhimdir. Zamonaviy viskozimetrlar bardoshli materiallardan tayyorlangan va ularni ishlab chiqarishda ilg'or texnologiyalardan foydalanilmoqda. Bularning barchasi birgalikda yuqori harorat va bosim bilan jihozning o'ziga zarar yetkazmasdan ishlashga imkon beradi. *Shuning uchun ko'pgina hollarda qovushqoqlikni avtomatik tarzda uzluksiz o'lchab turish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.*

Suyuqlikning qovushqoqligi uning harakatlanishi paytida suyuqlikning qirqishga qarshi turish qobiliyatini, aniqrog'i, qatlamlarning bir-biriga nisbatan siljishini belgilaydi. Shuning uchun, turli xil nasos vositalaridan foydalaniladigan sohalarda, pompalanadigan mahsulotning qovushqoqligini aniq bilish va to'g'ri nasos uskunasi tanlash muhimdir.



### 1-rasm. Etanol eritmaning qovushqoqligi va konsentratsiyasi orasidagi bog'liqlik


Bundan tashqari suyuq muhitlarning qovushqoqligini o'lchash sanoatda texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishni boshqarish tizimini joriy qilishda eng murakkab muammolardan biridir. Jarayonlarning ko'pchiligi dispers tizimlar, suspenziyalar, kolloid eritmalar va plastik massalarni qayta ishlash bilan bog'liq. Ayrim mahsulotlar sezgir elementga yopishib qolishi natijasida, ishlab chiqarish jarayonida sezgir elementga ta'sir etib, ulardan foydalanishni qiyinlashtirishi mumkin. Shuning uchun ham sanoatda ko'pincha suyuqliklarning qovushqoqlik koeffitsiyentini hisoblash zarur

Suyuqliklarning sirpanish yoki siljishiga qarshilik ko'rsatish xususiyati **qovushqoqlik** deyiladi. Hidravlikadagi ko'pgina hisoblash ishlarida dinamik qovushqoqlik koeffitsienti  $\mu$  ning, muhit zichligi  $\rho$  ga nisbati bilan ifodalanuvchi va **kinematik qovushqoqlik koeffitsiyenti** deb ataluvchi miqdordan foydalanish qulaydir. Bu miqdor grekcha  $\nu$  harfi bilan belgilanadi:

$$\nu = \frac{\mu}{\rho}$$

$\nu$  ning SI dagi birligi  $\frac{m^2}{s}$ , SGS sistemasida  $\frac{cm^2}{s}$  yoki stoks (st) bilan ifodalanadi. Spravochniklarda va texnik adabiyotda uning kichik o'lchovlari ham (santistoks - sst) uchraydi.  $1 m^2/s = 10^4 st = 10^6 sst$ .

Qovushqoqlik koeffitsiyentini aniqlash uchun viskozimetr deb ataluvchi asbob qo'llaniladi. Suvga nisbatan yopishqoqligi katta bo'lgan suyuqliklar uchun Engler viskozimetri qo'llaniladi (1-rasm).



U birining ichiga ikkinchisi joylashgan 1, 2 ikki idishdan iborat bo`lib, ular orasidagi bo`shliq, suv bilan to`ldiriladi. Ichki idish 2 ning sferik tubiga diametri 3 mm li naycha kavsharlangan, u tiqin 5 bilan berkitilgan bo`ladi. Ichki idishga tekshirilayotgan suyuqlik quyilib, uning temperaturasi ikki idish oralig`idagi suvni qizdirish yo`li bilan zarur bo`lgan temperaturagacha yetkaziladi. Tekshirilayotgan suyuqlik temperaturasi termometr 6 yordamida o`lchab turiladi. Suyuqlik zarur temperatura  $t$  gacha qizigandan so`ng tiqin ochiladi va sekundomer yordamida  $200 \text{ sm}^3$  suyuqlik 3 oqib chiqqan vaqt belgilanadi. Xuddi shunday tajriba  $t = 20^\circ\text{C}$  da distillangan suv bilan ham o`tkaziladi. Tekshirilayotgan suyuqlikning  $t = 20^\circ\text{C}$  dan oqib chiqqan vaqtlarining nisbati qovushoqlikning shartli graduslari yoki Engler graduslarini bildiradi.

Qovushoqlikni aniqlash uchun kapillyar viskozimetr, rotatsion viskozimetr, stoks viskozimetri va boshqa turli viskozimetrlar ham qo`llaniladi.

Qovushoqlik [suyuqliklarning turiga](#), temperaturasiga va bosimiga bog`liq. Temperatura ortishi bilan tomchilanuvchi suyuqliklarning qovushoqligi kamayadi, gazlarning qovushoqligi ortadi. Suyuqliklar qovushoqligining temperaturaga bog`liqligini umumiy tenglama bilan ifodalab bo`lmaydi.

Har xil hisoblash ishlari bajarilganda, ko`pincha, quyidagi formulalardan foydalaniladi:

$$\text{havo uchun: } \nu = (0.132 + 0.000918t + 0.00000066t^2) \cdot 10^{-4} \text{ m}^2/\text{s}$$

$$\text{suv uchun: } \nu^t = \frac{0.0177}{1 + 0.0337t + 0.000221t^2} \cdot 10^{-4} \text{ m}^2/\text{s}$$

Gidroyuritmalarda qo`llanuvchi turli mineral moylar uchun temperatura  $30^\circ\text{C}$  dan  $150^\circ\text{C}$  gacha bo`lganda:

$$\nu^t = \nu^{50} \left( \frac{50}{t} \right)^n$$

Bu yerda:  $\nu^t$ ,  $\nu^{50}$  – tegishli temperaturada va  $50^\circ\text{C}$  da kinematik qovushoqlik koeffitsienti;  $t$  - temperatura,  $^\circ\text{C}$  da;  $n$  - daraja ko`rsatkichi; uning miqdori  $\nu^{50}$  ning turli miqdorlari uchun quyidagi jadvalda keltirilgan:

$\nu^{50}$	1.2	1.5	1.8	2	3	4	5	6	7	8	9	10
$n$	1.39	1.59	1.72	1.79	1.99	2.13	2.24	2.32	2.42	2.49	2.52	2.56

Turli suyuqliklarning qovushoqligi, boshlang`ich qovushoqlik va temperaturasiga qarab turlicha o`zgaradi. Ko`pchilik suyuqliklarning qovushoqligi bosim ko`tarilishi bilan ortadi. Mineral moylarning qovushoqligi bosimning  $0-50 \text{ MN/m}^2$  chegarasida taxminan chiziqli o`zgaradi va quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\nu^p = \nu^0(1 + kp)$$

bu yerda:  $\nu^p$  va  $\nu^0$  – tegishli bosimda va atmosfera bosimida kinematik qovushoqlik koeffitsiyenti,  $p$  – qovushoqlik o`lchangan bosim,  $\text{MN/m}^2$ ;  $k$  – eksperimental koeffitsient, uning miqdori gidroyuritmalarni hisoblashda yuqorida aytilgan chegarada 0,03 ga teng deb qabul qilinadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. N.R. Yusupbekov, B.I. Muhamedov, Sh.M. G'ulomov "Texnologik jarayonlarni nazorat qilish va avtomatlashtirish" "OQITUVCHI" Nashriyot – matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2011.
2. Artikov A.A., Musayev A.K., Yunusov I.I. "Texnologik jarayonlarni boshqarish tizimi" T.:TKTI, 2002.
3. [Miraliyeva, A.K.](#), [Rashidov, A.S.](#), [Ernazarova, Z.X.](#), [Masharipov, Sh.M.](#), [Mirpayziyeva, G.M.](#) Experimental quantification of measurement uncertainty and other verification criteria for analytical test methods. [Journal of Physics: Conference Series](#) [this link is disabled](#), 2021, 2094(5), 052031 <https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1742-6596/2094/5/052031/pdf>
4. [Masharipov, Sh.M.](#), [Ruzmatov, K.R.](#), [Rahmatullayev, S.A.](#), ...[Mahmudjonov, M.M.](#), [Isaqov, A.G.](#) Assessment and investigation of measurement uncertainty of standard samples of substances and materials in physicochemical measurements based on standard test methods. [Journal of Physics: Conference Series](#) [this link is disabled](#), 2021, 2094(5), 052011 // <https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1742-6596/2094/5/052011/pdf>
5. [Masharipov, S.M.](#), [Azimov, R.K.](#) Multifunctional Information and Measuring Complex for Controlling the Parameters of Fibrous Materials and Dispersed Media [Measurement Techniquethis link is disabled](#), 2017, 60(6), стр. 643–646 // <https://www.springerprofessional.de/en/multifunctional-information-and-measuring-complex-for-controllin/15100128>
6. Matyakubova P.M, Masharipov SH.M., Ruzmatov K.R, Sultanov M.K.. Published under licence by IOP Publishing Ltd. Methods for monitoring metrological characteristics of scientific and physical parameters of intelligent sensors in real operating conditions. [Journal of Physics: Conference Series, Volume 1889, Cybernetics, economics and information measuring systems](#) Citation Parahat M Matyakubova et al 2021 J. Phys.: Conf. Ser. 1889 032037.
7. Matyakubova, P.M., Ismatullayev, P.R., Avezova, N.I., Mahmudjonov, M. Algorithms for increasing the reliability of primary measurement information. [Journal of Physics: Conference Series](#) [this link is disabled](#), 2021, 2036(1), 012002
8. Masharipov, Sh.M., Ruzmatov, K.R., Rahmatullayev, S.A., ...Mahmudjonov, M.M., Isaqov, A.G. Assessment and investigation of measurement uncertainty of standard samples of substances and materials in physicochemical measurements based on standard test methods. [Journal of Physics: Conference Series](#) [this link is disabled](#), 2021, 2094(5), 052011
9. Matyakubova, P.M., Zhabborov, Kh.Sh., Kadirova, Sh.A., Mahmudjonov, M.M. Study of the main parameters of the capacitive converter. [Journal of Physics: Conference Series](#) [this link is disabled](#), 2021, 2036(1), 012001

**УДК 004.056**

**АНАЛИЗ УГРОЗ И РИСКОВ БЕЗОПАСНОСТИ В СОВРЕМЕННЫХ  
ИНФОКОММУНИКАЦИОННЫХ СИСТЕМАХ**

**Сагатова Ф.М.**, студентка кафедры “СОИиУ”, ТГТУ, город Ташкент.  
**Хамдамова С. М.**, старший преподаватель кафедры “Информационные технологии” ТГТУ, город Ташкент.

Защита конфиденциальной и ценной информации, обрабатываемой в компьютерных сетях, от несанкционированного доступа и модификации призвана

обеспечить решение одной из наиболее важных задач защиты имущественных прав владельцев и пользователей компьютеров - защиту собственности, воплощенной в обрабатываемой с помощью компьютеров информации от всевозможных злоумышленных покушений, которые могут нанести существенный экономический и другой материальный и нематериальный ущерб. К ней примыкает задача защиты государственных секретов, где в качестве собственника информации выступает государство.

Угрозой интересам субъектов информационных отношений называется потенциально возможное событие, процесс или явление, которое посредством воздействия на информацию или другие компоненты инфокоммуникационной системы (ИКС) может прямо или косвенно привести к нанесению ущерба интересам данных субъектов. Возможность реализации угроз зависит от наличия в ИКС уязвимых мест, количество и специфика которых определяется видом решаемых задач, характером обрабатываемой информации, аппаратно-программными особенностями системы, наличием средств защиты и их характеристиками [1, 2, 3].

Все множество потенциальных угроз по природе их возникновения разделяется на два класса: естественные (объективные) и искусственные (субъективные). При этом искусственные преднамеренные угрозы безопасности ИКС могут характеризоваться такими параметрами как: состав преступления, тип реализации, преследуемые цели, объект воздействия, место возникновения.

Уязвимость информационной системы - это любое свойство (элемент) информационной системы, использование которой нарушителем может привести к реализации угрозы.

Согласно классификации уязвимостей ИКС, выделяются их следующие типы [4, 5]:

- уязвимости проектирования (при разработке проекта ИКС);
- уязвимости реализации (при реализации программного или аппаратного обеспечения ИКС);
- уязвимости конфигурации (некорректное управление компонентами ИКС администратором);
- уязвимости использования (привнесенные пользователем в процессе эксплуатации ИКС).

Под возможным каналом утечки информации понимается способ, позволяющий злоумышленнику или нарушителю получить доступ к обрабатываемой или хранящейся в ИКС информации. При этом основным является тип средства, с помощью которого этот канал использовался. В общем, выделяются три таких типа: человек, аппаратура, программа.

Выделяются следующие угрозы безопасности ИКС:

- Утечка информации - неконтролируемое распространение информации, которое ведет к ее несанкционированному получению;
- Нарушение целостности информации - искажение информации, ее разрушение или уничтожение;
- Блокирование информации - исключение возможности санкционированного доступа к информации.

Системы мониторинга безопасности направлены, в первую очередь, на выявление, анализ и прогнозирование злоупотреблений, используемых для реализации искусственных преднамеренных угроз. Среди этого класса несанкционированных действий следует выделить [6,7,8,9,10,11]:

- программы поручения паролей, которые предназначены для получения идентификаторов и паролей пользователей;
- "люки" - не описанные в документации возможности работы с программным



продуктом;

- логические бомбы - встраивание в программу набора команд, неактивных до выполнения определенного условия;
- троянские кони, программа, которая кроме своей основной деятельности, сохраняя при этом работоспособность, выполняет некоторые дополнительные функции;
- компьютерные вирусы, это специально написанные программы, которые могут размножаться и порождать новые вирусы для выполнения различных нежелательных действий на компьютере;
- атаки (вторжения), направленные на ИКС;
- программные закладки и др.

1. А.Ф.Верлань, М.В.Сагатов, А.А.Сытник. Методы математического и

компьютерного моделирования измерительных преобразователей и систем на основе интегральных уравнений. –Т.: Фан, 2011. – 336 с.

2. Джексон Р.Г. Новейшие датчики / Джексон Р.Г. – М.: Техносфера, 2007. – 384 с.

3. Котюк А.Ф. Датчики в современных измерениях / А.Ф. Котюк. – Радио и связь, 2007. – 96 с.

УДК.373.5.091.3:53

## ҚАТТИҚ МОДДАЛАРНИНГ НАМЛИГИНИ ЎЛЧАШ УСУЛЛАРИ

П.М. Матякубова, проф. ЖизПИ  
Муродова С.Ф., 1-курс магистр ЖизПИ

**Калит сўзлар:** Қаттиқ ва сочилувчан материаллар, намлиг, ўлчаш усуллар, курук модда массаси, кондуктометрик, диэлькометрик, ўта юқори частотали, оптик усуллар.

Қаттиқ ва сочилувчан материалларнинг намлигини ўлчаш усуллари шартли равишда икки группага бўлинади:

1. Намунадаги нам ёки курук модда массасини аниқлашга имкон берадиган бевосита усуллар (куритиш, экстракцион ва химиявий усуллар).

2. Намликни унга боғлиқ параметрни ўлчаш йўли билан аниқлайдиган билвосита усуллар (кондуктометрик, диэлькометрик, ўта юқори частотали, оптик, ядровий магнит резонансли, термовакуум, теплофизик усуллар).

Техник ўлчашларда деярли ҳамма вақт билвосита усуллар қўлланилади. Билвосита усуллардан кондуктометрик, диэлькометрик (сигимли), ўта юқори частотали ва оптик усуллар кенг тарқалган.

Одатда саноатда ишлатиладиган материалларнинг кўпчилиги капилляр-ғовак жинслар бўлиб, уларда нам ғовакларда сақланади. Материал ютиши мумкин бўлган нам миқдори капиллярларнинг шакли, ўлчами ва жойлашувига, шунингдек, сувнинг материал билан боғланиш жиҳатига боғлиқ. Намнинг материал билан турлича боғланиши унинг физик характеристикаларига турлича таъсир қилади ва бу боғланишни аниқлаш анча қийинчиликларга боғлиқ. Шунинг учун қаттиқ ва сочилувчан материалларнинг намлигини ўлчаш қийинчиликлар тўғдиради ва даражаланган характеристикаларнинг етарли бўлмаслигига олиб келади.

Кондуктометрик намлик ўлчагичлар қаттиқ ва сочилувчан материаллар намлигини ўлчашда кенг ишлатилади. Кондуктометрик усул модда намлиги билан унинг электр қаршилиги ўртасидаги боғланишга асосланган. Бу боғланиш қуйидагича ифодаланади:

$$R = \frac{C}{Wn}, \quad (1)$$

бу ерда  $R$  — материалнинг қаршилиги, Ом;  $C$  — материал табиатига боғлиқ бўлган доимий катталиқ;  $W$  — материалнинг намлиги, %;  $n$  — текширилаётган материалнинг структураси ва табиатига боғлиқ бўлган даража кўрсаткичи (турли материаллар учун кенг чегараларда ўзгариб туради).

$C$  доимий ҳам, даража кўрсаткичи  $n$  ҳам ҳар қайси материал учун тажриба йўли билан аниқланади.

Қаршилиқнинг намликка бўлган даражали нисбати капилляр-ғовак материаллар намлигини кондуктометрик усул бўйича аниқлаш усулининг юқори сезгирлигини кўрсатади. Лекин қаршилиқнинг бошқа факторларга (температура, материал таркиби,

зичлик, химиявий таркиб, электролитлар мавжудлиги ва бошқалар) мураккаб боғлиқлиги намликни автоматик равишда узлуксиз ўлчашда бу усулни яроқсиз қилиб қўяди. Шунинг учун кондуктометрик намлик ўлчагичларнинг ишлатилиши чекланган.

Кондуктометрик намлик ўлчагичларнинг ўзгарткичлари ясси пластиналар, цилиндрлик трубклар, роликлар ва ҳоказо кўринишда ишланган икки электроддан иборат. Кондуктометрик намлик ўлчагичларнинг кўрсатишлари фақат тортилмаларнинг прессланишидагина тикланади, шунинг учун сочилувчан материалларга мўлжалланган ўзгарткичларнинг кўпчилиги электродлар орасидаги тортилмаларни пресловчи қурилмалар билан таъминланган.

Намликни ўлчашнинг кўприкли ўлчаш схемалари юқори сезгирликка эга бўлиб, ўртача ва юқори (5... 25%) намликларни ўлчашда ишлатилади. Текширилаётган материал ролик ва вал орасидан ўтказилади (ролик валдан изоляцияланади). Занжирнинг асосий элементи кўприкдир, кўприкнинг  $R_4$  ва  $R_5$  елкалари доимий қаршилиқлар, бошқа икки елкаси эса қўш триоднинг ички қаршилиқларидир (схемада икки қўшимча  $R_1$  ва  $R_3$  қаршилиқлар мавжуд). Кўприк диагонали бўйлаб милливольметр уланган. Лампанинг чап ярми тўридаги  $U_c$ , манфий кучланиш  $R_x$  қаршилиқдаги кучланишнинг пасайиши орқали аниқланади ва у доимий бўлади. Шунинг учун триоднинг чап ярмидаги қаршилиқ ҳам доимий бўлади. Унг триод тўридаги манфий кучланиш  $U_c$  дан  $IR_6$  катталikka фарқ қилади.  $I$  ток эса кўрилатган материалнинг  $R_x$  қаршилиги ва  $R_2$  реохорд сирпанғичининг ҳолатига боғлиқ. Реохорд сирпанғичи милливольметр стрелкасининг ноль ҳолатидан (кўприк мувозанати бузилган) четга чиқишида  $R_2$  да кучланишнинг пасайиши,  $R_6$  ва  $R_7$  ларда кучланишнинг пасайиши билан мувозанатлашгунча компенсатор орқали ҳаракатга келтирилади.

Триоднинг иккала ярмидаги силжиш кучланишлари бир хил бўлганида кўприк мувозанат ҳолатига келади. Намликнинг, бинобарин материал қаршилиги  $R_x$  нинг ўзгариши билан  $R$ , қаршилиқда ток ҳосил бўлади, кўприк мувозанати бузилади, натижада  $R_2$  сирпанғич тегишли қийматга силжийди. Ҳар бир намлик қийматига реохорд сирпанғичи  $R_2$  нинг муайян ҳолати мос келади.

Юқорида айтилганидек, ўзгарткич қаршилиги материал намлигидан ташқари бошқа факторларга ҳам боғлиқ. Шунинг учун қаршилиқ ва намлик ўртасидаги нисбатни таърифловчи эгри чизикларнинг характери бир хил бўлса ҳам турли моддаларга мос келмайди (ҳар бир модда учун даражали эгри чизик ёки ҳисоблаш жадваллари керак бўлади).

Диэлькометрик усул капилляр-ғовак жисмлар намлигининг ўзгариши уларнинг диэлектрик сингдирувчанлигини жуда ўзгартириб юборишига асосланган. Қуруқ жисмларда диэлектрик сингдирувчанлик  $\epsilon = 1 \dots 6$ , сувники эса  $\epsilon=81$ . Материалнинг намлиги ўзгариши натижасида диэлектрик сингдирувчанликнинг ўзгаришини, одатда, копламалари орасига анализ қилинаётган материал жойлаштирилган конденсатор сиғимининг ўзгариши бўйича аниқланади. Диэлькометрик намлик ўлчагичнинг ўзгарткичи иккита ясси пластина ёки иккита концентрик цилиндрлар тарзида ясалиб, уларнинг ораси анализ қилинаётган материал билан тўлдирилади. Геометрик ўлчамлари маълум конденсаторнинг сиғимини қуйидаги формула билан ифодалаш мумкин

$$C = K \cdot \epsilon, \quad (2)$$

бу ерда  $K$  — конденсаторнинг геометрик ўлчамлари ва шаклига қараб аниқланадиган доимий;  $\epsilon$  — материалнинг намлиги бўйича аниқланадиган диэлектрик сингдирувчанлик:

Сиғимли ўзгарткичнинг юқори частотали тебраниш контурига уланиши ўзгарткичнинг сиғимини ва унга қараб материалнинг намлигини ўлчаш учун лампали ёки ярим ўтказгичли асбобларнинг резонансли схемаларидан фойдаланишга имкон беради.

Сигимли ўзгарткичлар материалнинг таркиби, унинг тузилиши ҳамда электрод билан материал ўртасидаги контакт қаршиликка кам сезгир. Чунки кўпчилик материалларнинг диэлектрик сингдирувчанлиги температурага боғлиқ бўлади, саноат асбобларида температуранинг ўзгаришига тузатмани автоматик киритиш кўзда тутилади. Сигимли намлик ўлчагичларнинг хатолиги 0,2... 0,5% ни ташкил этиши мумкин. Бироқ намуна олиш усули (конденсатор қопламалари орасини материал билан тўлдириш) ўлчаш натижаларига таъсир қилиши мумкин. Масалан, ҳатто анализ қилинаётган материал заррачаларининг ўзгариши намлик ўлчагичнинг кўрсатишига жуда катта таъсир қилади. Шу сабабли қаттиқ ва сочилувчан жисмларнинг намлигини ўлчайдиган сигимли намлик ўлчагичлар техник ўлчашларда камроқ қўлланилади.

Қаттиқ, сочилувчан, шунингдек, толали материаллар намлигини ўлчашнинг мураккаблиги шундаки, датчик материал билан ўзаро таъсирлашганида унинг структураси, тўқилма зичлиги ва бошқа факторлар ўзгариши ва улар асбоб хатолигини жуда кўпайтириб юбориши мумкин. Шунинг учун саноатда асосан контактсиз ўлчаш усуллари қўлланилган: ўта юқори частотали ва оптик усуллардан кенгроқ фойдаланилади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Б.Э.Мухамедов. Метрология, технологик параметрларни ўлчаш усуллари ва асбоблари. Тошкент.

2. Исматуллаев П.Р., Максудов А.Н., Абдуллаев А.Х., Ахмедов Б.М., Аъзамов А.А. Метрология стандартлаштириш ва сертификатлаштириш. «Ўзбекистон» Тошкент-2001й.

## **ЎЛЧОВ АСБОБЛАРИНИ ТАФТИШ ВА ЭКСПЕРТИЗА ҚИЛИШ**

**Рахмонов Ф.А. ЖизПи**

Метрологик назорат ҳуқуқий иқтисодий техник ҳолатлар ва қоидалар мажмуасини ўз ичига олган системадир. Унинг вазифаси илмий-техник тараққиёт талабларига жавоб берадиган ўлчаш асбобларини такомиллаштириш орқали ишлаб чиқариш самарадорлигини оширишдир.

Корхона кўрсаткичларига таъсир қиладиган ўлчов асбоблари мажмуасини анализ қилиш катта аҳамиятга эга, чунки бундан технологик жараён оптимал режимларини, хом-ашё маҳсулотларни, тайёр маҳсулотларни сифатини объектив назорат қилишни таъминлайди. Яроқсиз ўлчов асбоблари ҳисобдан чиқарилади. Экспулатация метрологик назорат воситалари ГОСТ 8. 002-71 талабларига тўғри келиши керак.

Ўлчов воситаларини ревизия ва экспертиза қилишни ташкил этиш тартиби

Давлат назоратининг асосий шакли ўлчов асбобларини метрологик яроқсизлигини аниқлашдир. Давлат назоратидан ўтказиладиган ўлчов асбобларига материал моддий қийматларини аниқлайдиган савдо корхоналари орасидаги ҳисоб-китобларда ҳамда инсон саломатлигини муҳофаза қилишда ва техника хавфсизлигида ишлатиладиган асбоблар киради.

Давлат текширувидан ўтиши шарт бўлган оғирлик ўлчов асбобларига: электр энергия сўғатчиклари, нефт маҳсулотлари сўғатчиклари, сув, газ сўғатчиклари ва х.к. киради.

Баъзи бир ўлчов асбоблари шу ташкилот комиссия аъзолари томонидан куриқдан ўтказилади. Бу асбобларга рефрактометр, ФЭК, РН-метрлар кириб,бу асбоблар 1 йилда 1 марта куриқдан ўтказилади.Манометр, ДЦ - метр, термометрлар маҳаллии давлат стандартлари томонидан қуйилган муддатларда текширувдан ўтказилади.

Давлат назоратидан ўтиши шарт бўлмаган жихрзлар махсус асбоблар учун қўлланиладиган услубларда аттестация қилинади.куритиш шкафлари, центрифуга, муфель

печлари ва бошқа лаборатория жихрзлари киради. Синов жихрзларини аттестация қилиш шу мақсадда ўтказиладики, аниқлик даражаси юқори бўлганда жихрзларни ўлчаш мақсадида маълум муддатда берилган диапазондаги аниқдик ва стабилликда жихрзларнинг шарт-шароитини таъминлашини аниқлайди.

Масалан центрифугани аниқтавсифномасини берадиган кўрсаткич айланишлар сонини вақт ораллигида бериши керак. қуриштириш шкафида эса берилган хароратни маълум чегараларда ушлаб турилади.

Ўлчашга аттестациядан ўтган лабораториялар корхона раҳбари томонидан тасдиқланган ревизия акти ва методикаси билан текширилган унинг натижаларига кўра яроқди деб топилган жихозлардан фойдаланилади. Барча НТХлар лойиха конструкторлик ва технологик ҳужжатлар ГОСТ талабларига жавоб бериши керак.

Стандартлар ва ўлчов воситалари устидан давлат назоратини Ўзбекистон Республикасининг қонун актлари билан мувофиқ, равишда махсус вақил қилинган давлати идоралари ушбу идоралари тўғрисидаги қонунларга кўра белгиланган ваколат доирасида амалга оширилади.

Давлат назоратининг бош вазифаси стандартларнинг техникавий шартлар ва метрологик қоидаларининг бўзилишини бартараф қилиш ва унинг олдини олишдан иборатдир.

Меъриий ва техникавий ҳужжатлар, маҳсулот, шу жумладан чет элга чиқарилган ва чет элдан келтириладиган маҳсулот, мудофаа учун зарур бўлган маҳсулот, жараёнлар, хизматлар, амалдаги қонунларга биноан бошқа объектлар давлат назорати объектлари ҳисобланади.

Давлат назорати қуйидаги шаклларда амалга оширилади.

-стандартлар ва техникавий шартларнинг мажбурий амал қилинишини текшириш;

-маҳсулотни синаш;

-юзага чиқиши мумкин бўлган хавфли технологиялар ва маҳсулотларни ишлаб чиқиш қўлланишга рухсатнома олиш;

-ишлаб-чиқарувчининг хоҳиш-истаги ёки истеъмолчининг талабига кўра стандартлар ва техникавий шартларнинг барча талабларига мувофиқдигини текшириш;

Давлат назорати ташкилотлари ўз фаолиятини амалга оширишда бошқарув идоралари, истеъмолчи уюшмалари, сугўрта жамиятлари биргаликда ҳаракат қиладилар. Ўзбекистон Республикасининг ҳукўкни ҳимоя қилиш идоралари билан уларга юкланган вазифаларни бажаришга кумаклашадилар.

Биргаликда ҳаракат қилиш стандартларни такомиллаштириш, маҳсулот сифатини ва ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш, аҳоли ҳаётининг хавфсизлиги, саломатлиги ва мол мулкнинг хавфсизлигини таъминлаш, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш мақсадида амалга оширилади.

Давлат назорати идораларининг лавозимдор шахслари ўз вазифаларини бажармаганлиги ёки етарли даражада бажармаганлиги учун қонунда белгиланган тартибда жавоб берадилар.

Метрология тўғрисида умумий тушунчалар. Метрология, стандартлаштириш ва сифатни бошқариш фанининг мақсади ва вазифалари

Фан ва техниканинг барча соҳаларидаги ютуқларнинг барчаси «Метрология» - ўлчашлар ҳақидаги фаннинг ривожига боғлиқ.

Метрологиянинг ривожисиз замонавий ўлчов техникасини яратиш ва ундан самарали фойдаланиш имконияти йўқ. XIX аср бошида ўзунлик, юза, ҳажм ва масса улчанган бўлса ҳозирги пайтда техника ва технологияларда улчанадиган физик катталикларнинг турлари ортиб, уларнинг ўлчов диапазоли (чегаралари) кенгайиб бормоқда. Бу эса ўз навбатида ўлчаш услублари ва техникасининг бир хиллигини таъминлаш, ўлчаш

натижаларининг аниқдиги юқори бўлишига эришиш ва жараёни тезкор усулда амалга оширишни талаб этади.

Хозирги кундаги мураккаб жараёнларни ва замонавий техникани аниқва тез ишловчи ўлчаш комплексларисиз тасаввур қилиб бўлайди. Масалан, космик объектларни бошқариш, атом реакторларининг ишини ташкил этиш, юқори босим ва харорат остида ишловчи технологик объектлардан масофада туриб ахборотлар олиш ва шу асосда уларни самарали ишлатиш ва бошқалар.

Ўлчашнинг асосини ўлчаш услублари ва ўлчов техникалари ташкил этади. Ўлчаш жараёнида улчанаётган катталиқ унга ўхшаш бўлган катталиқ (эталон, намуна ва бошқалар) билан тажриба асосида таққосланади, яъни намунага нисбатан қиймати аниқланади.

«Ўлчаш» тушунчасининг замонавий талқини - махсус техника воситалари ёрдамида физик катталиқларни аниқлашнинг тажрибавий усул: Мисол учун, ҳаво хароратини термометр ёрдамида ўлчаш ёки метал уқлар диаметрини штангенциркуль ёрдамида ўлчаш ва бошқалар.

Ўзбекистон мустақил давлат бўлгандан кейин «Метрология давлат қитаси» ташкил этилди ва ушбу қўмита халқаро стандартлаштириш ва сертификатлаштириш қўмитасининг аъзоси бўлди.

Шу муносабат билан Ўзбекистонда метрология ва миллий сертификатлаштириш тизимлари ташкил қилинди.

Бу тизимларнинг асосий мақсадлари ички ва ташқи бозорга маҳсулотлар ишлаб чиқарувчи ташкилотлар ва корхоналарнинг ишлаб чиқараётган маҳсулотларини стандарт талабларига мос келишини назорат қилишдир. Шунинг учун ўрта махсус касб-хунар коллежларининг Ўқув дастурларида «метрология» фани ўқитилади.

Метрология (юнонча) - икки сўз «метрон»- ўлчов (мера) ва «логос» -таълимот сўзларидан ташкил топган ва ўлчаш ҳақидаги фан деган маънони билдиради. Метрологиянинг замонавий талқини - ўлчаш, ўлчов воситалари ва ўлчаш услубларининг бирлигини (бир хиллигини) таъминлаш ва зарурий (талаб қилинадиган) ўлчов аниқлигига эришиш услублари ҳақидаги фандир.

Ўлчовларнинг бирлиги (бир хиллиги) - ўлчаш натижалари берилган ўлчов бирликларида ифодаланган ва уларнинг хатоликлари (ноаниқлиги) олдиндан белгиланган эҳтимолликка эришилган ҳолат.

Масалан, турли географик нукталарда, турлича вақтда, турли хил асбобларда ва услубларда ўлчанган аниқ физик катталиқни қиймати бир хил.

### **Адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қумитаси маълумотлари [www.stat.uz](http://www.stat.uz).
2. O'z DSt ISO 9001:2009 Государственный стандарт Узбекистана. Системы менеджмента качества.

## **ТЕХНИК ЖИҲАТДАН ТАРТИБГА СОЛИШ ВА РАҚОБАТБАРДОШЛИЛИК**

*Магистр Усмонов Х.Қ., илмий раҳбар Бобоев Г.Г. (ТГТУ)  
техника фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент (PhD)*

Давлат сиёсатини фаоллаштиришнинг, маҳсулот сифати ва рақобатбардошлигига қўйиладиган талабларни ошириш техник тартибга солиш тизимини техник регламентларга ўтказиш, ташкилотларнинг миллий стандартлари ва уларни янгилаш билан боғлиқ.

Маълумки, “Техник жиҳатдан тартибга солиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни 2009 йил 23 апрелда қабул қилинган бўлиб, унинг асосий вазифалари инсон ҳаёти ва соғлиғи, юридик, жисмоний шахсларнинг ва давлатнинг мол-мулки хавфсизлигини таъминлаш, маҳсулотлар, ишлар ва хизматлар хавфсизлиги хусусида истеъмолчиларни чалғитувчи ҳаракатларнинг олдини олиш, савдодаги техник тўсиқларни бартараф этиш, атроф-муҳит муҳофаза қилинишини, шунингдек табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш жараёнини техник жиҳатдан тартибга солишдан иборат. Қонунга мувофиқ, техник регламентларни қўллашнинг мажбурийлиги, техник регламентларни қўллашнинг бир хиллиги, техник регламентларнинг техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасидаги миллий ва халқаро норматив ҳужжатларга мувофиқлиги, техник регламентларни ишлаб чиқиш, қабул қилиш ва эълон қилиш тартиби тўғрисидаги ахборотнинг очиқлиги техник жиҳатдан тартибга солишнинг асосий принциплари ҳисобланади. Ўзбекистон Республикасининг ижро этувчи ҳокимият органлари (Ўзстандарт агентлиги вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Қурилиш вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси ва бошқалар.) техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасида ваколатларга эга [1]. Мажбурий талабларни бирлаштириш ва тадбиркорлик фаолияти учун мажбурий бўлмаган молиявий талабларни юқори даражадаги меъёрий ҳужжатлар (қонунлар) билан белгилаш зарурати ҳозирги жаҳон тажрибасидан келиб чиқади.

Ўзбекистон Республикасининг техник тартибга солиш қонунчилиқ бўйича позицияларининг ривожланган хорижий мамлакатлар, биринчи навбатда Европа Иттифоқи ва АҚШ позициялари билан яқинлашиши Ўзбекистон Республикасига замонавий иқтисодий маконга мослашишга имкон беради ва халқаро техник қонунчилиқдаги барча ўзгаришларга муносиб жавоб беришга имкон беради. Маълумки, рақобатбардошлиқ сифат, нарх ва турғунлилик билан таъминланади, техник тартибга солиш эса етакчи роль ўйнайди.

Техник жиҳатдан тартибга солиш қуйидаги принципларга мувофиқ амалга оширилади:

- аккредитация органларининг, сертификатлаштириш органларининг ишлаб чиқарувчилар, ижрочилар ва харидорлардан мустақиллиги;
- давлат назорати органи ва сертификатлаштириш органи ваколатларини бирлаштиришга йўл қўйилмаслиги;
- аккредитация ва сертификатлаштириш ваколатларини бир орган томонидан бирлаштиришга йўл қўйилмаслиги;
- техник регламентларга риоя этилиши устидан давлат назорати (назорати) нинг бюджетдан ташқари молиялаштирилишига йўл қўйилмаслиги;
- маҳсулотлар, ишлаб чиқариш, ишлатиш, сақлаш, ташиш, сотиш, йўқ қилиш, ишларни бажариш ва хизматларни кўрсатиш жараёнларига талабларни белгилаш бўйича ягона қоидаларни қўллаш;
- аккредитациянинг ягона тизими ва қоидаларини яратиш;

Техник жиҳатдан тартибга солишнинг асосий тамойиллари сифат соҳасидаги қонунчилиқ ва замонавий жаҳон талабларини янада ривожлантиришни ҳисобга олган ҳолда мақсад ва вазифаларга эришишни таъминлайди.

Техник жиҳатдан тартибга солишнинг биринчи элементи маҳсулотлар, маҳсулотнинг ҳаётий цикли жараёнлари, ишларни бажариш ва хизматлар кўрсатиш учун мажбурий талабларни ўрнатиш, қўллаш ва бажаришдир [1].

Талабларни қабул қилиш деганда уларни қонунда белгиланган тартибда ва ҳуқуқий шаклда тасдиқлаш тушунилади. Талабларнинг қўлланилиши деганда улар қабул қилинган

барча объектлар ва ҳолатларда уларнинг мажбурий ёки ихтиёрий танлови тушунилади.

Хавфсизлик техник жиҳатдан тартибга солишнинг асосий устувор йўналиши ҳисобланади. Техник регламентлар техник жиҳатдан тартибга солиш объектларига (маҳсулотлар, жараёнлар ва хизматларнинг хавфсизлик хусусиятлари) мажбурий талабларни, ёрликлаш, қадоқлаш, илова қилинадиган ҳужжатларга қўйиладиган талабларни, шунингдек ихтиёрий равишда талабларни ўз ичига олади.

Техник регламентлар фуқароларнинг ҳаёти ёки соғлиғини, жисмоний ёки юридик шахсларнинг мулкани, давлат ёки жамият мулкани, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, ҳайвонлар ва ўсимликларнинг ҳаёти ёки соғлиғини ва бошқа салбий ҳаракатларнинг олдини олиш учун қўлланилади.

Қабул қилинаётган техник регламентларда мувофиқликни баҳолаш қоидалари ва шакллари, шу жумладан хавф даражасини ҳисобга олган ҳолда аниқланган мувофиқликни баҳолаш схемалари ҳам бўлиши мумкин. Техник жиҳатдан тартибга солишнинг ҳар бир объекти учун мувофиқликни баҳолаш муддатлари, шунингдек терминология, қадоқлаш, этикеткалаш талаблари ва уларни қўллаш қоидалари бўлиши мумкин [1,2].

"Техник жиҳатдан тартибга солиш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси қонуни техник регламентнинг икки турини назарда тутди: умумий техник регламент ва махсус техник регламент. Умумий техник регламент талаблари уй-жой коммунал хўжалигининг барча турдаги маҳсулотлари ва жараёнларини қўллаш ва уларга риоя қилиш учун мажбурийдир. Умумий техник регламентлар қуйидаги масалалар бўйича қабул қилинади:

- бинолар, иншоотлар, иншоотларнинг ишлаши ва унга туташ ҳудудлардан хавфсиз фойдаланиш хавфсизлиги;

- ёнғин хавфсизлиги;                   - биологик хавфсизлик;                   - электромагнит хавфсизлик;
- экологик хавфсизлик;                   - ядро ва радиацион хавфсизлик.

Махсус техник регламент талаблари айрим турдаги маҳсулотларнинг технологик ва бошқа хусусиятларини ва уй-жой коммунал хизматларининг хусусиятларини ҳисобга олади ва фақат зарар етказиш хавфи даражаси кўриб чиқилган тармоқларга зарар етказиш хавфидан юқори бўлганлар томонидан белгиланади [1,2].

Адабиётлар

1. "Техник жиҳатдан тартибга солиш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси қонуни 2009 йил 23 апрель.

2. Ismatullayev P.R., Matyakubova P.M., Turayev Sh.A. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Darslik. "Lisson-press", Toshkent, 2015. -423 b.

УДК.373.5.091.3:53

### ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР МИҚЁСИДА МУВОФИҚЛИКНИ БАҲОЛАШ ФАОЛИЯТДА ISO 9001:2008 СТАНДАРТИ БИЛАН ISO 9001:2015 СТАНДАРТИ ТАҲЛИЛИ.

Жиззах политехника институти  
(PhD) доц. **Ғ.М. Шертайлақов**  
магистранти **Ж.Й. Ўнғаров**

**Аннотация:** *Мазкур мақола мамлакатимизда халқаро стандартлар асосида мувофиқликни баҳолаш фаолиятида ISO 9001:2008 стандарт билан ISO 9001:2015 стандарт таҳлили масалаларини ўз ичига олади, мақола стандартлаштириши соҳасидаги меъёрий услубий ҳужжатларни урганган ҳолда ёзилди.*



*Аннотация:* В данной статье освещены вопросы анализа стандарта ISO 9001:2008 и ISO 9001:2015 в сфере деятельности по оценке соответствия в нашей стране на основе международных стандартов

*Annotation:* This article covers the issues of ISO 9001: 2008 and ISO 9001: 2015 standard analysis in the field of conformity assessment activities in our country on the basis of international standards.

Халқаро стандартлар ҳамма томонлама уйғунлаштириш ва даражали тан олиниши савдода техник тўсиқларни бартараф этиш ва рақобатни ривожлантиришнинг самарали воситаларидан биридир. Фан-техниканинг шиддатли ривожланиши, ишлаб чиқариш ва иқтисодий тизимларини ягона иқтисодий сиёсат асосида ўзаро боғланган ҳолда ривожланиши ҳамда халқаро савдо-сотикни кенгайтиришда мувофиқликни баҳолаш тизими ва бажариладиган жараёнларни бирхиллаштириш зарурияти юзага келмоқда. Шунини тасдиқлаб ўтиш керакки, барча тизимлар ва мувофиқликни баҳолаш жараёнларида ҳамма қизиқувчи томонларни жалб қилиш, очиқ-ойдинлик ва савдода ортиқча тўсиқларни яратмаслик, ҳақ-ҳуқуқларини чекламаслигини кўзда тутиб мақсадли ҳаракат қилиниши керак. Шу мақсадда дунё бўйича тан олинган стандартлаштириш бўйича халқаро ташкилотли барча мамлакатлар, яъни ривожланаётган давлатлар учун ҳам мувофиқликни баҳолаш тизимида қатор халқаро стандартларни амалий аниқлаб берган.

Мувофиқликни баҳолашнинг асосий тамойиллари ИСО/МЭК 60 халқаро қўлланмасида аниқлаб берилган. Мувофиқликни баҳолаш фаолиятида қатнашувчи барча ташкилотлар жумладан, мувофиқликни баҳолаш ва аккредитлаштириш бўйича идоралар қуйидаги шартларни бажаришлари лозим:

- ўз фаолиятини халқаро стандартлар ва ИСО/МЭК қўлланмаларига асослаши;
- ўзининг техник лаёқатлигини ушлаб туриш, яъни мувофиқликни баҳолаш натижаларини тан олишни соддалаштириш ва маҳсулот, жараён, тизим, шахс ёки идораларни ўрнатилган талабларга мувофиқлигини етарли даражада қафолатлаши;
- барча махфий маълумотларни ҳимоялаши;
- ўз фаолиятини касбий ҳалоллик билан амалга ошириши, ахлоқ-одоб тамойилларига риоя қилиш ва камситмасликка қаратилган тарзда ва томонларни барча низоларидан ўзини четга олиши;
- адолатли ва самарали тарзда тезкорлик билан ишлаши, аризани кўриб чиқиши ва баҳолашни бажариши;
- шикоят ёки апелляция ҳолатларини кўриб чиқишда адолатли ва самарали тарзда, тезкорлик билан тўғриловчи амалларни амалга ошириши зарур;
- мувофиқликни баҳолаш, мувофиқлик гувоҳномасини бериш ҳақидаги тасдиқловчи қарор ёки уни рад этилиши, бекор қилиш, тўхтатиш ва фаолиятга чек қўйиш бўйича фаолиятлари ҳақидаги ёзувларни юритиш ҳамда сақлаши;
- барча аризачиларга таклиф этилаётган хизматлар ва унинг учун тўлов шартлари тўғрисидаги маълумотларни тақдим қилишга тайёрлиги ҳамда бериладиган сертификатлар, аккредитлаш соҳаси ва ҳоказолар тўғрисида маълумотлар мавжудлиги;
- ўзининг лаёқатлигини мувофиқ механизмлардан (масалан, аккредитлаш, эксперт баҳолаш) фойдаланиш йўли билан намоён қилиши;
- мувофиқликни баҳолаш жараёни ҳақида мувофиқ ҳужжатлаштирилган кўрсатма билан ҳисоботни, зарурият бўлса, аниқланган номувофиқликларни ёки талаб қилинган тўғриловчи амалларни аризагига тақдим этиши;
- мувофиқлик белгисидан фойдаланилган ҳолатларда бу белги билан боғлиқ бўлган нотўғри фойдаланишлардан ҳимоя қилиш учун қўллаш қоидалари ёки шартларини таъминлаши;
- ривожланаётган мамлакатлар иштироки билан боғлиқ бўлган муаммоларни ва

ривожланган мамлакатлар фаолияти натижаларидан фойдаланишни ҳисобга олиш.

Бошқа асос солувчи ИСО/МЭК 17000 халқаро стандарти бўйича **мувофиқликни баҳолаш** бу «махсулот, жараён, тизим, шахс ёки идораларга берилган талабларни бажарилишини асослаши ёки исботлаши» бўлиб ҳисобланади деб ифодаланади. Бунда мувофиқликни баҳолаш деганда, шундай фаолият турлари яъни синов, назорат, мувофиқликни тасдиқлаш ҳамда мувофиқликни баҳолаш бўйича аккредитланган идоралар тушунилади. Синов лабораториялари, сертификатлаштириш бўйича идоралар ва назорат идоралари ҳамда мувофиқликни баҳолаш бўйича идораларни аккредитлаш идораларнинг мувофиқликни баҳолаш бўйича амалга оширилаётган фаолиятлари мувофиқлаштирилади. «Мувофиқликни тасдиқлаш» жараёни «аризани (сертификат кўринишида расмий ҳужжат ёки мувофиқлиги тўғрисида дақларация), объектни текширувдан сўнг белгиланган талабларни бажарилишини исботланганлиги тўғрисидаги қарор қабул қилинганлиги асосида бериш» сифатида ифодаланган жараёндр.

Ўзбекистон учун сертификатлаштириш миллий тизимида БСТга қабул қилиш йўли бўйича ҳаракатига имкон берувчи СТТ/БСТ ўрнатилган қоидалар қабул қилинди ва бунинг учун асосий бандлардаги қуйидаги масалаларни ҳал қилиниши лозим:

- халқаро мувофиқликни тасдиқлаш тизимларида ва махсулот мувофиқлигини баҳолаш соҳасидаги муаммолар билан шуғулланувчи халқаро ташкилотлар ишларида қатнашиш;

- мувофиқликни тасдиқлаш ва синов натижаларини ўзаро тан олиш тўғрисида хорижий мамлакатлар миллий идоралари билан келишувларни киритиш;

- Ўзбекистон Республикаси сертификатлаштириш миллий тизимидаги сертификатлаштириш идоралари ва синов лабораторияларини хорижий аккредитлаштириш;

- сертификат ва синов баённомаларини ўзаро тан олиш бўйича хорижий миллий идоралар ва маҳаллий идораларни ўзаро келишувини тузиш;

- сертификатлаштириш объектлари тўғрисидаги маълумотларни ишончлилигини таъминлаш;

- сертификатлаштириш экспертлари ва қатнашчилари жавобгарлиги;

- сертификатлаштириш натижалари ёки мувофиқлик сертификати (белгиси) муддатини тугаши тўғрисидаги маълумотларни аниқ ва равшанлиги;

- сертификатлаштириш объекти хусусиятларини, уни ишлаб чиқариш ва истеъмолчини ҳисобга олиб кўп қиррали ва моҳирона синов усуллари;

- сертификатлаштириш фаолиятида қўлланмалар ва халқаро ИСО/МЭК туркумли стандартлар, EN 45000 туркумли Европа нормалари ва бошқа халқаро ҳужжатлардан фойдаланиш;

- Ўзбекистонда қатнашувчи турли хил келишувлар асосида хорижий аккредитланган сертификатлаштириш идоралари ва синов лабораторияларини, мувофиқлик сертификати ва белгисини тан олиш;

- савдо сирларидан таркиб топган маълумотлар махфийлигига риоя қилиш;

- зарурият бўлган ҳолатларида сертификатлаштириш ишларига истеъмолчилар жамятини жалб қилиш.

Халқаро миқёсда сертификатлаштиришнинг ташкилий-услубий таъминотини Халқаро стандартлаштириш ташкилоти (ISO)нинг Сертификатлаштириш ва сифат бўйича Қумитаси (CASCO) амалга ошириб келади. CASCO ишларида 50 га яқин мамлакат ва қарийиб 20 та кузатув мамлакатлар иштирок этишади. Қумита фаолиятининг асосий йўналишлари қуйидагилар:

- турли мамлакатларда сифатни таъминлаш тизими ва махсулотларнинг мувофиқлигини баҳолаш усулларига ўрнатилган талабларини ўрганиш;

– маҳсулот, жараёнлар, хизматларни сертификатлаштириш ва инспекцион назорати, синашлар бўйича шунингдек, сифатни таъминлаш тизимлари ва сертификатлаштириш бўйича идорлар, синов лабораторияларини баҳолаш ва фаолияти бўйича қўлланмалар тайёрлаш;

– миллий ва ҳудудий сифатни таъминлаш тизимларини қабул қилиш ва ўзаро тан олинishiга қўмаклашиш ҳамда сифат тизими, сертификатлаштириш, текшириш, синашга халқаро стандартлардан фойдаланишга ёрдамлашиш.

ISO ташкилоти сертификатлаштириш соҳасидаги услубий муаммоларни бартараф этиш бўйича чора-тадбирларни ишлаб чиқиш билан шуғулланади. Сертификатлаштириш соҳасида асос бўлувчи ISO/IEC 28 «Учинчи томон маҳсулотни намунавий сертификатлаштириш тизимлари умумий қоидаси» қўлланма ҳисобланиб, сертификатлаштириш миллий тизимларини яратиш бўйича тавсиялар келтирилган. Қўлланма ISO ва Халқаро электротехника комиссияси (IEC) ҳамкорлик қилишига мисол бўла олади. Бу ҳамкорлик халқаро савдони ривожлантириш мақсадида икки томонлама ва кўп томонлама келишувни тузишга қўмаклашишга йўналтирилган. Яратилган сертификатлаштириш миллий тизимларини уйғунлаштириш тамойиллари асосида иккита йўл билан бунга эришиш мумкин. Биринчиси, IEC халқаро сертификатлаштириш тизимига мамлакатларни қўшиш бўлса, иккинчиси эса, ISO тавсия этаётган ягона сертификатлаштириш ташкилий-услубий тамойилларидан кенг фойдаланиш лозим.

Сертификатлаштиришни ривожлантириш ва бошқа тизимларни билан уйғунлаштириш учун қуйидаги ишларни амалга ошириш лозим:

Худудий сертификатлаштириш ва худудий даражада сертификатлаштириш коидаларини уйғунлаштириш

Мамлакатда амалдаги сертификатлаштириш тизимини такомиллаштириш концепциясни ишлаб чиқиш.

Техник тўсиқларни бартараф этиш савдода мувофиқликни тасдиқлаш бўйича ишлар натижаларини ўзаро тан олиш тўғрисидаги келишувни осонлаштиради, яъни мамлакатлар сонига боғлиқ ҳолда, бошқа томонлар фаолияти натижаларини бир томонлама, икки томонлама ва кўп томонлама тан олинishi мумкин.

Тан олиш бўйича келишув, яъни бошқа томонлама тақдим қилинган мувофиқликни баҳолаш тизимларида ўрнатилган функционал элементларининг бир нечтаси ёки биттасини қўллашдан олинган бир томонли натижаларни қўллаш асосидаги келишув деб юритилади.

Бу мувофиқликни тасдиқлаш натижаларини тан олишнинг мазмуни умумий натижаларга алоқадорлик, нафақат синовга (синов бўйича келишув) ёки фақат назоратга (назорат бўйича келишув) сифатида тан олиш мумкин. Тан олиш бўйича келишув халқаро, худудий ва миллий даражаларда бўлиши мумкин. Бир томонлама келишув бир томон ишларининг натижаларини кўп томонли қабул қилишдан иборат бўлади. Икки томонлама келишув мазмуни, ўзаро тан олиш бўйича келишув бўлиб, у ҳар бир томон ишлари натижаларини бошқа томонлар қабул қилинишини қамраб олади. Кўп томонлама келишув бу ишлар натижаларини икки томондан кўпроқ ўзаро тан олиш тўғрисидаги келишидир. Бунга стандартлаштириш, метрология, сертификатлаштириш ва аккредитлаштириш бўйича Евроосиё доирасида давлатлараро кенгаши 1992 йилда мустақил давлатлар ҳамдўстлиги (МДХ) мамлакатларининг ҳукуматлари Келишув қабул қилишди.

Ушбу маҳсулотларни ишлаб чиқариш ва технологик жараёнларининг параметрларини сифат ва хавфсизлик нуқтаи назардан назорат қилиш орқали тайёр маҳсулотнинг сифати ва хавфсизлиги таъминланади. Буни асослаш ва истеъмочиларга тақдим этишда ушбу маҳсулотлар учун техник регламентлар ва тегишли талабларни ўрнатиш муҳим ўрин тутади.

Юқорида келтирилганлардан келиб чиқиб, ушбу битирув малакавий ишида қандолат маҳсулотларининг синфланиши, тавсифлари ва ишлаб чиқиш технологик жараёнларининг таҳлили асосида сифат ва хавфсизлигини таъминлаш масалари кўриб чиқилади.

Ҳозиги кунда сертификатлаштириш масалалари бўйича қуйидаги ташкилотлар шуғулланишмоқда: Халқаро стандартлаштириш ташкилоти (ИСО) ва унинг қисми бўлмиш мувофиқликни баҳолаш бўйича Қумита ИСО/КАСКО, Халқаро электротехника комиссияси (МЭК) ва бу билан алоққада ишловчи Электр қурилмалари мувофиқлигини сертификатлаштириш бўйича Халқаро комиссия (СЕЕ); Савдо ва тариф бўйича Бош келишуви (ГАТТ); Халқаро савдо ташкилоти (ВТО); БМТ нинг Европа иқтисодий комиссияси (ЕЭК. ООН); Халқаро савдо маркази (МТЦ); Ривожланиш ва савдо бўйича БМТ Конференцияси (ЮНКТАД); Синов лабораторияларини аккредитлаш бўйича Халқаро конференция (ИЛАК) ва бошқалар.

### Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1. Б.Д.Юсупов ва б. Агросаноат мажмуи корхоналарида сифат менежментини такомиллаштириш.
2. standart.uz

## АВИАТСИЯ СANOATI VA HAVO TRANSPORTI KORXONALARIDA O'LCHASH, SINOV VA NAZORAT QILISH TARTIBLARINI ISHLAB CHIQUISH VA TAKOMILLASHTIRISH

**Jumamuratov B.A.** Doktorant (TDTU),  
**Matyakubova P.M.** professor (TDTU)

Raqamli iqtisodiyotda amaliy ilmiy natijalar asosida metrologiya xodimlarini tayyorlashning istiqbolli yo'nalishlari va ilg'or tajribalari ko'rib chiqiladi. Konferentsiyada Sanoat va savdo vazirligi, Rosstandart, Roskosmos davlat korporatsiyasining tarkibiy bo'linmalari rahbarlari hamda aviatsiya va raketa-kosmik sanoat, havo transporti va metrologiya (FSUE) ilmiy-tadqiqot institutlari mutaxassislarining ma'ruzalari va ma'ruzalari tinglandi. GosNII GA, FSUE VNII Markazi, FSUE "VNIIMS", konstruktorlik byurolari va ishlab chiqarish korxonalari (birlashmalar): "Irkut" korporatsiyasi PJSC; "Informtest" xolding kompaniyasi, "Ostek" MChJ korxonasi, "Kompaniya" Oktava + ", MChJ" Mitutoyo ", "IT-TECHNOLOGY" MChJ;

O'quvchilarga "O'lchovlar." Butunrossiya ilmiy konferentsiyasi ishtirokchilarining ma'ruzalari va nutqlari bilan tanishish taklif etiladi. Testlar. Nazorat", 2019-yil 22-24-oktabr kunlari IEC "Crocus-Expo" (Moskva) da "Sinov va nazorat" 16-xalqaro sinov va nazorat-o'lchash uskunalari ko'rgazmasi doirasida bo'lib o'tdi. Sinov va nazorat ko'rgazmasi va an'anaviy ravishda o'tkaziladigan ilmiy konferentsiya [1, 2] Rossiyada o'lchash va sinov uskunalari sohasidagi asosiy ixtisoslashtirilgan loyihalardan biridir.

Konferensiya Rossiya sanoat va savdo vazirligi, Rosstandart, Roskosmos davlat korporatsiyasi va Rossiya samolyot ishlab chiqaruvchilar ittifoqi ko'magida Xalqaro ko'rgazma kompaniyasi (MVK MChJ) tomonidan tashkil etildi. Konferensiya yalpi majlis bilan ochildi va ikkita tematik seksiyadan (aviatsiya va raketa-kosmik), ikkita davra suhbatidan (biri metrologiya infratuzilmasini innovatsiyalarga yo'naltirilgan rivojlantirishga bag'ishlangan; ikkinchisi - o'lchovlar bir xilligini ta'minlash sohasida kadrlar tayyorlash bo'yicha), shuningdek, ikkita mashg'ulot: texnologik (mashinasozlik va transportda metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlash bo'yicha) va muhokama (metrologiya asoslari bo'yicha). Ma'ruzalarning muhim

qismi aerokosmik sanoatda o'lchovlar, sinovlar va nazoratni rivojlantirishning holati, tendentsiyalari va istiqbollarga bag'ishlangan. Aviatsiya texnikasini loyihalash, ishlab chiqarish, sinovdan o'tkazish, sertifikatlash va texnik ekspluatatsiya qilish jarayonlarida metrologik ta'minlash va o'lchovlarning bir xilligini ta'minlash, shuningdek, salbiy holatlarning metrologik risklarini [3] kamaytirish masalalari muhokama qilindi.

Rossiya Federatsiyasi Hukumatining 2019 yil 21 oktyabrdagi 1355-son qarori bilan standartlar sifatida ishlatiladigan yoki standartlarga kiritilgan tasdiqlangan turdagi SI va ma'lumotnoma materiallari (RM) sertifikatlashdan o'tkazilmaydi. Ular tekshiriladi. Sanoat va savdo vazirligining 2013-yil 25-iyundagi 973-sonli "RM yoki SIn sinovdan o'tkazish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish uchun to'lov miqdorini belgilash metodikasini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'ini turini tasdiqlash maqsadida yangilash rejalashtirilmoqda. o'lchovlarning bir xilligini ta'minlash va ushbu xizmatni ko'rsatish uchun to'lovning maksimal miqdorini ta'minlash sohasida» 2013 yildan beri amalda bo'lgan va eskirgan. Endi hujjat SS va ko'p kanalli SI nuqtai nazaridan kengaytirilmoqda.

D.V. Gogolev (Rosstandart, Metrologiya bo'limi). 2019-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, GSI 162 ta davlat birlamchi standartlarini o'z ichiga oladi. Rosstandart ularni optimallashtirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshiradi; talab qilinmagan standartlar fizik miqdorlarni takrorlashda yaqin bo'lgan standartlar bilan murakkablashadi yoki foydalanishdan chiqariladi.

Rossiya Federatsiyasining axborot fondida 90 mingga yaqin tasdiqlangan hujjatlar mavjud. Endi o'lchov standartlarini sertifikatlash tartibiga o'zgartirishlar tayyorlanmoqda - ularning 95% gacha sertifikatlash endi talab qilinmaydi. Agar biz Rossiya Federatsiyasining darajasini xalqaro kontekstda ko'rib chiqsak, unda kalibrlash va o'lchash imkoniyatlari soni bo'yicha u hali ham dunyoda ikkinchi o'rinda turadi. Umumiy soni 1747 tani tashkil etadi, Rossiya Federatsiyasi ishtirok etgan 459 ta xalqaro taqqoslashlar allaqachon o'tkazilgan.

Rossiya sanoatchilar va tadbirkorlar ittifoqi (RSPF); oliy va qo'shimcha kasbiy ta'lim muassasalari (FGBOU VO "MAI (NRU)", FGBOU VO "N.E. Bauman nomidagi MSTU", FGBOU VO "RTU MIREA", FGBOU VO "Moskva Politehnika", FGBOU DO "MIEI" va boshqalar.

Rossiya sanoat va savdo vazirining o'rinbosari A.S. Ismsiz.

O'lchovlarning bir xilligini ta'minlash sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha ma'ruza M.V. Letunovskiy (Rossiya Sanoat va savdo vazirligi, Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi davlat siyosati departamenti). Rossiya Federatsiyasida raqamli iqtisodiyot yo'nalishi birinchi o'ringa chiqmoqda. Metrologik ishlarni elektron hisobga olish tizimiga o'tish rejasi ishlab chiqildi. Bu o'lchov vositasi (SI) turini tasdiqlash va tekshirish ishlariga, ya'ni. SI turini tasdiqlash va tekshirish to'g'risidagi ma'lumotlarni Federal axborot fondiga o'tkazish majburiy bo'ladi. Rossiya Federatsiyasi Hukumatining 2018 yil 28 apreldagi № 11-sonli qarori.521-son, Rosstandart o'lchovlarning bir xilligini ta'minlash va yagona axborot fondini yaratish tizimini nazorat qilish vakolatiga ega. Hozirgi vaqtda 2008 yil 26 iyundagi 102-FZ Federal qonuniga muvofiq amalga oshiriladigan nazorat va metrologik nazorat o'lchov vositalarini aniqlashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. O'lchov vositalarini identifikatsiyalash uchun ikki yil muddatda barcha o'lchov vositalarini raqamlar bilan ta'minlash – seriyali, zavod, inventar va boshqalarni ma'lumotlar bazasiga kiritish nazarda tutilgan.

Oldimizda turgan maqsad va vazifalar ikkita hujjat bilan tartibga solinadi: bu Hukumat tomonidan 2017-yilda qabul qilingan 2025-yilgacha bo'lgan o'lchovlar bir xilligini ta'minlash strategiyasi va Prezidentning 07.05.2018 yildagi 204-sonli qarori. o'zgaruvchanlik metrologiyasi (AQSh, Buyuk Britaniya, Italiya, Germaniya, Xitoy); milliy loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan texnologiyalarni davlat tomonidan tartibga solish va takomillashtirish sohasida EIn to'liq ta'minlashga erishish. Ushbu maqsadlarga muvofiq tizimni rivojlantirish bo'yicha qator vazifalar belgilab olindi. U yoki bu shaklda ular ushbu Dasturning aniq miqdoriy ko'rsatkichlari

va ko'rsatkichlarini belgilaydigan Strategiyani rivojlantirish rejasiga kiritilgan. Ish reja asosida ketmoqda. NEI tizimini kelgusi 5-10 yil ichida rivojlantirish uchun ushbu davrda sanoatning ehtiyojlari qanday bo'lishini tushunish kerak. Shu maqsadda FSUE VNIIMS bazasida NEI tizimining holatini monitoring qilish va iqtisodiyot va jamiyatning o'lchov ehtiyojlarini prognozlash bo'yicha ixtisoslashtirilgan markaz tashkil etildi. U birinchi yil ishlamoqda, joriy yil oxirida amalga oshirilgan ishlar natijalarini taqdim etishi kutilmoqda.

Aytish mumkinki, 2025 yilgacha iqtisodiyot va jamiyat ehtiyojlarining prognozi allaqachon ishlab chiqilgan bo'lib, u Rossiya Sanoat va savdo vazirligi bilan kelishilgan va ish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, shu jumladan davlatni yaxshilash standartlar ma'lumotlar bazasi. A.S. Krivov (RSPP, Moskva) o'z ma'ruzasida mashinasozlikning zamonaviy texnologik tizimlarining metrologiyasi masalalarini aks ettirdi. Metrologlar uchun ikkita asosiy muammo bor: nimani o'lchash, qachon va qanday yordam bilan raqamli ishlab chiqarishni o'lchash va nazorat qilish; sanoatda o'lchovlarning bir xilligini va o'lchovlar, nazorat va sinovlarning metrologik kuzatilishini qanday ta'minlash. Asosiy muammolar: raqamli texnologik tizimlar metrologiyasi; vektor metrologiyasi; o'rnatilgan yuqori informatsion (aqli) nazorat va o'lchash vositalari. Bir vaqtning o'zida asosiy tendentsiyalar - korxonada raqamli o'lchovlarni boshqarish tizimi va metrologik kuzatuvning yangi shakllari. V.A. Konferentsiya moderatori Agupov (FSUE VNII Markazi, Moskva, aviatsiya sanoati korxonalarida texnik hujjatlarning metrologik ekspertizasini (ME) tashkil etishning dolzarb masalalari to'g'risida ma'ruza qildi. 102-FZ Federal qonunining 2-moddasiga muvofiq, ME bir tartibda amalga oshiriladi. majburiy ixtiyoriy. Mudofaa vazirligiga harbiy texnikaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish va o'tkazishdagi muammolar tahlil qilingan, jumladan: davlat buyurtmachisining kompleks sifatiga qo'yiladigan talablarini oshirish; yuqori texnologiyali mahsulotlar va ularni metrologik ta'minlash jarayonlari; UEI davlat tizimining amaldagi texnik reglamentlari va me'yoriy hujjatlarining (shu jumladan sanoat standartlari) nomuvofiqligi, ularning katta qismi qayta ko'rib chiqish, yangilash yoki bekor qilishni talab qiladi; qog'ozsiz texnologiyalarni joriy etish orqali zamonaviy CAD va PDM tizimlari formatida yaratilgan mahsulotlarning elektron loyiha hujjatlarini yuritishda standartlashtirilgan yondashuvlarning yo'qligi; asosiy ishlab chiqarish (loyihalash va ishlab chiqish) bo'linmalari xodimlari, shu jumladan boshqaruv xodimlari orasida metrologiya va REI sohasida malakali mutaxassislarining etishmasligi. A.V. Golega (SC Roskosmos, Moskva) metrologik ta'minot tizimini kompleks rivojlantirish va takomillashtirish, eksperimental bazani modernizatsiya qilish, raketa va kosmik texnologiyalar mahsulotlarini sinovdan o'tkazishni uslubiy ta'minlash, ularni sinovdan o'tkazish va ekspluatatsiya qilish bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etdi. Malakali kadrlar tayyorlash uchun malaka oshirish dasturlari ishlab chiqilgan va tasdiqlangan: texnik hujjatlarning metrologik ekspertisasi; ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini metrologik ta'minlashni tashkil etish; raketa va kosmik sanoatida metrologik yordamni boshqarish

#### **Adabiyotlar**

3. Теплов И.Е. Метрологическое обеспечение авиационного комплекса // Мир измерений. — 2012. — № 8.
4. Ismatullayev P.R., Matyakubova P.M., Turayev Sh.A. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Darslik. "Lisson-press", Toshkent, 2015. -423 b.
5. ООО «Центр Авиаметрология и сертификация»; <http://aviametrolog.ru/> (дата обращения: 28.06.2021)
6. НПК «Авиаприбор»; <https://npkaviapribor.ru/> (дата обращения: 29.06.2021)
7. Распоряжение Минтранса РФ от 25.12.2000 № 143-р «Об утверждении «Перечня специальных средств измерений, подлежащих калибровке в гражданской авиации»;

<http://www.consultant.ru/cons/cgi/online.cgi?req=doc&base=EXP&n=491664#Q>  
 TylibS4SYGYCjI81 (дата обращения: 26.06.2021)

**ДВУХКВАНТОВЫЙ СДВИГОВЫЙ ФОТОТОК В n-GaP**

**Насиров М.Х., Нурматов О.Р.**  
 Ферганский политехнический институт,  
[nasirovmardonbek1992@gmail.com](mailto:nasirovmardonbek1992@gmail.com)

**Аннотация.** Рассчитана спектральная и температурная зависимость двухквантового сдвигового фототока в пьезополупроводниках.

**Ключевые слова:** фототок, пьезополупроводник, носители тока, фотон

**Введение.** Под линейным фотогальваническим эффектом (ЛФГЭ) понимают фотоэффект, обусловленный возникновением фототока в однородных пьезоэлектрических кристаллах при их однородном освещении [1]. Поляризационная зависимость возникающего при этом плотности фототока  $\vec{j}$ , пропорциональная к интенсивности света  $I$ , описывается феноменологическим соотношением [2]

$$j_{\alpha} = I \chi_{\alpha\beta\gamma} \frac{1}{2} (e_{\beta} e_{\gamma}^{*} + e_{\gamma} e_{\beta}^{*})$$

Здесь  $\vec{e}$  - вектор поляризации электромагнитной волны,  $\chi_{\alpha\beta\gamma}$  - тензор ЛФГЭ.

В настоящее время стало известным два механизма ЛФГЭ: баллистический механизм, обусловленный асимметрией процессов рассеяния, фотоионизации и рекомбинации и сдвиговый механизм, связанный со смещением центра тяжести волновых пакетов фотовозбужденных электронов при квантовых переходах [3].

В этом сообщении рассматривается фотонный механизм сдвигового ЛФГЭ в фосфиде галлия электронной проводимости, обусловленный смещением носителей при прямых двухфотонных оптических переходах электронов между подзонами зоны проводимости с учетом "горбы" подзоны  $X_1^C$ .

Далее учтено, что для *n-GaP* энергетическая щель между подзонами зоны проводимости больше, чем энергии LO- фонона и средней тепловой энергии электронов. Поэтому бесфотонные реальные переходы термализованных электронов из подзоны  $X_1^C$  в  $X_3^C$  (и обратно) отсутствуют. Поэтому вклад в баллистический ЛФГЭ в *n-GaP* вносят



оптические переходы с участием фононов, показанных на рис. , где сплошная (жирная) линия - электрон, волнистая - фотон, штриховая - фонон.

Суммируя по всем энергетическим долинам сдвиговый фототок определяется выражением

$$j_{\alpha}^{\hat{o}i\hat{o}} = j_0^{\hat{o}i\hat{o}} \frac{\Delta}{k_B T} ch\left(\frac{\Delta}{k_B T}\right) \exp\left[\frac{\frac{\hbar\omega}{2} - A \frac{(\hbar\omega)^2 - \Delta^2}{(2P)^2}}{k_B T}\right] \left(\frac{\Delta}{\hbar\omega}\right)^2 e_z (e_x \delta_{\alpha y} + e_y \delta_{\alpha x})$$

где  $j_0^{\delta i \delta} = -8\pi^2 |e| \frac{I}{\Delta} B_1 A_1^2 \frac{D}{P} \frac{N'}{\Delta}$ ,  $N'$  - концентрация свободных электронов,  $K$  - коэффициент поглощения света при прямом оптическом переходе электронов между подзонами  $X_1^C$  и  $X_3^C$ . Из видно, что температурный ход тока сдвигового ЛФГЭ полностью определяется температурной зависимостью коэффициента поглощения света  $K_{\square}$ .

Сравним тока баллистический вклад в фототок, рассчитанный в сферическом приближении в энергетическом спектре при учете анизотропии в матричном элементе оптического перехода между подзонами зоны проводимости, со сдвиговым фототоком. Расчеты показывают, что при  $T = 200 \text{ K}$ ,  $\hbar\omega = 550 \text{ MeV}$  баллистический ток ЛФГЭ в пять раз превышает сдвиговый. При оценке мы приняли, что  $m^* = 0,36m_0$ ,  $\hbar\Omega = 51 \text{ MeV}$   $a_0 = 5,4 \cdot 10^{-8} \text{ sm}$  (постоянная решетки),  $P, D$ -зонные параметры.

#### Использованная литература.

- [1]. Nasirov, M.X., Axmadjonov, M. F., Nurmatov, O.R., and Abdullayev, Sh.Sh.. "O'lchamli kvantlashgan strukturalarda kvazizarralar" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 1, no. 11, 2021, pp. 166-174.
- [2]. Полвонов, Б.З., Насиров, М.Х., Полвонов, О.З., Туйчибаев, Б.К. Особенности повышения мощности фотовольтаических пленочных структур халькогенидов кадмия // ORIENSS. 2021. №11.
- [3]. Polvonov, Bakhtiyor Zaylobidinovich; Nasirov, Mardonbek Haldarbekovich; Akhmadjonov, Mehridin Fakhridinovich; and Abdulazizov, Bakhrom Toshmirza o'g'li (2021) "The thermal field migration and electrodiffusion of charged point defects in polycrystalline films" *Scientific Bulletin of Namangan State University*: Vol. 2 : Iss. 2 , Article 7.

#### КОМПЬЮТЕР ГРАФИКАСИНИНГ ТУРЛАРИ, УНИНГ ТУРКУМЛАРИ ВА ХАР ХИЛ КЎРИНИШЛАРИ.

Тилавов А.(ТДТУ)

Рахимов А.(ТДТУ)

[asadbektilavov427@gmail.com](mailto:asadbektilavov427@gmail.com)

Компьютер графикаси уч турга бўлинади: растли графика, векторли графика ва фрактал графика. Улар бир-биридан монитор экранида тасвирланиши ва қоғозда босиб чиқарилиши билан фарқланади. Растли графика. Растли графикада тасвир нуқталар (қоғозда), пикселлар(нуқталар экранда шундай деб аталади) ёрдамида ҳосил қилинади.

Табиийки, нуқталар сони қанча кўп бўлса (улар зич қилиб жойлаштирилса), унга асосланган расм, шакл, график ва ҳоказолар шунча аниқ кўриниб туради. Шу муносабат билан экраннинг рухсат этиш қобилияти тушунчаси киритилган бўлиб, унда горизонтал ва вертикал йўналишлардаги нуқталар сони муҳим аҳамиятга эга ва у экраннинг рухсат этиш имконияти дейилади. Одатда, бундай кўрсаткич 640x480 , 800x600, 1024x768 ёки булардан юқори пикселларда берилади. Тасвир ўлчови рухсат этиш қобилияти билан боғлиқдир. Бу параметр dpi(dots per inch-нуқталар сони зичлиги) билан ўлчанади. Экрaн диагонали 15 дюймли (1дюйм=2,54 см) мониторда тасвир ўлчови 28x21 см ни ташкил қилади. Буни ҳисобга олсак, 800x600 пикселли монитор экранининг тасвирлаш қобилияти



72 dpi га тенг бўлади. Демак, компьютер хотирасидаги рангли тасвир кўп жой олинишини тушуниш қийин эмас.

Мисол учун 10x15 см ли расм тахминан 1000x1500 пикселлардан иборат бўлади. Агар ҳар бир рангли нуқтани тасвирлаш учун 3 байт хотира ишлатилишини ҳисобга олсак, битта ўртача катталиқдаги расмнинг ўзи хотирада тахминан 4 млн. байт жойни эгаллайди. Бундай маълумот, хусусан, Internet саҳифаларини яратишда эътиборга олиниши зарур. Шунинг учун ҳам ҳозирги кунда яхши мультимедиа дастурларини, видеороликни яратиш учун оператив хотираси 128 Мбайтдан кам бўлмаган ва мос равишда, тезлиги катта бўлган компьютерлардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Демак, растли графика билан ишлаш учун юқори унумли компьютер талаб қилинади.

Растли графиканинг камчилиги сифатида шуни айтиш мумкинки, тасвирни масштабластириш (катталаштириш, кичиклаштириш) жараёни натижасида нуқталар ўлчови катталашини билан тасвир аниқлиги ёмонлашини мумкин ва ҳатто, тасвир таниб бўлмайдиган даражада ўзгариши мумкин. Фрактал графика математик ҳисоблашлар асосида тасвирларни автоматик яратиш учун қўлланилади. Шунинг учун ҳам унинг асоси сифатида расм, шакл, тасвир ҳосил қилишнинг дастурлаш усули танланган. Бу графика, одатда, турли жараёнларни моделлаштириш, таҳлил қилиш, турли қизиқтирувчи дастурлар яратишда кенг қўлланилади. Компьютер графикасининг қуйидаги туркумлари ажратиб кўрсатиш мумкин:

- тижоратга оид
- намоёнишларга оид
- муҳандисликка оид
- илмий
- кўрғазмавий
- анимацион

Suyuqlikni tortib berish bilan bog'liq ishlab chiqarish jarayonlari sifatiga qo'yiladigan texnologik talablarning ortib borishi markazdan qochirma nasos, shu jumladan matematik modellashtirish yordamida suyuqlikni tortib chiqarish qurilmalarining ishlash rejimini yaxshilash zarurligini ko'rsatadi. Markazdan qochirma nasos qurilmalari, odatda, umumlashtirilgan integral tavsifnomalar yordamida modellashtiriladi. Elektrotexnik majmualar tarkibiga kiruvchi markazdan qochirma nasos qurilmalarining dinamik modellarini ko'rib chiqish eng samarador ish rejimlarini ham energiya tejash, ham ishonchlilik nuqtai nazaridan tadbiiq etishga imkon yaratadi. Suyuqlikni tortib beruvchi stansiyalar texnologik jarayonlar tufayli energiya va resurslarni tejovchi texnologiyalarni qo'llashning yuqori darajadagi potentsialiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida» 2019 yil 22 avgustdagi PQ-4422-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash mazkur vazifaning dolzarbligini belgilaydi.

Mashinada sug'orish tizimining nasos stantsiyalarining ish rejimi ko'plab parametrlar orqali, ya'ni konstruktiv, texnologik va elektr parametrlari orqali belgilanadi.

Konstruktiv parametrlarga suv bosimi quvurlari (oddiy va murakkab) majmui, nominal quvvat va yuritma motorlari aylanishi soni, transformatorlar quvvati, asbob-uskunaning nominal quvvati, parrakning burilish burchagi  $\beta_d$  va boshqalar kiradi. Agar ularni bu parametrlarning qayd etilgan nominal qiymatlarida ekspluatatsiya qilinsa, ularni boshqarib bo'lmaydi. Texnologik parametrlarga nominal unumdorlik ( $Q_N$ ) va nasos bosimi (N), yetkazib beruvchi va siljitivchi kanallardagi byeflar darajalari ( $\nabla_N, \nabla_v$ ), suv iste'moli grafigini qoplash

( $Q_G = Q_P$ ) va boshqalarni kiritish mumkin. Elektrik parametrlarga motor qisqichlaridagi kuchlanish qiymatlari ( $U_s$ ), iste'mol manbai chastotasi, aktiv va reaktiv quvvatlar ( $P, Q$ ), yuklash koeffitsienti ( $\gamma_z$ ), energetik ko'rsatkichlar ( $\eta, \cos \varphi$ ) va boshqalar kiradi.

Mazkur parametrlar birgalikda sug'orish nasos stantsiyalarining ish rejimi, elektr energiyasidan oqilona foydalanish va sug'orish suvlarining sarfini belgilab beradi. Nasos stantsiyalari ish rejimining suv bosimi quvurlari majmuiga bog'liqligi berilgan davrda parallel ulangan nasos agregatlaridan qanchasi umumiy suv bosimi quvuriga ishlayotganligi orqali aniqlanadi. Ko'tarilish balandligi ( $H_{CT}$ ) va suv bosimi quvuri uzunligi, hamda sifonning ochiq yoki yopiq holati unumdorlik va elektr energiyasi sarfining solishtirma normalariga ta'sir ko'rsatadi. Ishlayotgan nasos agregatlari byefi darajasi va boshqa parametrlarga nasos stantsiyasi ish rejimi, masalan berilgan suv uzatish grafigini ta'minlash yoki elektr energiyasidan oqilona foydalanish rejimi bog'liq bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, sug'orish suvlarining talab etilayotgan elektr energiyasidan oqilona foydalanish va nasos stantsiyalarining uzatishini rostdlashga faqat texnologik va elektrik parametrlar hisobiga erishish mumkin emas. Konstruktiv parametrlar berilgan va boshqarib bo'lmaydigan hisoblanadi, biroq, tezligi bo'yicha rostlanadigan nasos agregatlarini elektr yuritmalari tizimi yordamida boshqarish mumkin.

Umumiy holda nasos stantsiyalari ish rejimini boshqarishda hal qilinadigan asosiy vazifalar sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

- 1) berilgan suv uzatish grafigini ta'minlash;
- 2) tortib chiqarilayotgan suv xajmi birligida elektr energiyasi sarfini minimallashtirish;
- 3) "suv yetkazish kanali – nasos stantsiyasi" tizimi texnologik parametrlari cheklanganida suv uzatishni maksimal darajaga yetkazish (suv kamaygan sharoitda).

Har bir vazifa optimal hisoblanadi va u berilgan grafik yoki suv uzatishni maksimal darajaga ko'tarish va elektr energiyasi sarfini minimallashtirish mezonlari bo'yicha rejim ko'rsatkichlarini belgilaydi.

Markazdan qochirma nasoslar ishlab chiqariladigan elektr energiyaning 25 % ini iste'mol qiladi. Texnologiya jarayonlarining xususiyatlariga ko'ra mazkur elektr yuritmalari yuqori energiya tejash potensialiga ega. Mazkur tizimlarning ishlashi suyuqlik issiqlik energiyasini notekis iste'mol qilinishi ob-havo, yil fasllari va sutka vaqtlariga bog'liqligi bilan farqlanadi.

Energiya samaradorlik nuqtai nazaridan nasos agregatlarini drossel boshqaruv tizimidan avtomatik boshqaruv tizimiga o'tish zaruriyati obyektiv ravishda ma'qullanadi. Avtomatik boshqaruv tizimi kerakli chastotali rostlanuvchi asinxron elektr yuritmani qo'llash hisobiga texnologik parametрни, jumladan suv sarfining o'zgarib turishida suv bosimini kerakli maromda ushlab turadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Камалов Т.С. Частотно-регулируемый электропривод насосных станций систем машинного орошения // Монография. Фан, 2014. 368 с.
2. Камалов Т.С., Тоиров О.З. Энергосберегающий электропривод и вопросы выбора преобразователя частоты // Узбекский журнал Проблемы информатики и энергетики. 2009. №1. С. 36-42.
3. Камалов Т.С., Тоиров О.З. Энергетические параметры асинхронного электропривода с частотным управлением // Узбекский журнал Проблемы информатики и энергетики. 2008. №4.
4. Лысенко О.А., Хамитов Р.Н. Система стабилизации напора установок центробежных насосов со скалярным управлением частоты вращения асинхронного двигателя // Известия Транссиба.- 2013. № 4 (16). – С. 25-30.

**M**EXANIKA, MASHINASOZLIK, MUHANDISLIK VA KIMYOVIY  
TEKNOLOGIYA, SANOAT EKOLOGIYASI

## TIKUV MASHINASI MOKI G`ALTAGI

**Vafojeva Zamira Sevindikovna.** Buxoro Muhandislik Texnologiya instituti doktoranti  
**Mansurova Munisa Anvarovna.** Toshkent To`qimachilik va Yengil sanoat instituti. Texnika fanlari doktori.

Tikuvchilik korxonalarini jihozlarning eng katta ulushini avtomatik bo'lmagan tikuvli tikuv mashinalari tashkil qiladi. Dizayn va texnologik tavsif mashinaning eng muhim o'ziga xos dizayn xususiyatlarini va uning texnologik maqsadini ta'kidlash uchun ishlatiladi.

Respublikada minglab tikuv korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning maxsulotlari yetarli darajada eksport qilinmayapdi. Buning asosiy sababi tayyorlanadigan tikuv buyumlarining sifati yuqori emasligidandir. Ayniqsa, tikuv buyumlarini tayyorlashda choklarni hosil qilishda tikuv mashinalari ishchi organ, mexanizmlari takomillashtirilmaganligi, jumladan tikuv mashinkasi moki g`altagining og`ir aylanishining hisobiga baxyaqator siftsiz bo`lishi yuqori, shu sababli tikuv mashinalari uchun yuqori samarali moki g`altagini ishlab chiqish, baxyaqator sifatini oshirishni ipni tejash, og`irlik shovqinni olish masalasi soha uchun dolzarb hisoblanadi.

Olib borayotgan ilmiy izlanishlarimiz kiyim-kechak sanoatiga, xususan tikuv mashinalariga, ya'ni iplar uchun g'altakning dizayniga tegishli. Moki g`altagining dizayni bir-biriga mahkam bog'langan ikkita dumaloq diskdan iboratdir. Ma'lum bo'lgan dizaynning kamchiliklari - materiallarni tikish jarayonida uni ochish paytida g'altakning bir xil kuchlanishini ta'minlashning mumkin emasligi. Ipni g'altakdan bo'shatishda, ipning joriy burilish joyiga qarab, uning joylashuvi radiusi o'zgarishi bilan, o'zgaruvchan echish kuchi talab qilinadi.

Ipni yechishning eng boshida, g'altakdagi g'altakning katta radiusida joylashgan va shuning uchun uni ochish uchun kichik tortish kuchi talab qilinadi va ip eng oxirida ishlatilganda, oxirgi burilishlar radiusi deyarli g'altakning tashqi radiusiga teng radiusda g'altakda bo'ladi. Bunday holda, ipning so'nggi burilishlarini g'altakdan yechish uchun katta tortish kuchi talab qilinadi.

Yechish paytida, ya'ni materiallarni silliqlashda, shpal ipning kuchlanishining bir xilligini ta'minlash uchun g'altakning o'rash dizayni yaxshilandi. Tikuv mashinasi uchun taglik, ramka, qo'zg'alubchan g'ildiragi, moki g`altagi, moki mexanizmi, ipni taranglash mexanizmi va ipni kesish mexanizmidan iborat bo'lgan ma'lum bo'lgan o'ragichlar ishlashda ishonchli emas va past mahsuldorlikka ega. Tikuv mashinasi uchun taglik, rom, qo'zg'aluvchan g'ildiragi, g'altak, moki mexanizmi, ipni taranglash mexanizmi va kesish mexanizmi bo'lgan g'altakning o'rash moslamasi, unumdorligini oshirish uchun esa ipni taranglik mexanizmi shaklda ishlab chiqariladi. To'rtburchakdan, uning tokchalaridan birida ipni yo'naltiruvchi uyasi va teshigi bo'lib, ipni kesish mexanizmi slayder ko'rinishida, zarb o'raining uchida teshik va teshik bilan amalga oshiriladi.

Tikuv mashinasi uchun bu g`altak ip o'rash moslamalarining kamchiliklari dizaynning murakkabligi va ipning kuchlanishini tartibga soluvchi vositaning yo'qligi sababli materiallarni silliqlash paytida yechib olinganda g'altakning bir xil kuchlanishini ta'minlashning mumkin emasligidir. Burilishlar radiusining asta-sekin kamayishi moki g`altagiga ham bog'liqdir.

“SINGER 9960” tikuv mashinasining mashhur konstruksiyasida g`altak metall gilza yordamida bir-biriga mahkam bog'langan ikki yon dumaloq diskdan iborat. Ushbu dizaynning kamchiliklari, shuningdek, o'rash va ochish paytida g'altakning bir xil kuchlanishini ta'minlashning mumkin emasligi.

Ixtironing maqsadi g'altakning ipini o'rash va g'altakdan yechish vaqtida bir xil tarangligini ta'minlashdan iborat bo'lib, bu ipning uzilishini sezilarli darajada kamaytirishga va mashina unumdorligini oshirishga imkon beradi. Muammo elastik energiyani saqlash bilan jihozlangan moki g`altagi dizaynini takomillashtirish orqali hal qilinadi.

Dizaynning mohiyati shundan iboratki, tikuv mashinasi uchun g'altakda metall gilza yordamida bir-biriga mahkam bog'langan ikkita dumaloq disk mavjud bo'lib, ularga nosimmetrik tarzda ikkita yarim doira prujina plitasi o'rnatilgan, bargning konsol qismi esa. prujina g'altakning yengining yuzasidan biroz chiqib turadi. Plitaning konsol qismi va yeng orasidagi maksimal bo'shliq g'altakga o'ralgan ip g`altak qatlamining maksimal qalinligining 25% dan oshmaydi. Yon dumaloq disklarning har biri ikkita teshikka ega bo'lib, ularga sim ushlagichlari kiradi. Bunday holda, moki ipni o'rashdan oldin, plitalarning konsol qismlarini yeng yuzasiga bosib, sim ushlagichlar o'rnatiladi. Ipni o'rashdan so'ng, sim ushlagichlari g'altakning disklari teshiklaridan chiqariladi.

G'altakning ipini yechish paytida konsol plitalarining deformatsiyasi natijasida to'plangan energiya tufayli plitalar ipning yara burilishlariga bosiladi. Bu energiya tufayli ipning yechish kuchi sezilarli darajada kamayadi, ya'ni ipning tarangligi kamayadi, ayniqsa materiallarni tikish uchun yuqori tezlikni va g`altakning bir xil kuchlanishini ta'minlaydi.

Ixtironing maqsadi g'altakning ipini o'rash va g'altakdan yechish vaqtida bir xil tarangligini ta'minlashdan iborat bo'lib, bu ipning uzilishini sezilarli darajada kamaytirishga va mashina unumdorligini oshirishga imkon beradi. Muammo elastik energiyani saqlash bilan jihozlangan bobin dizaynini takomillashtirish orqali hal qilinadi.

Biz tavsiya qilayotgan dizaynning mohiyati shundan iboratki, tikuv mashinasi uchun g'altakda metall gilza yordamida bir-biriga mahkam bog'langan ikkita dumaloq disk mavjud bo'lib, ularga nosimmetrik tarzda ikkita yarim doira prujina plitasi o'rnatilgan, bargning konsol qismi esa. prujina g'altakning yengining yuzasidan biroz chiqib turadi.

Plitaning konsol qismi va yeng orasidagi maksimal bo'shliq g'altakga o'ralgan ip bobini qatlamining maksimal qalinligining 25% dan oshmaydi. Yon dumaloq disklarning har biri ikkita teshikka ega bo'lib, ularga sim ushlagichlari kiradi. Bunday holda, moki ipni o'rashdan oldin, plitalarning konsol qismlarini yeng yuzasiga bosib, sim ushlagichlar o'rnatiladi.

Ipni o'rashdan so'ng, sim ushlagichlari g'altakning disklari teshiklaridan chiqariladi. G'altak ipini yechish paytida konsol plitalarining deformatsiyasi natijasida to'plangan energiya tufayli plitalar ipning yara burilishlariga bosim o'tkazadi. Bu energiya tufayli ipning yechish kuchi sezilarli darajada kamayadi, ya'ni ipning tarangligi kamayadi, ayniqsa materiallarni tikish uchun yuqori tezlikda bo'ladi.

#### Adabiyotlar

1. Chervyakov F.I., Sumarov N.V. "Tikuv mashinasi", M. "Mashinoctroenie", 1968, 472 b.
2. Savoctiskiy A.V., Melikov Ye.X., Kulikova I.A., "Tikuv texnologiyasi. M. «Yengil sanoat», 1971, 568 b.
3. Tikuv mashinkasi moki g`altagi, Muallif guvohnomasi №303385, Blyu.16, 71y
4. Frans V.Ya., Isayev V.V. Tikuv mashinasi, M. «Legprombitizdat», 1986, 29-34b.

#### О ПРОЕКЦИЯХ С ЧИСЛОВЫМИ ОТМЕТКАМИ.

Студент **Ш.А.Аяпбергенов**, ТашГТУ, науч. рук. доцент **Д.У.Сабирова**, ТашГТУ

Прямая перпендикулярна плоскости, если она перпендикулярна к любым двум пересекающимся прямым этой плоскости (рис.1). Через каждую точку пространства можно провести только одну прямую, перпендикулярную к данной плоскости.




Рис 1.




Рис 2.

На рис.1 изображена прямая  $m(AB)$ , перпендикулярная плоскости  $P$ , так как она одновременно перпендикулярна к двум прямым  $BC$  и  $BD$  этой плоскости. Так как плоскость  $P$  наклонная, следовательно прямая  $m(AB)$  также наклонная.

Для построения прямой  $m$  на плане воспользуемся условием проецирования прямого угла (п.2.7), для чего в качестве двух пересекающихся прямых в плоскости  $P$  возьмем особые прямые плоскости – горизонталь ( $h$ ) и линию падения ( $u$ ) (рис.2), где  $m(AB) \perp h, u$ .

На плане проекции прямой  $m$  и горизонтали плоскости взаимно перпендикулярны (прямой угол, одна сторона которого параллельна плоскости проекций, проецируется без искажения).

Так как прямая  $m$  и линия падения  $u$  плоскости взаимно перпендикулярны и лежат в одной вертикальной плоскости, следовательно, заложения у таких прямых обратные по величине друг другу:  $l^m = 1/l^u$ , но  $l^u = l^P$ , тогда  $l^m = 1/l^P$ , то есть заложение прямой  $m$  по величине обратно пропорционально заложению плоскости  $P$ .

Из чертежа видно, что падения прямой  $m$  и плоскости направлены в разные стороны.

Итак, если прямая перпендикулярна плоскости, то:

- проекция прямой перпендикулярна проекции горизонтали плоскости ( $m \perp h$ );
- заложение перпендикуляра является величиной обратной заложению плоскости  $l^m = 1/l^P$ ;
- падения перпендикуляра и плоскости направлены в разные стороны.  $m \perp P$  ( $m \perp h$ ); ( $l^m = 1/l^P$ ); ( ).

**Пример.** Из точки  $A$  опустить перпендикуляр на плоскость  $P$  (рис.3).




Рис 3.

**Решение.**

- через точку  $A$  проводят проекцию прямой  $m$  перпендикулярно проекции горизонтали плоскости  $P$ ;
- по масштабу заложения определяют заложение прямой  $m(l^m)$  построением ее профиля перпендикулярно профилю плоскости  $P$ . Из чертежа видно, что заложение прямой  $m(l^m)$  обратно по величине заложению плоскости  $P(l^P)$ ,  $l^m = 1/l^P$ ;
- на проекции перпендикуляра (прямой  $m$ ) откладывают ряд отрезков, равных заложению прямой  $m$ , учитывая направление ее падения, и обозначают, например, точку  $B_4$ , определив таким образом искомый перпендикуляр  $m(AB)$ ,  $m \perp P$ .

**Пример.** Определить расстояние от точки  $A$  до плоскости  $P(CDE)$  (рис.4).






Рис 4.

**Решение:**

Расстояние от точки  $A$  до плоскости  $P$  определяется длиной перпендикуляра, опущенного из точки  $A$  на плоскость  $P$ .

Проекция перпендикуляра на плане перпендикулярна проекции горизонтали плоскости, следовательно:

- в плоскости  $P$  проводят горизонталь  $h(E_{10}F_{10})$ ;
- проводят проекцию прямой  $m$  перпендикулярно к горизонтали плоскости ( $m h_{10}$ );
- определяют точку  $B$  – точку пересечения прямой  $m$  с плоскостью  $P$ , для чего строят профиль плоскости, зная ее заложение ( $l^P$ ) и профиль прямой  $m$ , проходящей через точку  $A$  перпендикулярно профилю плоскости  $P$ . Для определения точки  $A$  на горизонте отмечают положение ее горизонтальной проекции ( $A$ ), сохраняя равенство отрезков, указанных на чертеже и, учитывая ее высотную отметку, обозначают точку  $A$ . Из точки  $A$  опускают перпендикуляр на профиль плоскости  $P(m P)$ . Точка  $B$  – основание перпендикуляра, то есть  $B = m P$ . Прямая  $AB$  – расстояние от точки  $A$  до плоскости  $P$  —  $|AB|$ ;
- строят проекцию точки  $B(B_{20})$  на плане учитывая расстояние  $(A)(B)$ , а также ее высотную отметку, то есть  $(A)(B) = A_{50}B_{20}$ .

**Литература**

1. А.М.Иванова, Л.А.Комова, Т.П.Коротаева и др. Учебно-методическое пособие по курсу «Инженерная графика» -М: РГУ нефти и газа им. И.М.Губкина, 2004. С 10-15.
2. А.В.Бубенников «Начертательная геометрия», учебник для вузов –М : «Высшая школа», 1985.С. 227-228
3. В.О.Гордон, М.А.Семенов-Очиевский, курс начертательной геометрии, учебное пособие для вузов, -М: «Наука». 1988.С.202-205.

**«ОЗОН ҚАТЛАМИ ЕМИРИЛИШИ ГЛОБАЛЬ МУАММО»**

**Атаходжаев Абдубоситхожа Абдулахатхожа ўғли** - ТошДТУ, Мухандислик технологиялари факультети Э ва АММ йўналиши 3-босқич талабаси,  
**Арипова.Мукаррам** - п.ф.ф.д. (PhD), Э ва АММ кафедраси доценти

Олимларнинг тадқиқотларига кўра, озон қатламининг емирилишига совитиш техникалари, ёнғин ўчириш воситалари, таркибида галогенлар (хлор, фтор ва бром) бўлган кимёвий моддаларнинг саноат ва қурилиш соҳасида кенг қўлланилиши асосий сабаб саналади.

Гарчи, ҳозирда атмосфера ҳавосидаги озон жуда оз қисми ташкил этса – да, унинг аҳамияти бениҳоя каттадир. У оксил ва нуклеинли кислоталарни емирувчи қатъий ультрабинафша нурланиши ушлаб қолади.

Озон қатламини олимлар «биологик қалқон» деб ҳам атайдилар. Таассуфки, бу қалқоннинг емирилишига инсон омили катта роль ўйнапти.

Космик парвозлар, реактив самолётлар парвози, автомобиллар ва бошқа манбалардан чиқаётган газлар, айниқса, совитиш тизимларидаги фреон гази бу қатлам ҳолатига акс таъсир кўрсатмоқда.

Бу эса келажакда иқлимнинг башорат қилиб бўлмайдиган ўзгаришларига, яъни инсон организми иммун тизимининг заифлашишига, онкологик касалликлар сонининг ошишига, ўсимликларнинг секин ўсишига олиб келиши мумкин.

Жаҳон ҳамжамияти Озон қатламини сақлаб қолишнинг аҳамиятини тушуниб етган ҳолда бир қанча чораларни кўрган ва кўрмоқда. 1987 йилда қабул қилинган Монреал далолатномасида энг хавфли хлорфторуглеродлар рўйхати тузиб чиқилган ва бу моддаларни ишлаб чиқарувчилар ишлаб чиқариш ҳажмини камайтиришни ўз зиммаларига олганлар. 1990 йилнинг июнида бу далолатномага қўшимча киритилган. Унга кўра 1995 йилда фреон ишлаб чиқаришни икки баробарга қисқартириш, 2000 йилда батамом тўхтатиш кўзда тутилган. Лекин бу борадаги ишлар ҳаммаси кўнгилдагидай кетган тақдирда ҳам, биринчи ижобий натижа, қилинган меҳнатнинг самараси 2050 йилга борибгина кўринади. Чунки атмосферага чиқариб юборилган миллионлаб тонна хлорфторуглеродлар тугагунларига қадар анча зарар етказиб улгуришади. Атмосферадаги хлор озон парчаланишида ўзига хос катализатор вазифасини ўтайди ва реакцияларга қарамай, унинг миқдори деярли камаймайди. Тугаб битгунига ёки атмосферанинг озон бўлмаган қуйи қатламларига қайтиб тушгунига қадар битта хлор атоми 100 000 та озон молекуласини парчалаб ташлаши мумкин.[1]

Глобал келишув, таркибида хлор бўлган сунъий кимёвий моддаларни атмосферага чиқариб юбориш, стратосферадаги озон қатламини емирилишини келтириб чиқаради деган назарияни илгари суради. Бу моддаларни кўп қисмини озон қатламини яхши емириш қобилятига эга бўлган хлорфторуглеродлар (ХФУ) ва галонлар (ўт ўчириш воситаларида қўлланилувчи моддалар) ташкил қилади. ХФУ кўп йиллар давомида совитиш агенти сифатида совитиш машиналарида, эритгичларда, кўпик ҳосил қилгичларда ишчи модда сифатида қўлланилиб келинган.

Хлорфторуглерод ҳозирги кунда озон қатламини емирилишининг энг асосий сабабчиси қилиб кўрсатилмоқда. Ҳар баҳорда Ер шарининг жанубидаги Антарктика устида озон қатламида ўлчами АҚШ майдонидай бўлган "туйнук" ҳосил бўлади. "Туйнук" деганда у тешик эмас, ўша зонада озоннинг концентрацияси тушиб кетганлигини англатади. Энг катта "туйнук" Антарктида устида 1992-1993– йилларда кузатилган. Ўшанда озон концентрацияси олдинги кузатувларга солиштирганда 60%га тушиб кетганди. Емирилиш айниқса озон концентрацияси энг юқори бўлган 15 дан 50 км гача бўлган баландликда содир бўлганди. Шуни қайд этиб ўтиш керакки, ХФУнинг озон қатламига таъсири жанубий кенгликда жойлашган совуқ изоляцияланган ҳаво массасини ҳосил қилиб, ўзининг метрологик ҳолатини яхшилаган ҳудудларда кучайиб бормоқда.

Ўзбекистон Республикаси 1993 йилдан буён Монреал протоколининг аъзо Томони ҳисобланади ва унга риоя қилиш режими остида. Ҳозирги вақтда республикамиз бўйича 91,95 фоиз озон йемирувчи моддалар муомаладан чиқарилганки, бу еса Монреал протоколи билан режалаштирилган жадвални илгарилаб кетди.[2]

Маҳаллий хладагентлар - углеводород, азот оксиди, аммиак ва бошқаларни қўллаган ҳолда пилот муқобил технологияларни татбиқ этиш мамлакатимиз корхоналаридаги ҳавони совутиш ва кондициялаш тармоғини модернизация қилиш, энергия тежамкорлигини таъминлаш имконини беради. Мазкур пилот лойиҳалар мамлакатимизни кенг кўламда қайта технологик жиҳозланишини рағбатлантиради.[3]

Озон йемирувчи моддаларни йўқ қилишга қаратилган бошқа лойиҳа ескирган озон йемирувчи моддалар ва уларнинг чиқиндиларини, шунингдек, тақиқланган озон йемирувчи моддалар ва таркибида улар мавжуд бўлган маҳсулотларни муомаладан

чиқариш имконини беради. Озон йемирувчи моддаларнинг чиқиндиларини йўқ қилиш, шунингдек, атмосферага тушадиган озон йемирувчи моддалар ҳажмини камайтириш йўли билан иқлим ўзгариши масалаларини ҳал этиш учун муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Атмосфера ҳавосини мусаффолигини сақлаш учун, авваламбор, барча инсонларга экологик таълим-тарбия берилишини йўлга қўйиш, корхоналарда экологик жиҳатдан соғлом технология яратиш, транспорт воситаларининг чиқиндисиз ишлашини таъминлаш, совитиш техникалари ва ёнғин ўчириш воситаларидан ҳавога чиқариладиган галогенларни атмосферани яъни озон қатламини сийраклашмаслигига олиб келмайдиган элементлар билан алмаштириш чора-тадбирларини кўриш, шаҳар ва қишлоқ кўчаларида, корхоналар атрофларида яшил иқтисодиётни яъни кўкаламзорлаштиришни янада кучайтириш лозим.

#### Адабиётлар рўйхати

- 1 Озон қатламининг емирилиши — инсоният ҳаётига таҳдидми? [www.ekolog.uz](http://www.ekolog.uz)
- 2 Ozone layer protection - the mission continues. [www.undp.uz](http://www.undp.uz)
- 3 Совитиш техникаси ва Совитиш тизимига хизмат кўрсатиш асослари [Матн] / Д. Азизов, Ф. Сайдиев. - Тошкент : Baktria press, 2017

## ПАХТА ХОМАШЬОСИНИ ҚУРИТИШ БАРАБАНЛАРИНИ ТА'МИНЛАГИЧНИНГ КОНСТРУКЦИЙАВИЙ ТАҲЛИЛИ

**Fatullayeva Sitora Ilhom qizi** - Buxoro muhandislik – texnologiya  
Instituti magistranti

**Behbudov Shavkat Husenovich** - Buxoro muhandislik - texnologiya instituti dotsenti

Jahonda, paxtani dastlabki ishlash texnologik jarayonlariga, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir etuvchi paxta xomashyosini quritishning yangi texnika va texnologiyalarini yaratishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada paxta va uning komponentlari issiqlik-fizik ko'rsatkichlarini o'zgarish qonuniyatlari bo'yicha ilmiy asoslarini yaratish, paxta tolasi va chigitining statsionar bo'lmagan issiqlik va massa almashuv jarayonlarida qurish tezligi va bir tekisligini asoslash, raqobatbardosh sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan tola ishlab chiqarishni taminlovchi, paxtani quritishni yangi texnologiya va texnikasini ishlab chiqish, energiya-resurstejamkor mashinani ishlab chiqish hamda uning texnologik jarayoni, parametrlari va ish rejimlarini asoslashga alohida e'tibor berilmoqda.


Respublikamizda paxta mahsulotlarining iste'mol xususiyatlarini yaxshilash, xomashyoni birlamchi qayta ishlash bo'yicha yuqori unumli texnika va texnologiyalarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan ilmiy-tadqiqotlar bajarishda mazkur jarayonni nazariy va amaliy tadqiq etish zarur.

Hozirgi kunda paxta tayyorlov maskanlarining quritish barabanlarida shnekli va lotokli ta'minlagich keng qo'llanilib kelmoqda.

Paxta ta'minlagichlari paxta xomashyosini quritish barabanlariga bir maromda titib, uzatib berish vazifasini bajaradi.

Shnekli ta'minlagich sxemasi 1-rasmda keltirilgan. Bu ta'minlagich ma'lum burchak ostida qiya qilib o'rnatilgan shnek (vintli konveyr) bo'lib, u shaxta (1), diametri 300 mm li shnek (2), ponasimon tasmali uzatma va elektrodvigatel (3), quritish agentini uzatuvchi quvur (4) va quritish baraban (5) laridan tashkil topgan. Shnekli ta'minlagich quyidagicha ishlaydi. Nam paxta xomashyosi ta'minlagich ustiga o'rnatilgan shaxta kelib tushadi va ma'lum burchak ostida qiya qilib o'rnatilgan shnek yordamida quritish kamerasiga uzatiladi. Bu shnek ponasimon tasmali uzatma yordamida quvvati 2,4 kW li elektrodvigatel bilan harakatga keltirib, paxta


xomashyosini quritish kamerasiga uzatib beradi. Shnekli ta'minlagichning asosiy kamchiliklariga paxta xomashyosining eshilishi, namligi yuqori bo'lgan paxtani uzatish jarayonida va yuqori ish unumdorligida ishlaganda shnekda tiqilish holatlari uchraydi.



**1-rasm. Shnekli ta'minlagich sxemasi:**

**1-shaxta, 2-shnek, 3-elektrodvigatel, 4-issiq havo quvuri, 5-quritish barabani;**

Latokli ta'minlagich sxemasi 2-rasmda keltirilgan. Bu ta'minlagich shaxta (1), qiya lotok (2), issiq havo quvuri (3) va quritish kamera (4) laridan tashkil topgan. Lotokli ta'minlagich quyidagicha ishlaydi: nam paxta xomashyosi shaxta (1) va ma'lum burchak ostida qiya qilib o'rnatilgan lotok (2) orqali o'z og'irligi bilan surilib, quritish barabanining ishchi kamerasiga tushadi. Lotokli ta'minlagichda boshqa ta'minlagichlarga nisbatan elektroenergiya kam sarflanadi. Paxta o'z og'irligi bilan sirpanib, harakatlanganligi uchun unda paxta eshilishi kuzatilmaydi. Bu ko'rsatkichlar uning afzalligi bo'lsa paxtani lotokda to'p-to'p bo'lib tushishi natijasida tiqilib qolish ehtimoli kamchiliklaridan biri hisoblanadi [1-2].



**2-rasm. Lotokli ta'minlagich sxemasi:**

**1-shaxta, 2- lotok, 3-issiq havo quvuri, 4-quritish kamerasi;**

Paxta xomashyosini harakatlanish qonuniyatlarini nazariy va tajribada o'rganish va tahlil qilish, hamda paxta xomashyosini qayta ishlashdagi boshqa operatsiyalarni tajriba o'rganish va umumlashtirish natijalari hamda texnologik parametrlarni analitik va eksperimental tadqiqoti natijalari bo'yicha paxtani quritish uskunalarini issiqlik va paxtani uzatish qurilmalarini yangi yangi konstruksiyalarini yaratishni taqozo etadi.

Ma'lumki, paxta barabanli quritgichni quyidagi qismlaridan o'ziga issiqlikni oladi:

- to'g'ridan-to'g'ri quritish barabanidan, kurakchalardan tushish vaqtida;
- g'aram zonasida va kurakchalarda yotgan vaqtda paxtani tashqi yuzasi bilan;
- ko'proq qizigan baraban ichki moslamalari detallari va qobig'idan.

Barabanni tushish zonasi yuzasidan foydalanish juda past, barabanni paxta bo'yicha ish unumdorligiga qarab 39% dan 49% gachani tashkil etadi. Ma'lumki, paxtani barabanda o'rtacha bo'lish vaqti 5-6 minut. Bunda paxtani tushish zonasida umumiy bo'lish vaqti 1,0-1,2 minutni tashkil etadi. Qolgan 4,0-4,8 minut paxta g'aram zonasida va kurakchalarida yotadi va ushbu asosiy vaqt paxtaga issiqlik berish uchun samarali foydalanilmaydi [3]. Tadqiqot muammolarini hal qilish va paxta tashish va tarqatish texnologiyasini takomillashtirish yo'nalishini aniqlash, shuningdek, tashish zonasida paxta xom ashyosini yetkazib berish va quritish qurilmasining optimal tarkibiy parametrlarini aniqlash uchun paxta tashish jarayonining nazariy asoslarini shnek yordamida taqsimlash jarayonini o'rganish kerak. Saqlash zonasida konveyr va paxta distribyutori elementlarini konstruktiv ravishda birlashtirgan bunday transport vositasi sifatida paxta xomashyosini ma'lum bir zonasiga kirishini tahminlaydigan shnekli quritgichni qismlarini muqobil ravishda ochish va yopish printsipida ishlaydigan qurilma taklif etiladi. Issiq havo oqimidan foydalanib, bir vaqtning o'zida paxta xomashyosini quritish va tashish imkonini beruvchi vintli quritish qurilmasining konstruksiyasini ishlab chiqish bo'lib, uni tozalash samaradorligini oshirish va tola sifatini oshirishga yordam beradi [4].

Bunda paxta bo'lagi tezlanishini o'zgarishi shnek sirt bilan ta'sirini ko'rsatsa, paxta bo'laklarini o'zaro ta'sirini, ya'ni titilishlarini ta'minlashi aniqlandi. Lekin paxta namligi yuqori bo'lsa, shnek qadami kamroq bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Zikriev E.Z. "Paxtani dastlabki qayta ishlash" Toshkent, Mehnat, 2002 yil
2. Рахмонов Х.Қ., Файзиёв С.Х., Қодирова Д.Х. / Патент № FAP 01544. Paxta xomashyosini uzatish va quritish qurilmasi // Rasmiy axborotnoma-30.09.2020 yil.
3. Файзиёв С.Х. Paxta xomashyosini quritish barabaniга uzatish tizimidaги vintli aralash tirgich-tayminligichning nazariy tadqiqotlari // Fan va texnologiyalar taraqqiyoti. Ilmий-tekhnika viy jurnal, Buxoro, 2021. №4, 271-277 b.
4. Rakhmonov Kh., Fayziyev S., Rakhimov Kh., Kazakova D. Relative speed and temperature effect investigation of the of the drying agent on the moisture content of cotton. E3S Web of Conferences 264, 04008 (2021) CONMECHYDRO-2021. P. 1-7

### **EKSKAVATOR CHO'MICHI TISHLARINING ISH VAQTI DAVOMIDA PROYEKSIYALAR VA UZUNLIGI BO'YICHA YEMIRILISH MIQDORLARINI ANIQLASH**

**Fayzullayev Quvonchbek Qilich o'g'li** - Navoiy davlat konchilik instituti 13b-19 KEM guruhi talabasi

**Turdiyev Sardorjon Abdumuminovich** - Navoiy davlat konchilik instituti "Konchilik elektr mexanikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi

Qazish - yuklash vaqtida kon mashinalarining ishchi a'zolarining geometrik parametrlarining o'zgarishi tog' jinsini kesish jarayoniga sezilarli ta'sir qiladi, bu esa kesish elementining emirilishi va o'tmaslashishidan tog' jinsi qarshiligining sezilarli darajada oshishini ko'rsatadi. Shu sababli, yemirilish va o'tmaslashishni oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ish sharoitlarini sezilarli darajada yaxshilashi va qazish-yuklash mashinalarining unumdorligini oshirishi mumkin.

Ma'lumki, ekskavatorlarning ishlashi ishchi a'zosining konstruktiv mukammalligi bilan belgilanadi va uning kesish elementlarining yemirilish miqdori bilan bevosita bog'liq. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kesish elementlari o'tmas bo'lganda, tog' jinsini massivdan

ajratishning energiya intensivligi 60 ... 100% ga oshadi va bu holda mashinaning unumdorligi 10...40% ga kamayadi.

Aniqlanishicha, qazuvchi-yuklovchi mashinalarining kesish elementlarining eskirish jarayonining murakkabligi ishchi ishqalanish yuzasiga doimiy o'zgaruvchan kuchlar va bosim, abraziv muhitning barqarormasligi va abraziv zarrachalar harakatidagi aloqa jarayonlarining murakkabligi bilan bog'liq.

Qazish-yuklash mashinalarining yemirilishga chidamliligini hisoblash amaliyotida kesish jismlari parametrlarining ta'siri hisobga olinmaydi, ya'ni ular eskirishni hisoblash muammosini to'liq hal qila olmaydi, chunki butun geometrik eskirishga ta'sir qiluvchi omillar va buning natijasida ta'sir qiluvchi kuchlar va bosimlarning o'zgarishi qamrab olinmaydi [1].

Tog` jinsini qazish va yuklash ishlarini bajarish qazish uskunalari, shu jumladan ekskavatorlardan foydalanish bilan bog'liq. Ekskavatorlarning ishlash sharoitlarining o'ziga xos xususiyati zichligi, qattiqligi, abrazivligi, namligi va boshqa fizik-mexanik xususiyatlari bilan farq qiluvchi bo`lishi mumkin.

Tadqiqotchi N.G. Dombrovskiy [2] shuni ko'rsatadiki, ekskavator cho`michlari uchun barcha toifadagi tog` jinslarda qazuvchi-yuklovchi mashinalarining ishchi a`zolariga umumiy qarshilikning bir qismi sifatida kesish qarshiligi ustunlik qiladi. IV toifa tog` jinslari uchun uning qiymati qazish qarshiligining 80-83% ga yetadi. Bir cho`michli ekskavatorlarning tishlari yemirilishi tufayli sezilarli geometrik o'zgarishlarga uchraydi.

Ular ekskavator cho`michlariga o`rnatilgan tishlarning o'lchami va shakli konstruksiyalaridan sezilarli darajada farq qiladi. Tog` jinslari bilan o'zaro ta'sir qilish shartlariga ko'ra, ekskavator cho`michi tishining yemirilishi abraziv deb tasniflanadi. Yemirilish miqdori ko'p jihatdan abrazivning yemirilish yuzasidagi bosimiga bog'liq bo`lib, ortib borayotgan yuklama sari yemirilish miqdori ortadi. Bu yuklama ortib borishi bilan faol abraziv zarrachalarning kirib borish chuqurligi, ishqalanish yuzasida tirnalgan joylarni qoldirishi va bu sirt bilan aloqa qiladigan zarrachalar soni ortishi bilan izohlanadi. Tadqiqotlar natijasida, shuningdek, haroratning +20 ° C dan -10 ° C gacha pasayishi yemirilish tezligini 1,75 baravar oshishiga va haroratning -40 ° C gacha pasayishida u 2,5 ... 3 barobar ortishiga olib kelishi ham aniqlandi.

Yuqori samarali ekskavator cho`michi tishlarini yaratish uchun ishchi uskunada yuzaga keladigan qarshilikni aniqlay olish kerak. Ishchi a`zolarining o'zaro ta'sirining mavjud nazariyalari tog` jinsi bilan ishlaydigan mashinalarning konstruksiyasi va rivojlanish qarshiligini aniqlash asosan ko'plab empirik koeffitsientlarni hisobga olgan holda laboratoriya ma'lumotlariga asoslanadi. Bundan tashqari, ma'lum bo'lgan nazariyalar ishchi organlarning tog` jinsi bilan fazo va vaqtdagi o'zaro ta'siri jarayonini o'rganishga imkon bermaydi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushbu masalani o'rganishga tizimli yondashish zarurati tug'iladi, bu esa tog` jinsini qazish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi analitik bog'liqlikni aniqlashga va natijada undan samaraliroq foydalanishga imkon beradi.

Tog` jinsining qazishga chidamliligi uning xususiyatlariga va tishlarning ishchi qismining holatiga bog'liq. Tog` jinsini qazishdagi tangensial qarshilik miqdori quyidagich aniqlanadi [3].

$$P_{01} = \tau h_c (B_k + h_c) \cdot (0,53 + 0,015 \cdot \alpha) + \sigma \cdot b_p (z \cdot n + f \cdot y \cdot n) \quad (N)$$

bu yerda, t – tog` jinsini maksimal kesish kuchi, kPa; h<sub>c</sub> – qatlam qalinligi, sm; B<sub>k</sub> – cho`michning kengligi, sm; a - tishning oldingi burchagi, gradus; s – tog` jinsining maksimal maydalash kuchi, kPa; f - po'latning tog` jinsiga ishqalanish koeffitsienti; n - tishlar soni; b<sub>p</sub> - tishning eni, sm; z, y - yemirilish zonasining proektsiyalari, l-rasmga qarang.


**1-jadval. Turli toifadagi tog` jinslarining mexanik tavsiflari**

Ko'rsatkich	I	II	III	IV	V
s, MPa	0,31	0,49	0,78	1.23	1.96

t, MPa	0,03	0,049	0,078	0,122	0,196
f	0,35	0,35	0,5	0,5	0,8

Ekskavator cho`michi tishlarining vaqt davomida yemirilish miqdorlarini aniqlash va ularni bog`liqliklarini qurish uchun z, y yemirilish maydonlarining proyeksiyalari eksperimental tarzda aniqlandi (1-rasm) [4].

O'lchovlar tog`ri kurakli qazish uskunalari bilan jihozlangan HITACHI EX-1200 rusumli karyer gidravlik ekskavatorlarida (6 tishli 6,9 m<sup>3</sup> hajmli cho`mich) amalga oshirildi. Olingan o'lchov ma'lumotlari va aniqlangan o'rtacha qiymatlar 2-jadvalda keltirib ko`rsatilgan.




1-rasm.Ekskavator cho`michi tishining yemirilish joylarini aniqlash sxemasi

2-jadval. Ekskavator cho`michi tishlarining vaqt davomida ishlaganda uning proyeksiyalari va uzunligi bo`yicha yemirilish miqdorlari.

T, mototsikl	z, sm	y, sm	Tish uzunligi L, sm
yangi tish	1.01	0,97	41.5
30	2.39	4.79	34.44
60	2.695	5.835	32.548
100	3.682	9.072	30.968
150	4.942	11.039	25.54
225	5.639	12.23	22.878
300	6.352	12.12	21.33

Yuqoridagi jadval asosida olingan ma'lumotlardan ekskavator cho`michi tishlarining ma'lum vaqt davomida ishlaganini uning proyeksiyalari va tishning uzunliklari bo`yicha bog`liqligi 2-rasmda o`rnatildi.



2-rasm. Ish vaqti davomiyligi, kordinata va uzunliklari bo`yicha yemirilish miqdorlarining o`zaro bog`liqlik grafiqi: z – tishning o`tmashish bo`yicha proyeksiyasi; y – tish asosi bo`yicha proyeksiyasi; T – ish vaqti davomiyligi.

Yuqoridagi grafikdan ko`rinib turibdiki, ish vaqtining dastlabki 3-4 smenasida cho`mich tishining keskin yemirilishi mavjud, keyin yemirilish jarayoni biroz sekinlashadi. Bu tishning o'z-o'zidan keskinlashtiruvchi ta'siriga bog`liq bo'lishi mumkin. IV, V va undan yuqori toifadagi tog` jinslari mustahkamligi oshganligi sababli eng yuqori yemirilish qobiliyatiga ega. Tog` jinslarining yemirilish qobiliyati nafaqat o`tmashish maydonining (y, sm) shakllanishiga, balki tishning sezilarli darajada to'ntoqlanishiga ham olib keladi. Maksimal o`tmashishga erishilganda tishdan foydalanish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas deb hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Щербаков В.С. Научные основы повышения точности работ, выполняемых землеройно-транспортными машинами. Автореферат диссер. докт. техн. наук, Омск – 2000. - С. 39.
2. Волков Д.П., Густов Ю.И., Шукуров Р.У. Износостойкие зубья землеройных машин для Средней Азии // Строительные дорожные машины, М., 1987. №10. – С. 8-10.
3. Махкамов К.Х. Расчет износостойкости машин. – Ташкент: ТашГТУ, 2002. – С. 158.
4. Тененбаум М.М. Сопротивление абразивному изнашиванию. - М.: Машиностроение, 1976. - С. 271.

УДК.51418

**РАЗБИЕНИЕ МНОГОУГОЛЬНИКА НА ТРЕУГОЛЬНИКИ**

Студент **Т.Б.Гаффаров**, ТашГТУ,  
науч.рук доцент **Д.К.Алимова** ТашГТУ

Многогранники — один из многих видов геометрических фигур, которые окружают нас.

**Многогранник** — это геометрическое тело с плоскими гранями, прямыми рёбрами, являющимися границей граней многогранника, и вершинами — точками, в которых сходятся рёбра. Поверхности многогранников являются составными геометрическими фигурами пространства. Существует несколько определений многогранника. Вот ещё одно:

**Многогранник** (в трехмерном пространстве) — совокупность конечного числа плоских *многоугольников*, расположенных в разных плоскостях, такая, что каждая сторона любого из многоугольников есть одновременно сторона другого (но только одного), называемого смежным с первым.

Существует множество разновидностей многоугольников. **Многоугольник** — это геометрическая фигура на плоскости, заданная последовательностью вершин и сторон.

Классические многоугольники являются *простыми выпуклыми*, если отрезок, соединяющий две любые его точки, находится внутри многоугольника, и многоугольник всегда будет находиться по одну сторону от прямой, соединяющей две соседние вершины. При этом любая прямая пересечет выпуклый многоугольник не более чем в двух точках.

*Правильными* многоугольниками называются те, у которых или все стороны равны, или все углы — *равносторонние* или *равноугольные* соответственно.

На рис.1 даны примеры некоторых из этих многоугольников.




Рис.1

Отметим, что важнейшим из всех разновидностей многоугольников является **треугольник**, так как любой из многоугольников можно разбить на треугольники различными способами (рис.2).







Рис. 2

**Правильный многогранник** — это выпуклый многогранник, все грани которого являются равными правильными многоугольниками, и в каждой вершине которого сходится одинаковое число ребер.

Правильные многогранники называют также «платоновыми телами» в честь выдающегося древнегреческого философа **Платона**, который подробно описал их свойства. Правильных многогранников всего пять, и некоторые основные данные о них приведены в следующей таблице:

	Тетраэдр	Куб	Октаэдр	Додекаэдр	Икосаэдр
<b>Число граней</b>	4	6	8	12	20
<b>Число вершин</b>	4	8	6	20	12
<b>Число ребер</b>	6	12	12	30	30

На рис.3 даны рисунки этих правильных многогранников. Из-за идеального расположения граней этих многогранников *всегда будет существовать сфера, проходящая через все их вершины, другая сфера, касающаяся всех граней, и третья сфера, которая будет касаться всех их ребер.*



Тетраэдр Гексаэдр (Куб) Октаэдр Додекаэдр Икосаэдр

Рис.3

Ещё раз отметим, что поверхности многогранников состоят из конечного числа плоских многоугольников, называемых **гранями**. Две смежные грани пересекаются по **ребру** — общей стороне смежных многоугольников, а три или более граней имеют общую **вершину**. Совокупность всех вершин и ребер многогранной поверхности называется **сеткой многогранника**.

Из всего многообразия многогранников для технических специалистов наибольший интерес представляют **призмы, пирамиды и правильные многогранники**.

**Призмой** называется многогранник, две грани которого являются конгруэнтными *n*-угольниками, лежащими в параллельных плоскостях и называемыми **основаниями** призмы, а остальные грани — параллелограммами, называемыми **боковыми гранями** [8]. Если боковые грани являются прямоугольниками, то призма называется **прямой**.

**Пирамидой** называется многогранник, одна из граней которого — произвольный многоугольник, называемый **основанием**, а остальные грани — треугольники, имеющие общую вершину и называемые **боковыми гранями**. Общая вершина называется **вершиной пирамиды**.

На чертеже многогранники изображаются проекциями своих сеток, т.е. вершин и ребер.

### Литература

1. Арустамов Х.А. Сборник задач по начертательной геометрии. - М.: КноРус, 2012г.

2. Бубенников А.В. Начертательная геометрия. Задачи для упражнений. - М.: Высшая школа, 1981г.

3. Жирных Б. Г, Серёгин В. И, Шарикян Ю.Э Начертательная геометрия: учебник. / Под общ. ред. В.И.Серегина – 1-е изд. – М. : Изд-во МГТУ им. Н.Э. Баумана, 2015. .

## MURAKKAB SIRTII DETALLARNI CAD TIZIMLI DASTURLARI ASOSIDA LOYIHALASH

Talaba. **Shukurullayev Shaxzodbek Adamboy o'gli** ToshDTU

Assistent. **Boboniyozov Ergash Aminboy o'g'li** ToshDTU

Dotsent. **Primkulov Bekzod Sheraliyevich** ToshDTU

Avtomobilsozlik va traktorsozlik, qishloq xo'jalik mashinasozligi sohalari ishlab-chiqarishida zamonaviy loyihalash usullari va dasturlarini qo'llashni talab qiladi. Shu sababli traktorlar, avtomobillar va qishloq xo'jalik mashinalarini loyihalashda kompyuterli loyihalash (CAD,CAM,CAE) masalalari muhim o'rin tutadi. Hozirgi kunda malakali mutaxassislar bilimini namoyish qila olishda kompyuterda loyihalash ko'nikmalari, CAD,CAM,CAE tizimlari asosida ishlaydigan dasturlarida ishlash qobiliyati asosiy o'rin tutadi. Avtomatlashtirilgan loyihalash dasturlarida ishlay olish malakali mutaxassislarning bugungi kungi talabidir. Avtomatlashtirilgan loyihalash tizimi loyihalash jarayonlari vaqtini qisqartiradi va ishlab-chiqarish samaradorligini oshiradi.









Zamonaviy mashinasozlik ishlab chiqarishi mahsulot konstruksiyasining murakkablashuvi va ishlab chiqariladigan mahsulot tez o'zgaruvchanligi hamda mahsulotni ishlab chiqarish muddatlarining qisqaligi bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitlarda ishlab chiqarishni jadallashtirish va uning samaradorligini oshirish hamda mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlash talab etiladi[1]. Yangi mahsulotni ishlab chiqarishda murakkab, yuqori mehnattalab bosqich bu loyihalash bosqichi hisoblanadi va yangi mahsulotni ishlab chiqarishga joriy etishdagi asosiy vaqt va material xarajatlari aynan loyihalash jarayoniga sarflanadi shuning uchun loyihalash jarayonini avtomatlashtirish yangi mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida tez va sifatli ishlab chiqarishda avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlarining o'rni beqiyosdir[2].


Qishloq xo'jaligi mashinasozligida turli yangi konstruksiyadagi texnikalarni ishlab chiqishda avtomatlashgan loyihalash tizimi muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Tuproqqa ishlov berishda ishchi organlarni murakkab sirti ish jarayon sifatini belgilab beradi. Ananaviy loyihalash orqali olingan sirtlarni asosiy parametrlarini belgilovchi andoza egri chiziqlari yordamida detal olish uchun qolip yasash asosiy masala hisoblanadi[3].

Mavjud CAD tizimli dasturlar yordamida loyihalaniyotgan murakkab sirtga ega bo'lgan ishchi organlarni dastlabki muhandislik hisoblarini vizual amalga oshirish mumkin bo'lib, natijada tayyorlanadigan murakkab sirtli detallarni tayyorlash aniqiligi va ish unumini oshirish mumkin. Buning uchun CAD tizimli dasturlari tarkibiga kiruvchi Kompas 3D dasturi yordamida ishchi sirtini tayyorlash va detalga sarflanadigan material hamda foydalaniladigan material tarkibi bo'yicha mustahkamlik chegaralarini aniqlash mumkin.


Buning uchun qishloq xo'jaligida keng foydalaniladigan murakkab sirtli plug korpusini loyihalash ketme-ketligini ko'rib chiqamiz:

1. Ananaviy loyihalash usullari yordamida olingan murakkab sirtning asosiy elementlari, ya'ni yo'naltiruvchi egri chiziq va yasovchi chiziqlarning asosiy parametrlaridan foydalanamiz[3];


2. KOMPAS 3D dasturida murakkab sirtli detallarni loyihalash uchun *Создать*  bo'limi orqali  *деталь* shaklidagi yangi hujjat hosil qilamiz;
3. Murakkab sirtlarni hosil qilishimiz uchun  *деталь* bo'limining  *Каркас и поверхности* bo'limidagi komandalardan foydalanamiz;
4.  ushbu komanda yordamida parallel tekisliklar hosil qilinadi;
5. Loyihalash qonuniyatlari asosidagi plug korpusini loyihalash jarayonida andaza egri chiziqlaridan foydalanamiz bunda har bir andaza egri chiziqlari parallel tekisliklarga joylashtirib chiqiladi(1-rasm).
6. Keyingi bosqichda andaza egri chiziqlarini  *Усечение поверхности* va  *поверхность по сети кривых* komandalaridan foydalanib tutashtirib chiqamiz va plug korpusi sirtini hosil qilamiz.
7. KOMPAS 3D dasturining  APM FEM bo'limi orqali detallarni mustahkamlikka tekshiriladi (2-rasm).



2 – rasm CAD tizimida loyihalangan plug korpusining umumiy ko'rinishi



1-rasm. Parallel tekisliklarga andoza egri chiziqlarini joylashtirish



3 – rasm CAD tizimida loyihalangan plug korpusining mustahkamlik hisobi

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki CAD tizimlarida murakkab sirtlarni loyihalashni chuqur o'rganish orqali boshqa turdagi loyihalarni oson o'zlashtirish va metal sarfini oldindan aniqlash va shu loyihaga mos ishlab chiqarish turini tanlash mumkin.

### Adabiyotlar

1. Dugan Um. Solid Modeling and Applications. CAD/CAE. Rapid Prototyping/ Springer. United States of America, 2016.
2. Primkulov B.Sh, Boboniyozov E.A. "Kompyuterli loyihalash" fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun uslubiy ko'rsatmalar. -Toshkent: ToshDTU, 2022. -32 b.
3. Хамидов А. Кишлок хужалик машиналарини лойиҳалаш. Тошкент. Ўқитувчи. 1991. 244 б.

## YENGIL SANOATNING YANGI VA ZAMONAVIY TEXNIK TIZIMLARINING MODELLARI

**Sharipova Shaxruza Nusrat Qizi** -Buxoro muhandislik - texnologiya instituti magistranti

**Samiyeva Shaxnoz Hikmatovna** - Buxoro muhandislik - texnologiya instituti dotsenti

Yengil sanoat - xilma-xil xom ashyodan keng iste'mol mahsulotlari va buyumlari ichki tizimga ixtisoslashgan sanoat tarmoqlari majmui. Yengil sanoatda xom ashyoga ham dastlabki ishlov berish, ham tayyor mahsulot ichki tizimda amalga oshiriladi. Yengil sanoatda paxta, ipak, zigir, kanop, jut tolalari, hayvonlar terisi, juni, sun'iy tolalar, sun'iy charm xom ashyo sifatida foydalaniladi. Uning asosiy tarmoqlari to'qimachilik, tikuvchilik, ko'ncilik, mo'ynado'zlik, poyab-zal sanoatlari hisoblanadi. Yengil sanoat mahsulotlari, shuningdek, mebelsozlik, aviatsiya, avtomobil, oziq-ovqat va boshqa sanoat tarmoqlarida, qishloq xo'jaligi, transport, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda ishlatiladi. [1]

Bugungi kunda texnologiya shunday tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda, tezroq o'zgarish va taraqqiyotga imkon beradi, o'zgarish tezligining tezlashishiga olib keladi. Bir necha yil oldin yangilari sifatida tan olingan materiallar, usullar va texnologiyalar bugungi kunda bozor va sanoat talablari bilan solishtirganda ko'pincha unchalik samarali emasdek tuyuladi. Shunga ko'ra, so'nggi bir necha yil ichida ishlab chiqarish tizimlarining zamonaviy kontseptsiyalarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar yo'naltirilgan moslashuvchanlik farazlariga va sanoat 4.0 falsafasi muammolariga javob berishga qodir bo'lgan yangi tushunchalar atrofida aylandi. Shu nuqtai nazardan, yangi amaliy va ilmiy natijalar mashinasozlik uchun katta qiziqish va ahamiyatga ega. Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va ishlab chiqarish tizimlarining zamonaviy kontseptsiyalari muammolariga doimiy ravishda alohida e'tibor berilmoqda, bu bizga yuqori samaradorlik va mos moslashuvchanlik darajasiga ega yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish imkonini beradi.

Ma'lumki, texnik tizimlarni yaratish, takomillashtirish va o'rganish jarayonida texnik tizimlardan foydalanuvchi va ishlab chiquvchilar nafaqat jihozlarning, balki tegishli texnologik jarayonlar va materiallarning rasmiylashtirilgan tavsiflari bilan ishlash zarurati bilan duch kelishadi. Ko'p sonli noqulay iboralar bilan ishlaganda, bu ma'lum bir noqulaylik tug'diradi va kerakli hujjatlarni tayyorlash uchun vaqtni sezilarli darajada sarflash bilan bog'liq. Agar biz ba'zi makro ketma-ketliklar shaklida ishlab chiqilgan umumlashtirilgan modellardan foydalansak, vazifa juda soddalashtirilgan bo'ladi. Zarur bo'lganda fanlararo makro ketma-ketliklarni yaratishimiz mumkin. Bunday fanlararo makro ketma-ketliklardan kimyo, mikrobiologiya, oziq-ovqat, to'qimachilik, yengil va boshqa sanoat tarmoqlari ob'ektlari va jarayonlarini tavsiflashda foydalanish mumkin.

Muayyan makro ketma-ketlik yaratish jarayonida foydalanuvchi "ortiqcha" yoki "kamchilik bilan" umumlashtirilgan modelni yaratishi mumkin [2].

Birinchi holda, foydalanuvchining vazifasi, qoida tariqasida, keraksiz belgilarni olib tashlashga qisqartiriladi. Agar biz ikkinchi holat bilan shug'ullanadigan bo'lsak, u holda foydalanuvchi belgilarni olib tashlash bilan birga tegishli matn protsessorining qo'shimcha mablag'larini jalb qilishi kerak. Modulning oqilona mazmuni foydalanuvchi tomonidan ma'lum shartlar va ularning kasbiy tayyorgarligidan kelib chiqqan holda tanlanadi.

Albatta, foydalanuvchi yoki ishlab chiquvchi (dizayner) turli maqsadlarda nafaqat matn, balki grafik, shuningdek, birlashtirilgan fanlararo umumlashtirilgan modellar - "kentavrlar" ni yaratish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega.[3]

*Isatis tinctoria* бўёвчи моддаси ёрдамида оксил толаларини бўяш жараёнини “юзавий натижа (акс жавоб)” услубини қўллаган холда оптимизациялаш олиб борилди. Бўяш жараёнига таъсир этувчи 8 дан 6 омил танлаб олинди ва 2 даражали вариация танланди. Изланиш натижалари бўйича олинган чизиқли модел асосида ранг интенсивлигига энг кўп таъсир этувчи омиллар аниқланди. Танланган модел ранг интенсивлигини олдиндан башорат қилиш имконини беради [2].

Пардозлашга тайёрлаш жараёнини пахта-ипак асосидаги калаваларнинг сифатига таъсири “тўлиқ факторли эксперимент” усули ёрдамида ўрганилди [4]. Таъсир этувчи асосий омиллар сифатида қуйидагилар танланди: аралаш толали калавада ипак ипининг улуши, кайнатиш оқартириш ваннаси таркибидаги реагентлар  $H_2O_2$ ,  $Na_2SiO_3$ ,  $Na_2CO_3$  микдори. Чиқувчи параметрлар сифатида – кайнатиб оқартирилган калаванинг оклик даражаси (%),

капиллярлиги (мм/соат), узилишдаги куч, (сN) қабул қилинди. Икки параллел тажрибалар ўтказиш режаси 1 ва 2 жадвалларда келтирилган.

Тажриба ўтказиш режаси

1-тажриба				1-жадвал	
№	Омиллар	$x_{\min}$	$x_{\max}$	$\Delta$	$x_0$
1.	Ипак ипининг улуши	0	30	15	15
2.	H <sub>2</sub> O <sub>2</sub>	1	5	2	3
3.	Na <sub>2</sub> SiO <sub>3</sub>	10	50	20	30
4.	Na <sub>2</sub> CO <sub>3</sub>	2	6	2	4

2-тажриба				2-жадвал	
№	Омиллар	$x_{\min}$	$x_{\max}$	$\Delta$	$x_0$
1.	Ипак ипининг улуши	0	30	15	15
2.	H <sub>2</sub> O <sub>2</sub>	2	6	2	4
3.	Na <sub>2</sub> SiO <sub>3</sub>	12	40	14	26
4.	Na <sub>2</sub> CO <sub>3</sub>	3	8	2,5	5,5

илова: ипак ипининг улуши минимал 100 % пахта калава ипи, махимал 70:30 % пахта-ипак калава ип. Режимлар асосида чиқиш параметри оклик даражаси (%) учун олинган натижалар 3-жадвалда келтирилган.

№	Ўзгарувчиларнинг ўзгариш даражаси				Тажриба натижалари					
	$x_1$	$x_2$	$x_3$	$x_4$	$\bar{y}_{i1}$	$\bar{y}_{i2}$	$\bar{y}_u$	$s_u^2$	$\hat{y}_u$	$R_{0u}(\%)$
1	-	-	-	-	88.81	86,71	87.76	2.205	88.80	1.187
2	+	-	-	-	81.27	83,94	82.60	3.564	82.75	0.174
3	-	+	-	-	89.53	88,23	88.88	0.845	88.8	0.089
4	+	+	-	-	82.04	82,20	82.12	0.0128	82.75	0.502
5	-	-	+	-	89.43	88,44	88.93	0.490	88.8	0.765
6	+	-	+	-	81.99	82,68	82.33	0.238	82.75	0.150
7	-	+	+	-	89.70	89,25	89.47	0.101	88.8	0.502
8	+	+	+	-	81.48	81,75	81.61	0.0364	82.75	1.389
9	-	-	-	+	88.60	88,63	88.61	0.0004	88.8	0.210
10	+	-	-	+	83.83	83,71	83.77	0.0072	82.75	1.291
11	-	+	-	+	89.65	89,35	89.50	0.0450	88.8	0.781
12	+	+	-	+	82.20	84,61	83.40	2.904	82.75	0.787
13	-	-	+	+	88.92	87,60	88.26	0.871	88.8	0.613
14	+	-	+	+	82.75	82,87	82.81	0.0072	82.75	0.074
15	-	+	+	+	88.40	89,57	88.98	0.684	88.8	0.206
16	+	+	+	+	82.71	83,95	83.33	0.768	82.75	0.697

Олинган натижаларга статистик ишлов бериш қуйидаги тартибда ўтказилди. Бир хил  $m$  сонда такрорланадиган параллел тажрибаларнинг ҳар бир варианты  $u$  да аниқланган дисперсияларнинг бир биридан ўзаро фарқланиш даражасини текшириш учун Кохен критерийсидан фойдаланамиз [5]. Регрессия тенгламасининг ташки омиллар  $N = 4$  бўлганда ҳадлари 16 га тенг тўлиқ бўлмаган полином кўринишида излаймиз

$$y = b_0 + b_1x_1 + b_2x_2 + b_3x_3 + b_4x_4 + b_{12}x_1x_2 + b_{13}x_1x_3 + b_{14}x_1x_4 + b_{23}x_2x_3 + b_{24}x_2x_4 + b_{34}x_3x_4 +$$



$$+b_{123}x_1x_2x_3 + b_{234}x_2x_3x_4 + b_{134}x_1x_3x_4 + b_{124}x_1x_2x_4 + b_{1234}x_1x_2x_3x_4$$

Жалвалдаги қийматлардан фойдаланиб регрессия тенгламасини кўйидаги кўринишда оламин

$$\begin{aligned} y := & 85.77500000 - 3.026250000 x_1 + .138750000 x_2 - .056875000 x_3 \\ & + .309375000 x_4 - .270000000 x_1 x_2 - .169375000 x_1 x_3 - .005625000 x_2 x_3 \\ & + .270625000 x_1 x_4 + .081875000 x_2 x_4 - .181250000 x_3 x_4 \\ & + .086875000 x_1 x_2 x_3 + .088125000 x_1 x_2 x_4 + .148750000 x_1 x_3 x_4 \\ & + .096250000 x_2 x_3 x_4 + .043750000 x_1 x_2 x_3 x_4 \end{aligned}$$

#### *Адабиётлар:*

1. Брянкин К.В., Мартьянов К. Моделирование процесса переноса отбеливающей композиции на хлопчатобумажную ткань. ТГТУ. 2012. № 3, с. 650-655.
2. Barani Hossein, Broumand Majid. Оптимизация крашения шерсти красителем Isatis tinctoria с использованием методологии отклика поверхности. Journal Nature fibers. 2012. № 2. с. 73-86.
3. Сафонов В.В., Третьякова А.Е., Теплякова М.И. Разработка технологии колорирования текстильных материалов на основе природных целлюлозных волокон с одновременным получением устойчивости к смятию. МГТУ им. А.Н. Косыгина. 2010, с. 46-50
4. Тихомиров В.Б. Планирование и анализ эксперимента (при проведении исследований в легкой и текстильной промышленности). М., "Легкая индустрия", 2004 г. 263 с.
5. Маматов А.З. Технологик жараёнларнинг математик моделлаштириш Т., 2021 й. Ўқув кўлланма.

## НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗРАБОТКИ ПРОЕКТА ЗАКОНА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН «О СТАНДАРТИЗАЦИИ»

Асамутдинова Саидахон Хамидулла кизи, магистрант ТГТУ  
д.т.н., проф. Исматуллаев Патхилла Рахматович, ТГТУ

В настоящее время деятельность в области стандартизации регулируется Законом Республики Узбекистан «О стандартизации» действующего с 1993 года. Это само по себе вызывает вопрос о том, насколько этот закон соответствует сегодняшним современным требованиям. Защита прав потребителей и государства в вопросах повышения качества и конкурентоспособности продукции, устранение технических барьеров в торговле являются приоритетными задачами в экономическом развитии республики. Опыт развитых стран показывает, что использование механизма добровольного применения стандартов является высокоэффективным в реализации вышеперечисленных приоритетных задач.

В связи с тем, что функции и полномочия заинтересованных органов в данной области не раскрыты полностью, а полномочия технических комитетов по стандартизации не урегулированы на законодательном уровне, отсутствует возможность достижения консенсуса при принятии стандартов.

В действующем законе не указаны основные задачи, основные направления государственной политики в сфере стандартизации, являющиеся основными требованиями и подлежащие отражению в национальном законодательстве, не указаны основные задачи и принципы стандартизации.

Проект закона Республики Узбекистан «О стандартизации» разработан в соответствии с пунктом 1 приложения 1 к Указу Президента Республики Узбекистан от 2 июня 2021 года УП-6240 «О кардинальном совершенствовании государственного управления в области технического регулирования».

В проекте Закона определяется основные направления государственной политики в области стандартизации, в том числе совершенствование организационно-правовой базы системы стандартизации, широкое внедрение в промышленность передовых инновационных и современных информационно-коммуникационных технологий, гармонизация национальной системы стандартизации с международной системой.

Закон обеспечит правовую основу для доведения области стандартизации на международный уровень.

Цель разработки законопроекта:

- путем добровольного применения стандартов повышение качества продукции (услуг) и процессов, а также обеспечения их конкурентоспособности на внутреннем и внешних рынках;
- гармонизация действующего законодательства в сфере стандартизации в соответствии с лучшими мировыми практиками и критериями, а также гармонизация применяемых в сфере понятий с принятыми в международном уровне понятиями;
- определение взаимных отношений заинтересованных сторон с области стандартизации;
- устранение технических барьеров в международном товарообмене, содействие научно-техническому прогрессу и сотрудничеству в различных областях;
- сокращение государственного вмешательства в разработку и внедрение стандартов;
- защита интересов потребителей в вопросах повышения качества продуктов (услуг) и процессов и их технической совместимости.

Основная суть заключается не только в приведении терминов системы стандартизации к современным требованиям, но и в приведении правовой базы системы стандартизации к соответствию требованиям международных стандартов.

В результате принятия законопроекта и его реализации позволит:

- гармонизировать систему стандартизации с международными требованиями;
- достичь повышения качества продукции (услуг) и процессов, их конкурентоспособность на внешних рынках;
- ускоренно внедрить инновационные технологии в промышленность и достичь повышения качества продукции и услуг;
- отказаться от морально устаревших стандартов и ускорить внедрения в промышленность инновационных новых технологий;
- повысить значение технических регламентов и деятельность технических комитетов будет осуществляться по новому подходу;
- повысить ответственность производителей (изготовителей, поставщиков), продавцов продукции.

В свою очередь реализация закона обеспечит повышение экспортного потенциала Республики, путем устранения технических барьеров, которые могут возникнуть при экспорте местной продукции, а также позволит национальным производителям найти свое место на мировом рынке.

Структура закона подготовлена в соответствии с Законом Республики Узбекистан «О порядке подготовки проектов законов и их внесения в законодательную Палату Олий Мажлиса Республики Узбекистан».

При разработке законопроекта был изучен опыт Китая, России, государств ЕС, Сербии, Литвы, Белоруссии, Казахстана, а также рассмотрен и усовершенствован при участии

экспертов Всемирной торговой организации и Международной организации по стандартизации и международного торгового центра ИТС.

Законопроект в установленном порядке прошел публичное обсуждение на едином интерактивном портале государственных услуг и доработан с учетом предложений и рекомендаций (№ ID 12587).

В связи с принятием данного законопроекта предусмотрено внесение соответствующих изменений в 24 закона Республики Узбекистан.

Принятие законопроекта не требует дополнительных затрат за счет государственного бюджета Республики Узбекистан.

Проект закона состоит из 32 статей, которые предусматривают следующие основные направления:

определяются субъекты, осуществляющие деятельность в области стандартизации;

определяется задачи и полномочия Национального органа по стандартизации при принятии и внедрении стандартов;

На законодательном уровне определяются права и обязанности технических комитетов по стандартизации;

предусматривается развитие производства за счет прямого принятия международных стандартов и национальных стандартов гармонизированных со стандартами международных организаций;

определяются основные понятия (13), принципы (7) в области стандартизации, добровольность стандартов и механизм их применения;

понятия в области стандартизации гармонизированы с понятиями Всемирной торговой организации и другими предусмотренными в международных нормах понятиями;

категории нормативных документов, применяемых в стране, приведены в соответствие с международной практикой и условиями соглашения Всемирной торговой организации об устранении технических барьеров в торговле;

определяется основные задачи заинтересованных сторон в области стандартизации.

В соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан от 2 июня 2021 года УП-6240 усиливается государственный надзор в отношении юридических лиц за несоблюдение законодательства по стандартизации путем применения мер воздействия.

#### **Список использованной литературы**


1. Указ Президента Республики Узбекистан от 2 июня 2021 года УП-6240
2. Доклад генерального директора Узбекского агентства по техническому регулированию Д.Саггарова
3. Закон Республики Узбекистан «О стандартизации»

## **ҚИЯЛИКДА ИШЛОВЧИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК МАШИНАСИ ОСТОВИНИНГ ХОЛАТИНИ АВТОАТИК РОСТЛАШ ТИЗИМИНИ ТУРФУНЛИГИ АСОСЛАШ**

МФ талабаси **З.Т. Тўйчибоев**,  
Илмий раҳбар асс. **М.Т. Худаёров**, ТошДТУ


Ушбу тизимни қўллашдан мақсад, ғалла йиғиш комбайни иш унумдорлигини оширишдир. Агар машина (комбайн) қияликларда ишласа уни иш унумдорлиги паст бўлади, сабаби қияликда турган машинанинг ҳамма ишчи органлари ҳам қия ҳолатда бўлади (1-расм). Масалан, қия турган комбайннинг янчиш аппаратини кўрадиган бўлсак, дон массаси янчиш аппаратини қия томонга йиғилади ва тўкилади ва янчиш сустлашади ёки

ёмонлашади. Шунинг учун комбайн ёки машина доим горизонтал ҳолатини сақлаши керак. Шу сабабдан қияликда ишлайдиган машиналар учун бу система қўлланилади[1].



1-расм. Қияликда ишлайдиган машинанинг горизонтал ҳолатини сақлаш автоматик ростлаш системасини принципаиал схемаси: 1 – маятник, 2 – золотник, 3 – гидросилиндр, 4 – шток, 5 – машина корпуси, 6 – гидросилиндр корпуси, 7 – шасси

Принципаиал схема асосида функционал схемалар тузилади. Бунинг учун ҳар бир элементнинг вазифасини кўриб чиқиб, уларни бирма-бир ишлашини кўриб чиқамиз. Бошқарилаётган объект машина бўлиб, у объект шток ёрдамида  $\phi$  бурчагини 0 га келтиради. Шунда машина горизонтал ҳолатга келади. Штокни гидросилиндр ишга туширади. Гидросилиндр ижро элементи бўлиб, унга мой босими таъсир кўрсатади. Гидросилиндр поршен ва 2 камерали цилиндр, яъни корпусдан иборат. Гидросилиндрга мой босими золотникдан киради. Золотник кучайтирувчи элемент бўлиб, мой массасидан келадиган мой босимини тўғри каналлар орқали гидросилиндрга уланади. Золотник асосан пружина ва клапан, корпусдан иборат. Золотник маятникдан келадиган яъни шток ёрдамида ишга тушади. Золотник бундан ташқари таққослаш элементи вазифасини бажаради. Штокдан келаётган  $G_m$  куч билан пружинанинг  $P_{pr}$  кучини таққослаб кучлар нисбатига қараб сурила бошлайди. Қабул элементи машинада маятник бўлиб, машинани оғиши натижасида келиб чиқаётган  $\phi$  бурчакли маълум вақт кечиктириб  $G_m$  кучга айлангириб беради. Маятник махсус кечиктирувчи мослама ёрдамида кечиктирувчи элемент вазифасини бажаради. Қуйидаги ишларни бажариш техник оқимга асосланиб бошланиши мумкин. Юқоридан кўриб чиқилган элементларни жой-жойига қўйиб ва уларнинг узатиш функцияларидан келиб чиқиб тизимнинг структура схемасини (2-расм) тузамиз [2].



2-расм. Автоматик ростлаш тизимининг структура схемаси  
Ҳисоб китоблар натижасида[3], қуйидаги узатиш функциясини аниқлаб оламиз:

$$W(S) = \frac{16,8755 + 3,375S}{0,075S^2 + 0,65S^2 + S + 2,7}; \quad (1)$$

Автоматик ростлаш тизимини Михайлов мезони [4] асосида турғунликка текшириб кўрамиз. Михайлов мезонига асосан турғунликка текширишда узатиш функцияси (1)нинг

махражидаги ифодадан фойдаланамиз. Ундан ташқари мезонида комплекс сонлар назариясидан ҳам фойдаланилади. Мезонга кўра бизга зарур функция ифодаси куйидагича бўлади:

$$A(S) = 0,075S^3 + 0,65S^2 + S + 2,7; \quad (2)$$


(2) ифодага  $A(S) \Rightarrow A(j\omega)$  алмаштириш киритамиз. Бу ерда  $j$  – комплекс сон. Натижада куйидагига эришамиз:

$$A(j\omega) = 0,075(j\omega)^3 + 0,65(j\omega)^2 + (j\omega) + 2,7 = -0,075j\omega^3 - 0,65\omega^2 + j\omega + 2,7 \quad (3)$$

(3) ифодани мавҳум ва ҳақиқий қисмларга ажратамиз:

$$\begin{cases} jV(\omega) = j\omega + 0,075j\omega^3 \\ U(\omega) = 2,7 - 0,65\omega^2 \end{cases} \quad (4)$$

(4) ифодадаги  $\omega$  ўрнига сон қийматлар бериб Михайлов годографи (3-расм) курамиз.



3-расм. Михайлов годографи

Михайлов шарти бўйича координата текислигида вектор учи III чоракда қолиш керак еди. Бу шарт бажарилди, демак тизим Михайлов усули бўйича турғун.

**Фойдаланилган адабиётлар**

1. Абдазимов А.Д., Э. Ўлжаев, Н.Н. Омонов. “Техник тизимларни бошқариш” лаборатория ишлари ва амалий машғулотлар. Тошкент: NIF MSH, 2020. – 267 б.
2. Автоматика и автоматизация производственных процессов. Под.ред. Н.Ф.Метлюка. Минск: Вышеэйшая школа,- 1985. - 302с.
3. Автоматика и автоматизация производственных процессов. И.И. Мартыненко и др. М.: Агропромиздат, 1985. - 335с.
4. Бородин И.Ф., Кирилин А.И. "Практикум по основам автоматизации производственных процессов". М.: Колос, 1972.

**ANALYSIS OF THE CAUSE OF FAILURE OF THE JAW SECTION OF THE HYDRAULIC EXCAVATOR BUCKET**

**Sardorjon Abdumuminovich Turdiyev**, Senior Lecturer, Department of Mining Electromechanics, Navoi State Mining Institute  
**Rustam Umarhanovich Dzhuraev**, Professor, Department of Mining Electromechanics, Navoi State Mining Institute

When dealing with quarry excavators during excavation and loading operations it is important to consider the design of these bucket components, one part of which generates high



(adapter and tooth), 7 - protection element between teeth, 8 - body, 9 - body guard, 10 - angle guard, 11 - lower jaw guard lower jaw and side wall protection element, 12 - external protection elements

Among the bucket safety features discussed above, the parts that create high loads when interacting with rocks are the jaw section after the cutting elements.

The jaw is used as one of the key elements of a straight bucket mining excavator, which is the moving element of the bucket. When the back wall of the bucket is in good condition and for additional cost savings, only the jaw of the bucket can be replaced separately. For increased structural strength and abrasion resistance the jaw is made from additional inner and outer castings of high strength steel, with a Brinell hardness of 500-600NV. Equipped with teeth, adapters, replaceable heavy-duty side cutters, protection between the teeth with welded-on elements, welded-on elements to protect the bottom corners.

Hydraulic open pit excavators lead to longer repair times and higher costs due to the rapid wear of the bucket's jaw faces.



**Figure 3: Defect resulting from plate separation from the jaw part of the bucket**

Protection of properly scooped buckets depending on the place of use should increase the service life by reducing and eliminating erosion and damage of parts of buckets. However, the factors influencing the amount of wear of protective elements of the jaw part of open-pit hydraulic excavators operating at JSC " Navoi Mining and Metallurgical Combine" quarries and the faults arising from it have been defined as follows.

As a result of erosion of protective elements of a jaw part of a bucket thinning of a jaw part and reduction of reliability of this working connection. Fig. 3 shows a photograph of this fault.

Quarry hydraulic excavators have observed the formation of grooves in the jaw as a result of abrasion on the surface of the jaw. The appearance of these fractures is shown in Fig. 4.



**Figure 4: Backhoe bucket jaw plate defect**

Analysis of the results of the above studies shows that most of the quarry hydraulic excavators used in open-pit mining of jaw sections have insufficient protection of elements of the jaw section, low strength and resistance to erosion, i.e. quickly lose their properties when

exposed to various types of mined rocks the jaw part is quickly destroyed, which leads to failure of other parts of the excavator and reduction of the operating parameters.

In connection with the abovementioned development of technical solutions to improve durability, service life and efficiency of elements of the bucket part of hydraulic shovels in quarry excavators seems urgent.

**References:**

1. Volkov DP, Nikolaev SN Improving the quality of construction machinery. Moscow: Stroyizdat, 1984. - 169 p.
2. Reish A.K. Wear resistance of building and road machines. Moscow: Mashinostroenie, 1986. – 215 p.

**JUN MAHSULOTLARINI TITISH VA SAVASH UCHUN AGREGATLARNING KONSTRUKSIYAVIY TAHLILI**


**Hamroyeva Dilnoza Ashur Qizi** -Buxoro muhandislik - texnologiya instituti magistranti

**Asadova Sitara Sadullayevna** - Buxoro muhandislik - texnologiya institute doktoranti

**Samiyeva Shaxnoz Hikmatovna** - Buxoro muhandislik - texnologiya instituti dotsenti

Jun sanoati - to'qimachilik sanoatining yetakchi tarmoqlaridan biri. Tarmoq korxonalarida junni qayta ishlash, sof jundan yoki uning boshqa tolalar (asosan kimyoviy tolalar) aralashmasidan har xil chiziqli zichlikdagi iplar, jun gazlamalar, har xil texnik va maxsus gazlamalar, gilam va gilam mahsulotlari, kigiz-namat va fetr buyumlar, noto'qima materiallar ishlab chiqariladi.[3]

Hozirgi vaqtda jun mahsulotlarini titish va savash uchun agregati ART-120 SH ko'p nusxada ishlab chiqarilmoqda. Agregat mayin va yarim mayin junlarni titish uchun xizmat qiladi, bu agregatlar odatda oqim liniyalarda ishlatiladi. Agregat ta'minlovchi qurilmadan, tituvchi mashina va ikki kondensatordan iborat. ART-120 SH agregati ikki modifikatsiyada ishlab chiqarilib, bir-biridan faqat ta'minlovchi qurilmasi bilan farq qiladi. Birinchi modifikatsiyali agregat kipli ta'minlovchi KP-120SH, uzluksiz ishlaydigan ikki barabanli tituvchi mashinadan, ikkita tez harakatlanuvchi kondenserlardan iborat. Bu modifikatsiyali agregatda jun bevosita kipda ishlov beriladi. Ikkinchi modifikatsiyadagi agregatda avtota'minlagich APM-120 SH o'rnatilgan. Avtota'minlagichli agregatdan kipni ochgan holda junga ishlov beriladi. Quyidagi rasmda kipli ta'minlagich KP-120SH li agregat ART-120 SH ning texnologik sxemasi keltirilgan.



**rasm. KP-120SH kipli ta'minlovchi ART-120SH titish va savash agregati**

1-yuklash stoli, 2-skalka, 3-yurg'izuvchi, 4-ta'minlovchi plankali transporter, 5- zanjir, 6-tishli valik, 7-tekislovchi taroq, 8- bunker, 9- pastki tekislovchi taroq, 10- qiya ignali panjara, 11- olinuvchi valik, 12- pnevmouzatgich, 13- to'rli baraban, 14- qanotcha, 15- ta'minlovchi bunker,



*16- fotoelement, 17- tishli valik, 18- silliq valik, 19,20- planka nishlari, 21-stol, 22- kolosnikli panjara, 23-pnevmayuritma, 24-shnek, 25- qabul qilgich;*

Kipli ta'minlagich tolali materiallarni va kiplarni bir tekisda va uzluksiz birinchi konditsionerga berish uchun mo'ljallangan. Uzatish bilan bir vaqtda tolalarni birlamchi titish ham amalga oshiriladi. Kipli ta'minlagichni asosiy ishchi organlari quyidagilar: yuklash stoli 1, ta'minlovchi plankali transporter 4, tishli valik 6, qiya ignali panjara 10, tekislovchi taroqlar 7, 9 va olinuvchi valik 11[1].

Qadoqlangan kip telklar yordamida yoki qo'lda yuklash stoliga qo'yiladi va qadog'idan chiqariladi. Bunda similar va ustki qopi olib tashlanadi, kip ustida turgan qopning pastki qismi yuklash mashinasida birlashtirilgan ilgaklarga ilintiriladi. Ko'rsatib o'tilgan ishlar bajarilgandan so'ng ishchi yuklash qurilmasi tugmasini bosadi. Bunda yuklash stoli soat mili bo'ylab o'z o'qi bo'ylab 60° ga aylanib kipni sekin harakatlanuvchi ta'minlovchi transporterga qo'yadi. Transporter kipni tishli valikga yuboradi, u jun qatlamlarini olib pastki bunkerga yuboradi. Ta'minlovchini me'yorida ishlashi uchun kip o'z shaklini yo'qotmasligi kerak. Bu ishni bajarish uchun kipni yuklovchi stolga joylashtirishdan oldin stolga tanbalovchi skalka qo'yiladi.

Yuklovchi stolning aylanishi bilan skalka ikki uchi bilan zanirlarga yotadi va ular yordamida oldingi ko'chadi hamda kipni qisadi. Kipni shaklini saqlash shuningdek valik ham o'z hissasini qo'shadi, u bunkerga junning katta bo'laklarini tushib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Kipning oldinga harakatlanishi bilan uning ostidagi qop tortiladi. Ta'minlovchi agregatning uzluksiz ishini ta'minlash uchun transporterga oldingi kip to'liq ishlov berilmasdan turib boshqa kip qo'yilishi kerak. Navbatdagi kipni yuklash stoliga qo'yishdan oldin stol dastlabki holiga "назад" tugmasini bosish bilan olib boriladi.

Pastki bunkerdagi jun bo'laklarini panjara ignalari bilan olinib olinadi va tekislovchi taroqlarga keltiriladi. Taroqlar tebranma harakatlari bilan ortiqcha tolalarni qaytadan bunkerga tashlaydi. Junning qolgan qismi ignali panjara yordamida yuqoridagi tekislovchi taroqqa uzatiladi va tekislash jarayoni takrorlanadi; bunda ortiqcha tolalar bunkerga tushadi. Panjaraning keying harakati natijasida tez harakatlanuvchi olinadi valikning ostiga kelib tushadi. Valik parraklari jun bo'laklarini panjara ignalaridan olib, kondensator bilan bog'langan pnevmouzatgichga yuboriladi. Bundan ajralib chiqayotgan axlatlar kolosnikli panjara ostiga tushadi va qabul qilgich orqali pnevmouzatgichga keladi. Axlatlar ignali panjara ostidagi poddonga yig'iladi va pnevmouzatgich yordamida tuynuk orqali chiqarib yuboriladi. Tezkor harakatlanuvchi kondensator jundagi changlarni, qumni va boshqa mayda axlatlarni chiqarish uchun xizmat qiladi. U to'rli baraban, olinadigan qanotcha va ventilyatordan iborat. Jun, ventilyatordan kelayotgan havo oqimi ta'sirida aylanayotgan to'rli baraban yuzasiga yopishadi. Havo jun orasidan o'tib, undagi chang va boshqa iflosliklarni olib chang kamersiga yuboradi. Tez harakatlanuvchi krilchatka yordamida to'rli baraban yuzasidagi jun olinadi va titish mashinasining ta'minlovchi bunkeriga yo'naltiriladi. Ta'minlovchi bunker to'g'ri burchakli shaxta bo'lib, ikkita mayda tish chiqarilgan valiklar blain tugaydi. Jun o'z vazni kuchi ta'siri ostida asta-sekinlik bilan pastga tushadi va mayda tishli valiklar ko'rinishida bir xil qalinlikda bunkerdan chiqariladi.

Junni bir xil qalinlikda chiqishini ta'minlash uchun, shuningdek shaxtani tolalar bilan tiqilib qolishini oldini olish maqsadida bunkerga ikkita fotoelement o'rnatilgan. Shaxtaning tolalar bilan tiqilishi yuqori fotoelementdan balanda joylashsa, kipli ta'minlagich avtomatik holatda o'chiriladi. Shaxtadagi tolalar ikkinchi fotoelementdan pastga tushgandan so'ng kipli ta'minlagich qaytadan yoqilib ishga tushadi. Bunkerdan chiqarilgan mayda tishli junli valik qavati qiya tekislik orqali savash mashinasining ta'minlash uzeligiga keladi. Ikki barabanli savash mashinasi agregatda junni titish va savash bo'yicha asosiy ishlar olib boradi. Mashinaning asosiy ishchi organlari: silliq valikdan tishli valik va stoldan tashkil topgan ta'minlash uzeli, harakatsiz tishli planka va kolosnikli panjara. Silliq valikdan keltirgan jun bo'laklarini nishli valik olib stolning ichki yuzasiga tiqishtirib asosiy barabanga uzatiladi. Birinchi savash barabanining

aylanish chastotasi 390 ayl/min ga teng. Ta'minlovchi valik ostidan chiqadigan tolali materiallar bo'ylab savash barabanining nishlari tez va qattiq uradi. Barabanning ta'minlash organlari bilan ta'sirlashish zonasida junning dastlabki jadal savashi va titishi amalga oshadi. Ta'minlovchi valik va stol orasida qisilgan tola qavatidan olingan jun bo'laklari, asosiy barabanning nishlari bilan harakatlanishni boshlaydi.

Asosiy barabanlar pastki qismidan, uchqirrali kolosnikdan tashkil topgan, kolosnikli panjara bilan chegaralangan. Asosiy baraban va kolosnikli panjara orasidagi bo'shliqqa tushgan jun bir necha marta urulishga uchraydi va natijada titiladi va oson chiqariladigan axlatlardan tozalanadi. Asosiy barabanlar orasidagi ajratish 10-20 mm ga teng. Ular bir tomonga harakatlanadi, Shuning uchun nisbiy harakatlanish tezligi va ta'sirlanish zonasi ularning aylanma tezligining yig'indisi bilan ikkinchi barabanning yuzasidan jun bo'laklarini olib, harakati yo'nalishi bo'ylab olib ketadi. Ikki barabanning ta'siri natijasida birinchi barabanda qolgan jun qismlari planka nishlari bilan olinadi va undan so'ng ikkinchi baraban bilan olinadi. Keyingi harakatlar natijasida jun yana bir marta ikkinchi baraban va uning kolosnikli panjarasi orasida savash va titishga uchraydi, undan so'ng quvurlar orqali ikkinchi kondensorga yuboriladi. Bu kondensor vazifasini bajaradi.

Maydalash pichog'i ikkinchi barabandan tola chiqishini osonlashtiradi. Agregatning chiqish qismi zavod ikki variantda chiqaradi, birinchisi titilgan jun pnevmoyurutmaga uzatiladi, ikkinchisi komponentli transporterga yuboriladi. Savash jarayonida jundan ko'p miqdorda iflosliklar chang, qum, ozuqa qoldiqlari ko'rinishida ajralib chiqadi. Og'ir iflosliklar kolosnik panjaralarning yoriqlari orasida axlat yig'ish kamerasiga tushadi, undan shneklar yordamida chang kamerasi bilan biriktirilgan umumiy pnevmoprovodga chiqariladi. [2]

Jun mahsulotlarini titish va savash agregati kipli ta'minlovchi KP-120SH ikki barabanli tituvchi mashinadan, ikkita tez harakatlanuvchi kondenserlardan iborat bo'lib, yuqorida ko'rsatilgan mashina detallarining har biri samarali faoliyat olib borish uchun uzluksiz xizmat qiladi va jun mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlarini ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. X. Q. Raxmonov "Yengil sanoat xomashyolarini dastlabki ishlash" o'quv qo'llanma Toshkent 2008-y
2. Хамраева Д.А., Усанбаева Н.Б. The history of felt and its applications. Всероссийский форум молодых исследователей "Дизайн и искусство – стратегия проектной культуры XXI века" сборник материалов всероссийской научно-практической конференции "Диск-2021"
3. Бутко Т. В., Пай С. В., Самиева Ш. Х. ПРЕДПОСЫЛКИ К ФОРМИРОВАНИЮ СИСТЕМЫ КОНТРОЛЯ ЭКОЛОГИЧНОСТИ ШВЕЙНОЙ ПРОДУКЦИИ //ЦЕРЕВИТИНОВСКИЕ ЧТЕНИЯ-2020. – 2020. – С. 126-129.

### **ICHKI YONUV DVIGATELLARIDA SOVITUVCHI SUYUQLIKLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI**

Talaba, **Qurbanov Rasuljon Asatilla o'g'li**, ToshDTU  
Katta o'qituvchi, **Xushnayev Obid Axmatovich**, ToshDTU

Ichki yonuv dvigateli ishlaganda yonish kamerasini tashkil qiluvchi detallarga qaynoq gazlar tegib ularni qizdiradi. Porshen, silindr, kallak va klapanlarning yuqori haroratlari so'xta va lak hosil bo'lishini tezlashtiradi, ishqalanish, tiralish va detallarning yeyilishi ortadi, ishchi jarayon ko'rsatkichlari yomonlashadi. Dvigatel normal ishlashi uchun uning detallarining harorati


ma'lum darajada ushlab turilishi kerak. Bu vazifani sovitish tizimi bajaradi. Dvigatel turi va quvvati hamda uning ish rejimiga qarab, yonish jarayonida ajralib chiqadigan issiqlikning 25...35% ini sovitish tizimining ishchi jismi olib ketadi. Suyuqlik bilan sovitiladigan dvigatellarda bu vazifani *sovituvchi suyuqliklar* bajaradi.

Hozirgi paytda musbat haroratlarda sovituvchi suyuqlik sifatida distillangan suv, manfiy haroratlarda – past haroratlarda muzlaydigan suyuqliklardan foydalaniladi.

**Suv.** Dvigatellar sovitilish tizimida *suv*dan keng foydalaniladi; bunga - suvning seroblighi, arzonligi, zararsizligi, yong'indan xavfsizligi sababdir. Suvning solishtirma issiqlik sig'imi 4,2 kJ/(kg·°C). Bu ko'rsatkich bo'yicha juda kam suyuqliklar (etil spirti, etilenglikol) suvga yaqinlashadi.

Suvning asosiy kamchiligi – muzlash haroratining yuqoriligi va suv hajmiga nisbatan hosil bo'ladigan muz hajmining ko'payishi (10%ga)dir; bunda suvning devorga bosimi 250 MPa gacha ko'payishi mumkin, bu esa sovitish tizimining suv yaxlayotgan elementlari buzilishiga olib keladi. Yopishgan tuz qatlami (nakip') va shlam hosil qilish qobiliyati – ham suvning kamchiligidir.

*Yopishgan tuz qatlami* (накипь) deb sovitish tizimining qizigan devorlarida hosil bo'ladigan zich sementlashgan qatlamlarga aytiladi. Yopishgan tuz qatlami suvdan ajralib chiqqan tuzlar, muallaq korroziya mahsulotlari va mexanik iflosliklardan iborat. Yopishgan tuz qatlamining issiqlik o'tkazuvchanligi metallarnikiga nisbatan 10...15 marta kam, bu esa issiqlik olib ketilishini keskin yomonlashtiradi. Qatlam qanchalik qalin, zich va qattiq bo'lsa, issiqlik almashinuvi shunchalik yomon, yonilg'i sarfi esa shunchalik ko'p bo'ladi (1-rasm).



1 – rasm. Yopishgan tuz qatlamining dvigatelda yonilg'i ortiqcha sarflanishiga ta'siri


*Quyqa* (shlam) deb balchiqsimon (ilopodobniy) zarrachalar va nuragan yopishgan tuz qatlamlari zarrachalariga aytiladi; ular koagulyasiyalanish va sovitish tizimining harakatsiz zonalarida cho'kish qobiliyatiga ega. Quyqa yopishgan tuz qatlamlari kabi issiqlik almashinadigan sirtlarning termik qarshiligini orttiradi va sovitish tizimi traktlarini to'sib dvigatel qizib ketishiga sabab bo'ladi.

Yopishgan tuz qatlamlari asosan kalsiy va magniy tuzlaridan tarkib topadi. Bu tuzlarning suvdagi miqdori uning «qattiq»ligini tavsiflaydi. Suv qattiqligi 1 l suvdagi milligramm-ekivalent (mg-ekv) tuzlar miqdori bilan o'lchanadi. Suv qattiqligi 1 mg-ekv/l bo'lganda,

unda 20,04 mg/l kalsiy ionlari yoki 12,16 mg/l magniy ionlari bo'ladi. Agar suvda tuzlar miqdori 4 mg-ekv/l dan kam bo'lsa, u «yumshoq», 4...8 oraliq'ida bo'lsa «o'rtacha» va 8 mg-ekv/l dan ko'p bo'lsa «qattiq» hisoblanadi. Atmosfera suvi (yomg'ir, qor) yumshoq, daryo yoki ko'l suvi o'rtacha va quduq va buloq suvlari qattiq hisoblanadi.

Suv yaxlash haroratining yuqoriligi va yaxlaganda hajmini sezilarli darajada kattalashtirish xossasi katta ekspluatatsion noqulayliklar tug'diradi. Shuning uchun zamonaviy avtotraktorlar IYoDlarida sovituvchi suyuqlik sifatida *past haroratda yaxlaydigan sovituvchi suyuqliklar – antifrizlar* ishlatiladi. Antifriz sifatida ba'zi uglevodorodlardan, tuzlar va spirtlarning suvli eritmaları va boshqalardan foydalanish mumkin. Etilenglikolning suvli eritmaları asosidagi antifrizlar eng keng tarqalgan. *Etilenglikol* – ikki atomli spirt  $\text{CH}_2\text{OH}-\text{CH}_2\text{OH}$  dir (qaynash harorati 199 °C, yaxlash harorati -12 °C). U – rangsiz va hidsiz *zaxarli* suyuqlikdir. Etilenglikol suv va spirtlar bilan istalgan proporsiyada aralashadi, lekin neft mahsulotlari bilan aralashmaydi.

Etilenglikolning suvli eritmaları tarkibidagi suv miqdori o'zgarishi bilan ularning muzlash harorati o'zgaradi (9.2-rasm). Suv-etilenglikolli eritmalar muzlash harorati o'zgarishini muzlash harorati past bo'lgan etilenglikol gidrati hosil bo'lishi bilan tushuntirish mumkin. Eritmaning minimal muzlash harorati -73 °C (suv 33%ni tashkil qilganda) bo'ladi. Suv miqdori bundan ko'payganda muzlash harorati ko'tariladi.



9.2 – rasm. Etilenglikolli sovituvchi suyuqlik xossalari bo'yicha etilenglikolning massaviy ulushi ( $q_e$ ) ga bog'liqligi

$\rho$  – zichlik;  $t_z$  – muzlash harorati

Etilenglikol va suvning zichliklari har xil bo'lganligi uchun, ularni har xil nisbatda aralashtirganda, antifrizning zichligi o'zgaradi. Sovituvchi suyuqlikning zichligi bo'yicha uning muzlash haroratini aniqlash mumkin.

Past haroratda qotadigan suyuqliklarga etilenglikolli suv eritmaları kiradi; ularga antikorroziya, ko'pirishga qarshi, stabillovchi va bo'yovchi qo'shimchalar qo'shiladi. Ularning quyidagi markalari tayyorlanadi: OЖ-K (konsentrat) – suvi 5% dan ko'p emas, zichligi 1100...1150 kg/m<sup>3</sup>. Konsentratga 1:1 nisbatda (hajmi bo'yicha) distillangan suv qo'shilganda eritma kristallanishi harorati -35 °C bo'ladi; OЖ-40 – zichligi 1065...1085 kg/m<sup>3</sup>, kristallanish boshlanishi harorati -40 °C dan yuqori emas; OЖ-65 – zichligi 1085...1100 kg/m<sup>3</sup>, kristallanish boshlanishi harorati -65 °C dan yuqori emas.

*Foydalanish bo'yicha tavsiyalar.* Dvigatel sovitish tizimiga faqat avtomobil (dvigatel)ni ishlab chiqargan zavod uni ekspluatatsiya qilish bo'yicha instruksiyada ko'rsatgan suyuqlik quyilishi lozim. Har xil markali antifrizlarni, hatto ular bir xil asosga ega bo'lganda ham, bir-biriga aralashtirib bo'lmaydi, chunki ularning tarkibida bir-biriga mos kelmaydigan prisadkalar bo'lishi mumkin.

“Qarigani” (prisadkalar ishlab sarflangani) sari past haroratda muzlaydigan suyuqliklarning tashqi ko‘rinishi o‘zgaradi: ular xiralashadi, cho‘kindilar hosil bo‘ladi, birlamchi rangi o‘zgaradi. Masalan, antifriz to‘q sariq (оранжевый) rangdan xira oq rangga aylanadi, “Точил” esa – havo rangdan dastlab yashil, so‘ngra xira sariq rangga aylanadi. Rangi sezilarli o‘zgarganida va xiralashganida sovituvchi suyuqlikni quyib tashlash, sovitish tizimini toza suv bilan yuvish va yangi suyuqlik quyish zarur.

Etilenglikol – kuchli ozuqa zahari hisoblanadi, shu sababli sovituvchi suyuqlik bilan kontaktda bo‘lgan qo‘lni keyin sovun bilan yaxshilab yuvish kerak. Past haroratda muzlaydigan suyuqliklar bilan ishlaganda teri va nafas olish yo‘llarini himoya qilish bo‘yicha maxsus tadbirlar ko‘rish talab qilinmaydi.

Past haroratda muzlovchi suyuqliklar suvga nisbatan yuqori oquvchanlikka ega, shuning uchun dvigatel sovitish tizimi patrubkalarining ulanadigan joylari germetiklikni ta‘minlovchi yetarli darajadagi ishonchlikka ega bo‘lishi lozim. Dvigatel ishlaganda sovitish tizimidan birinchi navbatda suv bug‘lanadi, shu sababli sovituvchi suyuqlikning sathi (oqib ketmasdan) pasayganida, unga distillangan suv quyish kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. То‘layев В. Yonilg‘i - moylash materiallari va sovituvchi suyuqliklar ximmotologiyasi. – T.: “Adabiyot uchquni”, 2016, 202 bet.
2. Кузнецов А.В. Топливо и смазочные материалы. – М.: КолосС, 2007. – 199 с.

### ЧИКИНДИ ТУРЛАРИ ВА УЛАРНИНГ "ИККИНЧИ ХАЁТИ"

**Жовлиев Мухриддин Норбой ўғли** - ТошДТУ, Мухандислик технологиялари факультети  
Э ва АММ йўналиши 3-босқич талабаси,  
**Аюбова Индирахон Хамидовна** - п.ф.ф.д. (PhD), Э ва АММ кафедраси доценти

Чиқиндилар - бу ўз сифатини йўқотган материаллар, хом ашё ва бошқа элементлардир (металлургия, енгил, оғир, кимёвий). Улар турли соҳаларда шаклланган, аммо келажакда улар йўқ қилинади ёки қайта ишлатилади.

Саноат корхоналари чиқиндилари иккига бўлинади, яъни биридан фойдаланиш мумкин ва иккинчисидан эса мумкин эмас. Фойдаланиш мумкин бўлган чиқиндилар халқ хўжалигининг турли соҳаларида ишлатилади.

Саноат ва маиший қаттиқ чиқиндилари ҳар хил:

- \*аппарат воситалари;      \*пластик;      \*кул
- \*тери;      \*каучук;      \*шиша;
- \*ёғоч;      \*мўйна;      \*қоғоз ва картон;
- \*қурилиш моллари;      \*тўқимачилик;      \*озик-овқат қолдиқлари ва бошқалар.

Ушбу тоифадаги чиқиндиларнинг барчаси атроф-муҳитга жуда катта зарар етказди ва агар таркибида захар, симоб ва бошқа зарарли моддалар бўлса, унда атроф-муҳит учун янада хавфни оширади [1].

Илмий-техник тараққиётнинг ривожланган даврида табиат ва жамиятнинг ўзаро таъсири билан боғлиқ бўлган муаммолар, асосий ва мураккаб муаммолар бўлиб бормоқда. Шулардан бири географик муҳитнинг қаттиқ саноат чиқинди моддалари билан ифлосланиши ва уни олдини олиш муаммосидир. Технологик жараёнлар ўзгарувчан бўлиб, техника тараққий этган сари тўхтовсиз равишда рационаллаштириб борилади. Саноат қаттиқ чиқиндиларини ажратиш олиш ва қайта ишлашнинг яъни чиқиндиларни ўз вақтида йиғиштириб олиш, зарарсизлантирилса, қайта ишланса, аҳолига мақбул шароит яратиши, экологик хавфсизлик таъминланган бўлар эди.

Замонавий ва самарали бошқариладиган чиқиндиларни йиғиб олиш тизими фуқаролар орасида касалланишнинг олдини олиш билан бирга уларнинг яшаш ва меҳнат қилиш шароитларини яхшилайти. Ҳозирги вақтда, республикада чиқиндиларни бошқаришнинг асосий усули уларни ўз вақтида йиғиб олиш, махсус чиқинди хонага ташиб кетиш ва белгиланган майдонда жойлаштиришдан иборат.

Чиқиндилар ҳосил бўлган жойига қараб, морфологик таркибига кўра уч турга бўлинади:

- 1) маиший чиқиндилар ёки уй-жой фондида ҳосил бўлган чиқиндилар;
- 2) саноат чиқиндилари ёки ишлаб чиқаришда ҳосил бўлган чиқиндилар;
- 3) қишлоқ хўжалиги чиқиндилари, яъни қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштиришда ҳосил бўладиган чиқиндилар;

Бугунги кунда дунё миқёсида чиқиндилар муаммоси энг долзарб экологик масалалардан бирига айланиб бормоқда. Таҳлиллар шуни кўрсатадики, сўнгги йилларда маиший ва саноат чиқиндилари йилдан-йилга кўпайиб борапти.

Айниқса, XXI асрда маиший чиқиндилар ҳажмининг ўсиши экологик барқарорликка жуда катта салбий таъсир кўрсата бошлади. Шу сабаб ҳозирда бутун дунё ҳамжамияти чиқиндиларнинг иккинчи ҳаёти ҳақида бош қотиришмоқда.

Маълумотларга кўра, бугунги кунда ривожланган мамлакатлар чиқиндиларининг 40 фоиздан 60 фоизгача бўлган қисмини қайта ишлайдилар.

Энергетика, рангли ва қора металлургия, кимё саноати ва қурилиш индустрияси объектлари ҳар хил турдаги чиқиндиларни ҳосил қилувчи, атроф-муҳитни ифлослантирувчи асосий манбалар ҳисобланади.

Ўзбекистонда чиқиндиларни тўплаш ва қайта ишлаш тизими ачинарли аҳволда ва уни тубдан модернизация қилиш лозим, бугунги кунда ҳар йили 100 млн тонна саноат чиқиндилари, 35млн куб метр маиший рўзғор чиқиндилари ҳосил бўлади. Чиқиндиларни утилизация қиладиган, қайта ишлайдиган тизимли корхоналарни мавжуд эмаслиги натижасида республика миқёсида 2мрд тонна чиқинди тўпланиб қолган. Чиқиндилар тўпланадиган ва қайта ишлайдиган аксарият чиқиндиҳоналарнинг ҳолати ачинарли аҳволда. [2].

Мамлакатимизда чиқиндилар билан боғлиқ ишларни амалга ошириш соҳасидаги муносабатларни тартибга солиш мақсадида бир қатор қонун ҳужжатлари амалиётга тадбиқ этилган. Зеро, 2002 йил 5-апрелда қабул қилинган “Чиқиндилар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонунининг биринчи моддасида унинг мақсади ва асосий вазифалари қайд этилган. Ушбу қонуннинг мақсади чиқинди билан боғлиқ ишларни амалга ошириш соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборат [3]. Унинг асосий вазифалари чиқиндиларни фуқаролар ҳаёти ва соғлиғига, атроф муҳитга зарарли таъсирини олдини олиш, чиқиндилар ҳосил бўлишини камайтириш ва улардан хўжалик фаолиятида оқилона фойдаланишни таъминлашдан иборат.

Ўтган йиллар давомида ишлаб чиқариш соҳаларини замонавий технологиялар билан жиҳозлаш ва янгилаш натижасида атмосферага чиқарилаётган зарарли моддалар миқдори 2,1 баробарга, оқава сувларнинг ташланишини 2 баробарга камайтиришга эришилди. Бу борада “Чиқиндилар тўғрисида”ги қонун, БМТнинг Тараққиёт Дастури билан ҳамкорликда ишлаб чиқилган республикамизда чиқиндиларни бошқариш бўйича Миллий стратегияси ва ҳаракат режасига мувофиқ олиб борилаётган ишлар алоҳида аҳамият касб этмоқда.

Шунингдек, экологик муаммоларни олдини олишда энг зарур чора тадбирлардан бири бу аҳолининг экологик саводхонлигини, маданиятини шакллантиришдан иборатдир. Тўғри ҳозирги вақтда барча ўқув муассасаларида бу борада маълум даражада таълим тарбия берилмоқда, лекин бу етарли эмас. Шунинг учун оила, маҳаллада ҳам бу масалада таълим ва тарбия ишларини олиб бориш лозим бўлади. Чунки, инсоннинг соғлом униб ўсиши,

ривожланиши ва дам олиши уни ўраб турган атроф муҳит муаммоларига жуда ҳам боғлиқдир. Экологик муаммоларни ҳал қилишда турли хил чиқиндиларни қайта ишлаш ва унинг меъёр ҳамда турларини камайтириш, улардан иккиламчи хом ашё сифатида қайта фойдаланиш орқали атроф муҳитга чиқадиغان экологик салбий оқибатларнинг олдини олиш ва бундан ташқари таълим муассасаларидаги ўқувчи, талаба ёшларга, хатто шаҳар, қишлоқ ва маҳаллаларда фуқароларга ҳам чиқиндиларни тўғри бошқариш таълимини йўлга қўйиш муҳим вазифадир.

Чиқиндиларни қайта ишлашнинг муҳим босқичларидан бири бу – чиқиндиларни алоҳида саралаб йиғиш ҳисобланади йиғилган чиқиндилар эса турига қараб алоҳида чиқинди контейнерларига жойланади ва бу чиқиндилар қайта ишланиб, "иккинчи умри"ни бошлайди. Кўрилаётган чоралар чиқиндилар билан бирга, қимматли модда ва материалларни йўқ бўлиб кетишига йўл қўймаслик, атроф муҳит саноат ва маиший чиқиндилар билан ифлосланишини олдини олиш, қаттиқ маиший чиқиндиларни йиғиш, зарарсизлантириш муаммоларини ҳал этишга йўналтирилган.

Ўзбекистонда “Санфа Продуктс” компанияси биринчилардан бўлиб кластер тизими асосида пластик чиқиндиларни қайта ишлаб, тайёр маҳсулот ишлаб чиқариб, маҳсулотларини экспортга қўйган компаниялардан бири ҳисобланади. Ҳозирда мазкур компания томонидан бир йилда 2000 тонна пластмасса идишларини қайта ишлаш натижасида линолеум учун асос, автоўллар, гидроиншоотларнинг қурилиши учун зарур геотекстил, полимер геомембрана, енгил саноат учун синтепон ва ҳоказо маҳсулотларни ишлаб чиқармоқда [4].

Шундай корхоналардан яна бири Сурхондарё вилоятида жойлашган “БиоТехно Эко” корхонаси бўлиб, йиллик қуввати 180000 т, бир суткада 500 тонна маиший чиқиндиларни саралаб қайта ишлайди. Целлофан, пластик, пластмасса каби маиший чиқиндилардан гранулалар, полиэтилен қувурларни ишлаб чиқаради.

Юртимизда иккиламчи хом ашёни қайта ишлаш яъни уларнинг иккинчи умрни бағишлаш мақсадида илк бор “электротехника чиқиндиларини қайта ишлашга қаратилган “Toshrangmetzavod Recycling” МЧЖ ташкил этилди ва у электроника чиқиндиларини қайта ишлаш бўйича “Тошрангзавод” АЖ билан Ўзбекистон Республикаси Экология ва атроф муҳитни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси ҳамкорлигида ўз фаолиятини амалга оширади [5]. “Toshrangmetzavod Recycling” МЧЖнинг асосий вазифаси- юридик шахслар ва давлат ташкилотларига электротехника чиқиндиларини йўқ қилиш ҳамда қайта ишлашда ёрдам кўрсатиш ҳисобланади. Ушбу фаолият республика қонунчилигидаги кўрсатилган, атроф муҳитни қаттиқ чиқиндилар билан зарарланишининг олдини олиш тартибида амалга оширилади. Ўзбекистон бўйича бу турдаги корхоналар сони кундан кунга ошиб, чиқиндилар ҳажми янада камайиб, иккиламчи маҳсулотларни сони ошиб бормоқда.

Мамлакатимизда чиқиндиларни саралаб йиғиш жараёнларига бутунлай ўтишига қанча вақт кетишини айтиш мураккаб бўлса-да, асосийси Ўзбекистон бу борадаги қадамларини ташлади. Айни дамда Тошкент шаҳрида мазкур жараён учун барча зарур шарт-шароитларни яратиш ишлари бошланди. Маъжозий маънода чиқиндилар иккинчи ҳаётга эга бўлмоқда.

#### Адабиётлар рўйхати

1. Н. И. Ибрагимов, Л. С. Рахимова. Каттиқ маиший чиқиндиларини утилизатсиялаш. Дарслик—Т.: "Фан ва технология", 2019, 264 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2017-2021 йилларда маиший чиқиндилар билан боғлиқ ишларни амалга ошириш тизимини тубдан такомиллаштириш ва ривожлантириш чора тадбирлари тўғрисида”ги ПК-2916 қарорлари
3. 362-II-сон 05.04.2002. Чиқиндилар туғирисидаги—LEX.UZ

4. “Санфа Продуктс” компанияси. 01.02.2021 uzreport.news.uz  
<https://uzreport.news/society/chiqindilarning-ikkinchi-hayoti-ozbekistonda-chiqindilardan-foйда-korilmoqchi>.
5. “Toshrangmetzavod Recycling” МЧЖ. Podarishans.uz

## МОДЕЛИРОВАНИЕ И АНАЛИЗ ПРОЦЕССА СИНТЕЗА АММИАКА ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬЮ 1360 Т/СУТКИ КАК ОБЪЕКТА УПРАВЛЕНИЯ

Мусаева Д.Ж. (магистр ТГТУ)  
 Мухитдинов Д.П. науч.рук. (ТГТУ)

Целью процесса синтеза аммиака в четырехполочном реакторе аксиального типа является получение газообразного аммиака с заданной концентрацией на выходе из реактора. В промышленных условиях, принимая во внимание достаточно большую инерционность изменения концентрации, а также из-за значительных трудностей при ее измерении непосредственно в слоях катализатора реактора, процесс проводят путем стабилизации температуры в регламентных пределах по слоям с учетом изменения степени открытия заслонок на байпасных потоках.

При моделировании сложных химико-технических систем (ХТС) используют специализированные информационно-моделирующие программы, такие как Aspen Plus, Aspen HYSYS и др.

В данной работе секция синтеза аммиака рассматривалась отдельно от секции выделения аммиака из продувочного газа. В качестве инструмента исследования была использована моделирующая программа Aspen Plus. Преимуществами данной программы являются отсутствие самостоятельных вычислений, что существенно сокращает время расчета модели, и повышает их точность и эффективность.

Компьютерная модель четырехполочной колонны синтеза аммиака в Aspen Plus представлена на рисунке 1.




Рисунок 1 – Компьютерная модель четырехполочной колонны синтеза аммиака в Aspen Plus

Расчет модели проводился в несколько этапов:

1. Расчет замкнутой системы с заданием начальных приближений и принудительным заданием мест разрывов потоков.
2. Структурный анализ изучаемых ХТС (определение оптимального набора потоков разрыва, декомпозиция).
3. Преобразование системы в разомкнутую форму (исключение рециклов для материальных и тепловых потоков) и расчет системы с разомкнутым контуром.



4. Синхронизация всех результатов расчета системы в качестве начальных приближений с разомкнутым контуром для расчета ХТС с замкнутым контуром.
  5. Трансформация системы с замкнутым контуром.
  6. Расчет заданием начальных приближений и ХТС с замкнутым контуром.
- Результаты моделирования приведены на рис. 2-4.




Рисунок 2. – Задание входных и выходных потоков в реакторе CRV-100

Worksheet		Name	110	ufgug	111
Conditions	Vapour		1,0000	0,0000	1,0000
	Temperature [C]		300,0	507,8	507,8
	Pressure [kPa]		1,890e+004	1,890e+004	1,890e+004
	Molar Flow [kgmole/h]		9395	0,0000	7999
	Mass Flow [kg/h]		8,295e+004	0,0000	8,295e+004
	Std Ideal Liq Vol Flow [m3/h]		284,8	0,0000	238,8
	Molar Enthalpy [kJ/kgmole]		8112	7356	7398
	Molar Entropy [kJ/kgmole-C]		109,5	131,1	131,0
	Heat Flow [kJ/h]		7,621e+007	0,0000	5,918e+007

Рисунок 3. - Свойства входного и выходного потоков реактора CRV-100

Name	101	102	103	104	105	106	107	108	109
Comp Mole Frac (Hydrogen)	0,7425	0,7425	0,7425	0,7425	0,7425	0,7425	0,7425	0,7425	0,7425
Comp Mole Frac (Nitrogen)	0,2475	0,2475	0,2475	0,2475	0,2475	0,2475	0,2475	0,2475	0,2475
Comp Mole Frac (Argon)	0,0100	0,0100	0,0100	0,0100	0,0100	0,0100	0,0100	0,0100	0,0100
Comp Mole Frac (Ammonia)	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000
Comp Mole Frac (H2O)	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000
Name	110	201	202	203	204	205	206	111	109
Comp Mole Frac (Hydrogen)	0,7425	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,6104	0,6195
Comp Mole Frac (Nitrogen)	0,2475	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,2035	0,2033
Comp Mole Frac (Argon)	0,0100	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0117	0,0115
Comp Mole Frac (Ammonia)	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,1744	0,1754
Comp Mole Frac (H2O)	0,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	0,0000	0,0000
Name	112	113	watg	114	207	208	115	116	117
Comp Mole Frac (Hydrogen)	0,6104	0,4867	0,4867	0,4867	0,0000	0,0000	0,4867	0,6508	0,0173
Comp Mole Frac (Nitrogen)	0,2035	0,1622	0,1619	0,1622	0,0000	0,0000	0,1622	0,2239	0,0041
Comp Mole Frac (Argon)	0,0117	0,0134	0,0134	0,0134	0,0000	0,0000	0,0134	0,0169	0,0040
Comp Mole Frac (Ammonia)	0,1744	0,3977	0,3935	0,3977	0,0000	0,0000	0,3977	0,1015	0,9246
Comp Mole Frac (H2O)	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	1,0000	1,0000	0,0000	0,0000	0,0000
Name	211	212	213	211	214	215	101		
Comp Mole Frac (Hydrogen)	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000			
Comp Mole Frac (Nitrogen)	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000			
Comp Mole Frac (Argon)	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000			
Comp Mole Frac (Ammonia)	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000			
Comp Mole Frac (H2O)	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000			

Рисунок 4. – составы выходных потоков

Проверка модели на адекватность дала положительные результаты, следовательно, модель может быть использована в качестве прогностической при управлении технологическим процессом.

## РАЗРАБОТКА ПРОЦЕДУРЫ РАСЧЕТА КИНЕТИКИ РЕАКЦИИ СИНТЕЗА АММИАКА НА ПРОМОТИРОВАННЫХ ЖЕЛЕЗНЫХ КАТАЛИЗАТОРАХ

Мусаева Д.Ж. (магистр ТашГУ)  
 Мухитдинов Д.П. науч.рук (ТашГУ)

Встроенные средства программного пакета Aspen Plus не позволяют возможности расчета кинетики реакции гетерогенного синтеза аммиака на железном катализаторе. Поэтому была разработана специальная процедура расчета скорости реакции по уравнению Нильсена в виде динамически загружаемой библиотеки.

Hozirgi kunda ta`lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o`quv jarayonida qo'llashga qiziqish ortib bormoqda. Bunda, asosan hozirgacha o`quvchilar tayyor bilimlarni egallashga o`rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarni O`zlari qidirib topishlariga, mustaqil o`rganib, tahlil qilishlariga va imkoni boricha xulosalarni ham o`zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O`qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda bosqaruvchilik, yo`naltiruvchilik funksiyasini

bajaradi, Bunday ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Imovatsiya - inglizcha so'z bo'lib, yangilik kiritish, yangilik ma'nolarini bildiradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'quvchi va pedagog faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar — bu jamoa bo'lib fikrlashga asoslanadi va pedagogik ta'sir etish usuli bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchining birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. Chizmachilik o'qituvchisidan ham zamonaviy texnologiyalarni bilish va ulardan o'zining kasbiy faoliyatida o'rinli foydalana olish malakalariga ega bolishlik talab qilinadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar maxsus fan sifatida o'qitilishi uchun biz bu haqda batafsil to'xtalmaymiz.

Umumta'lim maktablaridagi chizmachilik darslari o'zining xususiyatlariga ko'ra boshqa fanlardan birmuncha farqlanadi. O'rganilgan ma'lumotlarning asosiy qismlari bo'yicha o'quvchilar individual grafik ishlarni bajaradilar va ularni tekshirish jarayonida o'qituvchi har bir o'quvchi bilan individual ishlashga to'g'ri keladi. Amalda o'quvchi chizmachilik fanini o'qituvchi rahbarligi va nazorati ostida maxsus jihozlangan chizmachilik kabinetida o'rganadi. Darsda o'qituvchining nazariy ma'lumotlarni tushuntirganidan keyin shu mavzu bo'yicha o'quvchilar ish daftarlarida grafik ish bajaradilar. O'qituvchi har o'quvchining qobiliyat va imkoniyatlarini yaxshi biladi va uni o'quv jarayonida hisobga olishi yaxshi samara beradi. Lekin o'quvchilar bilan individual shug'ullanish vaqti chegaralangan. O'qituvchi har bir o'quvchining ishini kuzatish va ularga chizma bajarishning ratsional yo'llarini korsatish, mavzuning qiyin joylarini tushuntirish hamda bajarilgan ishlarni tekshirish imkoniyatiga ega. Shuning uchun o'qituvchining darsni tashkil qilishiga ko'p narsa bog'liq. Chizmachilik darslari maxsus jihozlangan chizmachilik kabinetlarida o'tiladi.

Geometrik tushunchalarni sifat xarakteristikalarini bo'yicha taxminan quyidagicha guruhlash mumkin:

- asosiy geometrik figuralar, jismlar va ularning elementlari haqidagi tushunchalar: Parallelogramm, silindr, qirra, asos, uch va hokazolar. Ularni o'quvchilar chuqur tushuntirishlarsiz, tasvirlari bo'yicha ham oson o'zlashtirib va esda saqlab qoladilar.

- chizma bajansh vositalariga taalluqli bo'lgan grafik tushunchalar: o'q chiziq, shtrix chiziq, diametr va radiusning shartli belgilanishi va hokazolar.

- metrik tushunchalar: masshtab, uzunlik, balandlik, gradus, kesma va yoyni qismlarga bo'lish va hokazolar.

- o'zaro fazoviy joylashish haqidagi tushunchalar: parallellik, perpendikulyarlik, kesmalarning kesishishi va ayqash vaziyati va hokazolar.

- harakatlanish tushunchalari: jipslashtirish, yoyish, kesishish va hokazolar.

- yasash tushunchalari: perpendikulyar tushurish va chiqarish, burchak yasash, o'lcham qo'yish, shtrixlash va hokazolar.

Yuqorida chizmachilikda qo'llaniladigan geometrik tushunchalar haqida to'xtalib o'tildi. Proeksion tushunchalarni ham shu shaklda guruhlarga ajratib, tahlil qilib chiqish mumkin. Chizmachilik tushunchalarining ushbu ko'rinishdagi tahlil qilinishi o'quvchilarning ularni dars jarayonida ongli ravishda o'zlashtirishlariga ko'maklashadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. E.I.Ro'ziboyev, A.O.Ashirboyev: "Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi"

•

УДК: 53.083.94

СОЧИЛУВЧАН МАТЕРИАЛЛАР УЧУН ИССИҚЛИК НАМЛИК  
ЎЗГАРТГИЧЛАРИНИ ПАРАМЕТРИК ЛОЙИХАЛАШ

Абдурахманов Алижон Абдухатович – ТошДТУ, иқтидорли талабаларнинг илмий тадқиқот фаолиятини ташкил этиш бўлим бошлиғи.

Сочилувчан материаллар учун иссиқлик намлик ўзгартгичларини (СМИНЎ) ларни параметрик лойиҳалашнинг асосий вазифаси барча асосий элементларнинг мақбул параметрларини олиш ва уларнинг мақбуллаштириш мезони бўйича энг яхши ва белгиланган талабларга жавоб берадиган характеристикаларини олишдир.

СМИНЎ нинг мақбул лойиҳалашдаги муҳим омиллардан бири бу I мақбуллик мезонини танлашдир. Одатда, СМИНЎ ни лойиҳалаш учун дастлабки маълумотлар қуйидагилар: айланишлар оралиғи  $[W_{min}, W_{max}]$ , қиздириш ва термосезгир элементларнинг параметрлари, шунингдек кўприкли ўлчаш схемаси ва сочилувчан материалларнинг оқим тезлигини барқарорлаштириш учун мосламанинг параметрлари.

СМИНЎ нинг мақбул параметрик лойиҳалаш натижасида, диссертациянинг II ва III бобларида келтирилган назарий тадқиқотлар асосида энг мақбул параметрлар топилади:  $U_{mo}$ ,  $K_o$ ,  $P_{кзо}$ ,  $D_{иузо}$ ,  $I_{кзо}$ ,  $V_{смо}$  ва улар умумий ҳолда СМИНЎ нинг асосий параметрларини ташкил этади:

$$\bar{a} = \{a_1, a_2, a_3, a_4, a_5, a_6\} \quad (1)$$

Мақбуллаштириш натижасида мақбуллик мезонининг энг мақбул қиймати  $I(\bar{a})$  га эришиладиган бундай СМИНЎ нинг параметрларини топиш керак, яъни:

$$I(\bar{a}) = \text{opt } I(\bar{a}), \bar{a} \in \mathcal{D}\bar{a}, \quad (2)$$

бу ерда:  $\text{opt } I(\bar{a}) - I(\bar{a})$  нинг мақбул қиймати;

$\mathcal{D}\bar{a}$  – мумкин бўлган ечимлар соҳаси.

Агар  $\Pi$  - қидирилиш минтақаси бўлса, унда

$$\Pi \{ \bar{a}: b_i \leq a_i \leq c_i, i = \overline{1, n} \} \quad (3)$$

бу ерда:  $b$  ва  $c - a_i$  нинг минимал ва максимал қийматлари.

Лойиҳалаш давомида СМИНЎ нинг ўз функцияларини бажаришини ва фақат  $W_{кир}$  кириш қиймати чегаралангандан ташқарига чиқмасагина ишлашини ҳисобга олиш керак бўлади.

$$W_{кир} \in (W_{min}, W_{max}), \quad (4)$$

бу ерда:  $W_{min}, W_{max} - W_{кир}$  нинг минаимал ва максимал қийматлари.

Мақбул СМИНЎ параметрларини қидириш учун II ва III бобларда олинган СМИНЎ нинг математик моделларидан фойдаланилади. Математик моделларнинг маълумотлари шуни кўрсатадики, биринчидан, улар информатив – ахборот берувчидир, иккинчидан, улар алмаштиришларнинг реал лойиҳасига ўхшаш (2-бўлимда келтирилган маълумотлар математик моделларининг мослигини тасдиқлайди), учинчидан, математик моделларнинг миқдори ва параметрларини аниқ акс эттиради ва бунда, ўзгарувчан параметрларнинг кириш таъсирлари билан ўзаро алоқаси мавжуд, тўртинчидан, математик моделларнинг маълумотларнинг жуда оддий ва шахсий компьютерда осонликча амалга оширилади. Юқорида айтилганларнинг барчаси математик моделларда қўйиладиган СМИНЎ нинг мақбул лойиҳаси учун ишлатиладиган математик моделларга қўйиладиган талабларга жавоб беришини кўрсатади.

СМИНЎ учун жуда кўп лойиҳа вазифалари статик характеристикаларнинг чизиқли ва сезгирлигининг ошиши, шунингдек аниқлик ва тезликни ошиши билан боғлиқ.

*Статик характеристиканинг чизиқли ва сезгирлигини ошириш мезони бўйича СМИНЎ лойиҳаси вазифаларини расмийлаштириш.*

СМИНЎ ни статик характеристикасининг чизиқли ва сезгирлик мезонлар бўйича лойиҳалаш вазифаси қуйидагича шакллантирилган. СМИНЎ тузилиши танланади ва шунинг учун СМИНЎ нинг статик характеристикаси аниқланди, масалан, доимий ишлайдиган  $P_{кэ} = const$  иш режими учун:

$$U_{чик} = U_m \frac{K\Delta R_{T1}}{(K+1)^2 R_{T1}} \quad (5)$$

Умумий ҳолда, СМИНЎ нинг статик характеристикасини қуйидагича кўрсатиш мумкин

$$\begin{aligned} U_{чик} &= f[W_{кир}, \bar{a}(\bar{y})], \\ W_{кир} &\in [W_{кирмин}, W_{кирмакс}], \\ \bar{a}(\bar{y}) &\in \mathcal{D}\bar{a}, \end{aligned}$$

бунда:  $\bar{a} = \{a_1, a_2, a_3, \dots, a_n\}$  – ўзгарувчан параметрларнинг вектори;  $\bar{y} = \{y_1, y_2, y_3, \dots, y_m\}$  – таъсир этувчи параметрлар вектори;  $n$  – ўзгарувчан параметрлар сони;  $m$  – таъсир этувчи параметрлар сони.

Мақбул лойиҳалаш натижасида параметрларнинг мақбул векторини топиш талаб этилади

$$\bar{a}(\bar{y}) \in \mathcal{D}\bar{a}, \quad (6)$$

Шундай қилиб  $I[\bar{a}(\bar{y})] = opt I[\bar{a}(\bar{y}), W_{кир}]$  (4.7)

$$\mathcal{D}\bar{a} = \{\bar{a}: b_i \leq a_i \leq c_i, a_i \geq 0; i = \overline{1, n}\} \quad (8)$$

СМИНЎ нинг статик характеристикасининг чизиқлигини ошириш вазифаси, СМИНЎ () нинг ҳақиқий чизиқли статик характеристикасини яқинлаштириш йўли билан ҳал қилинади.

Чизиқли боғлиқлик

$$U_{вых} = AW_{вх} + B \quad (9)$$

Функция яқинлиги учун квадратик интеграл мезондан фойдаланиб,

$$\text{Мин } I = \int_{W_{вхmin}}^{W_{вхmax}} \{U_{вых}(W_{вх}) - A^*W_{вх} - B\} \partial W_{вх} \quad (10)$$

Ёки

$$\text{Мин } I = \int_{W_{вхmin}}^{W_{вхmax}} \{f[W_{вх}, \bar{a}(\bar{y})] - A^*W_{вх} - B\} \partial W_{вх} \quad (11)$$

Масалани ечиб,  $A = A[W_{кир}, \bar{a}(\bar{y})]$ ,  $B = B[W_{кир}, \bar{a}(\bar{y})]$ ,  $\bar{a} \in \mathcal{D}\bar{a}$ , ва  $\{\bar{a}\}$  параметрнинг қийматлари топилади ва ушбу коэффициентлар амалга оширилади. Юқори сезгирликни таъминлаш вазифаси статик характеристиканинг чизиқлигини таъминлаш вазифасидан кейин осонлик билан ҳал қилинади, чунки бу вазифалар бир бири билан чамбарчас боғлиқ.

СМИНЎ сезгирлигини ошириш муаммосини ҳал қилиш учун  $\bar{a}(\bar{y}) = a(\bar{y})$  векторининг оптимал қийматларини аниқлаш керак.

$$\text{Макс } A[W_{кир}, \bar{a}(\bar{y})], \bar{a} \in \mathcal{D}\bar{a}, W_{кир} \in [W_{кирмин}, W_{кирмакс}]. \quad (12)$$

Гаусс-Зайдел усули ёрдамида оптималлаштириш натижасида СМИНЎ учун СМИНЎ параметрлари олинади.

$$a_1 = U_{мо} = 6 \text{ В}; a_2 = K_0 = 1; a_3 = P_{нэ0} = 25 \text{ Вт.}$$

$$a_4 = l_{нэ0} = 50 \cdot 10^{-3} \text{ м}; a_5 = \mathcal{D}_0 = 50 \cdot 10^{-3} \text{ м}; a_6 = V_0 = 0,01 \text{ М/с.}$$

*СМИНЎ параметрик лойиҳалаш топширигини аниқлик ва тезлик мезонлари бўйича расмийлаштириш.*

III бобда кўрсатилганидек, СМИНЎ нинг аниқлиги,  $\Delta_3$  энтропия хатолиги асосида ва СМИНЎ аниқлик мезони бўйича мақбул параметрик лойиҳалаш масаласи,  $\Delta_3$  хатолик, хусусан,  $\delta_{кэ}, \delta_{мо}, \delta_{тсэ}, \delta_{ус}$  ларга боғлиқ  $\delta_{\Sigma}$  катталикининг компонентларини чизиклилаштириш (линеаризация) йўли билан ечилиши мумкин.

$$\bar{a} = \{a_1, a_2, a_3, \dots, a_n\} \text{ параметрлари шунда пайдо бўлади} \\ [W_{кир}, \bar{a}(\bar{y})] = \min \Delta_3 [W_{кир}, \bar{a}(\bar{y})] \quad (13)$$

$$W_{кир} \in [W_{кирмин}, W_{кирмакс}], \bar{a} \in \mathcal{D}\bar{a} \text{ бўлганда.} \quad (14)$$

III бобда кўрсатилганидек, СМИНЎ тезкорлиги, СМИНЎ нинг характеристикалари билан белгиланиши ва тезлик ва инертлигининг асосий кўрсаткичлари - бу индивидуал элементларининг терфизик хусусиятларига асосланиб  $T_{СМИНЎ}$  нинг вақт доимийсини (III боб) ҳисобланишимиз мумкин.

Тезкорлик мезони бўйича лойиҳалашни ,, ,, ,, ,,  $T_{СМИНЎ}$  ни топиш муаммосига келтириш мумкин.

$$I[W_{кир}, \bar{a}(\bar{y})] = \min T_{СМИНЎ} [W_{кир}, \bar{a}(\bar{y})], W_{кир} \in (W_{кирмин}, W_{кирмакс}), \bar{a} \in \mathcal{D}\bar{a}. \quad (15)$$

СМИНЎ нинг оптимал (мақбул) параметрларини ҳисоблаш ва танлаш 1-расмда келтирилган ишлаб чиқилган алгоритмга мувофиқ амалга оширилади.

1- модулда бошқариш ва бошқариш тизимларининг талабларидан келиб чиққан ҳолда кириш маълумотлари қатори (массиви) тайёрланади.

2-модулда  $T(x)$  иссиқлик ўтказгич бўйлаб ҳарорат тақсимоти ҳисобланади ва 3 ва 4 модуллари ёрдамида керакли тақсимотга эришилади.

5-модулда яримўтказгичли қаршилиқ термометрининг параметрлари ва ўлчаш схемаси параметрлари ҳисобланади. Бунинг натижаси мақбуллаштириш мезонини, чеклашларни ва энг мақбул излаш усулини танлашни шакллантириш учун ишлатилади.

Модул 6 мақбуллаштириш мезонларини танлайди.

7 - модулда бошланғич яқинлашувлар  $\bar{a}'' = \{a_1'', a_2'', a_3'', \dots, a_n''\}$  нинг ўзгарувчан параметрлари билан танланади.

8 - модулда  $\Pi$  қидирув майдони аниқланади.

9 – модулда,  $\bar{a}''$  бошланғич яқинлашувлари  $\mathcal{D}\bar{a}$  қабул қилинадиган қийматлар доирасига тегишлилиги текширилади.

10 – модулда параметрик оптималлаштириш усули танланади.

11- модулда бошланғич муаммонинг кўп экстремаллиги текширилади.


11- модулда  $\bar{a}$  мақбул ечимининг  $\Pi$  қидирув майдонига тегишли эканлиги текширилади.

12 – модулда ҳақиқий маълумотлар ва параметрлар (жадвал ва графиклар кўринишида) чиқарилади.

Ҳисоблаш ва лойиҳалаш натижасида СМИНЎ нинг параметрлари олинади.

$$a_1 = U_m = 6 \text{ В}; a_2 = K = 1; a_3 = P_{кэ} = 25.5 \text{ Вт.} \quad (16)$$

$$a_4 = l_{кэ} = 50 \cdot 10^{-3} \text{ м}; a_5 = \mathcal{D} = 50 \cdot 10^{-3} \text{ м}; a_6 = V = 0,1 \text{ М/с.} \quad (3.17)$$



1-расм. СМИÑнинг алгоритми ва мақбуллаштириш блок-схемаси.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Dominique Derome, Ph.D. Methods for the Assessment of Moisture Content of Envelope Assemblies // Buildings VIII/Wall Performance—Practices. 13 p. [Электронный ресурс] URL: [https://web.ornl.gov/sci/buildings/conf-archive/2001%20B8%20papers/041\\_Derome.pdf](https://web.ornl.gov/sci/buildings/conf-archive/2001%20B8%20papers/041_Derome.pdf)
2. Silveira, A.; Cardoso, J.; Correia, M.J.; Martinho, G. Moisture Measurement in Paper and Cardboard Packaging Waste Bales for Recycling. Appl. Sci. 2021, 11, 4586. [Электронный ресурс] URL: <https://doi.org/10.3390/app11104586>
3. Soil moisture sensors-How they work. Why some are not research-grade. [Электронный ресурс] URL: <https://www.metergroup.com/environment/articles/tdr-fdr-capacitance-compared/>
4. Scott E. Maxwell, Harold D. Delane, Ken Kelley. Designing Experiments and Analyzing Data: A Model Comparison Perspective, Second Edition (Avec CD) 2nd Edition. Kluwer Academic Publishers, Boston. 2010.

### ABDULLA QAHHORNING OBRAZ YARATISH MAHORATI

Djumaniyazov Rasul Otemuratovich  
Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumani  
33-sonli umumta'lim maktabi o'qituvchisi  
Telefon: +998913995245 rasul [djumaniyazov@email.uz](mailto:djumaniyazov@email.uz)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning serqirra ijodiga xos ko'pgina fazilatlarni ochib berishga, obraz yaratishdagi mahoratini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilib, asarlaridagi misollar asosida asoslab berish haqida fikr yuritilgan.

Abdulla Qahhor XX asr o'zbek adabiyoti xazinasiga o'zining realistik hikoya, qissa, roman, dramatik asarlari va badiiy tarjimalari bilan munosib hissa qo'shgan siymolardan biridir. Adibning mustaqillik g'oyalariga hamohang bo'lgan asarlari bugungi kunda ham zamondoshlarimiz tomonidan sevib mutolaa qilinmoqda.

A.Qahhorning serqirra ijodi adabiyotshunoslikda atroflicha tadqiq qilindi va qilinmoqda. Xususan, Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo'shjonov, Baxtiyor Nazarov, Umarali Normatov, Ibrohim Haqqul singari adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlarida Abdulla Qahhor ijodiga xos ko'pgina fazilatlar ochib berilgan. Ayniqsa, istiqlol yaratib bergan erkin va xolis mezonlar asosida adabiyotni o'rganish va tadqiq qilish davrida adib ijodining hali ochilmagan yangi qirralarini kashf etishda munosib ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu ma'noda, A.Qahhorning obraz yaratishdagi mahoratini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilib, asarlaridagi misollar asosida asoslab berish o'rinlidir.

Misol tariqasida olsak, «Sarob» romanida o'tgan asrning boshlarida ijtimoiy omillar ta'sirida yuz bergan voqealar favqulodda bir mahorat bilan tasvirlangan. Bu asar tarixiy mavzuda yozilgan, lekin qahramonlari tarixiy shaxslar bo'lmasa ham tarixiy haqiqatga mos, yozuvchi fantaziyasi bilan yaratilgan obrazlar bo'lib, tarixiy voqealarga nisbatan ko'proq umumlashtirilgan shaxslardir. «Sarob» notinch yillar ruhiga mos va hamohang bo'lib, davr voqeligi tasviriga bag'ishlangan birinchi romandir. Unda jamiyatda bo'lib o'tgan mafkuraviy kurash tasvirlangan.

Asarda Vatan mustaqilligi uchun kurashgan faol kishilar hayoti aks ettirilgan. Asarda bosh syujet liniyasi asosan yosh yozuvchi Rahimjon Saidiyning obrazi orqali shakllanadi. Romanda batafsil tasvirlanishi jihatidan unga teng keladigan biron obraz yo'q. Saidiy bilan qariyb barobar asarga kiritilgan Munisxon ham asarning ko'pgina qismlarida ishtirok etmaydi. Yechimga yetmasdan asardan chiqib ketadi. Asardagi muhim o'rin tutadigan boshqa obrazlar



oʻrni-oʻrni bilan paydo boʻladi va kerak boʻlmagan vaqtda asardan chiqariladi. Bu Abdulla Qahhorning obrazlardan oʻz nuqtalarida samarali foydalanish mahoratini koʻrsatadi.

Asarni bir eslab koʻraylik. «Sarob»da Abdulla Qahhor Saidiy taqdirini batafsil tasvirlaydi, Murodxoʻja domla, shahar maorif boʻlimining mudiri Salimxon, adabiyotshunos Abbosxon, tergovchi Mirza Muhiddin, Munisxon, Soraxon, jurnalist Yoqubjon, savdogar Muxtorxon kabi bir qator obrazlarning har birining oʻziga xos xarakteri, ichki dunyosi, ruhiyati, maqsadu niyatlarini yorqin aks ettiradi. Ayniqsa, Murodxoʻja domla xarakteri jonli va toʻlaqonli qilib gavdalanadi.

«Sarob» romanida ortiqcha voqea va keraksiz obrazning oʻzi yoʻq. Shu bilan birga, asar drammatizmi kuchaytirilib, konflikt keskinlashtiriladi. Bundan tashqari, asarning baʼzi sahifalarida muallif nutqi ham, personajlar tili ham qaytadan ishlanib, yanada oʻtkirlashdi.

Abdulla Qahhor ajoyib hikoya, qissa va romanlar yaratish bilan birga, adabiyotning eng qiyin janri boʻlgan dramaturgiya sohasida ham isteʼdodini namoyish etdi. Adibning dramaturgiyada koʻtargan mavzulari hanuzgacha dolzarb boʻlib turibdi. Uning «Yangi yer», «Ogʻriq tishlar», «Tobutdan tovush» kabi komediyalari oʻzbek dramaturgiyasi taraqqiyotida yangi bosqich boʻldi.

Mana shu asarlarida ham A. Qahhor haqiqiy obraz yaratish, taʼsirchanligini yuqori nuqtalarga yetkazishni asosiy ishlardan biri deb bilgan.

Masalan, «Yangi yer» asarida adib zamondoshlari obrazi, yorqin xarakterlar yaratishda katta yutuqlarni qoʻlga kiritgan. Komediya Dehqonboy, Hafiza va Qoʻziyev kabi sofdil, vijdonli yoshlarning umumlashma obrazlari, Mavlon aka singari mehnatsevar, sodda, halol, biroq manmanlikka berilgan oʻjar kishi obrazi, shuningdek, Hamrobuvi va Xolnisoga oʻxshagan samimiy va mehribon ona obrazlari ishtirok etadi. Dramaturg bu obrazlarni yaratishda milliy xususiyatlardan, milliy xarakter belgilaridan sinchkovlik bilan foydalangan. Asarda bu obrazlarga kam oʻrin ajratilgan boʻlishiga qaramay, dramaturg ularni jonli va haqqoniy aks ettirishga muvaffaq boʻlgan.

Pyesada koʻmik holatlar tasviri ancha, yumor kuchli. Asar tili shirali va obrazli. Har xil ibora va ifodalar vositasida soʻz oʻyinlari, koʻchma maʼnolar ustalik bilan ifodalanadi. Asar qahramonlaridan biri boʻlgan Odilovning teran fikri esa xalqona sodda va obrazli qilib bayon etiladi.

«Ogʻriq tishlar» komediyasiga chuqurroq nazar tashlasak, asarda zamonaviy mavzu aks ettirilganligi, ammo asarda hayotdagi jamiyat taraqqiyotini idrok etadigan kishilar emas, balki kelajak yoʻliga toʻsiq boʻlayotgan shaxslar tasvirlanayotganligining guvohi boʻlasiz. Bu, albatta, asar janr xususiyati bilan bogʻliq. Komediya zaharxanda kulgi – satira ustun turadi. Avvalo, dramaturgning ustaligi shundaki, u asarning markaziy obrazlarining biri hisoblangan Zargarov singari nopok illatlarni aks ettiruvchi kimsalarni fosh etish asosida halollikni, tenglikni, insoniylikni, adolatni targʻib etadi. Zargarovning sharmandayu sharmisor boʻlishini koʻrsatishda satiradan ustalik bilan foydalanadi. Natijada, Zargarov obrazini jonli va juda ishonarli koʻrsatishga erishadi.

Xulosa qilib aytganda, oʻtgan asrning murakkab muhitida yashab, ijod qilgan, Istiqlolimizni astoydil qoʻmsagan, adolat mavzusini oʻziga bayroq deb bilgan betimsol soʻz sanʼatkori Abdulla Qahhor oʻzbek adabiyotini betakror badiiy obrazlar hisobiga boyitdi va bu boradagi yutuqlari adibning yetuklikka koʻtarila olganligidan dalolat beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdulla Qahhor . Asarlar (5tomlik). Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot, 1987-1989.
2. Abdulla Qahhor “Zilzila”,-“Sharq yulduzi”, 1996, 11-12-son.
3. Qoʻshjonov M. Abdulla Qahhor mahorati. Toshkent, Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1984.

**UOK 514.18(075)****PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VA ELEKTRON DARSLIKlardan FOYDALANISH  
AFZALLIKLARI VA MUAMMOLARINING YECHIMI**

TDTU Mexanika fakulteti Talabasi **D.Z.Gulomova**  
Ilmiy rahbar katta o'qituvchi **R.X.Toshpo'latov**

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiyoti natijasida talabalarga ta'lim berish jarayonida elektron darsliklardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldik. Elektron taqdimotlardan darsda namoyish va ko'rgazmali material sifatida foydalanish pedagoglarga katta yordam bermoqda. O'quv materialining elektron taqdimotida animatsiyalar shaklida berilishi, o'tilayotgan mavzuning yanada tushunarli bo'lishiga va uning ko'rgazmaliligining oshishiga olib keladi. Namoyish slaydlarini talabalarga tarqatma material sifatida berish ham mumkin. Bunda talabalar slaydlarga o'z fikrlarini yozib, bu orqali axborotlar bilan ishlashning quyidagi malakalriga ham ega bo'ladilar:

- Grafik axborotlarni matn holatiga keltirish yoki teskarisi;
- Muhokama etilayotgan mavzu bo'yicha xulosalar va savollarni shakllantirish;
- O'zining o'quv – bilish faoliyatini rejalashtirish.

Bunday usul o'qituvchilarga yangi axborotlarni ko'paytirib borish, talabalarning tayyorgarlik darajasi o'zgarishi bilan ma'lum bir mavzuga mo'ljallangan slaydlarni takomillashtirib borish imkoniyatini ham beradi. Metodik jihatdan o'qituvchi va talabalarning o'zaro muloqoti ikki turdagi ta'sirdan iborat:

1. O'qitishning ma'lum bosqichida talabaga shu bosqichdagi masalani tushunishga yordam beruvchi yo'naltiruvchi savollar/
2. Masalani aniqlashtiruvchi fikrlar va harakatlar usulini ko'rsatish.

Savol va ko'rsatmalar soni nazariy va amaliy materiallarning talaba tomonidan o'zlashtirilishi hamda malakalari shakllanishiga bog'liq ravishda beriladi.

Amaliy taxlillar ta'lim jarayonida katta samaraga ega bo'lishi uchun o'quv jarayonida interfaol didaktik o'yinlar va mashq qildirishlarni taqqazo etadi. Ular talabalarning jamoa bo'lib yoki individual faoliyatini, kasbiy malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Inter faol o'yinlar ma'lum bir kasbiy sifatlariga va malakalarga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirish maqsadida unda kasbiy faoliyati bilan bog'liq vaziyatlarni modellashtirish imkoniyatini ham beradi. Aynan didaktik o'yinlar va mashq qildirishlarni yaratish o'quv-metodik majmualar yaratishda katta qiyinchiliklar tug'diradi. Bu dasturiy – texnik va uslubiy qiyinchiliklar bilan bog'liq.

Elektron darslik – kompyuter texnologiyalariga asoslangan ta'lim metodlaridan foydalanishga mo'ljallangan o'qitish vositasi bo'lib, undan mustqil ta'lim olishda va o'quv materiallarni har tomonlama samarali o'zlashtirishda foydalanishdan iborat. Elektron darslikda fanning o'quv metodlari o'quv materiallari talabaga interfaol usullar bilan psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiya imkoniyatlaridan o'rinni foydalanishga katta qulaylik yaratadi.

Elektron darsliklarni loyihalashtirish, undan ishlab chiqish va o'quv jarayonida keng foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda, chunki ulardan ommaviy ravishda ta'lim sohasida foydalanila boshlandi. Oxirgi vaqtlarda elektron o'quv nashrlarining turli xillari yaratilib, ular o'z tarkibiga oddiy gipermatn darslikdan tortib masofaviy o'qitishning kompleks tizimlarigacha qamrab olmoqda. Elektron darsliklarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- Matnning elektron versiyasi;
- Kitobning gipermatnli elektron versiyasi;

- Grafik, jadval, rasmlar va gipermatnlar borvdarslik;
- Animatsiya, ovoz`grafik, jadval, rasmlar va gipermatnlar mavjud darslik;
- Animatsiya, ovoz, grafik, jadval, rasm, gipermatnli va test tizimlari mavjud darsliklar.

Ushbu sohaning yangili va o`quv – uslubiy ta`limotning yetarli emasligi, ishlab chiqarilayotgan elektron darsliklarning sifat darajasiga jiddiy ta`sir ko`rsatmoqda. Bundan tashqari, darsliklarni yaratishning yagona standartlari mavjud emasligi va dasturiy vositalarning turli ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilishi elektron darsliklarni o`quv jarayonida samarali qo`llashga to`sqinlik qilyapti deyish mumkin.

Shuning uchun ham yaratilayotgan elektron darsliklarni baholash mezonlarini belgilab olish lozim. Avvalambor, elektron darsliklar o`tilayotgan darslar sifati va samaradorligiga qanday ta`sir ko`rsatishini bilishimiz lozim. Elektron darsliklarning an`anaviy usullarga nisbatan quyidagi afzalliklarini keltirish mumkin:

- O`quv axborotlarining taqdim etilish shakli;
- Kerakli axborotlarni qidirish imkoniyati;
- Olingan bilimlar darajasini nazorat qilish usullari mavjudligi;
- O`quvchi nilan teskari aloqa mavjudligi/

Shulardan kelib chiqib, elektron darsliklarni yaratishning quyidagi tamoyillarini keltirishimiz mumkin:

- Multimedia ma`lumotlari (matn, grafik, audio, video, animatsiya) asosida axborotlarni taqdim etish;
- Qidirish va yo`llash imkoniyatlarini kiritish;
- Olingan bilimlar darajasini nazorat qilishning obyektiv tizimini kiritish;
- Tarmoq texnologiyalari asosida o`qituvchi va talabaning o`zaro interaktiv va teskari aloqasining yo`lga qoyilishi.

Elektron darsliklardan o`quv jarayonida keng foydalanishning asosiy muammosi kompyuter ekranidan kata hajmdagi axborotlarni o`qishdir. Ushbu muammoni hal qilish uchun elektron darsliklarini matn va ovoz shaklida taqdim etish mumkin. Bu ikki usul bitta o`quv materialini turli shaklda taqdim etishi bilan farqlanadi xolos.

Elektron darslikning matn usulida material gipermatn ko`rinishida taqdim etilib, unda grafik, chizma, diagramma, fotografiya, animatsiya, va video qo`llaniladi. Audio va videoaxborotlarning o`zaro birgalikda qo`llanilishi o`qitish samaradorligining keskin oshirishga olib keladi. Shu bilan birga kelajakda elektron darslikni yaratish jarayonida ayrim muammolarni yechish lozimligini taqazo etmoqda.

#### Adabiyotlar

- 1.Usmanbayeva M.X Sayfurov D.M To`rayev A.B ``Innovatsion ta`lim texnologiyalari``.
- 2.Yo`ldoshev Sh.F Usmonov S ``Ilg`or pedagogik texnologiyalar`` T: O`qituvchi 2014.
- 3.Ochilov M ``Yangi pedagogik texnologiyalar`` T: O`qituvchi 2019.

### КОМПЬЮТЕР ГРАФИКАСИНИНГ ТУРЛАРИ, УНИНГ ТУРКУМЛАРИ ВА ҲАР ХИЛ КЎРИНИШЛАРИ.

**Асадбек Тилавов Уйгунович** - ТошДТУ 1-боскич талабаси  
Илмий раҳбар: **Рахимов Анвар**

Компьютер графикаси уч турга бўлинади: растли графика, векторли графика ва фрактал графика. Улар бир-биридан монитор экранида тасвирланиши ва қоғозда босиб чиқарилиши билан фарқланади. Растли графика. Растли графикада тасвир нуқталар (қоғозда), пикселлар (нуқталар экранда шундай деб аталади) ёрдамида ҳосил қилинади.

Табийки, нуқталар сони қанча кўп бўлса (улар зич қилиб жойлаштирилса), унга асосланган расм, шакл, график ва ҳоказолар шунча аниқ кўриниб туради. Шу муносабат билан экраннинг рухсат этиш қобилияти тушунчаси киритилган бўлиб, унда горизонтал ва вертикал йўналишлардаги нуқталар сони муҳим аҳамиятга эга ва у экраннинг рухсат этиш имконияти дейилади. Одатда, бундай кўрсаткич 640x480, 800x600, 1024x768 ёки булардан юқори пикселларда берилади. Тасвир ўлчови рухсат этиш қобилияти билан боғлиқдир. Бу параметр dpi (dots per inch-нуқталар сони зичлиги) билан ўлчанади. Экрани диагонали 15 дюймли (1дюйм=2,54 см) мониторда тасвир ўлчови 28x21 см ни ташкил қилади. Буни ҳисобга олсак, 800x600 пикселли монитор экранининг тасвирлаш қобилияти 72 dpi га тенг бўлади. Демак, компьютер хотирасидаги рангли тасвир кўп жой олинишини тушуниш қийин эмас. Мисол учун 10x15 см ли расм тахминан 1000x1500 пикселлардан иборат бўлади. Агар ҳар бир рангли нуқтани тасвирлаш учун 3 байт хотира ишлатилишини ҳисобга олсак, битта ўртача катталиқдаги расмнинг ўзи хотирада тахминан 4 млн. байт жойни эгаллайди. Бундай маълумот, хусусан, Internet саҳифаларини яратишда эътиборга олиниши зарур. Шунинг учун ҳам ҳозирги кунда яхши мультимедиа дастурларини, видеороликни яратиш учун оператив хотираси 128 Мбайтдан кам бўлмаган ва мос равишда, тезлиги катта бўлган компьютерлардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Демак, растли графика билан ишлаш учун юқори унумли компьютер талаб қилинади. Растли графиканинг камчилиги сифатида шунини айтиш мумкинки, тасвирни масштаблаштириш (катталаштириш, кичиклаштириш) жараёни натижасида нуқталар ўлчови катталашини билан тасвир аниқлиги ёмонлашини мумкин ва ҳатто, тасвир таниб бўлмайдиган даражада ўзгариши мумкин.

Фрактал графика математик ҳисоблашлар асосида тасвирларни автоматик яратиш учун қўлланилади. Шунинг учун ҳам унинг асоси сифатида расм, шакл, тасвир ҳосил қилишнинг дастурлаш усули танланган. Бу графика, одатда, турли жараёнларни моделлаштириш, таҳлил қилиш, турли қизиқтирувчи дастурлар яратишда кенг қўлланилади.

Компьютер графикасининг қуйидаги туркумларини ажратиб кўрсатиш мумкин:

- тижоратга оид
- намоёишларга оид
- муҳандисликка оид
- илмий
- кўрғазмавий
- анимацион

Тижоратга оид графика электрон жадвалларда ёки берилганлар базасидаги ахборотларни акс эттириш учун хизмат қилади. Бу ахборотлар ШЭХМ монитор экранида график диаграмма ва хоҳлаган гистограмма бошқа кўринишларда акс эттирилиши мумкин.

Бунда графиклар матн изоҳлари ва маълум жойларда шартли белгили изоҳлар билан таъминланади.

**Намоёиш қилиш графикаси** - матн, схема, эскиз каби ҳужжатларни машинавий тасвирини ҳосил қилиб уни намоёиш этишга тайёрлаш учун хизмат қилади. Бу ерда энг асосий вазифа - юқори сифатли ва чиройли кўринишдаги тасвирлар ҳосил қилишдан иборат. Бу турдаги графикаларнинг энг афзал ўзгартириш мумкин. томони шундаки, ундаги тасвирлар тўплами ва кўринишини тезда

**Инженерлик графикаси** - бундай графика чизмачилик, лойиҳалаш ва конструкторлик ишларини автоматлаштиришда кенг қўлланилади. Инженерлик графикаси

анализ, синтез, моделлаштириш, чизмачилик, бошқариш ва шу каби лойихалашни ишларини автоматлаштиришнинг ҳамма босқичларини ўз ичига олади.

**Илмий графика** - илмий изланишлар учун хизмат қилади ва географик, физик, биологик ва бошқа жараёнларни тадқиқ қилишда қўлланилади. Илмий графиканинг энг асосий мақсади илмий изланишларда ҳосил бўладиган ахборотларни визуаллаштириш - кўзга кўринарли шаклда ифодалашдир. Айниқса бу йўналиш атом энергияси манбаларини тадқиқ қилишда, космонавтика, самолётсозликда, географияда ва океанологияда - ҳулас камрови катта бўлган, тез кечадиган жараёнларни ўрганишда жуда кенг қўлланилади. Шунингдек, илмий изланишлар натижаларини керакли шаклда диаграммалар, хариталар, жадваллар ва турли математик формулалар шаклида тасвирлашда ишлатилиши мумкин.

**Кўргазмавий графика** - намоиш ва тижорат графикаларининг ривожини бўлиб, шу иккала графика имкониятларини йиғиндиси интеграциясини ташкил этади. Бу графика айрим графикаларини слайдлар кетма-кетлигидан иборат слайдфильм қилиб яратиш, сўнгра уни маълум вақт ичида экранда кетма-кет кўргазма шаклида намоиш этади. Ҳар бир слайднинг экрандаги тасвири овоз ва визуал . эффе́ктлар билан қўшиб олиб борилиши мумкин. Ундан ташқари, тайёр графикни таҳрир қилиш имконият ҳам мавжуд.

**Анимацион графика** - ранг билан ишлашдаги муваффақиятларни инженерлик графикасидаги уч ўчовли объектларни моделлаштиришдаги ютуқлар билан (масалан реклама эълонлари ва телекўрсатувдаги бир тасвирни ичига иккинчисини киритиш) қўшиб уйғунлаштирилган.

**Машина графикаси** - бу компьютер ёрдамида объект шакллари, унинг моделини яратиш ва сақлаш учун хизмат қилувчи компьютер графиксининг бир бўлими. Компьютерда турли график тасвирларни ҳосил қилиш мумкин, бироқ улар бир – биридан фаркланади, чунки ҳозирги замон компьютерлари ўтган асрнинг 90-йиллардаги тизимларга нисбатан кенгайтирилаётган. шаклларни аниқ тасвирлаш имкониятига эга бўлган ва махсус дастур билан тизимлар яратилди.

#### Фойдаланилган Адабиётлар

- 1.М. Арипов. Информатика, Университет нашриёти, М. Арипов, А.Ҳайдаров,
- 2.А. Тиллаев. Информатика асослари, академик лицей ва касб – ҳунар коллежлари учун

## ИЗУЧЕНИЕ СОДОВО–СОРБЦИОННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ПЕРЕРАБОТКИ МОЛИБДЕНОВОГО ОГАРКА.

**Хасанов Абдурашид Салиевич** д-р техн. наук, проф., заместитель главного инженера по науке АО «АГМК»

**Шодиев А.Н.**, зав. кафедры горное дело, д-р философии по техническим наукам, и.о. доцент,

**Каюмов О.А.**, ассистент кафедры горное дело  
Каршинский инженерно-экономический институт


Технология содового выщелачивания, в сравнение с аммиачной технологией, позволяет селективно выщелачивать молибден из окисленного сырья. При выщелачивании огарка содовым раствором такие металлы, как медь, железо, кальций, цинк остаются в кеке в виде малорастворимых гидроксидов и карбонатов.

Вместе с молибденом в раствор могут переходить вольфрам, рений, ванадий (если присутствует в сырье), диоксид кремния из алюмосиликатов.

Выщелачивание молибдена протекает по реакции:




с выделением диоксида углерода, при этом происходит «вскипание» пульпы. Одним из промежуточных продуктов этого процесса является образование бикарбоната натрия:



которое увеличивает расход соды на выщелачивание.

Поэтому процесс выщелачивания проводят при повышенной температуре—для разрушения бикарбоната,



помимо всех других причин для проведения процесса при повышенной температуре.

Диоксид кремния переходит в раствор в виде силиката натрия по схеме:




При последующей нейтрализации продуктивного молибденового раствора для подготовки его к сорбции при pH 2-2,5 силикат натрия переходит в гель кремниевой кислоты, а молибден—в полимолибдаты. При этом образуется в растворе нитрат натрия  $\text{NaNO}_3$ :



Появление геля (взвеси) кремниевой кислоты является нежелательным процессом, потому что при последующей сорбции молибдена эти взвеси осаждаются в слое сорбента и препятствуют сорбции молибдена. На сорбцию необходимо направлять раствор, отфильтрованный от взвесей и возможных других осадков.


Оптимальное значение pH сорбции молибдена pH 2-2,5 (1,8-3) выбирается исходя из того, что в этой области pH молибден присутствует в растворах в виде полимерных анионов, что обеспечивает высокую емкость сорбента по молибдену (до 200-250g/l) и получение, соответственно, богатых по молибдену десорбатов.

В процессе сорбции молибден поглощается из раствора в фазу сорбента:




Раствор при этом обогащается нитратом натрия.

Преимущество низко основных анионитов перед высокоосновными сорбентами заключается в возможности использования аммиака для десорбции молибдена и получения после десорбции богатых растворов молибдата аммония:



Растворы десорбатов является весьма чистыми по примесям, поэтому последующая их переработка позволяет получают аммонийные соли молибдена и триоксид молибдена высокой чистоты.

Для выделения молибдена из десорбата в осадок используют осаждение его в виде тетрамолибдата аммония, которое протекает в области pH 2-2,5:



Особенности осаждения приведены далее.

Тетрамолибдат аммония является одним из продуктов, наряду с парамолибдатом аммония, из которых при прокалке получают триоксид молибдена.

Для получения триоксида высокой чистоты проводят перекристаллизацию осадка тетромоллибдата растворяя его в 3-5% раствором аммиака при температуре 70-80 C° до получения насыщенного раствора. После охлаждения до 15-20 C° из раствора кристаллизуется молибден в форме кристаллического ПМА  $(\text{NH}_4)_6\text{Mo}_7\text{O}_{24} \cdot 4\text{H}_2\text{O}$ . Маточный раствор служит для последовательной перекристаллизации примерно 10 партий осадков тетромоллибдата, после чего отправляется на очистку.

Полученный после десорбции сорбент в OH – форме переводится в солевую форму (нитрат) обработкой его раствором соответствующей кислоты. Регенерация сорбента протекает по схеме нейтрализации:



Регенерированный сорбент возвращается на сорбцию молибдена из растворов с pH 2-2,5

#### Список литературы:

1. Хасанов А.С., Шодиев А.Н., Саидахмедов А.А., Туробов Ш.Н. Изучение возможности извлечения молибдена и рения из техногенных отходов // Горный вестник Узбекистана г. Навои. 2019г. -№3 С. 51-53.
2. Пирматов Э.А., Хасанов А.С., Шодиев А.Н., Туробов Ш.Н., Хамидов С.Б. Современное оборудование, применяемое в гидрометаллургической переработке редких металлов. // UNIVERSUM: ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ - Москва, 2019. - №11 С. 33-39.
3. Шодиев А.Н. Исследование и разработка технологии извлечения молибдена, цветных и благородных металлов из сбросных растворов молибденового производства // диссертация на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по техническим наукам
4. Шодиев А.Н., Саидахмедов А.А., Туробов Ш.Н., Хакимов К.Ж., Эшонкулов У.Х. Исследование технологии извлечения редких и благородных металлов из сбросных растворов шламового поля. // Universum: технические науки - Москва, 2020. - №5 С. 37-40.
5. Каюмов О.А. // Изучение технологии по переработке молибдена в АО Алмалыкский гмк // UNIVERSUM: Технические науки. – 2021. - 2(83) – 74-75 с.

### ҚОРАТЕПА МАЪДАНЛИ МАЙДОНИДА НОСКАРНЛИ АПОМЕТАТЕРРИГЕН ВОЛЬФРАМ МАЪДАНЛАШУВИНИНГ ШАКЛЛАНИШ ШАРОИТЛАРИ (Сарикўл кони мисолида)

**Тўраев Шохрухбек Бахтиёр ўғли** - *Ислом Каримов номидаги Тошкент давлат техника университети, “Фойдали қазилма конлари геологияси, қидирув ва разведкаси” кафедраси*  
3 босқич талабаси,

**Илмий раҳбар Жўраев Мехрож Нуриллаевич** - *Геология-минералогия фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Ислом Каримов номидаги Тошкент давлат техника университети, “Фойдали қазилма конлари геологияси, қидирув ва разведкаси” кафедраси доценти,*

Қоратепа тоғларидаги Сарикўл вольфрам кони Жанубий Тянь-Шань йирик бурма зонасининг бир қисми бўлган Зарафшон-Олой структур-формацион зонасида (Зарафшон тоғ тизмаси) жойлашган.

Ўзбекистонда вольфрам минерал хомашё базасининг ривожланиш тарихи ўз ичига учта босқични олади. I босқич (1935-1960 йй.) – минерал хомашё базасининг ташкил топиши; II босқич (1960-1975 йй.) вольфрам маъданлари захираларининг ўсиши камайиши, бу конъюнктура сабаблари ҳамда ер юзасида саноатбоп маъданлашувнинг анъанавий морфогенетик турлари тугаши; III босқич (охирги 35-40 йил) излашнинг стратегик йўналиши ўзгарди, яхши очилмаган ва берк маъданлар учун янги районлар, бунда асосий эътибор йирик масштаби башорат қилиш тадқиқотларига яъни, янги конларнинг очилишига ҳамда илгари маълум объектлар четларидаги захираларнинг ўсишига қаратилди.

Қоратепа тоғлари магматитлари гранитоидлар серияси жинсларининг кетма-кет дифференциалланган қаторидан иборат бўлиб, уларда вольфрам миқдорининг илк фазалардан кечки фазаларга қараб кўпайиши тренди аниқланган.


Сарикўл ва унга чегарадош Қоратепа интрузиви учун магматизм намоён бўлиши 4 та фазага дифференциалланган бўлиб, улар – диоритли, гранодиоритли, гранитли ва аляскитли сериялардир. Диорит формация жинслари порфирсимон биотитли гранодиоритларнинг ўпирилиш зоналарида ёки уларнинг томирли фацияларида аниқланади. Гранитоидли сериялар жинслари кўпчилик массивларнинг чекка қисмларини эгаллайди. Гранитли серия жинслари ҳам Қоратепа ва Сарикўл интрузивларининг жуда катта қисмини эгаллайди. Аляскит ва лейкократли гранит формациялар массивнинг чекка қисмларида намоён бўлган [1].

Сарикўл интрузиви ўрта ва донадор кучсиз порфирсимон икки слюдали гранитлардан иборат бўлиб, Қоратепа-Зирабулоқ адамеллит-гранитли мажмуанинг кечки тошкўмир-илк пермь кетменчи субмажмусига ( $\gamma C_3-P_1k$ ) мансуб.

Репродуктив комплекс шаклланишидаги якуний фазалари жинсларининг умумий хусусиятлари уларда аксессуар шеелит ва флюоритнинг тўпланишидир. Геокимёвий хусусиятларига сийрак ишқорли учувчи (F, В) ва ноёбметалли (W, Sn) элементлар миқдорларининг юқорилигини киритиш мумкин. Вольфрам учун якуний фазанинг комплекс геокимёвий ихтисослашуви ёрқин намоён бўлган. Унинг миқдори икки слюдали ва лейкократли гранитларда 50-125 кларк концентрацияни ташкил қилади.

Минералларнинг вольфрамлилигини таққослашда аниқланишича вольфрамнинг асосий минерал концентрациялари плагиоклаз ва биотитдир [2].

Экзоконтант зонасида апометатерриген вольфрам маъданлашуви ривожланган Сарикўл интрузиви район магматик фаолиятининг кечки фаза икки слюдали ва лейкократли гранит жинсларидан ташкил топган (1-расм).




**1-расм.** Сарикўл конининг схематик геологик харитаси

1-жипслашган тўртламчи давр. Супеслар; 2-тошкўмир даври, ўрта-юқори бўлими, Маргузор свитаси. Турли ёшдаги карбонатли ва кремнийли олистоплаклар ва олистолитлар сланец жинслари билан; 3-девон даври. Акбасой свитаси. Оҳактош линзалари бўлган кремнийли оҳактошлар; 4-девон даври. Мадмон свитаси. Мармарли оҳактошлар; 5-кетменчи субкомплекси. Кучсиз порфирсимон иккислюдали гранитлар; 6-гранит аплит; 7-кварцнинг томир ва томирчалари; 8-дарзликлар; 9-кўтарилмалар; а)



кузатилган, б) кутилаётган; 10-геологик чегаралар: а) ҳақиқий, б) кутилаётган; 11-олистомлитлар ва олистоплаклар: а) оҳактошлар, б) кремнийлар; 12-мармарли оҳактошларда скарнли зоналар; 13-Зоналар; а) темирлашган; б) брекчиялашган; 14-илгари ўтилган канавалар ва уларнинг рақамлари (а), кузатув нуқталари ва уларнинг рақамлари (б); 15-литогекимёвий профил ва унинг рақами (а), қидирув маршрутларидан нуқтали, геокимёвий намуналари олинган жой ва уларнинг рақамлари (б); 16-ётиш элементлари; а) жинслар, б) ёриқлар; 17-қирқимлар йўналиши; 18-участка чегараси; 19-маъдан танаси ва унинг рақами; 20-канавадаги маъдан танасининг кўрсаткичлари.



**2-расм.** Сарикўл кони 19-19 чизиклари бўйича геологик қирқим.

1-жипслашган тўртламчи давр. Супеслар; 2-тошқўмир даври, ўрта-юқори бўлими, маргузор свитаси. Турли ёшдаги карбонатли ва кремнийли олистоплаклар ва олистомлитлар сланец жинслари билан; 3-кетменчи субкомплекси. Кучсиз порфирсимон иккисюдали гранитлар; 4-кварцнинг томир ва томирчалари; 5-вольфрам маъдан таналари; 6-мармарлашган жинсларда скарнлашган зоналар; 7-дарзликлар: а) кузатилган, б) кутилаётган; 8-брекчияланиш зонаси; 9-ўтилган бурғилаш қудуқлари ва уларнинг рақамлари.

Ишқорида натрийси кўп ва таркибида аксессуарли шеелит бўлган, ўрганилган гранитодлар албитлашиш ҳамда мусковитлашишга учрайди ва натижада дала шпати кристалл панжарасидан ажралиб чиқиб, вольфрам ва натрий ишқорли эритмага ўтади, эҳтимол  $\text{Na}_2\text{WO}_4$  бирикмасини ҳосил қилади [3].

Ўрганилган майдонда Марказий Хисор уринмали I (?) тартибли структу-расининг Ганда-Қизилтуруқ-Шахсай зонасидаги Сарикўл фрагментига тегишли Қоратепа мегаблокиннинг ғарбий қисмида апометатерриген вольфрамли маъданлашув ривожланган. Марказий Хисор уринмали структураси Субкенглик йўналишли кенглиги 15 дан 40 км.гача бўлган четки узилмалар билан чегараланган Хисор ва Ягноб кордильер кўтарилмаси орасида жойлашган [3].

Апометатерриген вольфрам маъданлашуви дағал флиш жинслари бўйича шакланган, у гранитоидли интрузивнинг контакт зонасида сланецли жинсларга ўзгариб, геокимёвий жиҳатдан вольфрамга ихтисослашган ва улар бўйлаб маъданли метасоматитлар ҳосил бўлган.

Регионал-контактли динамометаморфизм жараёнлари натижасида бирламчи чўкинди жинслар слюдали ва амфиболли сланецларга айланади.

Шундай қилиб, апометатерриген вольфрам маъданлашуви учун қамровчи муҳит бўлиб, метамофик жараёнлар таъсирида ўзгарган олистостромли қатламнинг кумтош-аргиллитли комплекси матрикси чўкиндилари хизмат қилади, улар маъдан қамровчи

муҳитнинг бирламчи ғоваклигини таъминловчи юқори гранулометрик дисперсияси билан тавсифланади ва маъданли метасоматитлар шаклланиши учун мос субстрат вазифасини ўтайди [4].

Маъдандан олдинги субстрат (кларк муносабатида) Na, Mg, P, Ca нинг юқори миқдорлари ва Al, K, Fe нинг кўрсаткичлари билан тавсифланади.

Асосий рудоген элементларнинг танланган шартли фон жинсларида тарқалиши қуйидигича (г/т): W - 1,99; Au - 0,047; Pb - 20,56; Bi - 0,77; Mo - 8,74; Ag - 0,43; Sn - 12,44; Sb - 1,68; As - 19,6; Cu - 54,12; Zn - 122,4; Li - 109,6; Be - 5,05; Se - 5,63; Te - 0,15; Ba - 807; Zr - 94,3; Nb - 10,22; Cd - 0,33; V - 164,6; Cr - 75,58; Mn - 716; Co - 17,22; Ni - 47,78; U - 5,63; B - 36,7; Ti - 3854.

Маъдан таналари контуридан ташқаридаги метаморфик сланецларда кимёвий элементлар учта гуруҳга бўлинади: субкларк кўрсаткичлари билан – W, Pb, Sb, Nb, Cd, Mn, Co, Ti; As, Ba, V, Zn, Cu; кларкдан паст кўрсаткичлари билан – Zr, Cr, Ni, B ва кларкдан юқори кўрсаткичлари билан (қавс ичида концентрация кларк) – Te (150), Bi (77), Au (47), Se (11,3) - Ag (6,1), Mo (3,4) - Sn, Li, Be (2,1-1,7).

Метасоматитлар қатори ўз ичига скарноидлар, биотит-далашпат-кварцли ва серицит-хлорит-кварц-далашпатили метасоматитларни, шунингдек метасоматик ўзгарган оҳактошларни олади. Бу қаторда турли ҳосилаларни пайдо бўлиши тахминан метаморфизмгача бўлган субстратдаги карбонатли, пелитли ва псаммитли компонентларнинг нисбатлари билан боғланади ҳамда жараённинг илк метаморфик босқичидан кечки метасоматозгача бўлган жараёндан мерос қилиб олган.

Скарноидлар минерал таркибнинг катта вариациялари ҳар хиллиги билан ажралиб туради, бу ерда кварц-плагиоклаз-серицитли минерал ассоциация далашпати-карбонат-амфибол таркибли жинсларда етакчи ҳисобланади. Барча ерда турли миқдорларда пироксен (геденбергит) иштирок этади, у кварц, хлорит, амфибол ва пирит билан бирга уяча ва тўплам кўришида учрайди.

Биотит-далашпат-кварцли метасоматитлар аниқ намоён бўлмаган йўл-йўлликка эга бўлиб, йўл-йўлликлар бўйлаб кўмирли моддалар ажратмаси характерлидир. Биотит (шу гуруҳ метасоматитларининг асосий минерали) қатламланиш бўйлаб йирик баргсимон тўпламлар ҳосил қилади ва плагиоклаз, кварц ҳамда кўмирли моддалар билан ассоциацияда бўлади. Биотит бўйлаб тез-тез хлорит ривожланади ва ўзида унинг реликтларини сақлайди.

Серицит-хлорит-кварц-далашпатили метасоматитлар яхлит, кўпинча катаклазлашган. Уларнинг структураси турли дондор – майдадан ўртагача дондорли, асосан лепидогранобластли.

Сарикўл конида таркибида вольфрам бўлган жинсларнинг алоҳида гуруҳини метасоматик ўзгарган оҳактошлар ташкил қилади, улар нисбатан паст даражада мрамарлашганда жинслари массасида тарқалган кўмирсимон-графитли модда ва алюмосиликатли аралашма ҳосил бўлади [3].

Маъданли жараён карбонат ангидридли ўзига хосликка эга (кальцийнинг келтирилиши уч маротабадан ортиқ), фосфорнинг тўпланиши ва оз миқдорда темирнинг келтирилиши билан кечади. Метасоматитларнинг маъдан олди шаклланиш босқичида маъдан атрофи маконидан натрий, магний ва алюминийнинг чиқиб кетиши кузатилади.

Метасоматитлар учун қуйидагилар хос: маъдан олди маконига муҳим аҳамиятли келтирилиши (қавс ичида тўпланиш коэффициентлари) – W (1970,7); Bi (120,5) ва Cd (37,8); сезиларли келтирилиш – Te (12,3); Be (10,7); Zn (6,2); Cu (5,5); Sn (4,6); мўътадил келтирилиш – Au (3,0); Mn (3,0); Ag (2,5); маъдан олди маконидан чиқарилиши – Pb, Li, Zr (0,6); Ti (0,65); Sb, Ba, Co (0,7); Cr (0,75) ва ўзини бетараф тутиши Mo, As, Se, Nb, V, Ni, B.

Тадқиқотнинг умумий натижалари бўйича қуйида айрим **хулосалар** келтирилади:

– Апометатерриген вольфрам маъданлашуви вужудга келиши юқори гранулометрик дисперсияга генетик жиҳатидан сабабчи бўлган, олистостромли қалин қатлами жинсларини қамровчи минераллашган зоналарнинг трог структураси фрагментига мансублиги аниқланган.

– Апометатерриген вольфрам маъданлашуви, геокимёвий ва акцессорли жиҳатидан вольфрамга ихтисослашган, коллизион гранитоидлар интрузивининг яқин экзоконтакт зонасига мансублиги аниқланган.

– Апометатерриген вольфрам маъданли зоналар минерал таркибининг хусусиятлари, шеелитли, дисульфидли, висмутли ва қалай-полиметаллик ассоциацияларнинг бирга қўшилиши билан тавсифланади.

– Апометатерриген вольфрам маъданлашувида геокимёвий майдон тузилишининг ўта мураккаблиги, бунда апометатерриген вольфрам маъданлашувининг типоморф комплекс элементлари ( $W-Bi-Cd-Te-Be-Au-Zn-Cu-Sn$ ) жуда муҳим аҳамият касб этиши аниқланди.

#### Фойдаланилган адабиётлар

1. Жўраев М.Н., Тураев Т.Н., Мухаммадиев Б.У. Геолого-структурные условия локализации апометатерригенного вольфрамового оруденения и основные его геохимические особенности (на примере месторождения Сарыкуль в Каратюбинском рудном поле) // Горный вестник Узбекистана. - Навои, 2019. - № 2. - С. 31-35.

2. Жўраев М.Н. Чақил-Калон тоғидаги Қизилтуруқ маъданли майдонида олтин-вольфрам маъданлашувининг минералогик ва геокимёвий хусусиятлари // Вестник ТашГТУ. - Ташкент, 2017. - № 2. - С. 190-194.

3. Жўраев М.Н., Тураев Т.Н. Новые типы вольфрамового оруденения Каратюбе-Чакылкалянского рудного района // Горный вестник Узбекистана. - Навои, 2017. - № 3. - С. 63-67.

4. Жураев М.Н., Тураев Т.Н., Мухаммадиев Б.У. Қоратепа-Чақил-Калон маъданли районида янги апометатерриген ва апогранитоид турдаги вольфрам маъданлашувининг шаклланиш шароитлари // Геология и минеральные ресурсы. - Ташкент, 2018. - № 3. - С. 63-67.

### МАРЖОНБУЛОҚ МАЪДАН МАЙДОНИДА КУЗАТИЛГАН ОҒИРЛИК КУЧИ МАЙДОНИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

Абдумаджидов С.С., Хайдаров Б.Х.

Ушбу маъдан майдонда гравиразведка эрозион кесим сатхига чиқмаган гранитоид массивни хариталаш мақсадида ўтказилган. Аввал ўтказилган ишлар натижасида Маржонбулоқ маъдан майдонида Салин гранитоид массиви (шимолий ғарбда) ва гранит-порфирлар ва граносиенитлар Музбулоқ штоки хариталанган. Тахмин қилинишича, бу интрузивлар йирик гранитоид массивнинг қисмларидир, унинг устки қисми 400-600 м чуқурликда, эрозион кесим сатхидан пастда ётибди.

Гравиметрик кузатувлар натижалари асосида оғирлик кучи майдони аномалиясининг Буге редуциясидаги графиклари тузилди, уларда жой рельефи ва бўшқоқ ётқизиклар учун тузатмалар ҳисобига олинди. Гравиметрик харитада Маржонбулоқ маъданли районни оғирлик кучи майдони хусусиятлари яхши кўриниб турибди. Кўрилатган майдондаги оғирлик кучи ўзгарувчан чизикли ва локал аномалияларни ўз

ичига олади, улар районни геологик тузилиши хусусиятлари билан боғлиқ. Унда маъданли тузилмалар акс этган.

Оғирлик кучи майдонининг жадаллиги шарқдан ғарбга қараб ўсиб боради – 85 мгал (шарқ)дан – 90 мгал (ғарбда) гача. Майдонни ғарбий йўналишида ўсиб бориши бурмаланиш юзасининг чўқиши билан боғлиқ. Гравиметрик майдоннинг тахлили турли тузилишдаги аномалияларни ажратиш имконини беради:

1. Чизикли манфий аномалиялар
2. Майдон бўйича изометрик тузилишдаги манфий аномалиялар
3. Локал манфий аномалиялар
4. Гравитацион зиналар

Шулардан кутта қизиқиш биринчи ва иккинчи турдаги аномалияларга қаратилади. Чизикли манфий аномалиялар паст туюлма қаршилик зоналари билан мос келади ва куймаржонбулоқ подсветасининг кўмирли, кўмир-гилли ва углеродли сланецларини хариталайди (улар антиклинанал тузилмаларни ядроларида кўринади), ҳамда туб жинсларда майдаланиш ва сланецланиш зоналарини хариталайди.

Энг йирик чизикли манфий аномалия шимолий ғарб йўналишида бўлиб, Жанубий минераллашган зонани хариталайди. У бу майдонда чизилган, жанубий-шарқда чегараланмаган, шимолий-ғарбда изометрик тузилишдаги манфий аномалия билан қўшилиб кетган. Жанубий чизикли аномалия бир қатор локал аномалияларни ўз ичига олади. Бу аномалия жанубий-шарқдан шимолий-ғарбга занжирсимон чўзилган. Локал аномалиялар ўлчами 0,4x0,8 км тахминан бўлиб энг сланецланган жинслар (ёриқли кварцланишга бой) билан боғлиқ. Улар билан Маржонбулоқ конининг саноат ишлаб чиқариш маъданлашувлари боғлиқ.

Ўрганилаётган майдоннинг шимолий қисмида Маржонбулоқ баландликларининг тоғ олди ерларида кенглиги бир км гача бўлган чизикли аномалия ажратилган. Аввалги ўтқазилган гравиразведка ишларида бу зона Шимолий деб номланади. У жанубий-шарқ йўналишида кузатилади ва ўрганилаётган майдон ташқарисига чиқиб кетади. Северний чизикли аномал зонаси жануб томондан Шимолий Маржонбулоқ взброси билан чегараланган, бу взброс бўйича тоғли баландлик текислик устига сурилиб қолган. Взброс электроразведка усуллари, ҳамда сейсморазведка КМПВ усулида аниқ белгиланган. Северний аномал зона ичида бир қатор локал аномалиялар (2 мгал гача) ажралади. Улар Шимолий – Маржонбулоқ взброси чизиғи бўйлаб жойлашган ва палеозой фундаментидаги букилмаларга мос келади, уларда бўшоқ қалинлиги 200-250 м гача ошади. Ундан ташқари, Шимолий-Маржонбулоқ взбросида туб жинсларни майдаланиш ва сланецланиш даражаси ортади.

Шундай қилиб Жанубий ва Шимолий аномал зоналар ташқи кўринишидан ўхшаш бўлса ҳам, уларни геологик тузилиши турличадир.

Ўрганилаётган майдоннинг шимолий-ғарб қисмида кенг манфий гравиметрик аномалия ажратилган, аникроғи унинг жанубий-шарқий қисми. Унга жанубий-шарқ томондан Жанубий чизикли аномалия яқинлашади, аммо унинг жадаллиги кам. Изометрик аномалияда оғирлик кучи майдони жадаллиги атрофдаги майдондан 3-4 мгал кўпроқ кузатилган. Жанубий-ғарбдан ва жанубий-шарқдан изометрик аномалия тик градиент зоналар билан чегараланган (жанубий-шарқий градиент зона). Кўрилаётган аномалия аввалги 1:25000 масштабда ўтқазилган гравиметрик съёмкада ажратилган Салин аномалияси билан мос келади. Салин аномалиясида қазилган скважиналар граносиенитлар штокини тешиб ўтган. Буларни хаммаси ажратилган аномалия Салин интрузивини хариталайди дейишга асос бўлади. Интрузивни устки қисми мезозойгача фундамент сатхига чиқмайди, интрузивни устки қисми хисоб бўйича 500-600 м ни ташкил қилади.

Маржонбулоқ баландлигининг шимолий-ғарб қисмида 1:10000 гравиметрик харитада (Нарқулов, 1983) оғирлик кучи майдонининг кучсизланиши кузатилади, бу граносиенитларни Умидли штоки билан мос келади. 1:25000 масштабдаги магнит майдони харитасида (Нарқулов, 1983) Умидли штоки устида магнит майдони текис, тинч, яъни Умидли штоки магнит майдонида ажралмайди. Аниқ айтиш мумкинки, Салин интрузиви ва Умидли штоки ягона интрузивни ташкил этмайди (хар холда 1000-1100 м гача). Гравиметрик харитада Шимолий минераллашган зонага изоаномалларни кескин бурилиш участкалари мос келади.

Зичлик кесмларида Маржонбулоқ баландликларини палеозой жинсларининг бурмаланган тузилмалари аниқланган. Қора сланец қатлами баландлик остида тарқалган, юқори маржонбулоқ подсвитасининг алевролит ва қумтошли синклинал бурмаларни мульдасида жойлашган. Антиклиналарни ядросида сланецланишини алоҳида зоналари аниқланган, аммо улар ягона разлом зонаси билан боғлиқ эмас.

Шундай қилиб ўтказилган гравиметрик ишлар натижасида қуйидаги вазифалар ечилган:

1. Маржонбулоқ баландлигини геологик тузилиши ҳақида таассуротлар олинган;
2. Маржонбулоқ маъдан майдонининг асосий маъданли тузилмаси – Жанубий маъдан зонасининг тузилма ҳолати ва ички тузилиши аниқлаштирилган;
3. Маржонбулоқ маъдан майдони ғарбий қисми остида ягона йирик гранитоид интрузивнинг йўқлиги аниқланади (хар холда ўрганиш мумкин бўлган чуқурликгача). Салин интрузиви ва Умидли штоки алоҳида магматик таналар бўлиб қўшилса ҳам 1000 м чуқурликдан кейин бўлиши мумкин;
4. Гравиметрик ишлар Маржонбулоқ маъдан майдонида чуқур разломлар мавжудлигини тасдиқламайди;
5. Гравиразведка ишларидан олинган натижалар электроразведка ишлари натижалари билан биргаликда конкрет истиқболли участкаларни ажратиш имконини беради ва кейинги қидирув-баҳолаш ишларига тавсия этади.

#### АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

3. Отчёт по региональным грави-электроразведочным работам в пределах возвышенности Маржанбулак. А.Н. Макаров, Ю.И. Лошкин, С.А. Борисова, 2008.
4. Сим Л.А. Фойдали қазилма конларини излаш ва қидиришнинг геофизик усуллари. Тошкент. 1996 й.
5. Вахромеев Р.С. Общие принципы комплексирования геофизических методов при поисках рудных месторождений. Иркутск. Из-во ИПИ, 1970.
6. “Геофизик усулларни комплекслаш” фанидан курс лойихасини тузиш бўйича методик қўлланма. Юсупов Р.Ю., Антонец А.Г. 2014.

### ***EUPHORBIA FERGANENSIS* ЎСИМЛИГИДАН ПОЛИФЕНОЛЛАР ЙИГИНДИСИ АЖРАТИБ ОЛИШНИНГ МАҚБУЛ ШАРОИТИ**

**кат.ил. ходим Рахимов Р.Н., доц. Назаров К.К., стаж-тад. Янгибоев Я.З.,  
асс. Соатов А.М.**

Ўсимликларнинг кимёвий таркибини ҳар томонлама чуқур ўрганиш мақсадида уларни алоҳида компонентларга ажратиш, тузилишини физик-кимёвий таҳлил қилиш, биологик фаолликларини аниқлаш ва улар асосида кенг таъсир кўрсатиш доирасига эга

бўлган самарали дори воситаларини яратиш ҳозирги кундаги долзарб вазифалардан биридир[1].

*Euphorbiaceae* (Сутламадошлар) оиласининг *Euphorbia* 2000 тур ўсимликдан иборат катта туркумни ташкил этади. Хитой ва Индонезия анъанавий табobatiда антидиаретик, антидиуретик, балғам кўчирувчи, астма, бронхит ва турли тери касалликларини даволашда дамлама кўринишида, Филлипин ва Малайзияда геморройда, яра касалликларида, суяк синганида оғриқ қолдирувчи сифатида боғлов кўринишида кенг қўлланилади. Кўп йиллар давомида ушбу оила турлари биологик фаол бирикмалар, жумладан, алкалоидлар, антрахинонлар, кумаринлар, терпеноидлар ва полифенолларнинг бой манбаи сифатида бутун дунё олимлари томонидан катта қизиқиш билан ўрганиб келинмоқда. Айниқса, *Euphorbiaceae* оиласи ўсимликларининг флавонол ва таннинлари бирмунча чуқурроқ ўрганилган бўлиб, ўсимликлардан кверцетин, кемпферол, мирицетин, рамнетин, изорамнетин ва уларнинг гликозидлари, мономер, димер ва олигомер гидролизланувчи таннинларнинг бир қанча вакиллари ажратиб олинган ҳамда уларнинг биологик фаолликлари тадқиқ этилган[2,3,4].

*Euphorbiaceae* оиласига кирувчи *Euphorbia ferganensis* ўсимлиги Ўзбекистоннинг турли вилоятлари: Тошкент, Қашқадарё, Сурхондарё ва Фарғона водийсининг яйлов минтақасидан тортиб, токи тоғ минтақасигача бўлган ҳудудларида учрайди[5].

*Euphorbia ferganensis* ўсимлиги хом ашёсидан қуйи ҳароратда, кам вақт сарфлаб, юқори унум ва сифатга эга бўлган полифеноллар йиғиндиси ажратиб олишнинг мақбул усули излаб топилди. Ўсимлик хом ашёсидан табиий бирикмаларнинг ажралиб чиқиши, яъни экстрактив моддалар унуми кўп жиҳатдан экстракциялаш жараёнига боғлиқ. Экстракциялаш жараёнига таъсир кўрсатувчи омиллар сифатида қуйидагилар танланди: экстракция модули (хом ашё ва экстрагент ўртасидаги нисбат); экстракциялаш такрорийлиги; экстрагент таркиби; экстракция қилиш ҳарорати, хом ашёнинг майдаланганлик даражаси (1-жадвал).

1-жадвал

**Полифенолларни экстракциялаш жараёнига таъсир этувчи омиллар кўрсаткичи**

Омиллар	Бирлиги	Ўрганилган омиллари даражаси	Мақбул шароит
Майдаланганлик даражаси	мм	0,5-1; 1-3; 3-5; 5-7; 8-10	3-5
Экстрагент таркиби (этил спирт)	%	40,50, 60, 70	40
Ҳарорат	°C	25, 35, 45, 55, 65	45
Экстракция такрорийлиги		1, 2, 3, 4, 5	3
Экстракция вақти	соат	1, 2, 3, 4, 5	3
Экстракция модули		1:2, 1:4, 1:6, 1:8, 1:10	1:6

Жадвалда келтирилган натижалар асосида ўрганилган ўсимликдан полифеноллар йиғиндисини ажратиб олишнинг мақбул усули сифатида ўсимликнинг майдаланганлик даражаси 3-5 мм, экстракция ҳарорати 45°C ҳароратда, 3 соат давомида, 1:6 нисбатда, 40% этил спиртта, 3 маротаба такрорийликда экстракция қилиб, юқори унум ва сифатга эга бўлган полифеноллар йиғиндиси ажратиб олинди. Қуйи ва юқори ҳароратларда полифеноллар тўлиқ ажралиб чиқмаслиги аниқланди.

Ўсимлик хом ашёсидан 250 данг 4 та наъмуна олиб, Этанол сув аралашмасида (8-10 мм майдаланганлик даражаси), (1:6 нисбатда, v/v) 45°C да, 3 соат давомида, қайтарма совуткичли сув ҳаммомида 3 маротаба такрорийликда, экстракция қилинди. Экстрактларни филтрлаб, Этил спиртни вакуум остида, 50-55°C да ҳайдаб сувли қисм ажратиб олинди. Сувли қисмни этилацетат билан (1:4 нисбатда, v/v) экстракция қилиб, этилацетатли фракция ажратиб олинди. Ушбу фракция сувсиз Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> тузи ёрдамида

куритилди ва филтрланди ҳамда роторли буғлаткич ёрдамида ҳайдаб, этилацетатли концентрат ажратиб олинди. Концентратни 1:4 нисбатда хлороформ билан чўктириб, ўсимликнинг қуруқ массасига нисбатан 2 % миқдориди полифеноллар йиғиндиси ажратиб олинди (1-схема).



**1-схема *Euphorbia ferganensis* ўсимлигидан полифеноллар йиғиндиси ажратиб олиш схемаси**

#### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Yoshida T., Amakura Y., Yoshimura M. Structural Features and Biological Properties of Ellagitannins in Some Plant Families of the Order Myrtales // Int. J. Mol. Sci. 2010. - V. 11- P. 79-106.
2. [Gvazava L.N.](#), [Alaniya M.D.](#) Hydrolyzed Tannins of *Euphorbia glareosa* Leaves. Structure of Glarein C // [Chem. Nat. Compounds](#). 2006. - V. 38. - P. 323-325.
3. Карпова Е.А., Храмова Е.П. Флавоноиды некоторых представителей семейства *Euphorbiaceae* Juss // Химия растительного сырья. 2009. №4. - С. 195-196.
4. Kumar R.S and Kumar D. Evaluation of antidiabetic activity of *Euphorbia hirta* Linn. // Indian Journal of Natural Products and Resources. 2010. -V.1. -P. 200-203.
5. Абдулладжанова Н.Г., Мавлянов С.М., Далимов Д.Н. Фенольные соединения *Euphorbia ferganensis* B.Fedsch // Химия природ.соедин. 2001. №2. - С. 167.

## ОҚЖЕТПЕС ТОҒ КЎТАРИЛМАСИ МИНЕРАГЕНИЯСИНИНГ УМУМИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА САНОАТ ТУРЛАРИ

**Омонов Ориф Ғофур ўғли** -“Минерал ресурслар институти” давлат муассасаси таянч докторанти

Илмий раҳбар: **Пирназаров Мажид Махкамович** -геология-минералогия фанлари доктори, профессор, Геология фанлари университети.

**Аннотация.** Ушбу мақолада Оқжетпес тоғ кўтарилмаси бўйича умумлаштирилган минералогик материаллар, аввалги ишларни ҳисобга олган ҳолда, оксидланган маъданлар бўйича бир неча маъдан турлари ажратилган. Маҳсулдор минерал ассоциацияларнинг комбинациясига кўра ва олтин таркибли тананинг морфологик хусусиятларини ҳисобга

олган ҳолда, маъданларнинг 2 та асосий табиий тури ва битта саноат учун аҳамиятли бўлмаган турлари аниқланган. Тадқиқот натижаларига кўра, олтин таркибли таналарнинг шаклланишига олиб келадиган геологик жараёнларнинг иштирокини кўрсатадиган қидирув белгилари ажратилган.

Марказий Қизилқумда шу жумладан Кўкпатас маъданли майдонида минерал ҳосил бўлиш жараёни, хусусан, аввалги тадқиқотчиларнинг фикрига кўра [1], пневматик-гидротермал босқичдан, шу жумладан сувсиз силикатлар гранат-пироксен ва волластонит-родонит парагенетик минерал ассоциациялар (ПМА) босқичдан бошланади. Ушбу босқичда скарнлар ва скарноидлар ҳосил бўлган, уларни карбонатли тоғ жинсларининг магматик тоғ жинслари билан контактларида кузатиш мумкин.

Кейинги босқичда сувли силикатлар эпидот-амфибол, кварц-турмалин ва кварц-серицит ПМА ҳосил бўлади. Ушбу босқичнинг барча минераллари Оқжетпес маъдан майдонида ҳам ҳосил бўлган.

Гидротермал босқич қуйидаги босқичлар билан ифодаланади: силикат-карбонатли, эрта оксидли, вольфраматли, эрта сульфидли, полиметалли, олтин-кумушли, кеч оксидли, сульфатли, сурмали, карбонат-фторидли ва карбонат-силикатли. Ҳар бир босқичда маълум бир ПМА мавжуд.

Олтин билан пирит-арсенопирит ПМА худуд олтин конларида асосий маҳсулдор ҳисобланади. Кўпинча бу ПМА ўзгарган, оксидланган шаклда учрайди, яъни асосий темир таркибли минераллар оксид ва гидроксид шаклларида ўтган, баъзан уларнинг таркибида ва атрофида соф туғма олтин қўшимчалари жойлашган.

Кўкпатас маъданли майдонида маъданларнинг учта табиий тури аниқланган: метавулканоген-терриген томирлашган-хол холлашган олтин-сульфидли минераллашуви; сульфид-кварц томирли; оксидли [1].

Умумлаштирилган минералогик материаллар, аввалги ишларни ҳисобга олган ҳолда [1], ўрганилган майдон оксидланган маъданлари бўйича бир неча маъдан турлари ажратилган. Маҳсулдор минерал ассоциацияларнинг комбинациясига кўра ва олтин таркибли тананинг морфологик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, маъданларнинг 2 та асосий табиий тури ва битта саноат учун аҳамиятли бўлмаган турлари аниқланган.

**1-тур** – колчеданли маъданлар (оксидланган ва оксидланмаган). Сардор участкасида 9007-канавада шунга ўхшаш маъданлар кузатилган. Улар олтиннинг асосий захираларини ташкил қилувчи асосий олтин таркибли марказит-пирит-олтин маъданли минераллари ассоциациясидан иборат. Кейинчалик вулканик фаоллик билан боғлиқ сульфосоллар билан кварц-хальцедон-анкерит минерал ассоциацияси унинг устини қоплаган. Оксидланиш зонасидан пастда бўлган маъданлар колчеданли бўлиб, кварц, марказит ва пиритдан иборат. Сульфидлар 30-70% ни ташкил қилади. Колчеданли маъданлардаги олтин миқдори 3,4-31 у/е.

**2-тур** – 9-маъданли зонасида ривожланган маъданлашган доломитлар, камрок кремнийлар ва вулканитлардан иборат. Маъдан таркиби кварц-кремнийли ёки кварц-доломитли минерал ассоциацияси билан мураккаблашган бўлиб, олтин билан томирли-кварц-сульфидли ёки сульфасоллар ва олтин билан кварц-хальцедон-анкеритли маҳсулдор минерал ассоциациялар билан ифодаланади. Олтин миқдори 0,0n до 3-4 у/е гача.

**3-тур** – кварц-сульфидли олтин таркибли томирлар, олтин билан томирли-кварц-сульфидли маҳсулдор минерал ассоциация билан ифодаланади. Томирлар кичик қалинликка эга бўлганлиги сабабли алоҳида аҳамиятга эга эмас. Уларнинг аҳамияти марказит-пирит-олтинли самарали минерал ассоциациясига ўтганда намоён бўлади. Олтин миқдори 0, n - 1,9 у/е, концентратларда 5,7 дан 21,4 у/е гача.

**Маъданларнинг геологик-саноат турлари.** Маъданларнинг геологик-саноат турларини ажратишда маъданлар таркибининг сульфидлашганлиги ва нисбатан кенг



тарқалган минераллар, жумладан кварц микдорларига қаралади. Сульфидлар микдорига кўра ҳудуддаги маъданларнинг 2 та геологик-саноат тури ажратилади: олтин-колчедан ва олтин-сульфид-кварц (доломитли, кремнийли).

**Олтин-колчеданли маъданлар** минералогик, рентген-структуравий ва минераграфик таҳлиллар натижаларига кўра, асосий маҳсулдор минераллар ассоциацияси - пирит, марказит, кварц минералларидан иборат бўлиб, жойларда кечки кварц-халцедонли минерал ассоциацияси билан устма-уст тушади. Маъданларда сульфидларнинг микдори 30 дан 70% гача. Маъданларда пирит ва марказит 10:1 дан 5:1 гача бўлади.

**Олтин-сульфид-кварцли (доломит)** маъдан тури қуйидаги минерал-парагенетик ассоциациялар билан ифодаланади: вулканоген пропилитли, олтин билан кварц томирли-сульфидли (4-самарали) ва олтин билан кварц-халцедон-анкеритли (5-самарали). Кейинчалик минерал ассоциациялар аввалгилари билан мос тушиши мумкин. Маъданларда сульфидлар микдори 7 дан 30% гача бўлади. Асосий маъданли минераллар пирит, арсенопирит, сезиларли аҳамиятга эга бўлмаганлари халькопирит, борнит, хира маъданлар ҳисобланади. Оксидланиш зонасида-гетит, гидрогетит, ярозит, мис ва маргимушнинг иккиламчи минераллари учрайди. Субдисперсли олтиннинг концентраторлари пирит ва арсенопирит, оксидланиш зонасида – эса гетитдир.

Ўрганилган ҳудудда асосан олтин-сульфид формацияли маъданлар (бой маъданлар) аниқланди. Олтин-сульфид-кварц формацияли маъданлар (камбағал ва оддий маъданлар) аҳамиятга эга эмас. Эркин олтин билан олтин-сульфид-кварц (камбағал ва оддий маъданлар) ҳам мавжуд. Булар ШШ йўналишли кесишувчи кварц томирлари таркибида бўлиб, олтин пиритда ва арсенопиритда ёки эркин шаклда ҳам учрайди. Минерал тури-олтин-кумуш-колчедан-карбонат-кварцли.

Одатда гематит, гетит, ярозитдан иборат оксидланган маъданлар олтиннинг энг кўп микдорини ўз ичига олади. Олдинги тадқиқотларга кўра, олтин таркибли шунга ўхшаш таркибдаги маъданлар осон бойитилади. Бундай маъданларни сианидлаш орқали 92,3% олтинни, бирламчи колчедан маъданларини сиянидлаш орқали эса 22-23% олтинни ажратиш олиш мумкин.

Тадқиқот натижаларига кўра, олтин таркибли таналарнинг шаклланишига олиб келадиган геологик жараёнларнинг иштирокини кўрсатадиган қидирув белгилари аниқланди. Ушбу белгилар:

- пропилитлашган андезитларнинг доломитлар билан контакт зоналари;
- кварц маъданли (синрудных) микроигнали метасоматитларининг мавжудлиги;
- кварц-темир-колчедан маъдан таналари кенгликка яқин йўналишдалиги.

Барханли ва 9-маъдан зонаси конлари динамопаранинг (ШШ бузилмалари) биринчи қисми жойлашган бўлиб, "узилиш-ажралиш" ёриқлари деб таснифланади, уларнинг қалинлиги кескин букилишларда кенгайган. Иккинчи қисми (ШФ бузилмалари), умуман олганда, маъдан ёткизликлари учун унчалик қулай эмас ва "ажралиш-ёпилиш" ёриғи сифатида таснифланади, аммо субкенглик йўналишидаги бузилмаларининг натижасида ҳосил бўлган букилишларда зонанинг кучли кенгайишини кузатилган. Шундай қилиб, кўриб чиқилаётган объектлар бир хил геологик-структуравий ўринларда шаклланган: Кўкпатас (9-маъдан зонаси), Кенглик (Барханли), Бош (2-маъдан зонаси) чуқур бузилмалар таъсири зонасида ва субкенглик букилишлар билан мураккаблашган "узилиш-ажралиш" ёриқларида жойлашган; қамровчи карбонат ҳосилалари антиклинал бурмаларининг қанотларини кесган. Шуни таъкидлаш керак, 9-зонадаги кўплаб карбонатли линзалар ва майда қатламчаларни ўз ичига олган қамровчи тоғ жинси терриген қатламлари бўлиб, кондицион олтин микдорлари зонаси ҳосил бўлиши учун уларнинг йўналиши ва ётиши муҳимдир (асосан нордон флюидларнинг юқорига

кўтарилиши ва тўпланиши учун геокимёвий тўсик). Кўриб чиқиладиган объектларда маъдан таналарининг морфологик турлари ҳам бир хил. Бу тик ётувчи чизикли томирли ва ҳол ҳол томирчали кварц мадан таналари бўлиб, маъдан жойлашувчи бузилмалар йўналиши бўйича субкенглик букилиш юзаларида чизикли штоквекрга ўтган.

Объектларидаги маъдан таналарида, қоида тариқасида маъданларнинг 5-6 та минерал (ассоциациялар) тури ажратилган бўлиб, улар бирга ёки алмашилиб келади. Маъдан таналарининг умумий ўхшаш минерал таркиби бўйича сульфидлашган маъданлардан баъзи фарқларни кузатишиз мумкин. Агар 9-маъдан зонасида пирит-марказит-арсенопирит таркибли темирли маъданлар ривожланган бўлса, 2-маъдан зонасида кварц-гематит - гетит-гематитли брекчияларни (темир билан кам тўйинган) шартли таққослаш мумкин. Кўриб чиқиладиган объектларда аниқланган ва фақат маъдан таналарида у ёки бу минералнинг устунлиги ўзгариши билан фарқ қиладиган маъдан ва номаъдан минераллар тўплами ҳам ўхшаш.

Шунга ўхшаш маъдан назорат қилувчи омилар (структуравий ўрни, қамровчи муҳит, маъдан жойлашувчи структуралар, дайкали таналарнинг эндо- ва экзоконтактлари) билан маъдан шаклланишининг мутаносиблигини белгилайди.

Шуни таъкидлаш керакки, маъдан таналарида ва минераллашган зоналарда нураш жараёнлари ушбу объектларда бир хил даражада намоён бўлган. Улар тупроқ массаси каби бутунлай емирилган, қизил-жигарранг-жигарранг рангдаги тоғ жинслари, баъзида лимонитнинг ёрқин лимон-сарик, диорит дайкалари бўйлаб яшил-кулранг сочилувчан ҳолда учрайди. Тарқалиш чуқурлиги бир биридан фарқ қилади: 35-45 м (9- ва 2- зоналар) дан 60-90 м гача (Барханли кони).

#### **Фойдаланилган адабиёт:**

1. Турамурадов И.Б., Цой В.Д., Пирназаров М.М., Королева И.В. Природные типы руд золоторудных месторождений Кокпатаасского рудного района// *Konchilik xabarnomasi*. - Тошкент, 2005. - №31. – с. 17-22.

## **ИССЛЕДОВАНИЕ ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИХ СВОЙСТВ МОДИФИЦИРОВАННЫХ МИНЕРАЛЬНЫХ ГЛИН С ХИТОЗАНОМ**

**Алиева М.Т.**

*Ташкентский государственный технический университет*

Бентониты, благодаря своей структуре, характеризуются большой удельной поверхностью, что придает им высокие адсорбционные свойства [1; С. 27-28]. Они активно поглощают воду, ионы солей, органические молекулы, что, наряду с дешевизной и широкой распространенностью в природе, делает их экономически целесообразными для использования в качестве сорбционного материала в сфере текстиля, различных отраслей легкой промышленности [2; С. 31-34]. Поэтому целесообразно исследование кристаллохимического и дисперсионного составов природных глинистых минералов для получения на их основе эффективных селективных сорбционных материалов высокого качества. Существуют многочисленные способы модификации структуры бентонитов [3; С. 23] приводящие к изменению их дисперсного состава сточных вод для очистки мышьяка с использованием природных минералов с химической и термической устойчивости, а также коллоидно-химических свойств, в том числе и сорбционных показателей.

Основной метод исследования кристаллического строения бентонитов является электронная микродифракция [4; С. 25-35]. На рисунках 1 и 2 показаны сканирующие

электронные микроскопы щелочных ППД и щелочно-земельных ПБГ бентонитовых глин и модификаций хитозана марки Навбахор.




Рис. 1. Электронно-микроскопический снимок бентонитов: А) ППД; Б) ПБГ




Рис. 2. Электронно-микроскопический снимок на хитозановых модификаций местных глин: А) ППД+ХЗ; Б) ПБГ+ХЗ

На электронной микрофотографии ППД +ХЗ видно, что данный образец представлен в основном отдельными агрегатами глинистых частиц, которые имеют форму удлиненных многоугольников [5; 249-250; 6; 16164-16167]. Как оказалось, увеличение молекулярной массы повышает степень формирования ассоциатов модифицирующих катионов удвоенной толщины, которых достаточно для покрытия обеих базальных поверхностей. В случае хитозана – полимерного модификатора наблюдается образование ассоциатов толщиной в один слой катионов модификатора, вместо гидратно-ионных слоев наружных поверхностей кристаллов монтмориллонита. Вместе с тем повышение размеров молекул модификатора способствует увеличению степени трехмерного порядка в упаковке силикатных слоев. Под электронным микроскопом видно, что крупные частицы ПБГ+ХЗ в основном обладают прямоугольной формой с размерами около 1 мкм.

#### Литература

1. Мельник С.С, Горенкова Г.А Адсорбция ионов органо-модифицированным бентонитом Материалы XXII Международной научной школы-конференции студентов и молодых ученых. В 2-х томах Абакан, 14-16 ноября 2018 г. С 27-28.
2. Бортников С.В., Горенкова Г.А Модификация щелочноземельного бентонита олеатом натрия Альманах современной науки и образования, № 8 (75) 2013 С 31-34.
3. Коваленко К.А. Сорбционная очистка сточных вод горно- перерабатывающих предприятий от мышьяка с использованием природных минералов: автореф. дис. канд. техн. наук: 25.00.36 / Коваленко Ксения Андреевна. – Пермь, – 2013. – 23 с.
4. Моющие средства (детергенты). Энциклопедия Кольера./dic.academic.ru. СПАВ. Полезная информация/ [www.moreprom.ru](http://www.moreprom.ru).
5. Сейтназарова О.М., Ихтиярова Г.А Исследование адсорбционной способности органобентонита на основе Крантауской глины. Композицион материаллар Журнали, 2020 й, №4, С 249-250.
6. Seytnazarova O.M., Mamataliev N., Abdikamalova A.B., Ikhtiyarova G.A. Adsorption Activity of Organobentonite Based on Krantau Clay International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Vol. 7, Issue 12 , December 2020. Pp16164-16167.

### ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ МУЛК ОБЪЕКТЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ МУҲОФАЗАСИ ҲАҚИДА

Маг. Кулматов Абдужалил Эшонкул ўгли (ЖизПИ),  
Маг. Исмоилов Комрон Фахриддин угли. (МИФИ+ТошДТУ),  
Илмий раҳбар т.ф.н., проф. Турғунбоев Асадулла (ТошДТУ)

Ҳар бир мамлакатда инновацион ривожланиш модели пойдеворининг мустақамлиги, мамлакат модернизацияси даражаси ва суръатлари, жаҳон иқтисодий тизимидаги рақобатбардошлигининг ортиши интеллектуал мулкнинг муҳофаза тизими ва ҳуқуқларини муваффақиятли бошқариш самарадорлигига боғлиқ, бу эса, ўз навбатида, билимларга асосланган XXI аср жаҳон иқтисодиётининг қиёфасини белгилаб берадиган янги соҳаларда иш ўринларини яратиш истикболларини яратади.

Халқаро конвенциялар, битимлар ва узаро шартномалар тизими самарали ташкил этилганлиги сабабли, жаҳон ҳамжамиятида интеллектуал мулк объектлари ва унинг савдосидан катта миқдорда даромад олинмоқда. Ҳоҳлар, ишланмалар ва шахсий ҳуқуқлардан олинмаган даромадлар ривожланган мамлакатлар ялпи ички маҳсулотига салмоқли улушга эга бўлмоқда [3].

Маълумки, 1970 йил 26 апрелдан Бутунжахон интеллектуал мулк ташкилотини таъсис этиш тугрисидаги конвенция амал кила бошлаган булиб, 2000 йилдан бошлаб БИМТнинг аъзо давлатларида 26 апрель куни - Халқаро интеллектуал мулк куни сифатида нишонланиб келади. 1992 йилда ташкил этилган Ўзбекистон Республикаси Давлат патент идораси (2019 йилдан Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги хузуридаги Интеллектуал мулкагентлиги) мустақиллик йилларида катта миқёсдаги халқаро ҳамкорлик алоқаларини амалга оширишга улгурди [4].

Интеллектуал мулкни яратиш, муҳофазалаш ва ундан фойдаланишнинг ҳуқуқий, иқтисодий, ташкилий ва бошқа масалаларини ўрганиш ОТМларни битирувчи бўлажак мутахассислар учун жуда муҳимдир [1,2].

Шунинг учун магистратура талабаларига илмий-техникавий ривожланишда патент тизимининг ўрнини, халқаро илмий-техникавий ҳамкорликнинг патент-ҳуқуқий аспектларини ҳамда лицензиялаш асослари, сертификатлаштириш билан боғлиқ бўлган меъёрий ва илмий-техник ҳужжатлар билан ишлаш тажрибасига эга бўлиш ҳамда улардан фойдаланиш бўйича етарли билимларни шакллантириш мақсадида ОТМ ларида «Патентшунослик, лицензиялаш ва сертификатлаштириш» фани ўқитилади. Ушбу фан магистратура мутахассислиги ўқув режасининг тандлов фанларидан ҳисобланади.

Фанни ўрганишдан асосий мақсад шундан иборатки, бўлажак мутахассислар патентшуносликнинг базавий даражасини эгалласинлар, янги техник ечимларни яратиш ва уларни тегишлича муҳофазалашни ўргансинлар, лицензия битимлари тузиш, бозорга “интеллектуал” маҳсулот чиқариш, турли инновация лойиҳаларини ва бошқа кўп ишларни амалга оширишга қодир бўлсинлар.

Шу пайтгача мутахассислар учун асосан патент-ахборот қидирувини амалга ошириш ва ихтирога талабнома расмийлаштиришни билиш етарли бўлган бўлса, ҳозир вазифа анча кенгайган. Интеллектуал мулк объектлари бозор муносабатларининг ҳақиқий объекти (товар) бўлган бугунги бир шароитда интеллектуал мулкни хорижда муҳофаза қила олиш, рақобатчилар билан музокараларда ўз манфаатларини ҳимоя қилиш, лицензия савдоси усуллари билиш, интеллектуал активларни бошқариш ва бошқалар муҳим аҳамият касб этмоқда.

Бундан ташқари, интеллектуал мулкнинг янги ноанъанавий объектлари пайдо бўлиб, биотехнология, физика каби фанлар жадал ривожланмоқда, ахборот технологиялари жорий этилмоқда ва ҳоказо. Буларнинг барчаси шунга олиб келадики, бугунги кунда Патентшунослик ўз ичига ҳуқуқ, бошқарув, иқтисодиёт, прогнозлаш, информатика ва бошқа соҳалардаги билимларни камраб олган мустақил илмий фандир.

Унинг тармоқлараро фан эканлиги бу фаннинг муҳим хусусиятларидан биридир. Одатда, интеллектуал мулк оҳасидаги мутахассислар - патентшунослар предмет белгиси (масалан, механика, электр техника, кимё соҳасидаги ихтиролар ва ҳоказо) бўйича эмас, балки функционал белгиси бўйича ихтисослашар эдилар. Бундай ихтисослашувга: патент ҳуқуқи, патент экспертизаси, патент ахбороти, патент-лицензия иши, инновация, менежмент, сифат бошқаруви ва ҳоказоларни мисол қилиб келтириш мумкин.

«Патентшунослик, лицензиялаш ва сертификатлаштириш» фани табиий фанларни ва техник фанларни иқтисодиёт ва ҳуқуқ билан уйғун бирлаштира оладиган предмет бўлиб қолди.

Бугунги кундаги ҳаётимизни интеллектуал мулк объектлари: ихтиролар, саноат намуналари, товар белгилари, санъат асарлари ва ҳоказоларсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Интеллектуал мулкни ҳар доим ҳам муайян кишилар яратади. Айнан малакали ва истеъдодли мутахассислар: олимлар, ихтирочилар, тадбиркорлар жамиятни юритувчи кучдир.

Бундай билимлар ҳар бир мутахассисга ҳуқуқий ва иқтисодий жиҳатдан тўғри қарорлар қабул қилиш учун патент, илмий-техник ва тижорат ахборотининг оқимида ўзи мустақил йўл топишига имкон беради. Булар ҳар қандай, айниқса фан ва техника соҳасидаги мутахассис, менежерлар, иқтисодиётчилар, тадбиркорлар олдига қўйиладиган талабдир. Зотан, бу техник ижодиётни ривожлантириш, ўз ихтиролари ва санъат асарларини яратиш, уларни иқтисодий жиҳатдан фойдали тарзда жорий этиш ҳамда фойдаланишга туртки бўлиб хизмат қилади.

Ўзбекистон ҳуқуқий демократик давлат куриш ва халқаро иқтисодий ҳамжамиятга интеграциялаш йўлидан шахдам қадамлар билан бораётган ҳозирги бир вақтда бу жуда долзарбдир. Бугунги кунда давлатнинг тараққиёти учун ҳар бир магистратура битирувчисининг нафақат зарур ишлаб чиқариш билимлари ва малакаларини ошириши, балки интеллектуал мулк ҳуқуқлари соҳасидаги асосий билимларни эгаллаши ҳам ўта муҳимдир. Ҳозирги вақтда фақат ана шу билимлар илгор технологиялардан янада самарали фойдаланиш имконини бериб, ўз ихтироларини, саноат намуналари, интеграл микрочизмалар топологияси ва бошқа объектларни ишлаб чиқишга туртки бўлади.

Шу боис “Патентшунослик, лицензиялаш ва сертификатлаштириш” предметини ўзлаштириш бўлажак мутахассисларга жамият фаровонлиги йўлида ўз касби бўйича муваффақиятларга эришиш имконини берадиган салмоқли омилдир.

#### Адабиётлар

- 1.Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 23 сентябрь “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 797-сонли Қарори
- 2.2021 йил 28 январдаги “Интеллектуал мулк объектларини муҳофаза қилиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-4965-сонли Ўзбекистон Республикаси Президенти қарори.
- 3.Толок И.Ю., Толок Т.В. Защита интеллектуальной собственности и патентование. Учебное пособие. Казан. Нац. Исслед. Технол. Ун-т. 2017. С.331.
- 4.<http://www.ima.uz>

## АЛГОРИТМ ОБРАБОТКИ РЕЗУЛЬТАТОВ ИЗМЕРЕНИЙ

Маг. Сатторов Бегзод Зокир угли (ТошДТУ),  
 Маг. Усаров Азизжан Зуфар угли (ТошДТУ),  
 научн. рук. доц. Усманова Хулкар Асадуллаевна (ТошДТУ)

Алгоритм и обработки результатов измерений – один из важнейших вопросов, возникающих при многих видах измерений. Актуальность данного вопроса обусловлена тем, что он является заключительным этапом измерительного процесса для многократных измерений и отдельных видов однократных измерений. Изучение методов обработки результатов измерений, экспериментального определения наиболее вероятного значения измеряемой величины, дисперсии измерений проводится в следующем порядке.

Пусть в одних и тех же условиях проведено  $N$  измерений и  $x_i$  результат  $i$ -го измерения. Наиболее вероятное значение измеряемой величины, её среднее значение (арифметическое) определяется общеизвестной формулой формулой [1]:

$$\bar{X} = \frac{\sum_{i=1}^n X_i}{n} . \quad (1)$$

Значение величины при  $i$ -том измерении  $X_i$  стремится к истинному значению  $X$  измеряемой величины при  $N \rightarrow \infty$ . Средней квадратичной погрешностью отдельного результата называется величина:

$$\sigma_n = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^N \Delta X_i^2}{n-1}} \quad (2)$$

Эта величина при  $n \rightarrow \infty$  стремится к постоянному пределу. Величина  $D = \sigma^2$  называется дисперсией измерения. С увеличением  $\sigma$  увеличивается разброс отсчетов, т.е. становится ниже точность измерений. Величина служит основным параметром, определяющим вид кривой (гауссовское или нормальное) распределение случайных погрешностей.

$$\sigma = \lim_{n \rightarrow \infty} \sigma_n \quad (3)$$

Нормальный закон (гауссовское) распределения выражается формулой:

$$y(\sigma) = \frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}} e^{-\frac{\Delta^2}{2\sigma_n^2}} \quad (4)$$

где  $\Delta X_i = X_i - \bar{X}$  - отклонение от истинного значения,  $e=2,72$  – основания натуральных логарифмов.

Средней квадратической погрешностью среднего арифметического называется величина:

$$\sigma_{n\bar{x}} = \sqrt{\sum_{i=1}^n \frac{(\bar{X} - X_i)^2}{n(n-1)}} \quad (5)$$

Вероятность того, что истинное значение  $(X - X_i)$  находится внутри некоторого интервала от  $(\bar{X} - \Delta X)$  до  $(\bar{X} + \Delta X)$  называется доверительной вероятностью (коэф. надежности), а интервал – доверительным интервалом.

При достаточно большом значении  $n$  доверительному интервалу  $x \pm \sigma$  соответствует  $P = 0,68$ , интервалу  $x \pm 2\sigma$  -  $P = 0,95$  и интервалу  $x \pm 3\sigma_n$  -  $P = 0,997$ .

Окончательный результат измерений записывается в виде:  $x_n = \bar{x} \pm \sigma_n \bar{x}$

При таком числе измерений заданному значению  $P$  соответствует несколько большой доверительный интервал по сравнению с указанными выше значениями. Множители, определяющие величину интервала в долях в зависимости от  $P$  и от  $n$ , называются коэффициентами Стьюдента  $t_{np}$ . Таким образом, можно констатировать:

1. Величина среднеквадратичной погрешности позволяет вычислить вероятность попадания истинного значения измеряемой величины в любой интервал вблизи среднего арифметического.

2. При этом промежуток, т.е. интервал, в котором с заданной вероятностью находится истинное значение  $X$ , стремится к 0 с увеличением числа измерений.

Казалось бы, увеличивая  $n$ , можно получить результат с любой точностью. Однако точность увеличивается до тех пор, пока случайная погрешность не станет сравнимой с систематической. Дальнейшее увеличение числа измерений не целесообразно, т.к. конечная точность результата будет зависеть от систематической ошибки. Зная величину систематической ошибки, нетрудно задаться допустимой величиной случайной ошибки, взяв ее, например, равной 10% от систематической.

Задавая для выбранного таким образом доверительного интервала определенное значение  $P$  (например,  $P=0,95$ ) нетрудно найти необходимое число измерений, гарантирующее малое влияние случайной ошибки на точность результата.

Следует указать, что при не слишком высокой точности измерительных приборов случайными погрешностями можно пренебречь по сравнению с погрешностями измерительного прибора. В этом случае для получения результата достаточно одного отсчета. При этом максимально возможная погрешность задается классом точности прибора. Алгоритм обработки результатов измерений состоит из 10 этапов [2]:

1. Результаты каждого измерения записываются в таблицу.
2. Вычисляется среднее значение из  $n$  измерений.

$$\bar{X} = \frac{\sum_{i=1}^n X_i}{n}$$

3. Находятся погрешности отдельного измерения:  $\Delta X_i = \bar{X} - X_i$
4. Вычисляются квадраты погрешностей отдельных измерений:

$$(\Delta X_1)^2, (\Delta X_2)^2, \dots, (\Delta X_n)^2.$$

5. Определяется среднеквадратичная погрешность среднего арифметического:  $\sigma_{\bar{X}}$
6. Задается значение доверительного интервала  $P$ .
7. Определяется коэффициент  $t_{np}$  для заданного  $P$  и числа измерений  $n$  из таблицы.
8. Находится доверительный интервал (погрешность результата измерений):

$$\Delta X = t_{np} \cdot \Delta \sigma_{\bar{X}}$$

9. Окончательный результат записывается в виде:  $X = \bar{X} \pm \Delta X$ .

10. Оценивается относительная погрешность результатов измерений  $\varepsilon = \frac{\Delta X}{X} \cdot 100\%$ .

#### Литература

1. Сергеев А.Г., Крохин В.В. Метрология: учеб. пособие для вузов.– М.:Логос, 2014.-408 с.
2. Новицкий П.В., Зограф И.А. Оценка погрешностей результатов измерений. – М.: Энергоатомиздат, 2012.-184с.

#### СИФАТ БОШҚАРУВИДАГИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР ҲАҚИДА

Маг. **Мухаммедова Майрам Фахритдиновна** (ТошДТУ+МИФИ),  
 Маг. **Соатова Мафтуна Камолитдин қизи** (ФЭ и А, ТошДТУ),  
 илмий раҳ. проф. **Турғунбаев Асадулла** (ТошДТУ)

Ўзбекистон Республикаси ҳукумати томонидан сифатни бошқариш ва таъминлаш бўйича ишлаб чиқариш корхоналарида халқаро стандартлар талабларига мувофиқ сифат менежменти тизимларини (СМТ) ишлаб чиқиш ва жорий этишга тааллуқли бир қатор қарорлар ва чора-тадбирлари ишлаб чиқилиб амалиётга тадбиқ этиб келинмоқда.

ISO 9000 туркмили стандартларни фаолият тури, катта-кичиклиги ва қонуний шаклларида боғлиқ бўлмаган ихтиёрий ташкилотларга қўллаш мумкин ва универсал бўлиб ҳисобланади. Ҳозирги кунда ISO 9001:2015 бутун дунё бўйича ва шу жумладан, Ўзбекистонда ҳам сифат менежментини тизими соҳасидаги стандартларни жорий қилиш кўпроқ оммалашган бўлиб ҳисобланади [1].



Ҳозирги кунда сифатни бошқаришда ИСО 9000 тизимидан ташқари яна учта тизим мавжуд: TL (Телекоммуникация соҳасидаги талаблар), AS 9000 (Аэрокосмика соҳасидаги талаблар) ва QS 9000 (Автомобилсозлик соҳасидаги талаблар) [2].

TL 9000 – ИСО 9000 соҳасида энг янги бўлиб, QuEST Forum ассоциацияси томонидан ишлаб чиқилган. Бу стандарт тизимини ишлаб чиқишдан асосий мақсад телекоммуникация соҳасида ИСО 9000 нинг имкониятларини кенгайтиришдан иборат. TL 9000 тизимига ишончлиликка қўшимча талаблар; ҳаётий циклни дастурий таъминланишини бошқариш талаблари; хизмат кўрсатиш талаблари (ИСО 9000 га киритилмаганлари); истеъмолчи ва етказиб берувчи ўртасидаги алоқаларнинг давомийлигини қўллаб-қувватлаш ҳақидаги талаблар киритилган.

AS 9000 – бу Америка аэрокосмик сифат гуруҳи томонидан ишлаб чиқилган стандарт тизимидир. Ҳозир General Elektrik, Rolls-Royce компаниялари ўзларининг аэрокосмик хизмат кўрсатувчиларига AS 9000 стандарти талабларига жавоб берадиган хизмат кўрсатишларини талаб қилишмоқда. AS 9000 тизими EN 9000-1 Европа стандарт лойиҳаси билан бирлашиб, AS 9100 – янги авлод стандарти яратилди ва ҳозирги кунда AS 9000 стандарти ўрнида ишлатилмоқда.

QS 9000 – бу автомобил компаниялари томонидан ишлаб чиқилган стандарт тизимидир. Ҳозирги кунда дунёда 13 мингга яқин компаниялар QS 9000 стандартининг мувофиқлик сертификатиغا эга (шулардан 6 мингга яқини АҚШ да).

ИСО 14000 бу атроф муҳитни ҳимоя қилиш бўйича стандарт тизими. Бу стандарт тизими томонидан берилган мувофиқлик сертификати 98 мингга яқин. Яқинда General Motors ва Ford ўзларининг етказиб берувчиларидан уларнинг маҳсулотлари ISO 14000 стандарти талабларига жавоб беришини талаб қилишини эълон қилишди.

Иккинчи жаҳон урушидан кейин биринчи тан олинган сифат тизими ва сифат стандартлари сифатида АҚШ да қурол-яроғлар сифат тизимига талаблар ҳамда сифат тизими техник шартларига стандартлари ишлаб чиқилди. Америка биринчи бўлиб бу ўзгаришларни кўра билди ва харбий қурол – аслаҳаларни стандартлаштириш мақсадида қуйидаги стандартларни қўллаш бошлади:

- MEL-Q-9858 Сифат тизимининг техникавий шартлари
- MIL-1-45208 Назорат тизимига талаблар

Бу иккала стандарт ҳозирги кунда ҳам амалда бўлиб, харбий контрактлар ва бошқа мақсадлар учун қўлланилмоқда [3].

Бу стандартлар сифатда асос қилиб олиниб ҳамда стандартлар туркуми учун харбий бирлашмалар доирасида ва таниқли АҚАР (Сифатни Таъминлаш бўйича Материаллар Бирлашмаси) да фойдаланила бошланди.

Сифат стандартларига зарурият харбий саноатдан ташқари бошқа соҳаларда ҳам пайдо бўлди. Ушбу мақсад учун Британиянинг BS 4891 ва BS 5179 стандартлари, кейинчалик BS 5750 стандартлари ишлаб чиқилди ва нашр қилинди.

ИСО 9000 стандартлари. 1980 йилларнинг оғталарида стандартлаштириш бўйича Халқаро ташкилот (ИСО) сифат соҳасидаги халқаро стандартларни ишлаб чиқишни бошлади. Бу масалани ҳал қилиш устида ИСО 176 техникавий қўмита доирасида кўпгина ривожланган давлатлар ва сифат муаммосига тизимли ёндошув малакаси мавжуд йирик компанияларнинг вакиллари иш олиб боришди. Иш 1987 йил март ойида ИСО 9000 индексини олган бешта халқаро стандартларни нашр этиш билан тугатилди ва бу стандартлар ҳозирги кунда халқаро миқёсда кенг қўлланилмоқда. Бу тизим атама ва таърифларни ҳам ўз ичига олади. 1994 йилда ўзида 25 га яқин стандартларни мужассам этган (рақамлар 9000 дан ва 10000 дан бошланади) бу серия асосий стандартларининг иккинчи наشري чиқарилди, ҳозирда 2015 йилда чиқарилган наشري амал қилмоқда..

Бу стандартларнинг универсаллиги, барча фаолият турлари учун қисқартмасдан,

ўзгартирмасдан фойдаланиш мумкинлиги уларнинг энг муҳим жиҳатларидан бири ҳисобланади [4].

ИСО 9000 стандартлари корхона ёки ташкилот ишлаб чиқарадиган маҳсулотлар ва кўрсатиладиган хизматлардан ташқари у сифат кафолатини таъминлаш соҳасидаги жавобгарлиги бўйича минимал талабларни ўз ичига олади. Агар сифат тизимини бошқаришда корхона ёки ташкилот миқёсида бошқариш кўрсатилган стандарт талабларига жавоб бера олса, бу корхона ёки ташкилотнинг ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсарта олиш салоҳияти борлигини яққол далили бўлиб ҳисобланади.

ИСО 9000 халқаро стандартларининг яна бир ўзига хос жиҳатларидан бири шундан иборатки, уларда корхона ёки ташкилот раҳбариятининг сифат бўйича жавобгарлик даражалари кўрсатилган. Корхона ёки ташкилот раҳбариятисифат соҳасидаги тақдимот, сифатни бошқаришни жорий этиш ва функцияларини белгилаш, ҳужжатларни аниқ ва қонуний расмийлаштириш каби ислоҳатларни амалга оширишда жавоб беради. Раҳбариятнинг мажбуриятларига мутахассисларни танлаш ва ишлаб чиқариш учун керакли хом ашёларни ажратиш, ўлчов-назорат ва ишлатиладиган ускуна(жиҳоз)ларни танлаш, ҳамда, компьютер техникаларини дастурлар билан таъминлаш киради.

Раҳбарият талаб қилинадиган билим ва малака даражасини жорий этиши ва ўз вақтида шахсларнинг малакаларини оширишни ташкил этиши керак. Корхона ёки ташкилот раҳбарияти зиммасига маҳсулот сифат кўрсаткичларини белгилашда унинг бозордаги талаб ва таклиф ўрганилган ҳолда амалга ошириш вазифаси юклатилади. Шунингдек, корхона ёки ташкилот раҳбарияти янги маҳсулот ёки янги хизматни жорий этишганда унинг истиқболи учун жавоб беришади. Янги маҳсулот ишлаб чиқариш ва янги хизматлар жорий этиш раҳбарият жавобгарлигида яратилган янги сифат дастурлари асосида амалга оширилади.

#### **Адабиётлар**

1. Абдувалиев А.А. и др. Основы стандартизации, метрологии, сертификации и управления качеством продукции. Учебное пособие - Ташкент.: Издательство СМСТИ, 2008 - 286 с.
2. Круглов М.Г., Шишков Г.М. Менеджмент качества как он есть. – М.: Эксмо, 2017. – 544 с.
3. Менеджмент качества экспорта: Книга ответов для предприятий-экспортеров малого и среднего бизнеса. – Б.: Аль Салам, 2015-318 с. (Секреты торговли).
4. O'z DSt ISO 9001:2015 Государственный стандарт Узбекистана. Системы менеджмента качества. Требования. (ISO 9001:2015, ITD), Ташкент, –с. 26.

### **АНАЛИЗ МЕТОДОВ И ПРИБОРОВ ИЗМЕРЕНИЕ ВЛАЖНОСТИ СЫПУЧИХ И ХЛОПКОВЫХ МАТЕРИАЛОВ**

Маг. **Каримов Хуршид Хайрулло угли** (ТошДТУ+МИФИ),  
Маг. **Абдукакримов Хасан** (ТошДТУ),  
научн. рук. доц. **Усманова Хулкар Асадуллаевна** (ТошДТУ)

Одной из важных задач технического прогресса в хлопководстве и хлопкоочистительной промышленности является создание и внедрение средств измерения влажности хлопка-сырца и других хлопковых материалов, прежде всего потому что показатель влажности влияет на физические, механические и технологические свойства материала.

Во время сева хлопчатника от влажности посевных семян зависят их качество и всхожесть. В период уборки и заготовок необходимо определять влажность хлопка-сырца

для взаиморасчетов с поставщиками, а также для правильного складирования, хранения и, в случае необходимости - предварительной обработки. Контроль влажности в процессе хранения хлопка-сырца имеет большое значение и для хлопковой промышленности. В технологических процессах первичной обработки хлопка его повышенная влажность вызывает увеличение расхода энергии, снижение эффективности очистки и дженирования, при этом возрастает выход волокна пониженного качества. В производстве хлопкового масла от влажности хлопковых семян, а также других продуктов зависят эффективность использования сырья, качество и выход конечной продукции.

Можно привести данные, характеризующие технико-экономическое значение контроля влажности хлопка-сырца и хлопковых материалов. Так, по результатам исследований специалистов хлопкоочистительной промышленности, погрешность в определении массового отношения влаги, равная 1%, вызывает неточность в определении его годовой стоимости на сумму около 1 млрд. сумов, а субъективность оценки этого параметра, например, в период заготовок, приводит к неверным взаиморасчетам с поставщиком, а также к неправильному складированию сырья, влияющему на качество волокна, семян и приводящему иногда к пагубным последствиям - пересортице и самовозгоранию. Отсюда следует, что своевременное получение и использование достаточно точной информации о влажности на всех стадиях производства и переработки хлопка-сырца в сельском хозяйстве, заготовительной системе и промышленности - представляет важную народнохозяйственную задачу.

